


**A.S.BERDISHEV, A.A.TURDIBAYEV,  
N.M.MARKAEV**



# **ENERGIYA TA'MINOT TIZIMLARI**

**A.S. BERDISHEV, A.A. TURDIBAYEV,  
N.M. MARKAEV**

---

**ENERGIYA TA'MINOT  
TIZIMLARI**

**TOSHKENT - 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BERDISHEV A.S., TURDIBAYEV A.A., MARKAEV N.M.**

**ENERGIYA TA'MINOT TIZIMLARI**

*“Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan 60810500 (5430500) – Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lif yo'nalishi bakalavrlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT - 2023**

**УО‘К**  
**КВК 631.371:621.311(076.5)**

**ISBN** \_\_\_\_\_

Mazkur darslik qishloq va suv xo‘jaligi elektr iste’molchilarini elektr energiyasi bilan ta’minlash, energetik tizimi, elektr energiyasi bilan ta’minlash muammolari, o‘zgaruvchan va doimiy tok manbalari, elektr energiyasi manbalaridan iste’molchilarga elektr energiyasini uzatish va taqsimlash jarayonlari, iste’molchilarning yuklamalarini hisoblash, elektr o’tkazgichlar: sim va kabellarning tanlash va ularning kesim yuzalarini aniqlash usullari, elektr ta’minoti sxemalari va ularni tuzishi, hamda elektr tarmoqlardan foydalanish masalalari keltirilgan.

Darslik 60810500 (5430500) – Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta’minoti ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun mo‘ljallangan.

В данном учебнике рассмотрены вопросы снабжения электроэнергией потребителей сельского и водного хозяйства, энергетической системы, проблемы электроснабжения, источники переменного и постоянного тока, процессы передачи и распределения электроэнергии от источников электрической энергии к потребителям, расчет нагрузок потребителей, электроснабжение. проводники: изложены методы выбора проводов и кабелей и определения площадей их поперечного сечения, схемы электроснабжения и их конструкции, а также вопросы использования электрических сетей.

Учебник предназначен для бакалавров специальности 60810500 (5430500) – «Энергоснабжение в сельском и водном хозяйстве».

This textbook discusses the issues of supplying electricity to consumers in agriculture and water management, the energy system, problems of power supply, sources of alternating and direct current, processes of transmission and distribution of electricity from sources of electrical energy to consumers, calculation of consumer loads, power supply. conductors: methods for selecting wires and cables and determining their cross-sectional areas, power supply diagrams and their design, as well as issues of using electrical networks are outlined.

The textbook is intended for bachelors of specialty 60810500 (5430500) - “Energy supply in agriculture and water management.”

**Taqrizchilar:**

**A.D. Taslimov**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti t.f.d. professor.

**R.T. Gazieva**

TIQXMMI “TJICHAB” kafedrasи mudiri, t.f.n. professor.

## **KIRISH**

Bugungi kunga kelib dunyoda energiyasini ishlab chiqarish va iste'molining o'sishi sababli mavjud elektr tarmoq elementlarini modernizatsiya qilish va iste'molchilarни zarur miqdorda sifatli va ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun ularning elektr ta'minoti tizimini rivojlantirish va bu tizimni optimal qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda..

Respublikamizda oxirgi yillarda qishloq joylarda yangi turar-joy va jamoat binolarini barpo etilishi, sanoatni tez sur'atlarda o'sishi, klaster korxonalarini vujudga kelishi natijasida qishloq xududida joylashgan iste'molchilarni yiriklashiga va ularning energiya iste'molini oshishiga, xamda ularning elektr ta'minoti tizimini rivojlanishiga olib keldi. Bu esa respublikamiz elektr energetikasini rivojlantirishda qishloq xududida joylashgan iste'molchilarning optimal elektr ta'minoti tizimini tanlash uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan qishloq elektr iste'molchilari elektr ta'minotit tizimini optimallashtirish, ularni yangilash va ishonchlilagini oshirish usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash "Konsyepsiyasi" da Respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini, energoresurslar importiga bog'liq bo'lman holatda, ichki elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga ta'minlash, iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish bilan paralel ravishda uning energiya sarfini kamaytirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda, yetkazib berish va taqsimlashda energiya samaradorligini oshirish, elektr qurilmalarni bosqichma-bosqich yangilash, elektr tarmoqlarini quvvat zaxirasini ko'paytirish, energiya tejamkor texnologiyalar asosida texnologik jarayonning barcha bosqichlarida elektr energiya samaradorligini oshirish va undan oqilona foydalanish masalalari va 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish» bo'yicha vazifalari belgilangan. Bu

vazifalarni bajarish uchun xususan, qishloq elektr iste'molchilarini elektr ta'minoti tizimining optimal parametrlarini aniqlash, ularning ishonchliligini oshirishda nazariy va ilmiy ishlarni olib borish hamda bu tizim elementlarini loyihalash, qurish, modernizatsiya qilish va ishlatish bo'yicha tegishli tavsiyalar olish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2016 yil 23 noyabrdagi PQ-2661-son «2017 – 2021 yillarda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yanada modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida», 2019 yil 22 avgustdagи PQ-4422 «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlanirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 10 iyuldagи PQ-4779 «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalg etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda muhim vazifalarni amalga oshirishda belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida elektr energetika yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar zimasiga yuklatiladi.

“Qishloq xo'jaligi elektr ta'minoti” **fanining maqsadi** 60810500 (5430500) – Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lim yo'nalishi” hamda ushbu yo'nalishga turdosh yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalariga O'zbekiston elektr energetika tizimi, qishloq xo'jaligi iste'molchilarining elektr ta'minoti, elektr energiyasini ishlab chiqish, uzatish va tarqatish, havo va kabel elektr tarmoqlari xaqidagi bilimlarni o'rgatish va shuningdek, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarida ishlatiladigan sim va kabellar bilan tanishtirish, ularni tanlash, elektr ta'minot tizimlari elektr yuklamalarini hisoblash usullari bilan tanishtirish hamda qishloq podstansiyalarining tuzilishi, elektr tarmoqlari va transformatorning rele himoyasi va avtomatikasi, yuqori kuchlanishlar, ularning turlari va ulardan elektr ta'minoti tizimi qurilmalarini himoya qilish usullari va vositalari bo'yicha bilimlar majmuuni shakllantirishdir.

## **1-BOB. QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA ELEKTR ENERGETIKA TIZIMI. ENERGETIKA VAZIRLIGI TARKIBI VA VAZIFALARI**

**Elektr energiyasi ta'aminoti** - elektr energetikasini sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, transport vositalari, shahar va qishloq aholisi elektr iste'molchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlash, elektr energiyasini taqsimlash bilan shug'ullanadigan bo'lim hisoblanadi. Elektr energiyasi ta'aminoti tizimiga, elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalari, kuchlanishni oshirib yoki pasaytirib beruvchi podstansiyalar, ta'minlovch va taqsimlash elektr tarmoqlari, va boshqa yordamchi qurilma va uskunalardan tashkil topgan. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismini sanoat korxonalari iste'mol qilmoqda.

Elektr energiyasi ta'minotining asosiy manbalari elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi elektr stansiyalar, hududiy energetika tizimlarini energiya bilan ta'minlovchi elektr tarmoqlari hisoblanadi. Yirik quvvatli sanoat korxonalarini va shahar aholisini elektr energiyasi bilan bir vaqtida issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun "Issiqlik elektr markazi" IEM (TES) lardan foydalaniladi. Issiqlik elektr markazlarining quvvati ishlab chiqarish korxonalari va shahar xo'jaliklarning elektr energiyasi va issiqlik energiyasiga bo'lgan ehtiyoji bilan aniqlaniladi. Elektr ta'minot tizimida yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlaridan foydalaniladi. Maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari va aholi yashash punktlarida 380/220V (ayrim hollarda jumladan, elektr tokidan shkastlani darajasi yuqori bo'lgan obe'ktlarda 110V kuchlanishli, yirik quvvatli ishlab chiqarish korxonalari, temir yo'l transporti va shahar xo'jaliklarida 110 va 220 kV kuchlanishli, ayrim o'ta yirik ishlab chiqarish sohalari uchun 330 va 500 kV kuchlanishli elektr tarmoqlaridan foydalaniladi.

Elektr ta'minoti tizimining sxemasi, elektr energiyasini ishlab chiqarish stantsiyalaridan elektr energiyasini iste'molchilarga yetkazib berishda oraliq kommutatsiya qurilmalari va kuchlanishni transformatsiya qiluvchi (kuchlanishni o'zgartiruvchi) qurilmalarining soni kam bo'lishligiga, energiya manbalarini iloji boricha iste'molchilargaga yaqin joyga qurishga asoslanish kerak. Elektr

energiyasini iste'molchilarga yetkazib berishda kabell va ochiq simli uzatish tarmoqlaridan foydalilaniladi. Kuchlanish qiymatini o'zgartirib beruvchi (asosan kuchlanishni pasaytiruvchi) podstansiyalarning yuklama markaziga quriladi.

O'zbekistonni elektrlashtirish jarayoni asosan, XX asr boshida Toshkent hududida 2 elektr stansiyasini qurilishi bilan boshlangan. O'sha vaqtida Chorvoq, Xo'jakent, G'azalkent, Farhod gidroelektr stansiya (GES) lari eng yirigi hisoblangan bo'lsa, eng yirik issiqlikelektr markaz (IEM) lari Farg'ona, Muborak, Toshkent (IEM) hisoblangan. Eng yirik elektr uzatish tarmoq (EUT) larining soni 20 dan ortiq bo'lgan.

### **1.1. O'zbekistonda elektr energetikasining rivojlanish tarixi.**


O'zbekiston elektr energetikasining rivojlanishi Bo'zsuv elektr stansiyasining qurilishi bilan boshlangan. Bo'zsuv gidroelektrostansiysi (GES) 1926-yil 20-may oyida ishga tushirilgan. Shundan keyin Chirchiq-Bo'zsuv trakti bo'ylab 7 ta gidroelektrstansiyalar va 4 ta issiqlik elektr stansiyalari qurilib ishga tushirilgan. Shu bilan birgalikda Respublika viloyatlarining ko'pchilik tumanlarida kichik quvvatli xo'jalik va o'rta quvvatli xo'jaliklararo gidrostansiyalar qurilgan. 1950-yildan boshlab O'zbekistonda energiya ob'ektlarining qurilishi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bordi va 10 dan ortiq gidrostansiyalar qurilib ishga tushirildi. Shu jumladan, Chorvoq GES (600 MVt), Xo'jakent GES (165 MVt), bundan tashqari bir qancha o'rta va kichik quvvatli gidrostansiyalar qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston o'z energetik resurslari hisobidan o'zining ehtiyojlarini to'liq ta'minlovchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimidagi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarining salmoqli hissasi respublikaga tegishlidir.

Energetika har bir iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Hozirgi vaqtida respublikada elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvati 12,9GVt ni tashkil etib, shulardan: Issiqlik elektr stansiya(IES)larining quvvati – 11 ming MVt ni, yoki 84,7 foizni; Gidroelektr stsnsiya (GES) larining quvvati– 1,85 ming MVt ni,

yoki 14,3 foizni; blok stansiyalar va izolyatsiyalangan stansiyalarning quvvati – 133 MVt dan ortiq yoki 1 foizni tashkil qiladi.




### **1.1-rasm – Elektr stansiyalarda elektr energiyasini ishlab chiqarishining ulushi**

Asosiy elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalari 11 ta issiqlik elektr stansuyasi (IES) va 3 ta issiqlik elektr markazida iborat. Zamonaviy energiya tejamkor elektr energiya bloklarining quvvati 2825 MVt ni yoki issiqlik elektr stansuya (IES) sining umumiy quvvatining 25,6 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, respublikada ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 89,6 foizi issiqlik elektr stansuya (IES) lar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Yagona elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida energobloklarning umumiy quvvati 8,6 ming MVt ni tashkil etdi.

Gidroenergetika tizimida umumiy 42 ta GES lar mavjud bo‘lib, shulardan 12 ta quvvati 1,68 GVt (umumiy GES lar quvvatining 90,8 foiz) bo‘lgan kata quvvatli gidroelektrstansiyalar, 28 ta quvvati 0,25 GVt (umumiy GESlar quvvatining 13,5 foiz) bo‘lgan kichik gidroelektrstansiya (KGES) lar, quvvati 0,5 MVt bo‘lgan 2 ta mikro GES lardan iborat. Bularidan tashqari, suv oqimi bo‘ylab 30 ta, quvvati 532 MVt va 317 MVt bo‘lgan 4 ta kata, 26 ta quvvati 215 MVt bo‘lgan kichik gidro elektr stansiyalar (KGES) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Suv

omborlarida umumiy quvvati 1,4 GVt bo‘lgan 10 ta GES mavjud. Respublikaning suv oqimi potensialidan foydalanish darajasi 27 foizni tashkil yetadi.



1.2 – rasm. GESlarning elektr energiyasini ishlab chiqarish ulushi

## 1.2. Qishloq elektr energetikasi tizimi

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham elektr energiyasi bilan ta’milanganlik va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligida elektr energiyasidan asosan yoritish, isitish, ya’ni issiqxonalarini, suv ko’tarib beruvchi nasos stansiyalarini elektrlashtirish, statsionar va ko‘chma sug‘orish agregatlarini elektrlashtirish, inkubatoriyalarda hamda chorvachilik fermalarida mikroiqlim hosil qilish va boshqalar uchun ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirishning samaradorligini aniqlash uchun boshlang‘ich ko‘rsatkichlar sifati qo‘llanilayotgan muommalar hozirda dolzarbdir. O‘zbekiston energetika tizimi hozir respublika iqtisodiyoti va aholisining elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la ta’milamoqda va elektr energiyasini qisman qo‘shni davlatlarga eksport qilmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston energetika tizimida energianing muqobil manba (quyosh, shamol energiyasi va hokazo)laridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish borasida ham ishlar olib borilmoqda. Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalari ob’ektlarida bir qancha yirik tarmoqlar davlat tasarrufida qolgan bo‘lib, bular

qatoriga elektr uzatish, yo‘l xo‘jaligi, asosiy transport xo‘jaligi va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi. Bu tarmoqlar rivojlangan davlatlardagi kabi davlatning tasarrufida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolishi kerak. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bunday yirik tarmoqlar sanoqligina bo‘lgani uchun ular xususiylashtirilsa, yirik monopolistlar paydo bulishi ehtimoldan holi emas. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham elektr energiyasi bilan ta’minlanganlik va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirishning samaradorligini aniqlash uchun boshlang‘ich ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar hisoblanadi: yer maydoni va shudgor qilingan yerlarda natural va pul hisobida ekinlar bo‘yicha dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish; hayvonlar turi bo‘yicha ularning soni natural va pul hisobida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish; sohalar va jarayonlar bo‘yicha elektr dvigatellari, elektr apparatlari, qurilmalar soni va quvvati, elektrlashtirish vositalari (podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari, mexanizmlar)ning qiymati, butun xo‘jalik sohalari bo‘yicha yillik iste’mol qilinadigan energiya, 1 kVt quvvatning qiymati, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun elektrlashtirishgacha va elektrlashtirilgandan keyingi mehnat sarfi, xo‘jaliklarning elektr bilan ta’minlanganligi, bularning barchasi ishlab chiqarish jarayonlarining elektrlashtirish imkoniyatlarini xarakterlaydi. Elektr uzatish tarmoqlari va tarqatuvchi hamda ishlab chiqaruvchi ob’ektlar qurilishi qanchalik mustahkam va kafolatli darajada bo‘lsa, nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki xalq xo‘jaligining barcha sohalari samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlanadi. Bu tarmoqning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni juda muhimligi shundaki, u birinchidan, ekinlarni sug‘orish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda suv ko‘tarish qurilmalari uzluksiz ishlashini, ikkinchidan, yetishtirilgan ayrim mahsulot turlarinini omborxonalar vasovutgichlarda buzilmasdan saqlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, elektr uzatish tarmog‘i chorvachilik sohasida yoki parrandachilik tarmoqlarida elektr energiyasidan foydalanish jarayonida yetishtiriladigan mahsulot sifati va miqdorini oshirishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jalik

ishlab chiqarishini to‘la elektrlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi

### **1.3. Energetika vazirligi tarkibi va vazifalari**

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste’mol qilishning texnologik jarayonining o‘ziga xosligi o‘zida “Issiqlik elektr stansiyalari”, “O’zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” hamda “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan markazlashtirilgan boshqaruvni saqlashni talab qiladi.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ tasarrufidagi elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalardan, umumiyligi 9,7 ming kilometrdan ortiq bo‘lgan 220-500 kV kuchlanishdagi magistral elektr tarmoqlari orqali “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tasarrufidagi korxonalarga elektr energiyasini yetkazib berish ishlari “O’zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikada yakuniy iste’molchilariga elektr energiyasini sotish “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tasarrufidagi, har bir hududiy tuzilmada aksionerlik jamiyati sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘n to‘rtta taqsimlovchi va sotuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Korxonalar balansida kuchlanishi 110 kVgacha bo‘lgan umumiyligi 250,4 ming kilometrdan ortiq elektr tarmoqlari va 1700 ta podstansiyalar mavjud.

Respublika iste’molchilarga elektr energiyasini yetkazib berish asosan eng sertarmoq kuchlanishga ega 0,4-6-10 kVli, uzunligi 223,8 ming kilometrdan ortiq bo‘lgan elektr tarmoqlari orqali amalga oshriladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdagи «O’zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PQ-4249-sonli qaroriga asosan elektr energiyani yakuniy iste’molchilarga taqsimlovchi va sotuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini boshqarishni amalga oshiruvchi “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tarkibida 15 ta korxona va 2 ta filial, shundan 0,4-6-10-35-110 kV kuchlanishli elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya,

shuningdek, mazkur ob'ektlarning rivojlanishi doirasida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshiruvchi 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonasi faoliyat yuritadi.

14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonasi va 224 ta tuman va shahar elektr ta'minoti korxonalari tomonidan 35-110 kV kuchlanishli 1 660 ta nimstantsiyadan uzatiladigan elektr energiyasi keyinchalik 86 389 dona transformator punktidan chiquvchi 260,5 ming km uzunlikdagi elektr uzatish liniyalari orqali O'zbekiston Respublikasining maishiy va yuridik iste'molchilariga yetkazib beriladi.

Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi stansiyalardan 35-500 kV li magistral tarmoqlar orqali yetkazib berishda, umumiy quvvati 22,830 MVA bo'lgan 77 ta podstansiyalardan foydalaniadi. Elektr uzatish tarmog'ining umumiy uzunligi 9768 km.

Ayni paytda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tassarufida - Jami 04-110 kV li elektr uzatish tarmoqlarining uzunligi 260512 km. Shundan 110 kV li elektr tarmog'ining uzunligi 15022 km. 35 kV li elektr tarmog'ining uzunligi 13209 km. 10 kV li elektr tarmog'ining uzunligi 84870 km. 6/10 kV li elektr tarmog'ining uzunligi 13902 km. 0,4 kV li elektr tarmog'ining uzunligi 133529 km.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tassarufidagi jami transformator punktlari soni 86389 dona bo'lib, shulardan quvvati 100 kVA gacha bo'lgan transformatorlar soni 38468 dona. 100-160 kVA gacha bo'lgan transformatorlar soni 32102 dona. 250-400 kVA gacha bo'lgan transformatorlar soni 10381 dona. 630 kVA va undan yqori quvvatli transformatorlar soni 5438 dona.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tassarufidagi jami podstansiyalar soni 1660 ta bo'lib, sulardan kuchlanishi 110 kV li podstansiyalar 671 tani, 35 kV kuchlanishli podstansiyalar soni 989 tani tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasidan foydalanuvchilarning yuridik iste'molchilar soni 367 mingtani, maishiy iste'molchilar ya'niy elektr energiyasidan foydalanuvchi aholi soni 7,2 mln. Kishini tashkil qiladi.

## **2-BOB. ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQISH, TAQSIMLASH.**

### **ISTE'MOLCHI TURLARI VA ELEKTR YUKLAMALAR**

#### **2.1. Elektr energiyasini ishlab chiqarish**

Elektr energiyasini ishlab chiqarish boshqa tur mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqarishdan ishlab chiqarilgan mahsulot – elektr energiyasini saqlab bo‘lmashigi va shu zahotiyoy iste’mol qilinishi zarurligi bilan farq qiladi. Doyimiy (o‘zgarmas) tok manbai hisoblanuvchi akkumulyatorlar ishlab chiqarilgan energiyaning ma’lum bir qismini saqlashi mumkin bo‘lsada ushbu qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti kichikligi va gabarit o‘lchamlari kattaligi hamda harid narxini qimmatligi va ular tez-tez ishdan chiqib turishi ulardan keng foydalanishga to‘sinqlik qiladi.

Bugungi kunda iste’molchilarining asosiy elektr manbalari Respublikamizda ishlab turgan yirik elektr stansiyalar hisoblanadi. Elektr energiyasini ishlab chiqaradigan elektr stansiyalar generatorini harakatga keltiruvchi mexanik energiyani hosil qilishda foydalaniladigan energetik resurslar bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi: issiqlik elektrostansiyalari, gidroelektrstansiyalar, atom elektrostansiyalar, shuningdek, shamol va quyosh elektrostansiyalar.

Bugungi kunda O’zbekistondagi mavjud 42 ta elektr stansiyalarning umumiyligi o‘rnatalgan quvvati 12,3 mln kVt ni tashkil etadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 89,6% issiqlik elektr stansiyalarida, 9,2% gidroelektrstansiyalarda va 2,2% esa boshqa stansiyalarda ishlab chiqariladi [1].

Issiqlik elektr markazlarda bir vaqtida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqariladi, ularning foydali ish koeffitsiyentini 65-70% yetkazish mumkin. Gidroelektrostansiyalarda elektr energiyasini ishlab chiqadigan generatorlar gidravlik turbinalar orqali ishga tushiriladi. Gidroelektrstansiyalar qurilishida suv yo‘lini to‘sib, suv omborida suvni to‘plovchi to‘g‘on qurilishi asosiy qismi bo‘ladi. Suv omborlaridan suvni yuqori bosim bilan gidroturbina kurakchalariga urilishi va unda hosil bo‘lgan kinetik energiya hisobiga turbina vali bilan bog‘langan generatorlar yakorini aylanishi elektr energiyani ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Gidroelektrostansiyalar suv omborining yuqori va pastki beflari farqiga ko‘ra yuqori bosimli (balandlik 100 m va undan yuqori bo‘lgan), o‘rta bosimli (40-100

m) va past bosimli (40 m gacha bo‘lgan) stansiyalarga bo‘linadi. Gidrostansiyalarning quvvati gidro turbinadan o‘tkazilayotgan suvning hajmi va bosimiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Yig‘iladigan suvning hajmi ochiq suv oqimiga (daryo yoki kanalni), suv bosimi esa qurilgan to‘g‘onning balandiligiga bog‘liq.

Odatda yuqori va o‘rta bosimli stansiyalar tog‘lik joylarda quriladi, chunki suv ostida qoladigan foydali yer maydonlar kam bo‘ladi. Tekislikdagi daryolarda odatda past bosimli gidrostansiyalar quriladi va bunday gidroelektrostansiyalar qurilgan hududlarda ham suv ostida foydali yer maydonlari qoladi.

Gidroelektrostansiyalar qurilishi bo‘yicha: derivatsiyali va to‘g‘on yonidagi o‘zanda (daryo oqimida) joylashgan stansiyalarga bo‘linadi. Derivatsiyali gidroelektrostansiyalar yuqori bosimli, murakkab va ko‘p joy talab qiladigan gidrotexnik inshootalr toifasiga kiradi. Bunday inshootlarda ochiq suv oqimi to‘g‘on bilan to‘siladi va yuqori befidan suv derivatsiya kanali orqali 10-15 km masofada joylashgan gidrostansiya turbinalari orqali pastki bfega quyiladi. Ko‘p hollarda yuqori bef derivatsiyali kanalsiz, yuqori bosimli trubinalar orqali gidrostansiya bilan bog‘lanadi.

To‘g‘on yonida joylashgan gidroelektrostansiyalar binosi va to‘g‘on yagona gidrotexnik kompleksni tashkil qiladi. O’zan gidrostansiyalar turbinalari to‘g‘onning o‘zida joylashgan bo‘ladi.

Atom elektrostansiyalarda atom reaktorida uran atomini parchalanishdan hosil bo‘ladigan issiqlik energiyasidan foydalanib suvdan bug‘, hosil qilinadi va uni yuqori temperaturadagi qizdirib yuqori bosim bilan bug‘ turbinasiga yuboriladi. Elektr energiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq qolgan ishlash sikllari issiqlik stansiyalaridagidek bo‘ladi. Atom elektr stansiyalarini barpo etish ayrim davlatlarda jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. (Angliya, Fransiya, AQSh, Rossiya va h.k.).

Elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan noananaviy energiya resurslaridan (quyosh, shamol) foydalanish keng rivojlanishi ko‘zda


tutilgan. Yirik gidro- va issiqlik elektrostansiyalar o‘zaro 220 va 500kV liniyalar orqali ulanadi va yagona elektr tizimni tashkil qiladi.

## 2.2. Elektr energiyasini taqsimlash

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kunda elektr energiya asosan yirik elektr stansiyalarda ishlab chiqiladi, ular bir-biri bilan bog‘lanib, yagona energotizimni tashkil etadi. Energetika tizimining generatorlar, kuchaytirish va pasaytirish taransformatorlar podstansiyalari, taqsimlovchi konsturksiyalar, elektr tarmoqlar va elektr energiya iste’molchilaridan tashkil topgan bir qismi **elektr energetika tizimi** deb aytildi.

Elektr energetik tizimning podstansiya va har xil kuchlanishli elektr uzatuvchi liniyalardan tashkil topgan qismini *elektr tarmoqlar* deb ataladi. Belgilangan maqsadga qarab, elektr tarmoqlar *ta’minlovchi* yoki *taqsimlovchi* tarmoqqa bo‘linadi.


Elektr energiyasini elektr ta’minoti manba’idan (ETM) iste’molchi transformator punktlarigacha (ITP) yoki elektr tarmoq past kuchlanishli bo‘lganda iste’molchilargacha yetkazib beruvchi elektr liniyalar *taqsimlovchi liniyalar* deb ataladi (2.1-rasm).



TP – Taqsimlash punkti yoki podstansiyasi, ITP – iste’molchi taqsimlash podstansiyasi, ETM – energiya ta’minot manbai.

**2.1-rasm. Ta’minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlar.**

Elektr energiyasini elektr ta'minoti manbaidan (ETM) yoki taqsimlash punktlari yoki transformator podstansiyalarigacha yetkazib beruvchi liniyalarni *ta'minlovchi tarmoq (liniya)* deb ataladi (2.1- rasm). Elektrotexnikaning nazariy asoslarida elektr energiyasini uzoq masofaga uzatish uchun generatorda ishlab chiqarilgan elektr energiya kuchlanishini dastlab yuqori kuchlanishga ko'tarib, iste'molchiga yetkazib berilganda, pasaytirib berish energiyani uzatishda isrofni kamaytirishi qayd etilgan.




2.2-rasm. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'molchilarga uzatish shemasi  
IES - Issiqlik elektr stantsiyasi; GES - gidroelektr stantsiyasi;  
SHES - Shamol elektr stantsiyasi; AES - Atom elektr stantsiyasi.

Shu boisdan, zamonaviy elektr energetik tizimlar kuchaytirgich va pasaytirgich podstansiyadan va ularni o'zaro bog'lovchi elektr tarmoqlar

majmuidan iborat tizimni tashkil etadi. Elektr stansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyani uzoq masofalarga uzatish uchun zaruriy bo‘lgan kuchlanishni oshirish va iste’molchiga yetkazilganda pasaytirish jarayonlarini amalga oshiruvchi transformatorlar faqat o‘zgaruvchan chastotali tokda ishlashini hisobga olsak, uzatish tarmoqlarida faqat o‘zgaruvchan chastotali tok ishlatalishi sababi nimada degan savolga javob olamiz.

Uchta elektr stansiyadan tashkil topgan tumanlararo kichik elektr tizim sxemasi 2.3- rasmida keltirilgan.



2.3-rasm. Tuman elektr ta’minot tizimi sxemasi.

Elektr stansiyalarda o‘rnatilgan generatorlarning nominal kuchlanishi 6kV, 10 kV va 16 kV bo‘lishi mumkin. Eng yaqin joylashgan stansiyalar kuchlanishini 110 kVga ko‘tarilib uzoqda joylashgan stansiyalar kuchlanishi oldin 220 kV ga ko‘tarilib keyin esa 110 kV ga pasaytirilib 110 kV li umumiy halqaga ulanadi. 110 kV li halqa elektr tarmoqdan xo‘jaliklarga energiyani yetkazib berishda ikki xil sxema qo‘llaniladi:


Iste’molchilar halqa elektr tarmoqlariga yaqin masofalarda joylashganda 110 kV kuchlanish 110/35 kV podstansiyalarda 35 kVga pasaytirilib, 35/10 kV

podstansiyalarga uzatiladi, 10 kV taqsimlovchi liniyalar bo'ylab 10/0,4 kV iste'molchi transformator punkti (ITP) orqali iste'molchilarga yetkazib beriladi.

Iste'molchilar uzoqda joylashganda 110 kV kuchlanish pasaytiruvchi 110/6-10 kV podstansiyaga yetkazib beriladi va undan keyin 6-10 kV taqsimlovchi liniyalar orqali 10/0,4 kV xo'jalik podstansiyalarga uzatiladi.

2.4- rasmida taqsimlovchi liniyalarni xo'jaliklarning shaxsiy GES iga ulanish sxemasi keltirilgan. GES ishlab chiqqan 0,4 kV kuchlanish elektr energiyasi dastlab kuchaytirish transformatori orqali 6-10 kV kuchaytiriladi, undan keyin taqsimlovchi liniyalar orqali 10/0,4 kV xo'jalik podstansiyalarga va ular orqali iste'molchilarga yetkazib beriladi.

Shunday qilib, elektr stansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyani iste'molchilarga yetkazib berishda bir nechta kuchlanishni oshirib va pasaytirib beruvchi transformatorlar va ularni o'zaro bog'lovchi liniyalardan tashkil topgan elektr ta'minot tizimi orqali amalga oshiriladi.



2.4-rasm. Alovida qishloq stansiyasi.

### **2.3. Iste'molchi turlari va elektr yuklamalar**

1945-46 yillarda tumanlar xo'jaliklarini elektr energiyasi bilan ta'minlash mayda xo'jalik yoki xo'jaliklararo qurilgan elektrostansiyalar asosida boshlangan edi. 1950 yillarga borib tumanlararo stansiyalar qurila boshlandi. 1956 yillardan

boshlab qo‘riq va bo‘z yirlarni o‘zlashtirish boshlandi. O’zlashtirilayotgan yirlarni suv bilan ta’minalash uchun Buxoro, Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarda hamda Qoraqolpog‘iston respublikasida, yirik nasos stansiyalari qurila boshlandi, masalan Olot, Xamza I, Xamza-II, Ulug‘bek, Uch-tepa, Sirdaryo, Qashkadaryo va Surxondaryo viloyatlarda hamda Qorakolpog‘iston respublikalarida yirik nasos stansiya va kichik nasos stansiyalar quriladi. Bu stansiyalarni elektrenergiysi bilan uzluksiz ta’minalash uchun nasos stansiyalar qoshida podstansiyalar qurishga to‘g‘ri keldi. Bu podstansiyalarni quvvatlarini tuman va tumanlararo stansiyalar qoniqtira olmasligi tufayli 1971 yildan boshlab ularni katta energotizim tarmoqlariga ulanish boshlandi.

Qishloq va suv xo‘jaligi iste’molchilarini elektr energiyasi bilan ta’minalash dastlab 10, 35 va 110 kV havo liniyalar orqali bajariladi. Iste’molchilarni quvvati 100 kVt gacha bo‘lib energotizimidan 30-40 km masofada joylashgan bo‘lsa, iste’molchilar energiya bilan 6 yoki 10 kV havo liniyalari orqali ta’milanadi, agar iste’molchilarni quvvati 10000 kVt gacha bo‘lib 100-150 km uzoqlikda joylashgan iste’molchilar kuchlanishi 35 yoki 110 kV havo liniyalar orqali ta’milanadi.

Tuman xo‘jaliklaridagi iste’molchilarni energiya bilan ta’milanishi markazlashtirish bilan hamma mayda elektrostansiyalar yo‘q qilinmaydi, chunki bir xil joylarda ularni ishlatish arzonga tushadi. Ko‘philik tumanlarda elektrostansiyalar hamda avtomatlashtirilgan dizel elektrostansiyalar, kichik va o‘rtacha suv oqimlarda qurilgan gidrostansiyalar konservatsiyalanib qo‘yiladi, chunki ularning ishlatish tizimidan kam quvvat uzatiladigan katta masofali havo liniyasini qurishdan arzon bo‘ladi.

“Elektr energiyasi iste’molchisi” juda yuqori kuchlanishli (220 va hatto 500kV) tarmoqlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shunday qilib, tashkiliy jihatdan elektr energiyasi iste’molchilari energetika tizimining bir qismi emas, balki elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng muhim xususiyati - elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilishning texnologik jarayonining uzluksizligi va ular bilan bog‘liq bo‘lgan elektr qabul qiluvchilarning ishlashga kuchli ta’siri tufayli. butun

tizimning rejimlari va etkazib beriladigan elektr energiyasining sifati bo‘yicha ular energetika tizimining boshqa elementlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak.

Iste’molchi va energetika tizimi o‘rtasidagi munosabatlar boshqa xarakterdagi masalalarini o‘z ichiga oladi: huquqiy, texnik va iqtisodiy, operatsion va dispetcherlik. Iste’molchilarining o‘zlari idoraviy mansubligining tuzilishi, iste’mol hajmi, elektr qabul qiluvchilarining tarkibi va ularning texnik ma’lumotlari, iste’mol qilish rejimlari va ularni tartibga solish imkoniyati, elektr ta’mnotinining ishonchlilikiga qo‘yiladigan talablar va boshqalar bilan tavsiflanishi mumkin.

**Sanoat elektr energiyasining asosiy iste’molchisi hisoblanadi.** Iste’molchilarining tuzilishi va xususiyatlari ularning elektr ta’mnoti sxemasini qurish shartlarini belgilaydi; neft konlarida katta sinxron motorlarning yuqori ulushi rele himoyasi va avtomatlashtirish tizimlarining maxsus dizaynnini talab qiladi; elektr isitish tizimlarining mavjudligi ulami iste’molchilar-regulyatorlar va boshqalar sifatida ishlatishga imkon beradi.

Elektr energiyasi iste’molchilarini tabiatan har xil: sanoat korxonalar, turar-joy binolari va kommunal xizmatlar, elektrlashtirilgan transport va boshqalar. Iste’molchining eng keng tarqagan turi asenxron motorlardir. Sinxron motorlar reaktiv quvvat hosil qiladi, ba’zi hollarda ularning nominal quvvati yuqori. Maishiy yuklamalar - yoritish, isitish moslamalari va boshqalar. - asosan aktiv energiya iste’molchilarini hisoblangan. Maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasi iste’moli dvigatellar (changyutgichlar, kir yuvish mashinalari, elektr ustalar), shuningdek, televizorlar, konditsionerlar, muzlatgichlar sonining ko‘payishi hisobiga o‘sib bormoqda. Maxsus turdagи elektr iste’molchilar ulushi ortib bormoqda - rektifikatorlar va invertorlar, elektrokimyo va elektrometallurgiya, masalan, elektroliz yuki va ark po‘lat eritish pechlari, elektrlashtirilgan temir yo‘l va shahar transporti. Elektr energiyasini iste’mol qilishning muhim qismi tarmoqlardagi yo‘qotishlardir.

## 2.1-jadval

Yoqilg‘i-energetika resurslarining 2023-yil 1-oktabrdan kuchga kiradigan yangi narxlari

T/r	Iste'molchilar nomi	O'Ichov birligi	O'Ichov birligi uchun narxlar (QQS hisobga olingan holda, so'm)
<b>I.</b>	<b>Iste'molchilarning I — IV guruhlari uchun elektr energiyasi</b>		
1.1.	Iste'molchilarning I va II guruhlari: a) “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ va uning tarkibiga kiruvchi ishlab chiqaruvchi korxonalar, budget tashkilotlari, shuningdek, nasos stansiyalari iste'mol qiladigan elektr energiyasining davlat budgetidan moliyalashtiriladigan qismi uchun; b) qolgan iste'molchilar uchun	kVt soat	1 000
1.2.	Iste'molchilarning III guruhi, shu jumladan aholi:		900
1.2.1.	Ovqat tayyorlash uchun markazlashgan holda elektr plitalari bilan jihozlangan ko‘p kvartirali uy-joylar va yotoqxonalarda yashaydigan maishiy iste'molchilar uchun:		147,5
1.2.2.	Qolgan iste'molchilar uchun:		295
1.3.	Iste'molchilarning IV guruhi		900

Shahar aholisi va u yerda joylashgan ishlab chiqish korxonalari bir joyda bo‘lib ko‘p energiya iste'mol qiladi. Suv xo‘jaligini aholisi va ishlab chiqarish korxonalari bir-biridan ancha uzoq masofada joylashganligi hamda kam energiya iste'mol qilishi bilan farq qiladi.

Suv xo‘jaligi va aholi yashash punktlari bilan shahar elektr ta’minotini tarmoqlarini orasidagi farqi ularni uzatish yuklamalarining quvvatida va havo liniyalarni uzunligidadir. Shuning uchun suv va qishloq xo‘jaligini o‘ziga xos xususiyatlari, ularni yuklamasini o‘zgarib turishi sababli ko‘pincha podstansiyalarda 60-70% yuklangan tansformatorlar o‘rnataladi. Yil fasliga qarab yukalama kamayib ketganda bitta tansformator ishdan chiqarib ikkinchisi ishda

qoladi. Shunaqa yuklamani maksimal ishlash soatini quyidagi tenglama orqali aniqlash mumkin.

$$T = \frac{A}{P_{\max}} \quad (2.1)$$

bu yerda: A- aniq vaqtda iste'mol qilingan energiya (sutka, oy, yoki yil);  $R_{\max}$  – iste'molchilarni eng katta iste'mol qilgan quvvati (kVt).

Qishloq va suv xo'jaligida maksimal ishlash soati bir yilda dastlabki paytlarda 1300-1700 soatni tashkil qilgan bo'lsa, nasos stansiyalarni qurilish bilan xozirgi paytlarda 3000-4500 soatgacha bo'ladi, bu ko'rsatkich shaharlarda va davlat ishlab chiqarish korxonalarida 5000-6000 soatni tashkil qiladi.

Yuqorida aytilganidek ishlab chiqarilgan elektr energiya va uni iste'mol qilish vaqtি bir bo'ladi. Shuning uchun loyihalarda elektr uskunalarni aniqlashda va ularning ishlatish uchun yuklamlarning quvvatini sutka, oy va yil davomida o'zgarib turishini bilishimiz kerak. Yuklamlarni quvvatini o'zgarib turishini grafik orqali tasvirlab chiqish mumkin. Shu grafikni yuzasi sarf qilingan energiyani ko'rsatadi. Agar sarf qilingan energiyani smenani vaqtiga bo'lib chiqsak, smenani o'rtacha quvvatini aniqlash mumkin.

$$P_{s.rsmen} = \frac{A_{s.men}}{t_{s.rsmen}} \quad (2.2)$$

Smena davomidagi maksimal ishlash soatini aniqlashni (1) ifoda asosida topamiz, ya'ni

$$T_{\text{смен}} = \frac{A_{\text{смен}}}{P_{\text{ср.смен}}} \quad (2.3)$$

1- rasmida nasos stansiya qoshida joylashgan ta'mirlash ustaxonasini bir smenada iste'mol qilgan elektr energiyasi yuklamalar grafigi keltirilgan. Grafikni yuzasi smena davomida iste'mol qilingan elektr energiyasini beradi. Iste'mol qilingan elektr energiya

$$A_{\text{смен}} = \sum_i^n P_i \cdot t_i \quad (2.4)$$

Maksimal quvvatdan foydalanish vaqtি kancha ko'p bo'lsa va uni o'rtacha quvvati maksimal quvvatga yaqin bo'lsa, elektrostansiyalardan foydalanish

koeffitsenti oshib boradi. Elektr uskunalarda foydalanish darajasi grafikni to‘ldirish koeffitsenti bilan ifodalanadi.


$$K_{ty,1} = \frac{P_{max} \cdot t}{A} \quad (2.5)$$

bu yerda:  $t$ - grafikni to‘liq vaqt.

Tarmoqlarni hisoblashda har doim, yarim soat iste’mol qiliniyotgan maksimal quvvatidan foydalanadi, agar grafikdagi eng katta quvvat yarim soatdan kam ishlatilsa undan  $R_{his(echim)}$  quvvati qo‘llaniladi.

$$P_{pacu(echim)} = \sqrt{\frac{P_1t_1 + P_2t_2 + P_3t_3 + \dots + P_nt_n}{t_1 + t_2 + t_3 + \dots + t_n}} \quad (2.6)$$

bu yerda:  $R_1, R_2, \dots, R_p$  – ayrim vaqt ichidagi quvvatlar;  $t_1, t_2, \dots, t_n$  – quvvatlar iste’mol qilingan vaqtlar.



2.5-rasm. Nasos stansiyasi qoshida joylashgan ta’mirlash ustaxonasini bir smenada iste’iol qilinadigan elektr yuklamalar grafigi

Bu quvvatlar va vaqtlar grafigidan olinadi. Sutkali grafiklar xam shakilda. Elektr uskunalarni ulangan quvvati- elektr yuritmani foydali ishlash koeffitsentiga bog‘liq.

$$P_{y,1} = \frac{P_{yphr}}{\eta} \cdot \kappa_3 \quad (2.7)$$


bu yerda:  $R_{\text{urnat}}$  - yuritmani o'rnatilgan quvvati katologdan olinadi;  $K_z$  – yuritmani, yuklanish koeffitsenti bajarilayotgan texnologik protsessiga bog'liq, odatda  $k_z = 0.7----0.9$  gacha bo'ladi.

Podstansiyalarni quvvati, xar hil iste'molchilarini yig'indi quvvati va ularning bir vaqtida ishlash koeffitsentlaridan kelib chiqadi, ya'ni

$$P_{n/cr} = k_0 \sum_1^n P_{y\text{ялан}}$$
 (2.8)

bu yerda:  $k_0$  – bir vaktda ishlash koeffitsenti, katologlarda yoki spravochniklarda keltirilgan, egri chiziqlardan aniqlanadi.

Podstansiyani quvvatini grafik orqali aniqlashi mumkin, ya'ni sutkali grafiklar asosida fasl grafiklar tuziladi va ulardan yil grafiklari tuziladi.



2.6-rasm. Davomiylik bo'yicha yillik grafigini qurish:

a-qish kuni grafigi; b-yoz kuni grafigi; v- davomiylik bo'yicha yillik grafik.

2-rasmdagi grafik asosida (2) ifodadan foydalanib yil davomida xo'jalik iste'mol qiladigan energiya aniqlanadi.

$$A_{\text{иил}} = \sum_1^n P_i \cdot t_i$$
 (2.9)

Agar bir yil ichida xo'jalik iste'mol qilingan energiyani yil davomidagi soatga (8760) bo'lsa podstansiyani o'rtacha quvvatini aniqlangan bo'lamiz.

$$P_{n,cr} = \frac{A_{\text{иил}}}{8760} \text{kBt}$$
 (2.10)

## **Nazorat uchun savollar**

1. Birinchi gidroelektrstansiya qachon ishga tushirilgan?
2. Respublikamizdagi quvvati bo‘yicha eng kata gidroelektrstansiya qanday nomlanadi?
3. Elektrstansiyalarimizning o‘rnatilgan quvvati qancha?
4. Elektr energiyasi qaysi elektr stansiyalarda eng ko‘p ishlab chiqariladi?
5. Elektr energiyasini ko‘p iste’mol qiladigan qanday nasos stansiyalari bor.
6. Nasos stansiyalarga elek energiyasi kanday kuchlanishdagi tarmoqlarda yuboriladi?
7. Iste’mol qilinadigan elektr energiyasi qanday aniqlanadi?
8. Podstansiyaning quvvati qanday ko‘rsatkichlarga bog‘liq?
9. Sutka, oy, yillik yuklamalar grafigi nimaga asosan tuziladi.
10. Yuklamalar grafigidan qanday foydalilanadi?

### **3-BOB. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI ELEKTR TA’MINOTINI ISHONCHLIGINI OSHIRISH CHORALARI**

#### **3.1. Xo‘jalik iste’molchilarini elektr ta’minotini ishonchliligi**

Xamma elektr energiya iste’mol qiladigan iste’molchilarini energiya bilan ishonchli ta’minot bo‘yicha PUE talabi asosida – uchta toifaga bo‘linadi.

*Birinchi toifa* iste’molchilar toifasiga, agar ularni elektr ta’minoti buzilishi tufayli odamlarni hayotiga xavf tug‘dirilsa, xalq xo‘jaligiga katta ziyon keltiriladigan, elektr uskunalarini buzilishiga olib keladigan, murakkab texnologik protsesslar ishdan chiqishiga olib keladigan, shaxar va qishloq xo‘jaliklaridagi katta muxitga ega bo‘lgan ob’ektlar ishdan chiqishiga olib keladigan iste’molchilar kiradi.

*Ikkinci toifa* iste’molchilar toifasiga, elektr ta’minot buzilishi orqali, mexanizmlar ishlamasligi tufayli, juda ko‘p maxsulot ishlab chiqarilmaydi, ko‘p odamlarni ishdan qolishiga olib keladigan iste’molchilar kiradi.

*Uchinchi toifa-* PUE talabi asosida 1 chi va 2- toifaga kiritilmagan iste’molchilar kiradi.

Birinchi toifa iste’molchilar PUE talabi asosida, elektr energiya bilan ikki elektr manbara ulangan bo‘lishi kerak va ularni energiya bilan ta’minlangan vaqtin avtomatik holatda rezerv elektr manbara ulash vaqtigacha ruhsat etiladi.

Ikkinci toifa iste’molchilar, toifasiga kongchilik xo‘jalik elektro qurilmalar elektr ta’minotini uzilish, navbatdagi xodimlar asosiy liniyani uzib va rezerv elektrostansiyani ishga tushirish vaqtigacha. Agar markazlashtirilgan operativ extiyoj manbasi bor, ikkinchi toifali iste’molchilar uchun bitta transformator orqali ta’minlanishi mumkin.

Uchinchi toifa iste’molchilarini elektr ta’minot sxemasidagi elektr uskunalaridagi buzilgan elementlarni ta’mirlashga yoki almashtirishga kerak bo‘lgan vaqtga ruhsat etildi bu vaqt bir sutkadan oshmasligi kerak.

Elektr tizimda o‘rnatilgan ayrim elektr uskunalarining sifati, zamonaviy talablarga javob bera olmasligi tufayli ularni ekspluatatsiya qilish davrida kamchiliklar chiqib turadi.

Avariya kelib chiqish sababalaridan biri o‘z vaqtida elektr uskunalarini defektlarini aniqlab sozlanmaganligi va ularni montaj ishlarini olib borayotganda yo‘l qo‘yilgan xatolar va foydalanish darajasini pastligi. Ko‘pincha avariya xolat, muhitni ta’sirida elektr tizimlarda xosil bo‘ladigan yuqori kuchlanishlar ta’siridan kelib chiqadi.

Elektr ta’minot tizimlardagi nosozliklar, hamda rejalashtirilgan ta’mirlash ishlarini olib borish uchun elektr ta’minlovchi sxema o‘chirilgan bo‘lishi kerak. Elektr ta’minot tizimlarni ishonchligi, shu o‘chirilishlarni soni va davomidan kelib chiqadi.

Elektr ta’minot sxemasini takomillashtirishda uni ekspluatatsiyaga va kapital ta’mirlash uchun ajratilgan mablag‘lar oshib boradi, shu tufayli iste’molchilarni elektr energiyadan uzilish vaqt va ko‘riladigan moddiy zararalar kamayadi.

Agar energiyani uzilish vaqtini kamayishidan ko‘riladigan iqtisodiy samarasi, tarmoqlarga foydalanish va kapital ta’mirlash uchun ajratilgan qo‘sishimcha sarflarni qoplay olsa unda elektr ta’minot sxemalarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday qilib, elektr ta’minot tarmoqlarni ishonchhligi, texnikaviy kompleks va iqtisodiy muammolardan tashkil topadi.

### **3.2. Suv xo‘jaligini elektr ta’minotini ishonchligini oshirish choralar**

Xo‘jalik elektr ta’minotni ishonchliligi, grafik asosida ta’mirlash uchun ajratilgan vaqt xisobida iste’molchilarga uzatilgan energiyani kamayishiga bog‘liq. Statistika boshqarmasini ma’lumotga qaraganda xo‘jaliklarga uzatilmagan energiyani 50% keltirilgan sabablarga bog‘liq. Elektr ta’minot tarmoqlarini ta’mirlash grafigini birinchi va ikkinchi toifa iste’molchilarni grafigi bilan moslashtirilsa, energiya bilan ta’minlanmay qolgan vaqt ham keskin kamayadi.


Avariya natijasida uchirilishlar bu boshqacha masala. Shahar va ishlab chiqarish korxonalarini elektr ta’minotini ishonchligini oshirish masalasi asosan, avtomatik xolatda rezerv liniyalarni ulaydigan qurilma (AXRLU) bilan jixozlangan tarmoqlar orqali yetishadi. Buning uchun murakkab yoki ikki manbaga ulangan tarmoqlardan foydalanadi. Xo‘jalik elektr ta’minot tarmoqlarida ham xozirgi payitda murakkab tarmoqlardan fyodalanishadilar. Ko‘pincha xo‘jalik elektr

ta'minot tarmoqlarini ishonchligini oshirish maqsadida, avtomatik xolatda elektr liniyalarni qayta ulash qurilimalar (AXLKUK) o'rnatiladi. Chunki xozirgi vaqtida xo'jalik iste'molchilar, energotizimi bilan havo liniyalar orqali bog'langan, bu liniyalarda muxitdag'i toklar, simlarni muz bilan koplanishi, parrandalar va boshqa tabiat xodisalar ta'siridan tez-tez shikastlanib turadi.

Havo liniyalarida yuz beradigan avariya xolatlar murakkab emas, aksincha murakkab bo'limgan nosozliklar. Nosozliklar asosida o'chirilgan liniyani, avtomatik xolatda qayta ulash qurilmasi ishga tushib liniyani ishlash xolatiga tiklashi va iste'molchilarni uzlucksiz energiya bilan ta'minlaydi. Ko'p yillik statik ma'lumotlar, avtomatik xolatda liniyalar qayta ulash qurilmasidan foydalanish natijasida havo liniyalarni 75-80% da ishlash xolatini saqlab qoladi. Ikki karra ishga tushiradigan (AXKUK) qurilma o'rnatilgan havo liniyalarda 85-95% xolatida muvofaqiyat natijasiga ega bo'ladi.

Xo'jilik elektr ta'minot tarmoqlarini ishonchligini oshirish uchun AXLKUK qurilmasidan tashqari avariya xolatlaridagi uzatilmay qolgan energiyani kamaytirish uchun. Havo liniyalarni seksiyaga bo'lish qurilmalar ishlatiladi. Avtomatik xolatda seksiyalanadigan liniyani qismlarga bo'lib chiqiladi va har bir qismini boshlanishida maxsus apparatura o'rnatiladi, avariya bo'lganda shu qismini ajratadi. Shu tufayli liniyani shikastlanmagan qismi normal xolatda ishlaydi. Seksiyali uzgichlarni bir nechta nuqtada o'rnatilishi, bir nechta turlarga bo'linadi, ya'ni paralel o'rnatilishi (bir pog'onali), ketma-ket yoki aralash o'rnatilishi (ko'p pog'onali).

3<sup>a</sup> -rasmda xo'jalik tarmoqlarda paralel shakilda sektsiyalash sxemasi keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki magistral liniyalarda ajrab chiqqan har bir shoxobchasida



3-rasm. Xo‘jalik tarmoqlarini seksiyalash.

- a) paralel; b) ketma-ket; v) aralash; Q- podstansiyadan chiqish joyida o‘rnatilgan asosiy uzgich; 1-12 seksiyalash uskunalar.

Seksiyalash uskunalar o‘rnatilgan shahobchalarda avariya yuz bersa, unda shu shahobchada o‘rnatilgan seksiyali apparat ishga tushib magistral liniyadan ajratiladi va qolgan shahobchalardagi iste’molchilar energiya bilan ta’minlanishi davom etadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki faqat seksiyali uzgich orqali uzilgan shahobchadagi iste’molchilar energiya bilan ta’minlaymaydi.

Agar shahobchalangan liniyalarni har bir shahobchasiga seksiyali uzgichlar o‘rnatilmaganda qayerda bo‘lmasin avariya yuz bersa liniya boshlanishida o‘rnatilgan asosiy uzgich ishga tushardi va shu liniyaga ulangan hamma iste’molchilar elektrenergiya bilan ta’minlanmay qolardi, uzatilmagan energiya oshib boradi.

Paralel seksiyalash sxemasida shahobchadagi seksiyalash apparatlarni ishlash vaqtin, bir-biri bilan bog‘lamaydi, lekin har birini ishlash vaqtin liniyani boshlanishidagi asosiy uzgichni ishlash vaqtin bilan moslashgan bo‘lishi kerak. Shundagina xamma iste’molchilarni elektr ta’minotini ishonchligiga ega bo‘lish mumkin.

3<sup>b</sup> rasmda seksiyali apparatlarni (uskunalarni) ketma-ket ulanish sxemasi keltirilgan. Bu sxemada elektr tarmoqni magistral qismida o‘rnatilgan seksiyali

apparatlarni ishlash vaqtin, hamda asosiy uzgichni ishlash vaqtulari bir-biri bilan moslashgan bo‘lishi kerak.

Bu sxemada oxirgi seksiyalash apparat bilan liniyani asosiy uzgichi, orasida joylashgan istimolchilarini elektr ta’minotini ishonchligini oshib boradi.

3<sup>v</sup> rasmda seksiyali apparatlarni aralash joylashtirilgan sxemasi keltirilgan. Bu sxemada 10 seksiyalash apparatni ishlash vaqtin 9 va 7 seksiya apparatlarini ishlash vaqtin bilan va bosh uzgich bilan moslantiradi, 8-chi seksiya apparatini ishlash vaqtin 7-seksiya apparati va bosh uzgichni ishlash vaqtin bilan moslashtirilgan bo‘ladi. Bu sxemasida 10-chi seksiya apparatidan oldin ulangan iste’molchilarini elektr ta’minotini ishonchli ishlashi oshadi.

Seksiyali apparatlar xisobida, saqlagichlar, avtomat uzgichlar, moy uzgichlar va uzgichlarni boshqa turlari mavjud. Uzgichlarni turlarini qabul qilish konkret sharoitlaridan kelib chiqadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Elektr energiyasi bilan ishonchli ta’minlash bo‘yicha iste’molchilar nechta toifaga bo‘linadi?
2. Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha iste’molchilarining toifalarida (birinchi, ikkinchi, uchinchi) qancha vaqtgacha elektr energiyasi ta’minotida uzilish bo‘lishi ruhsat etiladi?
3. Elektr ta’minotining ishonchliligi oshirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlarni bilasiz?
4. Xo‘jalik elektr tarmoqlari nima uchun seksiyalanadi?
5. Seksiyalangan apparatlar hisobida nimalar mavjud, ular qanday qabul qilinadi?

### **3-Bob. Suv xo‘jalik elektr ta’minoti vazifalari**

#### **2.1. Elektr energiyani sifati**

Suv xo‘jaligidagi nasos stansiyalarda o‘rnatilgan yirik sinxron motorlarni normal ishlashi elektr tarmoq orqali uzatiladigan uch fazali o‘zgaruvchan tokning sifatiga bog‘liq.

Elektr ta’minot liniyalarini sifatli ishlashi chastotani o‘zgarmasligiga, kuchlanishning nominal qiymati va kuchlanishni fazalar ora simmetrikligidan, kelib chiqadi.

Elektr motorlarni ishlashiga chastotani ko‘p bo‘lmagan tebranishi ta’sir qiladi. Chastotani ancha mucha kamayish yoritish lampalarni lipillashiga olib keladi va uning yoritish xususiyatiga ta’sir qiladi. Yuqorida keltirilgan iste’molchilarни kamchiliklari chastotani ikki marta kamayishadan kelib chiqadi, bu xолат elektr uskunalarni avariya xолатида yuz beradi.

Elektr uskunalarni normal ishslash xолатида quvvatni yetishmasligi yoki oshib ketishi ta’sirida chastotani nominal qiymatiga nisbatan ko‘p bo‘lmagan tebranishlar xosil bo‘ladi, bu ham motorlarni ishlashiga ta’sir qiladi.

Generatordi yuklamasi va uni ta’siridan kelib chiqqan tormozlanish momenti, birlamchi motolarni aylanish momentitidan oshib ketsa agregatlar tormozlanadi, generatorlar ishlab chiqqan o‘zgaruvchan tokni chastotasi kamayadi.

Generatordi yuklamasidan kelib chiqqan tormozlanish momenti, birlamchi motorlarni aylanish momentiga nisbatan kamayib ketsa, agregatlarni aylanish chastotasi ko‘payadi va shu bilan birgalikda tokni chastotasi ham oshadi.

Zamonoviy energetizimlardagi birlamchi elektr motorlar aylanish tezligini avtomatik holatda rostlagichlar bilan ta’minlangan shuning uchun amalda tokni chastotasini normasidan oshib ketishi uchramaydi, tokni chastotasini pasayib ketishini ehtimoli bor chunki, ko‘pincha elektr motorlardagi rostlagichlarni quvvatni yetishmasligi tufayli, ularni aylanishi stabillashtira olmaydi. Elektr motorlarni ishlashiga tokning chastotasini ko‘payib va kamayib ketishi, ta’sir qiladi chunki, aylanish tezligi ularni E.Yu.K. chastotasiga proporsional, quvvati esa aylanish chastotasiga proporsional. Elektr motorlar berilgan yuklama bilan

ishlayotkanida aylanish chastotasini kamayishi elektr linyasidan ko‘proq tok o‘tishga olib keladi, bu esa taminlovchi liniyani ishlash rejimini o‘zgarishiga olib keladi, ya’ni kuchlanishni isrofini ko‘payishiga. Demak liniyadan uzatilayotgan aktiv va reaktiv quvvatini ko‘payishiga olib keladi. Bundan tashqari elektr motorlarni aylanish chastotasini o‘zgarishi, mexanizmlar orqali bajarilayotgan texnologik protseslarni buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, elektr energiyasini sifatini ko‘rsatadigan omillardan biri, bu E.Yu.K. chastotasini stabilligi. U PUE ga asosan 50 Gts ushlab turilishi kerak, yirik tizimlarda chastota +0,1Gts (+0,2 %) ga og‘ishi ruhsat etiladi. Kam quvvatlari elektrostansiya va energotizimlarda, chastotani og‘ishini + 1 % ruhsat etiladi, quvvati 250 kVt bo‘lgan elektr stansiyalarda chastotani og‘ishi + 4 % gacha ruhsat etiladi. Avtomatlashtirilgan ko‘chma, alohida iste’molchiga ishlaydigan, elektrostansiyalarda chastotani ochishi +10% cha ruhsat etiladi.

Energiya sifatini ko‘rsatadigan, ikkinchi omili bu iste’molchilarga uzatilgan kuchlanishni darajasi.

Kuchlanishni oshishi nominal kuchlanishdan iste’molchilarga har xil ta’sir qiladi. Yoritish lampalarga nominal kuchlanishdan 1% kamayishi, yoritish xususiyatini 3-4% kamaytiradi, radio, televizor va sovutgichlarni ishlash xususiyatiga katta ta’sir keltiradi, chunki ularni quvvati, kuchlanishni kamayishini kvadratiga proporsional kamayadi. Kuchlanishni kamayishi, kvadratli bog‘lanish darajasida elektr motorlarni aylanish momenti kamayishiga olib keladi. Shu berilgan yuklama tufayli iste’mol qilinadigan tokni oshib borishi kuzatiladi, ta’minlovchi tarmoqdagi kuchlanishni isrofi ham oshib boradi.

Iste’molchilarga uzatiladigan kuchlanish nominal kuchlanishdan ortishini juda xam keragi yo‘q.

Chunki kuchlanishni nominaldan ortib ketishi elektr uskunalar va asboblarini ishlash muddatini qisqartiradi. Elektr motorlarni reaktiv quvvatini iste’mol qilishini ko‘paytiradi, demak ta’minlovchi elektr tarmoqlarni ish rejimiga ta’sir qiladi.

Standart asosida kuchlanishni nominal qiymatiga nisbatan  $\pm 10\%$  dan  $\pm 5\%$  gacha (iste'molchilar nomlari kataloglarda keltirilgan).

1. Elektr energiyasining sifati nimaga bog'liq?
2. Elektr motorlarni ishlashiga chastota tebranishi qanday ta'sir qiladi?
3. Chastotaning og'ishi qanchaga ruhsat etiladi?
4. Nominal kuchlanishdan og'ish iste'molchilarga qanday ta'sir qiladi?
5. Iste'molchilarning kuchlanishi nominal qiymatidan oshishi nimaga olib keladi?


### **3-bob. Sirtqi elektr tarmoqlarni tuzilishi**

#### **§3.1. Sirtqi elektr tarmoqlarni tuzilishi**

Birinchi bobda aytilgandek, xozirgi paytda elektr energiyani asosan yirik elektr stansiyalarda ishlab chiqiladi, ular bir-biriga bog'lanib, yagona energotizimga tuzadi. Energotizimning bir qismi generatordan, kuchaytirish yoki kamaytirish taransformator podstansiyalardan, taqsimlovchi konsturksiyalar, elektr tarmoqlar va elektr energiyani iste'molchilar tuzilgan tarmoqlar - energotizim deb aytiladi.


Elektr tizimni bir qismi, podstansiya va xar xil kuchlanishli elektr uzatuvchi liniyalardan tashkil topgan qismini elektr tarmoqlar deb ataladi. Belgilagan maqsadga qarab, elektr tarmoqlar ta'minlovchi yoki *taqsimlovchi* tarmoqqa bo'linadi.

Tok manbaidan iste'molchi markazi, transformator punktigacha yoki iste'molchigacha bo'lgan liniyalarni *taqsimlovchi liniyalar* deb ataladi (4-rasm).




4-rasm. Ta'minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlar.

Tok manbasidan transformator podstansiyasigacha yoki bo'linish punktigacha bo'lgan liniyalarni *ta'minlovchi liniya* (tarmoq) deb aytiladi (4-rasm).



5-rasm. Tumanlar aro elektr tizimini tuzilish sxemasi.

Elektrotexnikani nazariy asoslarida elektr energiyasini uzoq masofaga uzatish uchun ishlab chiqarilgan kuchlanishni dastlab yuqori kuchlanishga ag'darish lozim. Shuning uchun zamonaviy energiya tizimlarda shartli ravishda oshirish podstansiya kiradi, ularda o'ratinigan transformatorlar yordamida elektr energiyani kuchlanishi oshiriladi (5-rasm). Iste'mol qilanadigan joyda pasaytirish podstansiyadar joylashtiriladi, ularning yordamida iste'molchilar ulanadigan kuchlanishgacha pasaytiriladi. Kuchlanishni oshirish va pasaytirish zaruriyat bo'lish uchun, elektr energiyani uzatish tarmoqlarda asosan o'zgaruvchan uch fazli tokni ishlatishi talab qiladi.



6-Rasm. Xujalik GES-ga ulangan elektr tarmoqlarni sxemasi.

Uchta elektr stansiyadan tuzilgan tumanlar aro kichik elektr tizimni tuzilish sxemasi 6- rasmida keltirilgan. Elektr stansiyalarda o‘rnatilgan generatorlarni nominal kuchlanishi 10 kV (6 kV xam bo‘lishi mumkin). Eng uzoqda joylashgan stansiyalarni kuchlanishi 220 kV gacha yaqinroq joylashgan stansiyalarni kuchlanishini 110 kV ko‘tariladi va 110 kV li umumiylar xalqa ulanadi, shu tufayli 220 kV pasaytirib undan keyin umumi xalqacha ulanadi. Umumiy 110 kV xalqadan xo‘jaliklarga energiyani yetkazib berish ikki xil bo‘lishi mumkin:

1) 110 kV kuchlanishli 110/35 kV podstansiyalar orqali 35 kV pasaytirib, shu kuchlanish tarmoqlar orqali mayda 35/10 kV nimstansiyalarga uzatiladi. Shu podstansiyalardan 10 kV taqsimlash liniyalar orqali 10/0,4 kV TP ga ulangan xo‘jaliklarga yetkazib beriladi.

2). Uzoqda joylashgan iste’molchilarga 110 kV tarmoqlar orqali 110/6-10 kV pasaytiruvchi podstansiyaga va undan keyin taqsimlovchi 6-10 kV liniyalar orqali 10/0,4 kV xo‘jalik podstansiyalarga uzatiladi.

6 - rasmida xo‘jaliklarni taqsimlovchi liniyalarni shaxsiy GES ga ulanish sxemasi keltirilgan. GES ishlab chiqqan 0,4 kV kuchlanishni dastlab ko‘paytirish transformator orqali 6-10 kV ko‘paytiriladi undan keyin taqsimlovchi liniyalr

orqali xo‘jalikni 10/0,4 kV podstansiyalarga ishlab chiqilgan energiya yetkazib beriladi.

Keltirilgan sxemalardan ko‘rinib turibdi, ishlab chiqarilgan elektr energiyani iste’molchilarga yetkazib berish uchun bir necha yuqori kuchlanish va past kuchlanishga aylantiradigan podstansiyalar qurilishini talab qiladi.

### **§3.2. Elektr ta’minot tarmoqlardagi simlar va kabellar**

Xo‘jalik elektr tarmoqlarda, asosan mis, alyuminiy va po‘lat simlar ishlatiladi. Mis tolali, izolyatsiya qilingan simlarda, binolar ichida tortiladigan liniyalarda, agar havo liniyalar (sho‘r dengizlar qoshida yoki ximyaviy zavodlar ta’siri yotadigan doirasida).

Alyuminiydan qilingan simlar, binolardagi ichki tarmoqlarda va sirtqi havo liniyalarda ishlatiladi. Xo‘jalik yuqori kuchlanish va past kuchlanish liniyalarni yuklamasi kam bo‘lsa po‘lat simlar ishlatiladi. Mis, alyuminiy va po‘lat simlar o‘zlarini elektr va mexanik xususiyatlari bilan bir biridan katta farq qiladi. Mis, yuqori solishtirma o‘tkazgichlarga ega bo‘ladi, ya’ni  $\gamma_m = 53 \text{ M}(\text{Om}^*\text{mm}^2)$ . Mis mexnik xususiyati ham katta. Mis simlarni uzilishiga ko‘rsatadigan qarshiligi  $R=39 \text{ kgs/mm}^2$  va mis simni jibsizligi  $\delta_m = 8,9 \text{ g/sm}^2$ . Mis simlar ximyaviy moddalarni ta’siriga bardosh bera oladi. Ular havoni ta’sirida yupqa oksidli plenka bilan qoplanadi va keyingi zarar ko‘rishidan saqlay oladi.

Alyuminiy simlar, mis simlarga nisbatan, solishtirma o‘tkazgichlari kam, ularni o‘tkazuvchanligi  $\gamma_a = 32 \text{ m}/(\text{Om}^*\text{mm}^2)$ , alyuminiy tuzilishiga ko‘rsatadigan qarshiligi  $R_a = 16 \text{ kGs}/\text{mm}^2$ , alyuminiy simni jibsligi  $\delta_a = 2,75 \text{ g/sm}^3$ . Alyuminiy simlar ham ochiq havoda pylonka bilan qoplanadi va keyingi ta’sirlardan saqlana oladi. Po‘lat simlarni o‘tkazuvchanligi, mis va alyuminiy simlarga qaraganda, ancha kam bo‘ladi. Undan tashqari po‘lat simlarni o‘tkazuvchanligi, o‘tkazilayotgan o‘zraguvchan tokni qimmatiga bo‘lgan bo‘ladi. Deyarli kam toklarda  $\gamma_p = 7,5 \text{ m}/(\text{Om}^*\text{mm}^2)$ . Po‘lat simlarni puxtaligi  $R_p = 55 \text{ kGs/mm}^2$ , eshilgan po‘lat simlar uchun  $R_n = 65-70 \text{ kGs/mm}^2$ . Po‘latni jibsizligi  $\delta_p = 7,85$

g/sm<sup>3</sup>. Rangli metaldan qilingan simlarga qaraganda po'lat simlar havoni ta'sirida okslanish ta'sirida zang bosib, u esa simni saqlay olmaydi. Aksincha po'lat simlarni yemirilishi oshib boradi va uni buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ular tsinklangan simdan yoki 0,2—0,4% mis bilan qoplanadi.

Xozirgi vaqtida alyuminiy simlar bilan eshilgan po'lat simlar (AS). Bu simlarni ichki qismi po'latdan sirtqi qismi alyuminiidan. Po'lat simlar mexanik yuklamalarni ta'siriga bardosh beradi, alyumin qismi-elektrik va mexanik yuklamalarni olib boradi.

Bir o'ramli simlar faqat misdan yasaladi, kesim yuzasi 10 mm<sup>2</sup> va po'lat simni diametri 5 mm, mis simlar havo liniyalarda ishlatilmaydi. Bir o'ramli alyumin simlar havo liniyalarda ishlatish mumkin emas.

Ko'p o'ramli simlar mis, alyumin va po'lat metallardan qilinadi. Ular bir xil yuzali simlardan tashkil qilinadi. Kup o'ramli simlar odatda bitta markazidagi simni atrofida joylashtiriladi. Ko'p o'ramli simlar katta mexanik mustaxkamlikka ega va egiluvchan bo'ladi, shuning uchun xo'jalik tarmoqlarda ko'p ishlatiladi.

Simlarni metali va yuzalari quyidagicha belgilanadi: M, A va PS bu xarflar qanaqa metaldan qilinganligini ko'rsatadi. Masalan A-16. Ochiq alyumin sim, yuzasi 16 mm<sup>2</sup>, PS –25 po'lat sim yuzasi 25 mm<sup>2</sup>.

Bir o'ramli po'lat simlar PSO 3,5; PSO-4; PSO5 raqamlar, simni diametrini millimetrdan ifodalaydi. PUE talablari asosida, qismlarni kesimini yuzasi normadan kam bo'lsa ishlatish man qilinadi. Ruxsat etilgan ko'ndalang kesim yuzasi liniyani kuchlanishiga bog'liq. Simlarni ruxsat etilgan ko'ndalang kesimni yuzalari jadvalda keltirilgan.


Axoli yashamaydigan joyda daryolarni va ko'pchilik muxandis qurilishlarni kesib o'tishda kuchlanishi 1-35 kV tarmoqlarda alyumin simlarini ko'ndalang kesimini yuzasi 35 mm<sup>2</sup> va po'lat alyumin hamda po'lat simlarni ko'ndalang kesimni yuzasi 25 mm<sup>2</sup>.

1- jadval

	1kV gacha	1- kV	35 kV undan yuqori
Simlar	Havo liniyalarni kuchlanishlari asosida simlarni minimal yuzalarini kesmi (mm)		

Alyumin (A)	16	25	35	
Po'lat-alyumin (AS)	10	16	25	
Bimetal (b)	10	ruxsat	etilmaydi	
Ko'p o'ramli po'lat (PS)	25	25	25	
Bir o'ramli po'lat (PSO)	4	ruxsat	etilmaydi	

\*Axoli yashamaydigan joy uchun



Binolarda ichki elektr tarmoqlar asosan izolyatsiyalangan yumshok mis-simlar yoki alyumin simlar asosida kuriladi.

Izolyatsiyalangan alyumin simlarni yuzasi  $2,5 \text{ mm}^2$  va undan yukori bulishi kerak. Kuvvat va yoritish zanjirlarda ochiq tortiladi, po'lat trubalarda yoki egiluvchan trubalarda.

7-rasm. Ochiq simlarning ko'ndalang kesimi

Bir o'ramli izolyatsiyalangan simlarni kesim yuzasi  $1 \div 10 \text{ mm}^2$  bo'ladi. Ularni kamchiligidan biri bu kattikligi, montaj qilishda va ekspluatatsiyada ancha-muncha kiyinchilikka olib keladi. Ko'p o'ramli simlarni yuzasi  $1 \div 500 \text{ mm}^2$  va undan yuqori qilinadi. Simni yuzasiga qarab ular oddiy va egiluvchan bo'ladi. Egiluvchan simlarni har birini diametri alohida simni diametridan kichik bo'ladi, lekin ularni umumiy sonlari ko'p bo'ladi.

Ikkita egiluvchan izolyatsiyalangan simlarni bir-biri bilan eshilgani-shnur deyiladi.

Simlarni izolyatsiyasi uni konstruksiyasiga va uni ishlatish kuchlanishiga bog'liq bo'ladi. Odatda izolyatsiyalangan PR simlar 500 va 1000 V. Kuchlanishga tayyorlangan bo'ladi. Izolyatsiyalangan simlar quyidagicha belgilanadi PR500-16 har bir simni markasini, birinchi raqami uni mo'ljallangan kuchlanishi keyingisi – uni ko'ndalang kesimni yuzasi, millimetrnii ikkinchi darajasi ( $\text{mm}^2$ ).

Kabel elektr tarmoqlarini, havo tarmoqlarga qaraganda qo'yidagi afzaliklari bor.

a) Eksplutatsiya qilish muddatini ko'pligi va tayanch oporalarga muxtojlik bo'lmasligi.

b) Ekspluatatsiya davrida katta ishonchlikka egaligi, chunki ularga muxitdan kelib chiqadigan yuqori kuchlanishlar ta'sir qilmaydi.

v) Ko'cha va dalalarga ta'sir keltiradigan simlari va tayanchlarni yo'qligi.

g) Kabel liniyalar avariya paytlarda odamlarga hamda xayvonlarga kam zarar keltirishi.

Shu bilan birgalikda kabel liniyalarni qo'yidagi kamchiliklari bor.

A) ularni ko'rish va ekspluatatsiya qilishda yuqori malakaga ega bo'lgan xodimlarni talab qilishi.

B) havo liniyalaraga nisbatan kabel liniyalarni ko'p mablag' (2-3 marta) ishlatilishi. Oddiy konstruksiyali kabellarda rangli metallar va ko'rgoshin ko'p talab qilishi.

V) kabel liniyalar shikastlansa, uni topish ancha murakkabligi.

Eng ko'p ishlatiladigan uch va turt tolali kabellar. Kuchlanishi 10 kV gacha bo'lgan kabellarni har bir toiasi mintaqaviy izolyatsiyalandi va xamma tolalarini ustidan qo'rgoshinli qovuq yotkaziladi. Kuchlanishi 35 kV li kabellarni har bir toiasi alohida ko'rgoshinlangan kovukli qilinadi. 110 kV va undan yuqori kuchlanishlar uchun bir tolali kabellar qilinadi. Tolalar mis simdan qilingan bo'ladi. Kabelni ichida spiral shakilda o'ralgan lenta joylashtiriladi. Uni kovug'ini ichiga 2-3 kGs/sm<sup>2</sup> bosimda inertli gaz bilan yoki moy to'ldiriladi. Ular tolalarning izolyatsiyasini oshiradi va tolalarni sovitib turadi.

Kabellarni qobig'i rezinadan qilingan bo'lsa, ularni markasiga R, vinilli V, qo'rgoshin S va alyumin A xarflar qo'shiladi.

Kabellarni markasi izolyatsiyalangan simlarga o'xshash bo'ladi. Misol uchun SB3x70 – uch tolali, har bir tolasini ko'ndalang kesim yuzasi 70 mm<sup>2</sup>, har bir toiasi elektrotexnik qog'oz bilan izolyatsiyalangan umumiyligi qo'rgoshinli qobiqli, metal lenta bilan zirhlantirilgan va saqlagich iplar bilan eshilgan bo'lgan kabel.

Kabellarni nominal toklari ularni sovish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Sovutish xususiyati kabellarni ekspluatatsiya qilinadigan sharoitiga bog'liq bo'ladi.

### §3.3. Simlarni aktiv va reaktiv qarshiligi

Havo liniyadagi simlar o‘zgaruvchan tokka nisbatan aktiv qarshilikka ega bo‘ladi. Uni aktiv qarshiliklari uncha muncha boshqacha bo‘ladi, o‘zgarmas tokni aktiv qarshiligiga qaraganda.

Mis va alyumin simlarni aktiv qarshiliklari havoni issiqligi va ulardan o‘tayotgan tokni hajmiga qarab o‘zini aktiv qarshiliklari o‘zgaradi. Lekin bu o‘zgarishlar kam miqdorda bo‘ladi, shuning uchun simlarni qarshiligini hisoblash paytida o‘zgarmas deb qabul qilinadi.

Simlarni 1 km uzunligiga (ya’ni 1000 m) aktiv qarshiligi quyidagi ifoda orqali topiladi.

$$r_0 = \frac{\rho}{F} = \frac{1000}{\gamma \cdot F} \quad (7)$$

bu yerda:  $r_0$  - 1 km simni aktiv qarshiligi ( $\text{Om}/\text{km}$ );  $\rho$  - sim materialini solishtirma qarshiligi ( $\text{Om mm}^2/\text{km}$ );  $\gamma$  - simni solishtirma o‘tkazuvchanligi  $\text{m}/(\text{Om mm}^2)$

$$\gamma = \frac{1000}{\rho}$$

bu yerda:  $F$  - simni kesim yuzasi ( $\text{mm}^2$ ); Elektr tarmoqlarni xisoblashda  $\gamma$  va  $\rho$  ni qiymati mis sim uchun;  $\gamma_m = 55 \text{ m}/(\text{Om mm}^2)$ ;  $\rho_m = 18,9 \text{ m}/(\text{Om mm}^2/\text{km})$ ;


Alyumin sim uchun  $\gamma_a = 32 \text{ m}/(\text{Om mm}^2)$ ;  $\rho_a = 31,2 \text{ m}/(\text{Om mm}^2/\text{km})$ ;

Bir kilometr simni aktiv qarshiligi topilganidan keyin tarmoqni to‘liq aktiv qarshiligi topiladi.

$$\tau = \tau_0 \cdot l \quad (8)$$

bu yerda:  $l$  - elektr liniyasining to‘liq uzunligi.

Po‘lat simni aktiv qarshiligi undan o‘tayotgan tokka bog‘liq. Shuning uchun xisoblash paytida solishtirma o‘tkazuvchaklikdan foydalanish mumkin emas. Po‘lat simni aktiv qarshiliklarini jadvallardan yoki katalogdan olamiz, mis simlarni yuzasiga va undan o‘tayotgan tokga asoslangan shaklida, shu qarshiliklar asosida qurilgan grafiklar orqali topamiz (7-rasm).



7-rasm. Ko‘p o‘ramli po‘lat simlardan o‘tayotgan tokka nisbatan qarshiliklarini o‘zgarishi egri chiziklar.

a) aktiv qarshiligi ( $r_o$ ); b) ichki induktiv qarshiligi ( $x_o$ )

Simlarni induktiv qarshiliklari, ulardan o‘zgaruvchan tok o‘tganda xosil bo‘lgan sirtqi va ichki elektromagnit maydoniga bog‘liq.

Elektrotexnika asoslaridan simni induktiv qarshiligi, simdagi toklarni yig‘indisi nolga teng bo‘lganda va yerga tok o‘tmaganlf.

$$X_0 = W(4,6 \lg \frac{D_{cp}}{\tau} + 0,5 \mu) \cdot 10^{-4} \quad (9)$$

bu yerda:  $X_0$  – induktiv qarshilik, Om/km;  $W$ - burchak chastotasi;  $D_{sr}$ - simlar orasidagi urtacha masofa (mm);  $r$  - simni radusi, mm;  $\mu$  - po‘lat simni solishtirma magnit o‘tkazuvchanligi.

O‘zgaruvchan tokni chastotasi  $f=50$  Gts ga teng bo‘lsa, burchak chastotasi  $w = 2\pi f = 314$  va simni radiusini  $r = d / 2$  deb qabul qilinsa induktiv qarshilikni qo‘yidagi ifodadan aniqlaymiz:

$$X_0 = 0,145 \lg \frac{2 D_{cp}}{d} + 0,015 \mu$$

Shu tenglamani birinchi qismi simning atrofidagi magnit maydoniga bog‘liq, shuning uchun  $X_0 = 0,145 \lg \frac{2 D_{cp}}{d} + 0,015 \mu$  uni simning sirtqi induktiv qarshiligi deb ataladi.

Tenglamani ikkinchi qismini simning ichki induktiv qarshiligi deb aytildi, ya’ni

$$X_0 = X_0^I + X_0^{II}$$

Tenglamadan ko‘rinib turibdiki sirtqi induktiv qarshiligi, simni materialiga bog‘liq emas, simlar orasidagi masofasiga va uni diametriga bog‘liq ekan.

Havo liniyasida simlar orasidagi masofalar 400 mm past kuchlanish liniyalar uchun, va 7000 mm yuqori kuchlanish liniyalari (220 kV), bundan simlarni sirtqi induktiv qarshiligidagi liniyalarni kuchlanishiga bolg‘iqligi ko‘rinib turibdi.

Simlar orasidagi o‘rtacha masofa

$$\varDelta_{cp} = \sqrt[3]{\varDelta_{1,2} \cdot \varDelta_{2-3} \cdot \varDelta_{3-1}} \quad (10)$$

bu yerda  $\varDelta_{1-2}$ ;  $\varDelta_{2-3}$ ;  $\varDelta_{3-1}$  - faza simlar orasidagi masofalar.

Agar faza simlar tugri uch burchakni cho‘qqisida joylashgan bo‘lsa

$$\varDelta_{1-2} = \varDelta_{2-3} = \varDelta_{3-1} = \varDelta_{cp}$$

Agar simlar bir tekislikda joylashgan bo‘lsa

$$\varDelta_{cp} = \sqrt[3]{\varDelta_{1,2} \cdot \varDelta_{2-3} \cdot 2\varDelta_{12}} = \varDelta_{1-2} \sqrt[3]{2} = 1,26 \cdot \varDelta_{1-2} \quad (11)$$

Simlarni ichki induktiv qarshiliklar teng, ya’ni:

$$X_\theta^H = 0,015 \mu_0$$

Rangli materiallardan qilingan simlarning solishtirma magnit o‘tkazuvchanligi birga teng. Shuning uchun ichki induktiv qarshiliklar, sirtqi induktivga qaraganda, juda kichik sonni tashqil qiladi. Simni to‘liq induktiv qarshiliği sirtqi induktiv qarshiliğiga teng deb qabul qilamiz.

$$X_\theta = X_\theta^I$$

Nazorat uchun savollar.

1. Energotizimning tuzilishini aytib bering.
2. Taqsimlovchi va ta’minlovchi liniyalarga qaysilari kiradi?
3. Elektr energiyasini uzatish liniyalarida qanday ( nechta fazali) kuchlanish ishlataladi?
4. Elektr ta’minot tarmoqlarida qanday sim va kabellar ishlataladi?
5. Sim va kabellarni belgilanishlarini ayting.

## **4-Bob. Iqtisodiy ko‘rsatmalar asosida elektr tarmoqlarni hisoblash**

### **§4.1 Elektr energiyani uzatish tannarxi va keltirilgan sarflar**

Elektr energiyasini uzatish tannarxi, bir necha tarkiblardan tashkil qilinadi. Elektr energiyasini uzatish narxi dastlab, elektr ta’minot liniyalarning simlarida va transformatorda isrof qilingan energiyasini narxidir. Shubxasiz, bu kiymat yil davomidagi energiyani  $\Delta A$  isrofi va elektr energiyasini isrofini yagona narxi  $\beta$ -ga bog‘liq.

Qurilmalarni amortizatsiya qilish uchun ajratma asosiy qismni tashkil qiladi. Bu qism asosan liniyalarni ishlatalish muxlati va uni dastlab narxi, yana qurilishga sarf qilingan mablag‘dan kelib chiqadi.

Amortizatsiyaga protsent hisobida ajratilgan qismi, shuncha bo‘lish kerakki, liniyalarni ishslash mudatini oxirida unga sarf qilingan mablag‘ to‘liq qaytarilgan bo‘lishi kerak.

Dastlabki sarf qilingan mablag‘dan ( $K_l$ ), amartizatsion ajratma  $-2\div 3\%$  tashkil qiladi.

$$P_a = \frac{K_a}{T} \bullet \frac{100}{K_a} = \frac{100}{T}$$

bu yerda: T-liniyani ishslash yilini muddati.

Liniyalarni kundalik ta’mirlashga ajratilgan mablag‘ ( $R_{t.r}$ ) odatda ko‘p emas, xo‘ujalik tarmoqlarda dastlabki mablag‘dan bir necha protsentni tashqil qiladi ( $0,8\%-1,1\%$ ).

Yana energiyani uzatish narxiga, xizmat narxi xam kiradi, ya’ni tarmoq nazoratchilari, podstansiyani navbatchi xodimlari, muxandis-texnik xodimlar. Bu qiymat «z» bilan belgilanadi va  $-25\% * K_l$  ni tashkil etadi.

Shubxasiz, yil davomida elektr energiyasini uzatishdagi eksplutatsiya sarfi «S»

$$C = \beta \bullet \Delta A + \frac{P_a}{100} \bullet K_a + \frac{P_{T.P.}}{100} \bullet K_a + z \quad (12)$$

Xozirgi paytida har xil variantlari iqtisodiy jixotdan foydalanishni (samadorligini) baholashda xarajatlarni keltirilgan sarflari.


$$3 = C_{\alpha} + \frac{P}{100} \cdot K_{\alpha} \quad (13)$$

bu yerda: R - normativ effektivli koeffitsiyenti, energetikada 12 % qabul qilingan.

Liniyalarni loyihalashda shunday sharoit yaratish kerak, hisoblashdagi sarflar eng kam mikdorda bo'lish kerak. Asosan bu esa liniyada qabul qilingan simni yuzasiga bog'liq. Chunki isrof bo'lgan elektr-energiyasini « $\Delta A$ » qiymati, va unga sarf qilingan narxi xam kamayib boradi. Giperbola egri chiziq qonuniga asosan, simni kesim yuzasi oshib borishi bilan isrof bo'lgan energiyaga sarf qilingan mablag' kamayib boradi.

Liniyalarga dastlab sarf qilinadigan mablag' simni kesim yuzasi oshib borishi bilan to'g'ri chiziq qonuni asosida oshib boradi (10-rasm). Shubxasiz shu qonun asosida ajratmalar xam oshb boradi.

$$\text{to'g'ri chiziq } \left( \frac{P_a + P_{T.P.} + P}{100} \cdot K_{\alpha} \right)$$



9-rasm. Simni ko'ndalang kesimi bilan energiyani uzatish narxini bog'liqlik grafigi

Liniyani, ekspluatatsiya qilishdagi xizmat xaqi, similarni kesim yuzasiga bog'liq bo'limgani tufayli, uni umumiy sarflaridan chiqarib tashlangan.

Grafikda keltirilgan  $\left( \frac{P_a + P_{m.p.} + P}{100} \cdot K_{\alpha} \right)$  ifodalangan to'g'ri chiziq va

$\beta \cdot \Delta A$  xosil qilingan egri chiziqlarni yig'indisi U-shakldagi egri chiziqni beradi, bu esa elektr energiyasini uzatishiga sarf qilingan mablag'ni ko'rsatadi, liniyani

foydalishga sarf qilingan mablag'ni inobatga olmaganda. 3-deb atalgan egri chiziqni eng past nuqtasi simning eng iqtisodli yuzasi deb aytildi Fek.

Bu chizmadan ko‘rinib turibdiki, agar simni iqtisodiy yuzasidan kichik yuza qabul qilsak unda sarf qilingan mablag'lar oshib boradi, agar simni yuzasini xaddan tashqari oshirib yuborsak xam energiyasini uzatish narxi xam oshib boradi.

Shuning uchun elektr uskunalarni tuzilish qoidasi (PUE) simni yuzasini aniqlash paytida erkin zaryadlarni jibsizligi ( $j_{ek}$ ) orqali topishni tavsiya qiladi, xar xil simlar uchun aktiv quvvatni maksimal ishlash soati orqali jek topiladi. ( $jek$  – jadvaldan olinadi)

Shular asosida

$$F_{ek} = \frac{I_n}{j_{ek}} \quad (14)$$

bu yerda:  $I_n$  liniyadagi nominal tok;  $j_{ek}$  –simdagи erkin zaryadlarni jibsizligi ( $A-mm^2$ );  $F_{ek}$  – simning iqtisodli yuzasi ( $mm^2$ )

Kuchlanishi 360 V bo‘lgan xo‘jalik tarmoqda simni yuzasini simdagи tok jibsizli ( $I_{ek}$ ) orqali emas, kuchlanishni isrofi orqali topish tavsiya qilinadi. Past kuchlanish liniyalardagi kuchlanishni umumiyl isrofi nominal kulanishni 7-9% dan oshish kerak emas.

Xo‘jalik tarmoqlarda kuchlanishni rostlagich qurilmasi bo‘lmasa simlar yuzasidagi tokni jibsizligi asosida aniqlash mumkin emas, chunki simlari iqtisodiy yuzasi tufayli istimolchilar qoshidagi kuchlanishni og‘ishi ruhsat etilganidan oshib ketadi.


Faqat tarmoqlarda rostlagichlardan foydalanganda, tokni iqtisodiy jibsizligiga yetish mumkin.

## 2 jadval. Simlarning iqtisodiy jibsizligi

Simlar	Maksimum quvvatdan foydalish vaqtidan kelib chiqqan iqtisodiy jibsizligi		
	1000-3000 Soatgacha	3000-5000 soatgacha	5000-8760 soatgacha
Ochik simlar va shinalar			
a) mis simlar	2,5	2,1	1,8
b) alyumin simlar	1,3	1,1	1,0

U xam, markaziy Sibir, Qozoqiston va O'rta Osiyoda	1,5	1,4	1,3
Qog'oz qobiqli kabel va rezina yoki polixlorvinil bilan qoplangan simlar uchun :			
a) mis tolali	3,0	2,5	2,0
b) alyumin tolali	1,6	1,4	1,2
Mis tolali, rezina yoki plastmassa qobiqli kabellar uchun	3,5	3,1	2,7

Agar, liniyani bir nechta qismi, iste'molchilar bilan bo'lingan bo'lsa unda har bir qismiga o'ziga mos iqtisodiy simni yuzasi topiladi, ya'ni:



10-rasm. Simlarni, iqtisodiy tok jibsizligi asosida hisoblash uchun.

$$F_{I_{\mathfrak{K}}} = \frac{I_1}{j_{\mathfrak{K}}}; - F_{2\mathfrak{K}} = \frac{I_2}{j_{\mathfrak{K}}}; - - F_{3\mathfrak{K}} = \frac{I_3}{j_{\mathfrak{K}}}$$

Bitta yuklama ulangan liniyadagi quvvatni isrofi

$$\Delta P = 3I^2 \cdot r = \frac{3I^2 \ell}{\gamma \bullet F}$$

Simning og'irligi

$$G = 3F\ell\delta$$

bu yerda: $F$  – simni kesmi;  $L$  – tormoqni uzunligi;  $\delta$  – sim materialini jibsizligi

Quvvatni keltirilgan isrofi.

$$\frac{\Delta P}{G} = \frac{3 \bullet I^2 \bullet \ell}{3F^2 \gamma \bullet \ell \bullet \delta} = \frac{j_{\mathfrak{K}}^2}{\gamma \bullet \delta}$$

Quvvatni isrofi o'zgarmas yuzali bir nechta yuklamaga ega bo'lgan magistral liniyalarda.

$$\Delta P = 3 \left( \frac{I_1^2}{\gamma \bullet F} + \frac{I_2^2}{\gamma F} + \frac{I_3^2}{\gamma \bullet F} \right) = \frac{3 \sum_1^n I^2 \bullet \ell}{\gamma \bullet F}$$

Unda quvvatning keltirilgan isrofi

$$\frac{\Delta P}{G} = \frac{\sum_1^n I^2 \cdot \ell}{F^2 \gamma \cdot \delta (\ell_1 + \ell_2 + \ell_3) \cdot \delta} = \frac{I_{\text{ек}}^2}{F^2 \cdot \gamma \cdot \delta}$$

Shunday qilib agar simni o‘zgarmas yuzasini topish, kerak bo‘lsa, unda ekvivalent tokni ( $J_{\text{ек}}$ ) aniqlash kerak

$$I_{\text{ек}} = \sqrt{\frac{\Sigma I^2 \ell}{\ell_1 + \ell_2 + \ell_3}} \quad (15)$$

Bu tok asosida ekonomik yuzasini aniqlaymiz

$$F_{\text{ек}} = \frac{I_{\text{ек}}}{j_{\text{ек}}} \quad (16)$$

Tarmoqni o‘zgarmas yuzali sim bilan qurish oson lekin quvvatni isrofi va simni metali ko‘proq sarflanadi, har xil yuzali sim bilan qurilishiga karaganda. Yuklamani quvvat koeffitsiyenti energiyasini isrofiga katta ta’sir qiladi. Bir xil aktiv quvvatli tok, quvvat koeffitsiyentiga teskari proporsional, quvvatni yoki energiyasini isrofi esa quvvat koeffitsiyentiga kvadratiga proporsional

$$\Delta A = \frac{1}{\cos^2 \phi}$$

Tenglamadan kurinib turibdiki energiyani isrofini kamaytirish uchun liniyaning quvvat koeffitsiyentini oshirish kerak. Buni birdan-bir yo‘li elektr-yuritmalarini va transformatorlarni to‘liq nominal quvvatda ishlatish yoki yuritmalarining yoniga sig‘im batareyalarini paralel ulash lozim bo‘ladi.

#### §4.2. Elektr tarmoqdagi energiya isrofi

Havo va kabel liniyalarda, ichki tarmoqlar va transformatorlarni cho‘lg‘amidan o‘tayotgan elektr toklar, ularda quvvat va energiyasini foydasiz isrofiga, ayrim vaqtida ularni zararli darajada qizishiga olib keladi.

Quvvatlarni va energiyani isroflari, elektr stansiyalardagi generatorlar orqali qoplanishi kerak, bu ularni yuklanishini oshib borishiga olib keladi, shuning uchun yoqilg‘ini yoki gidroenergiyasini ko‘proq sarflanishni talab qiladi. Elektr tarmoqlarni loyihalash davrida har doim energiyani isrofini kamaytirish chorasi

ko‘rib boriladi. Lekin, quvvat koeffitsiyentini o‘zgarmasligini inobatga olgan holda unga yetish mumkin, faqat simlarni kesim yuzasini oshirish bilan, demak tarmoqni qurilishida ko‘p metal sarf qilinadi.

Demak tarmoqlarni loyihalash davrida, elektr energiyasini narxi va simlarni materiallarni narxi va boshqalarni, inobatga olish kerak.

Joul-Lens qonuni asosida hamma simlarda quvvatni isrofi.

$$\Delta P = I^2 \cdot r$$

Agar yil davomida simdagi tok o‘zgarmasdan qolsa unda yil davomidagi energiyasini isrofi, o‘zgarmas quvvat koeffitsiyenti tufayli.


$$\Delta A = \Delta P \cdot 24 \cdot 365 = I^2 \cdot r \cdot 8760 \cdot 10^{-3} \kappa B m - co am$$

Iste’molchilarni ishlash rejimini sutka va yil davomida o‘zgarib turish tufayli simdagi tok xam o‘zgarib turadi. Shuni uchun energiyasini isrofini keltirilgan ifoda asosida aniqlash mumkin emas, chunki unda aniqlangan energiyasini isrofi bir-necha barovar ortiqcha bo‘ladi haqiqiy isroflarga qaraganda. Liniyalarda, o‘zgarib turadigan yuklamalarni energiyasini isrofini aniqlash maqsadda, aniq vaqt uchun yaxshisi yil davomida, yuklamani quvvatini o‘zgarib turish vaqt asosida grafik tuziladi.

Yuklamani davomati asosida grafik berilgan bo‘lsa, energiyaning isrofi koordinat o‘qlari bilan va grafik bilan chegaralangan joydan jidt liniyadan yil davomida uzatilgan energiyaga proporsional.

$$A = \sqrt{3} \cdot U \cdot \text{Cos}\varphi \int_o^t idt$$

Maksimal yuklama ( $I_{max}$ ) tok balandligiga teng bo‘lgan to‘rt burchak qursak uni kardinat o‘qlar bilan chegaralagan moydani, yil davomida uzatilgan energiyasini grafigi yuzasini maydoniga teng bo‘lsa. Unda qurilgan to‘rt burchakni past tomonini maksimal energiyadan foydalanish vaqt deyiladi va T-xarfi bilan belgilanadi.



12-Rasm. Maksimal yuklamadan foydalanish vaqtini davomiylik grafigi asosida aniqlash.

Bu vaqt, liniyadan o‘tayotgan  $I_{\max}$  o‘zgarmasdan turganda, yil davomida uzatiladigan energiyani, uzata olishini ko‘rsatadi.

$$A = \sqrt{3}U \cdot \text{Cos}\varphi \cdot \int_0^t idt = \sqrt{3}U \cdot \text{Cos}\varphi \cdot I_{\max} \cdot T$$


bundan

$$T = \frac{A}{\sqrt{3} \cdot U \cdot \text{Cos}\varphi \cdot I_{\max}} = \frac{A}{P_{\max}} = \frac{\int_0^t idt}{I_{\max}} \quad (17)$$

Liniyadagi, quvvat va energiyani isrofi, undan o‘tayotgan tokni kvadratiga proporsional bo‘ladi.

Shuning uchun liniyadan o‘tayotgan maksimal tokni kvadratiga asoslanib davomat grafigi chiziladi (13-rasmda keltirilgan). Koordinat o‘qlar va shu grafik ichidagi maydonni yuzasi, uch fazali liniyalarda yil davomidagi energiyani isrofiga proporsional bo‘ladi :

$$\Delta A = 3z \int_0^t i^2 dt$$



13-rasm. Isrof vaqtini aniqlash

Oldingiday, grafikda to‘rtburchak chizamiz, uni balandligi  $J_{\max}^2$  teng bo‘ladi va moydani, grafikni maydoniga, teng bo‘lishi kerak. Shu to‘rt burchakni poydevorini, maksimal isrof vaqtini yoki isrof vaqtini deyiladi va II –deb belgilanadi.

Isrof vaqtini bu shartli vaqt, bu vaqt davomida yuklamani maksimal toki ( $I_{\max}$ ) liniyadan uzatilishida, liniyada hosil bo‘lgan energiyani isrofi, yil davomidagi energiyani isrofiga teng

$$\Delta A = 3 \cdot r \int_0^t i^2 dt = 3 \cdot r I_{\max}^3 \tau$$

Isrof vaqtini

$$\tau = \frac{\Delta A}{3 \cdot r \cdot I_{\max}^2} = \frac{\int_0^t i^2 dt}{I_{\max}^2} \quad (18)$$

Agar yuklamalar grafigi bo‘lmasa unda isrof vaqtini, xo‘jalik iste’molchilarini maksimum quvvatdan foydalanish vaqtini ( $T$ ) asosida aniqlanadi. Xo‘jalik iste’molchilarini maksimum quvvatdan foydalanish vaqtini  $T=2500-4500$  soatgacha bo‘lsa.

$$\tau = 0,69 \bullet T - 584 \quad (19)$$

O‘rtacha kvadrat vaqt toki ( $I_{\text{sr.kv.}}$ ) – tushincha kiritish mumkin. Shunaqa o‘zgarmas tok, qaysi liniyadan yil davomida uzatilganda energiyasini isrofiga olib keladi, haqiqiy isrofga teng.

Liniyadan uzatilayotgan ikkinchi darajali tok davomiylig asosida tuzilgan grafik bo‘lsa.

O'rtacha ikkinchi darajali tok asosida tuzilgan turt burchakni poydevori 8760 soatga, uni balandligi teng bo'lsa, uni moydani yil davomidagi energiyani isrofiga teng bo'ladi.

$$\Delta A = 3 \cdot r \cdot \int_0^t i^2 dt = 3 \cdot r \cdot I_{cp.KB}^2 \cdot 8760$$


Demak

$$I_{cp.KB.} = \sqrt{\frac{\int_0^t i^2 dt}{8760}} \quad (20)$$

Boshqa tomondan (18) ifoda asosida

$$S \int_0^t i^2 dt = I_{max}^2 \cdot \tau$$

Shuning uchun  $I_{cp.KB.} = I_{max} \sqrt{\frac{\tau}{8760}}$  (21)



14-rasm. Ikkinchi darajali tokni aniqlash.

Agar yuklama tokini davom etish grafiki berilgan bo'lsa, liniyani har-bir qismini oxirida ulangan yuklama asosida kelib chiqadigan energiyasini isrofini aniqlash qiyin emas.

Bu xollarda yuklamani ikkinchi darajadagi tokni davomati asosida grafik tuziladi va yuzasi aniqlanadi, planimetriyalash yoki melimetrlidagi setka asosida hisoblash usili bilan

$$\text{Unda } \Delta A = 3 \cdot r \cdot \int_0^t i^2 dt \quad (22)$$

Agar yuklama tok orqali emas, quvvat orqali ifodalangan bo‘lsa. Unda

$$\Delta A = 3 \cdot r \sum_0^t \left( \frac{P}{\sqrt{3}U \cdot \cos\varphi} \right)^2 \cdot dt = \frac{r}{H_n^2 \cos^2 \varphi} \int_0^t p^2 \cdot dt \quad (23)$$

bu yerda: R-liniya qismidagi aktiv quvvat; U-tormoqni nominal kuchlanishi; cos φ-yuklamani quvvat koeffitsiyenti.

Agar istimolchilarni grafigi berilmagan bo‘lsa, maksimal yuklama va yil davomida maksimal yuklamadan foydalanish vaqtin berilgan bo‘lsa, yuqorida keltirilganday, isrofga yo‘l qo‘yilgan vaqtin «τ» egri chiziqlar orqali aniqlanadi. (Rasm).

$$\Delta A = 3 \cdot I_{\max}^2 \cdot r \cdot \tau \quad (24)$$

yoki

$$\Delta A = 3 \cdot z \left( \frac{P}{\sqrt{3} \cdot U \cdot \cos 4} \right)^2 \cdot \lambda = \frac{P_{\max}^2}{U_n^2 \cos^2 \varphi} \quad (25)$$

Agar, o‘rtalikkinchi darajali tok berilgan bulsa

$$\text{Unda} \quad \Delta A = 3 \cdot 2 \cdot I_{cp.\kappa\theta.}^2 \cdot 8760 \quad (26)$$

Yuklama liniyani oxriga ulangan sxemalarga nisbatan, uni davomi bo‘yicha teng yuklanib chiqqan liniyalardagi energiyasini isrofi 3-marta kam bo‘ladi.

Transformatorlarda quvvat chulg‘amlaini simlarida isrof qilinadi (simlarda yoki qisqa tutashuv vaqtida  $\Delta P_m$ ) va po‘lat o‘zagida uyurma toklarga va gisteresis (pulatdagi isrof yoki salt xolat isrofi  $\Delta P_{x.x.}$ )

Joul-Lens qonuniga asosan chulg‘amlar simidan isrof.

$$\Delta P_m = 3 \cdot I^2 \cdot r_T,$$

bu yerda  $Z_T$  – transformatorni bir fazasini aktiv qarshiligi

Yuklama toklar nominal toklarga, teng bo‘lgan simlardagi (LMS) isrof

$$\Delta P_{m_n} = 3 \cdot I_m^2 \cdot r_T$$

birinchi tenglamani, ikkinchiga bo‘lamiz

$$\frac{\Delta P_m}{\Delta P_{m.n.}} = \frac{3 \cdot I^2 \cdot r_T}{3 I_n r_T} = \left( \frac{I}{I_n} \right)^2 = \left( \frac{S}{S_n} \right)^2$$

Bundan

$$\Delta P_M = \Delta P_{M.H.} \left( \frac{I}{I_n} \right)^2 = \Delta P_{M.H.} \left( \frac{S}{S_n} \right)^2 \quad (27)$$

Transformatorni po'lat qismidagi isroflar faqat uni birinchi cho'lg'amiga keltirilgan kuchlanishiga bog'liq bo'ladi, bunaqa hisoblarda keltirilgan kuchlanishni qiymati o'zgarmasligi uchun uni isrofi xam o'zgarmas.

Transformatordagi energiyasini isrofi, quvvatni isrofiga o'xshab transformatorni chulg'amidagi isrofi va po'lat kesimidagi yig'indisidan kelib chiqadi.

Yil davomidagi energiyasini isrofi

$$\Delta A = 3 \cdot I_{max}^2 \cdot r_T \cdot \tau + \Delta P_{xx} \cdot 8760 \quad (28)$$


bu yerda:  $\tau$  – isrof vaqt, konkret transformator uchin (grafik asosida aniqlanadi);  $I_{max}$  – Transformatorni yuklamani maksimal toki;:

Yuqoridagi (27) va (18) tenglamalar asosida transformatorda yo'l qo'yilgan energiyasini isrofi

$$\Delta A = \Delta P_{M.H.} \left( \frac{S_{max}}{S_n} \right)^2 \cdot \tau + \Delta P_{x.x.} \cdot 8760 \quad (29)$$

Masalalar yechish na'munalari.

Masala 1. Sxemada keltirilgan xo'jalik liniyasidagi simning iqtisodiy yuzasini aniqlang.



Alyuminiy sim tortilgan havo liniyasining kuchlanishi 35 kV va uzunligi 33 km. Uni oxiridagi istimolchini quvvati  $R=2200$  kVt va uni quvvat koeffitsiyenti  $\cos\phi = 0,8$ . Aktiv quvvatdan foydalanish maksimal soati  $T=3600$  soat.

Yechimi. 2-chi jadvaldan tokni iqtisod jibsizligi

$$j_{9K} = 1,4A./m, ^2$$

Liniyani maksimal toki


$$I_{\max} = \frac{P}{\sqrt{3} \cdot U_h \cdot \cos \varphi} = \frac{2200}{1,73 \cdot 35 \cdot 0,8} = 45,4 A$$

Simni ekonomik yuzasi

$$F_{\text{ек}} = \frac{I_{\max}}{j_{\text{ек}}} = \frac{45,4}{1,4} = 32,4 \text{ mm}^2$$

Simlarni standarti asosid kabul qilamiz A-50mm<sup>2</sup>

Misol - 2. Sxemada keltirilgan elektr tarmoqdagagi alyumin simni iqtisodiy jibsizligi kesim yuzasini aniqlang.



Tokni iqtisodiy jibsizligi jek = 1,3 A/mm<sup>2</sup>, iste'molchilarni quvvat o'zgarmas bo'lgani

Tarmoqdagagi qismlaridagi yuzasini topamiz

$$\begin{aligned} I_3 &= 30 A - ; - I_2 = 30 + 45 = 75 A \\ I_1 &= 30 + 45 + 25 = 100 A \end{aligned}$$

1) Tarmoqni har bir qismidagi simni kesim yuzasi

$$F = \frac{I_3}{j_{\text{ек}}} = \frac{30}{1,3} = 23 \text{ mm}^2 \text{ kabul qilamiz A-35 mm}^2$$

$$F_2 = \frac{I_2}{j_{\text{ек}}} = \frac{75}{1,3} = 57,7 \text{ mm}^2$$

Qabul qilingan simni yuzasi A-70 mm<sup>2</sup>

$$F_1 = \frac{I_1}{j_{\text{ек}}} = \frac{100}{1,3} = 76,9 \text{ mm}^2$$

Qabul qilamiz A - 95 mm<sup>2</sup>


2. Tarmoqni boshidan oxirigacha bir xil simni kesim yuzasini qabul qilishda (15) tenlama asosida

$$J_{\text{ек}} = \sqrt{\frac{\sum_{1}^n I^2 \cdot \ell}{\ell_1 + \ell_2 + \ell_3}} = \sqrt{\frac{100^2 \cdot 4 + 75^2 \cdot 6 + 30^2 \cdot 5}{4 + 6 + 5}} = 72,2 A$$

Liniyani o‘zgarmas yuzasi.

$$F = \frac{I_{\text{ек}}}{j_{\text{ек}}} = \frac{72,2}{1,3} = 55,5 \text{ mm}^2$$

Qabul qilingan simni kesim yuzasi A=70 mm<sup>2</sup>



15-rasm

3-misol. 15-rasmda keltirilgan grafik asosida, kuchlanishi 10 kV, uzinligi 8 km, A-35 mm<sup>2</sup> sim osilgan, uch fazali havo liniyanidagi energiyani isrofi  $\Delta A$  aniqlangan, iste'molchilarni quvvat koeffitsiyenti  $\cos \varphi = 0,9$ . Shu grafik uchun T,  $\tau$  va  $J_{\text{cr.kv.}}$ -Ularni qkiymatlarini toping.

Yechim: Liniyaning aktiv qarshiligi

$$\tau = \tau_0 \cdot \ell = 0,89 \cdot 8 = 71 \Omega \cdot m$$

$$\text{bu yerda: } \tau_0 = \frac{1000}{\gamma \cdot F} = \frac{1000}{32 \cdot 35} = 0,89 \Omega \cdot m / km$$

Yil davomidagi elektr energiyasini isrofi

$$\begin{aligned} \Delta A = 3 \cdot \tau \int_0^{8760} i^2 dt &= 3 \cdot 7,1 (100^2 \cdot 500 + 80^2 \cdot 500 + 60^2 \cdot 2000 + \\ &+ 40^2 \cdot 1000 + 30^2 \cdot 3000 + 20^2 \cdot 1760) \cdot 10^{-3} = 434605,2 \kappa Bm \end{aligned}$$

Maksimal quvvatdan foydalanish vaqtini aniqlashda (17) ifodadan foydalananamiz

$$\tau = \frac{\int_0^t i \cdot dt}{I_{\max}} = \frac{100 \cdot 500 + 80 \cdot 500 + 60 \cdot 2000 + 40 \cdot 1000 + 30 \cdot 3000 + 20 \cdot 1760}{100} = 3752 - \text{coam}$$

Isrofiga yo‘l qo‘yligan vaqt (18) ifoda asosida topamiz

$$\gamma = \frac{\int_0^t i^2 dt}{I_{\max}^2} = \frac{100^2 \cdot 500 + 80 \cdot 500 + 60^2 \cdot 2000 + 40^2 \cdot 1000 + 30^2 \cdot 3000}{100^2}$$

ii

$$+ 20^2 - 1760 = \frac{20404000}{10000} = 2040,4 - coam$$

ikkinchi darajali tokni (20) ifoda asosida

$$I_{cp.ke.} = \sqrt{\frac{\int_0^t i^2 dt}{8760}} = \sqrt{\frac{20404000}{8760}} = 48,3A$$

yoki (21) ifoda asosida

$$I_{c.ke.} = I_{\max} \sqrt{\frac{\tau}{8760}} = 100 \sqrt{\frac{2040,4}{8760}} = 48,3A$$

## 5-Bob. Sim va kabellarni qizish asosida hisoblash

### §5.1. Ochiq simlarni qizishi asosida ruhsat etilgan yuklamalar

Simlardan elektr tok o‘tayotganda undan issiqlik chiqadi, bu issiqliknin Joul-Lens qonuni asosida aniqlash mumkin.

$$Q = I^2 \cdot r \cdot t \quad (30)$$

bu yerda: Q - issiqlik qiymati Vt.sek (J); I - tok (A); r - simni aktiv qarshiligi (Om); t – vaqt (sek)

Sim tok o‘tayotganda qizib boradi, bir vaqtida simdan chiqayotgan issiqlik uni yuzasidan havoga olib ketayotgan issiqlik bilan tenglashadi. Simni issiqligi oshib borishi sari, uni qizish tezligi kamayib boradi.

Atrofdagi muhit issiqligiga nisbatan berilgan sim uchun belgilangan tok asosida issiqligi oshib borish – o‘zgarmas qiymat agar atrofdagi sharoit o‘zgarmas bo‘lganda (ya’ni shamolni kuchi, yomg‘ir va boshqalar).

Havo liniyalaridagi simlarni issiqligi kamayib borishi asosan konveksiya orqali bo‘ladi, ya’ni simni atrofdagi havoni issiqligini xarakati tufayli.

Yuqorida aytilgan xodisalar, izolyatsiyalangan simlar va kabellarga xam ta’luqli, agar izolyatsiya qilingan simlar va kabellar havoda va kabel kanalida, binolarda yoki cherdaklarda o‘tkazilgan bo‘lsa. Yerga yotkizilgan kabellarda yoki izolyatsiyalangan simlar shuvak ostida yotqizilgan bo‘lsa, sovutilishi yer yoki devorni issiqliknini o‘tkazuvchanligiga bog‘langan bo‘ladi. Simni qizishi belgilangan darajasidan oshishi mumkin emas. Shuning uchun xisoblashni maqsadi shundan iboratki, simdan o‘tkaziladigan tokni qiymatini aniqlash konkret sharoit uchun. Shu tok o‘tayotganda simni qizishi belgilangan miqdoridan oshib ketmasligi kerak.

Havo liniyalardagi ochiq simlari uchun uni maksimal qizish issiqligi +70°S oshmasligi kerak. Bu ko‘p bo‘lmagan xaroratdan oshib ketsa simlarni bir birlari bilan ulangan joyida okislanish protsesi oshib boradi, okis hosil bo‘lgan joyini qarshiligi xam oshib boradi, demak okislangan kontaktlar va qismlarni qizishi oshib boradi va simni ulangan joyida simni uzilishiga olib keladi. Binolar ichida ochiq simlar tortilgan bo‘lsa xam, uni qizishi +70°S oshmasligi kerak emas, undan ortiq qizishi yong‘inga olib kelishi mumkin. Undan tashqari simlarga o‘tirgan changlarni parchalanish ta’sirida yoqimsiz hidlar hosil bo‘ladi.

Simlarni qizishini xisoblash uchun atrofdagi havoni xaroratini bilish kerak. Havoni dastlabki xaroratini + 25°S deb qabul qilinadi, ichki tarmoqlar uchun o‘rtacha xarorat deb +15°S qabul qilinadi.

Elektr toki o‘tayotganda simdan issiqlik chiqadi, bu issiqlik (30) ifoda asosida topiladi. Qizigan simni yuzasidan bu issiqlik havoga tarqatiladi:

$$Q^I = cS(t - t_o)\tau \quad (31)$$

bu yerda: simni yuzasidan issiqliknin tarqatilish koefitsiyenti, ( $Vt/sm^2$ ); S – simni yuzasi ( $sm^2$ ); t – simni yuzasini xarorati, ( $^{\circ}S$ );  $t_o$  – sim atrofidagi havoni harorati, ( $^{\circ}S$ );  $\tau$  - vaqt, (sek).

Agar simni xarorati o‘rnatilsa, unda simdan chiqayotgan issiqlik muxitga tarqalayotgan issiqlik bilan tenglashgan bo‘ladi.

$$I^2 \cdot r \cdot \tau = s \cdot S(t - t_0) \cdot \tau$$

Unda  $I^2 = \frac{cS(t-t_0)}{r}$  (32)

Bir tomondan

$$S = \pi dL \tau = \frac{l}{\gamma F} = \frac{4l}{\pi d^2 \lambda}$$

bu yerda:  $d$  – simni diametri, mm;  $L$  – simni uzunligi, m;  $\gamma$  - sim materialini solishtirma o‘tkazuvchanligi ( $m/\text{Om} \cdot \text{mm}^2$ )

32 – tenglamadagi « $S$ » va « $r$ » o‘rniga ularni qiymatlarini qo‘ysak

$$I^2 = \frac{c\pi^2 d^3 \lambda (t-t_0)}{4} \text{ yoki } I = \frac{\pi}{2} \sqrt{cd^3 \gamma (t-t_0)} \quad (33)$$

Agar (33) tenglamaga kirgan qismlar aniq bo‘lsa, unda simdan o‘tkazish mumkin bo‘lgan tokni qiymatini topish mumkin. Aslida bu tokni tablitsalardan aniqlash mumkin. Bu ifodani simni boshqa konkret sharoitda ishlash tokini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘ladi.

Issiqlikni o‘zgarishi bilan simni yuzasidan o‘tadigan issiqlik koeffitsiyenti juda kam miqdorda o‘zgariladi, taxminan ana shu qiymatini boshqa xarorat uchun xam qabul qilish mumkin, demak.

$$I^I = \frac{\pi}{2} \sqrt{cd^3 \gamma (t-t_0)} \quad (34)$$

Agar (35) tenglama (33) ga bo‘lsak.

$$\frac{I^I}{I} = \frac{\sqrt{(t^I - t^0)}}{(t - t_0)} \quad (35)$$

Bu xarorat koeffitsiyenti kataloglarda keltirilgan bo‘ladi. + 40° S dan - 30° S gacha.

$$k_t = \frac{\sqrt{(t^I - t^0)}}{(t - t_0)}$$

Ifoda asosida konkret sharoitda simdan o‘tkazishi mumkin bo‘lgan yuklama tokni qiymatini topish mumkin.

$$\frac{I^I}{I} = k_t$$

bu yerda:  $I$  – simni nominal toki (bu tok simdan o‘tayotganda simni issiqligi  $t_0 = +25^\circ S$  dan ochiq simlar uchun ruhsat etilgan  $t = +70^\circ S$  gacha qizitadi), bu tok kataloglardan simni kesim yuzasi asosida beriladi;  $I^1$  – ruhsat etilgan yuklama tok (agar havoni dastlabki issiqlik  $t^0 = +25^\circ S$  teng bo‘lmagan sharoitda);  $K_t$  – simni xarorat koeffitsiyenti, (kataloglardan olinadi yoki (35) tenglama asosida aniqlanadi.)

Agar konkret sharoitda uzatiladigan yuklama toki berilgan bo‘lsa (36) tenglama asosida, shu sharoitni talabiga moslashgan simni yuzasini aniqlash mumkin, ya’ni  $I = I^1 / K_t$  va shu tok asosida katalogdan kerakli simni yuzasini qabul qilamiz.

## **§5.2. Izolyatsiyalangan simlarni qizishi**

Izolyatsiya qilingan simlarni izolyatorlarda joylashgan ochiq tarmoqlarida, ularni sovishi ochiq simlargaga nisbatan ancha muncha murakablanadi, chunki issiqligi oldin izolyatsiyani qizitib boradi va undan keyin havoga konveksiya orqali havoga tarkatiladi. Issiqlikka ko‘rsatiladigan qarshiligi izolyatsiyalangan simni sovitilish protsesiga kam ta’sir keltiradi, shuning uchun issiqlik muvozanat tenglamasi faqat issiqlik o‘tkizanlik koeffitsiyentiga o‘zgaradi. Simga ruhsat etilgan tok, kuyidagi tenglama asosida ifodalanadi.

$$I = \pi / 2 \sqrt{cd^3 L(t - t_0)}$$

Havoni xaroratini binolarni ichida havoni xaroratini qabul qilinadi. Odatda bu xaroratni  $+25^\circ S$  deb qabul qilinadi. Simni tolasini issiqligini  $t$  izolyatsiya qilingan materialiga bog‘liq bo‘ladi.

Rezinka yoki xlорvinil bilan koplangan simlar uchun ruhsat etilgan qizishi  $t = +55^\circ S$ . Issiqlikka puxtali rezinka bilan koplangan simlar uchun  $t = +65^\circ S$ . Maxsus izolyatsiyalar uchun (asbest yoki shisha)  $t = 100 \div 120^\circ S$ .

Izolyatsiyalangan simlarni yuklanishi ularni qurilishiga bog‘liq, chunki ularni sovitilish shunga bog‘liq.

Agar izolyatsiyalangan simlar trubani ichida o‘tkizilgan bo‘lsa, unda ularni o‘tkaziladigan toki kamayadi, qizishga ruhsat etilgan qiymatidan oshib ketmasligi uchun.

Trubani ichidan ikkita sim o‘tkazilsa ularni yuklama toki taxmindan 17%, uchta sim –25% va 4-ta sim o‘tkazilishida-33% ga kamaytiriladi.

Agar binoni ichidagi issiqlik +25°С, unda xarorat koeffitsiyentini kiritish kerak.

$$k_t = \frac{\sqrt{(t^1 - t^0)}}{(t - t_0)} = \sqrt{\frac{55 - 25}{65 - 15}} = \sqrt{\frac{30}{40}} = 0,93$$

Yoki katalogdan olinadi.

### §5.3. Kabellarni qizishi

#### §5.3.1. Yerga yotkizilgan kabellarga uzoq ruhsat etilgan yuklamalari

Yerga yotkizilgan kabellarni qizigan tolalarini issiqligi atrofidagi muxitga, issiqliknini o‘tkazuvchanligi orqali tarqatiladi. Shuning uchun issiqliknini o‘tkazish qonuni ifoda orqali ifodalanadi, Om qonuniga o‘xshash va issiqliknini muvozanatlik tenglama shunday ifodalanadi.

$$n \cdot I^2 \cdot r = \frac{t - t_0}{R_{uz} + R_{ob} + R_{zem}} \quad (37)$$

bu yerda: n – kabel tolasining soni; r – simning aktiv qarshiligi;  $t_0$  – yerning issiqligi; t – kabel tolalarini issiqligi;  $R_{uz}$  – kabel izolyatsiyasini issiqlik qarshiligi;  $R_{ob}$  – kabel qobig‘ini issiqliga qarshiligi;  $R_{zem}$  – kabeldan yerni yuzasigacha bo‘lgan qatlaminini issiqliknini o‘tkazishiga ko‘rsatiladigan qarshilik.

Izolyatsiyani issiqlikka ko‘rsatiladigan qarshilik o‘zgarishi juda kam miqdorda bo‘lgani uchun, uni o‘zgarmas deb qabul qilinadi. Yerning issiqlik qarshiligi tuproqni tuzilishiga bog‘liq.

Bir xil chuqurlikda tuproq katlamiga yotkizilgan, har-xil yuklangan kabellarni tekshirishiga asoslanib yerni issiqlikni o'tkazish qarshiligini xam o'zgarmas deb qabul qilish mumkin.

Unda (37) ifodaga, 1 metr kabel tolalarini qarshiligini, xamda shu uzunlikni issiqlik qarshiligini qo'yib va ularni yagona koefitsiyentga Sk keltirilsak, unda kabelga ruhsat etilgan tokni ifodasisi kelib chiqadi.

$$I = C_k \sqrt{\gamma \cdot F(t - t_0) / n} \quad (38)$$

Bu ifoda yuklama tokni kabellarda, tolalarini kesim yuzasiga, uni o'tkazuvchanligiga, haroratini farqiga va tolalarini soniga bog'iqligi.

Kabellar tokini qiymati jadvallardan olinadi, ular uzoq ruhsat etilgan yuklamalar uchun aniqlangan va quyidagi shartlar asosida topiladi :

- 1) Atrof muhitni (erni) harorati deb eng issiq oyni o'rtacha maksimal harorati qabul qilinadi. Yerga yotkizilgan kabelni chuqurligi 0,7metr bo'lganda, yerni o'rtacha issiqligini +15° deb qabul qilinadi.
- 2) Kabellar tolasini ruhsat etilgan maksimal qizish, ularni kuchlanishiga bog'liq, ya'ni, kabelni kuchlanishi (kV) 3 kV-gacha; 6 kV; 10 kV va 35kV

Tolalarni issiqligi 80°S; 65°S; 60°S; 50°S

- 3) Yerni qatlqidagi namligini 9% deb qumloq yerlar uchun va sariq tuproqli yerlar uchun 14% deb qabul qilinadi.

Shu shartlar asosida kabellarga uzoq vaqt davrida o'tkaziladigan yuklama toklar aniqlanib kuchlanish 3 kVdan 35 kV gacha bo'lganda, jadvallarda keltirilgan [6].

Amalda, jadvaldagi toklarni aniqlashdagi sharoitlarga nisbatan o'zgarishi mumkin.

- 1) Unda, sharoitga mos keladigan yuklama tokni topish uchun yeril xarorat koefitsiyenti kiritiladi,

$$K_t = t - t_0 / t - 15^0C$$

- 2) Agar bitta transheyaga bir nechta kabel yotqizilsa, unda ularni issiqlik o'tkazishi og'irlashadi, bu esa yonma yon yetkazilgan kabellarni

oralig‘iga bog‘langan bo‘ladi. PUE talaba asosida kabellarni oralig‘i 100 mm;200 mm va 300mm, ruhsat etiladi. Shu oroliqlar asosida K<sub>n</sub>-kabellarni soniga kiritiladigan koeffitsiyentni qiymati qabul qilinadi.

Unda kabellarga ruhsat etilgan yuklama tok quyidagicha topiladi

$$I^I = k_H \cdot k_t \cdot I \quad (39)$$

Agar yuklama toklar aniq bo‘lsa unda shu tenglama ostida kabelni kerakli tolalarini kesim yuzasini qabul qilish mumkin, ya’ni :

$$I = \frac{I^I}{k_n k_t} \quad (40)$$

Shu tok asosida kabelni kerakli turi katalog orqali qabul qilinadi.

1).Havoda o‘tkazilgan kabellarni, uzoq ruhsat etilgan yuklama toklar, yerga yotkizilgan kabellarga nisbatan, 65-75 % kam bo‘ladi. Chunki ularni issiqliknii o‘tkazish sharoiti og‘irlashish va dastlabki harorati +25<sup>0</sup>S tufayli.

2) Suvga dengizlarni va ko‘llarga yetkizilgan kabellarni uzoq vaqt davomida ruhsat eilgan yuklama toklarni qiymati jadvalda keltirilgan qiymatiga nisbatan + 30% ko‘proq bo‘ladi. Chunki suvni tegida yotkizilgan kabellarni sovutish sharoitlari ancha yaxshi bo‘ladi; yerda yotkizilgan kabellarga nisbatan. Birinchidan – yerga nisbatan, suvni issiqlik o‘tkazuvchanligi ancha yuqori bo‘ladi, ikkinchidan – suvda, issiqlik konvensiya (suvini qatlamlarini almashinishi) orqali olib ketiladi va uchinchidan tokni aniqlashda kabellarni soniga kiritilgan koeffitsiyent inobatga olinadi.

Suvini dastlabki issiqligi yerni issiqligiga uxshash +15<sup>0</sup>S deb qabul qilinadi.

### **§5.3.2. Simlar va kabellarni eruvchan saqlagichlar bilan himoyalash**

Agar simdan (kabeldan) o‘tayotgan tokning qiymati ruhsat etilgandan oshib ketsa izolyatsiyalar buzilishiga hamda simlarning tolalarini erishiga olib keladi.

Bundayholatlar atrof muhitga katta zarar keltirishi mumkin, ayniqsa yong‘in va portlash xavfi bor xonalarda. Shuning uchun simlarda xavfli toklar hosil bo‘lishida ularni avtomatik xolatda o‘chirish chorasi ko‘rilishi shart. Xo‘jalik

tormoqlarda oddiy uskunalar qo‘llaniladi, ulardan biri bu eruvchan saqlagichlar, ular past kuchlanish tormoqlarda ko‘p ishlatiladi.

Saqlagichlarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

1) Simlarda, xavfli ortiqcha yuklama toklar paydo bo‘lishi bilan o‘chirish.

2) Qisqa tutashuv toklar hosil bo‘lishi zahoti simlarni, tarmoqdan uzish.

Ko‘pincha saqlagichlarga ikkinchi talab qo‘yilish mumkin.

Saqlagichlar asosan ikki qismdan iborat bo‘ladi, korpus va eruvchan qismdan. Saqlagichni nominal toki eruvchan qismini maksimal tokiga nisbatan olinadi.

Eruvchan qismi quyidagi me’yorlardagi tok qiymatlarida bo‘ladi : 6, 10, 15, 20, 25, 35, 60, 80, 100, 125, 150, 160, 180, 200, 225, 250, 260, 280, 300, 350, 400, 500, 600, 700, 850 va 1000 A.

Eruvchan qismini materialiga qarab, saqlagichlar inersion va inersion bo‘lmagan turlariga bo‘linadi (16-rasm). Inersion toifasiga kiradigan eruvchan qismi katta solishtirma qarshilikka ega bo‘lgan materiallardan qilinadi (ruh, qo‘rg‘oshin va ularni qo‘ymalari). Ularni ortiqcha yuklama toklari o‘tayotganda erish vaqtı ko‘proq, ikkinchi turlariga qaraganda, ikkinchi turli eruvchan qismi, kam solishtirma qarshilikka, ega bo‘lgan materiallardan qilinadi (misdan, kumushdan yoki ularni aralashmasidan)


Saqlagichlarni konstruksiyalari har xil bo‘ladi; probkasimon, patronli, trubkasimon, shu bilan birga eruvchan qismi o‘rnatilgan trubkani ichiga kvars qum to‘ldirilgan bo‘ladi (ayrim xollarda to‘ldirilmaydi).

Saqlagichni, eruvchan qismi quyidagi xususiyatlar bilan tasniflanadi:

$I_n$ - nominal tok bu tok ta’sirida eruvchan qismi uzoq vaqt davomida erimasdan va qizimasdan  $60-70^0S$  oshmasdan ishlaydi.

$I_{n \ min}$ -sinov o‘tkaziladigan nominal toki, bu tok o‘tayotganda eruvchan quyma 1-2 soat ichida erib tushmaydi.

$I_{max}$ -sinov o‘tkizilishdagi maksimal tok, bu tok o‘tayotganda 1-2 soat ichida eruvchan quymaning elementi erib tushadi.



16 – Rasm. Inersion va inersion bo‘lماgan eruvcha saqlagichlarni tasniflari.

Sinov va nominal toklarni o‘zaro bog‘lanishi 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadvali. Sinov va nominal toklarni o‘zaro bog‘lanishi

	Eruvchan elementini nominal toki (A)	Sinov o‘tkaziladigan vaqt (soat)	Sinov toki	
			$I_{\text{min}}$	$I_{\text{max}}$
Past kuchlanish	6-10	1	1,5 Iv	2,1 Iv
Saqlagich	15 i25	1	1,4 Iv	1,75 Iv
	35-350	1	1,3 Iv	1,6 Iv
	430-1000	2	1,3 Iv	1,6 Iv

Sinov tokini minimal qiymati, bu chegaraviy tok, qaysini ta’sirida saqlagichni eruvchan elementi (qismi) eriy boshlanadi, uzoq vaqt davomida.

Sinov maksimal tokda oshganda, erish vaqt qisqarib boradi, erish vaqtinini qisqarishi, saqlagichni eruvchan elementini inersionli yoki enersionga oid bo‘lماganliga bog‘liq bo‘ladi.

Inersiyaga oid bo‘lماgan erivchan elementini.

Xarakter istasida nominal tokdan ikki yarim baravar tok nuxtasi bor ( $2,5 I_n$ ) bu nuqtasida eruvchan elementini 10 sekund davomida erib tushadi. Shu xususiyatini asosida ular tayyorlanadi.

Eruvchan saqlagichni tanlashda yuklamalarni turlarini inobatga olish kerak.

1) Ulanish va ishlash davomida toklari tembravaydigan yulamalar (yoritish lampalar, fazal ratorli elektr motorlar va boshqalar) ishlash tokidan saqlagichni ishlash katta yoki teng bo‘lishi kerak.

$$I_e \geq I_{pa\delta} \quad (41)$$

2) Qisqa tutashgan elektr motorlarni ishga (10 sekund ichida) tushirish toklari nominal toklarga nisbatan 5-7,5 borabor, ortiqcha bo‘lishi inobatga olgan xolda

$$I_e \geq \frac{I_{nyc}}{\lambda} \quad (42)$$

bu tenglamada u ishga tushish sharoitini inobatga oladigan koeffitsiyent xar doim  $\lambda > 1$  katta bo‘ladi. Nominal yoki ishga tushirish toklar asosida saqlagichlarni toklarini tanlash.

3) Bir nechta elektr motorlar ulangan magistral liniyani himoya qilish uchun eruvchan saqlagich ikkita shart asosida qabul qilinadi.

Birinchidan, saqlagichni eruvchan qismi ulangan elektromotorlarni va botka yuklamalarni yig‘indi toklarni ko‘tara olishi kerak, ya’ni :

$$I_e \geq \sum_I^n I_{pa\delta} \quad (43)$$

Ikkinchidan, eng quvvati katta qisqa tutashgan rotorli motorni, qolgan iste’molchilar ishlab turganda oxirisini ishga tushirish tokinini ko‘tara olishi kerak.

$$I_e \geq \sum_I^n I_{pa\delta} + \frac{I_{nyc}}{\lambda} \quad (44)$$

Shu (44) yoki (45) ifoda asosida topilgan toklarni qaysi biri katta bo‘lib chiqsa shuni asosida saqlagich qabul qilinadi.

O’rnatilgan saqlagichlarga bog‘liq bo‘lgan kabel va simlarni kesim yuzasini aniqlash qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval. Saqlagichlarga bog‘liq bo‘lgan kabel va simlarni kesim yuzasini aniqlash.

Ishga tushirish shartlari	Saqlagichlarni nominal toklari (A)
O’zgarmas tok motorlar va faza rotorli asinxron motorlar	
a) Uzoq vaqt davomida ishlash	$I_v = I_{nom}$

b) Qisqa vaqtli-qayta ishslash rejimi (P.V=25%)-	Iv=1,25 I <sub>nom</sub> (41)
Qisqa tutashgan asinxron rotorli motorlar :	
a) pasaytirilgan kuchlanish orqali ishga tushirish (statorni chulg‘amlarni almashtirish, avtotransformotorlar orqali va b.u.)	Iv=I <sub>i.t</sub> /3,5 (42)
b) salt xolatda yoki kam yuklangan xolda, to‘liq kuchlanishda ishga tushirishda	
v) Qisqa vaqtli-qayta ishslash rejimda (P.V.-25%)---	Iv= I <sub>i.t</sub> ,2,5
g) Eng og ‘ir ishga tushish sharoitda (to‘liq yuklama bilan ishga tushirish sharoit)---	Iv= I <sub>i.t s</sub> /2
	Iv= I <sub>i.t</sub> /1,6

Simlarni va kabellarni kesim yuzasi bir tomonidan yuklama toklarga javob berishi kerak, simlardan o‘tayotgan toklar qizish asosida ruhsat etilgan tokdan ( $I_{ruh}$ ) oshmasligi uchun, saqlagichlarni toklari bilan moslashgan bo‘lishi kerak. Ularni moslashtirishda shuni bilish kerak. Saqlagichlar qisqa tutashuv toklardan himoya qilayaptimi yoki ortiqcha yuklama toklardan himoya qilayaptimi.

Ortiqcha yukladan himoya qilinganda, simni ruhsat etilgan toki

$$I_{ruh} > 1,25 Iv \text{ yoki } Iv < 0,8 I_{ruh} \quad (45)$$

Qisqa tutashuv toklardan himoya qilishda

$$I_{ruh} > 0,33 Iv \text{ yoki } Iv < 3 I_{ru} \quad (46)$$

Ichki tarmoqlarni himoyasini uchun saqlagichlar o‘rniga avtomatlar o‘rnatilgan bo‘lsa, unda ortiqcha yuklama toklardan himoya qilishda (46) ifoda asosida aniqlanadi.

Agar faqat qisqa tutashuv toklardan himoya qilishda, issiqlik uzgichli avtomatlar uchun  $I_{ruh} > I_{avt}/1,5$

elektromagnit uzgich avtomatlar uchun  $I_{ruh} = I_{avt}/4,5$

Bu yerda: $I_{avt}$ -avtomatlarni ishslash toklari.

### Masalalar.

1- Masala: AS-50mm<sup>2</sup> sim osilgan havo liniya ikkita har xil sharoitda foydalanishidagi ruhsat etiladigan maksimal yuklami tokini aniqlang:

- 1) Havoni o‘rtacha xarorati +40°S teng bo‘lganda.
- 2) Havoni o‘rtacha xarorati – 30°S teng bo‘lganda.

Yechimi: Ruhsat etilgan maksimal yuklama tok  $I^1 = I \sqrt{t - t_o / t - t_o}$  ifoda asosida topiladi shuning uchun biz ikki sharoit uchun xarorat koeffitsiyentini topamiz.

$$1) \text{ Shart uchun } Kt_{+40} = \sqrt{t - t_o^1 / t - t_o} = \sqrt{70 - 40 / 70 - 25} = 0,8$$

$$2) \text{ Shart uchun } Kt_{-30} = \sqrt{70 + 30 / 70 - 25} = 1,49$$

Ruhsat etilgan toklar

$$1) \text{ Birinchi sharoit uchun } I^1 = I \cdot Kt_{+40} = 210 \cdot 0,8 = 168A$$

$$2) \text{ Ikkinci sharoit uchun } I^1 = I \cdot Kt_{-30} = 210 \cdot 1,5 = 315A$$

2-Masala: Alyumin sim osilgan havo liniya o'rtacha xarorati  $+35^\circ S$  joyda qurilgan va undan  $220A$  yuklama tok o'tkazilishi kerak bo'lsa. Shu liniyaga osiladigan simni yuzasini toping.

Yechimi:

$$1) \text{ Liniyani xarorat koeffitsiyentini aniqlaymiz } Kt_{+30} = \sqrt{70 - 35 / 70 - 25} = 0,88$$

$$2) \text{ Simni yuzasini aniqlaydigan tokni topamiz } I = I^1 / Kt_{+30} = 220 / 0,88 = 250A.$$

Katalogdan shu tok asosida simni kesim yuzasi  $A-70$  qabul qilamiz uni ruhsat etilgan toki  $265A$

3-Masala: Kuchlanish  $10kV$  ikkita kabelni kesim yuzasini aniqlang, kabellar yerda bitta transheyada joylashgan va ularni oralig'i  $100mm$ , yerni xarorati  $20^\circ S$  bo'lsa. Ulardan uzatiladigan yuklamalarni quvvati  $3000 kV$  va quvvat koeffitsiyenti  $\cos\varphi = 0,8$

Yechimi: Bitta kabeldan uzatiladigan tokni topamiz.

$$I^1 = R / 2 \cdot \sqrt{3 \cdot U \cdot \cos\varphi} = 3000 / 2 \cdot \sqrt{3 \cdot 10 \cdot 0,8} = 108,4 A$$

Bu tok katalogdagi tokka moslashgan bo'lishi kerak. Ya'ni

$$I \geq I^1 / Kt \cdot Ki = 108,4 / 0,90 \cdot 0,88 = 136,8 A$$

$$Kt_{20} = \sqrt{60-20 / 60-15} = 0,88; \quad Ki = 0,95 \text{ katalogdan.}$$

Katalogdagi eng yaqin tok  $140A$ . Bu tok  $30x50mm^2$  alyuminli tolali kabel mos keladi yoki  $150A$  mo'ljallangan mis tolali  $3x35mm^2$  kabel mos keladi.

**4-Masala:** Kuchlanishi 6 kV podstansiyani quvvat transformotorlaridan bo‘linish qurilmasigacha uchta  $3 \times 95 \text{ mm}^2$  tolali kabellar bitta transheyaga 200mm oraliqda yotkizilgan, yerni xarorati  $10^\circ\text{S}$ . transformotorni yuklamalarini quvvati 6000 kVt va quvvat koeffitsiyenti  $\text{Cos}\varphi = 0,85$ . Shu yuklanishni kabellarni qizishini aniqlang.

Yechish: har bir kabeldan o‘tadigan tokni topamiz.

$$I^1 = R / 3 \cdot \sqrt{3} \cdot U_n \cdot \text{Cos}\varphi = 6000 / 3 \cdot 1,73 \cdot 6 \cdot 0,85 = 227 \text{ A.}$$


Havo va kabellarni soniga kiritilgan koeffitsiyentlarni inobatga olgan xoldagi kabelga ruhsat etilgan tok

$$\text{Idan} = K_n \cdot K_t \cdot I = 0,87 \cdot 1,05 \cdot 295 = 269 \text{ A.}$$

Katalog asosida  $K_n = 0,87$ ;  $K_{t10} = 1,05$  va  $3 \times 95 \text{ mm}^2$  kabel In = 295A

Kabelni qizish xarorati  $I^1 = I \cdot \sqrt{t - 10 / 65 - 15} I^1$  ifoda asosida  $t-10 = (227/295) \cdot 65 = 50$  yoki  $t = 50+10=60^\circ\text{S}$  bu qizishi ruhsat etilgan qizishdan ( $+65^\circ\text{S}$ ) kam. Demak bizni qoniqtira oladi.

**5-Masala:** 15-rasmida keltirilgan ta’mirlash ustaxonasida elektr motorlar va yoritish lampalar o‘rnatilgan. Ularga himoyalar o‘rnatiladigan joylarini aniqlab chiqilsin va ishlash toklarini toping.



17-rasm. Hisoblash sxemasi


Keltirilgan iste’molchilarni ko‘rsatkichlari jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Iste’molchilar	Elektr motorlar				Yoritish lampalari
	D1	D2	D3	D4	
Quvvati R-kVt	20	2.8	14	14	8

Turlari	F.r.	K.t.	K.t.	K.t	-
Ishga tishirish tokni karraligi $K_i$	1.6	6.0	5.0	5.0	1.0
Foydali ish koefitsiyenti $\eta$	0.88	0.84	0.88	0.88	-
Quvvat koeffitsiyenti sos $\varphi$	0.9	0.85	0.88	0.88	1.0
Yuklanish koefitsiyenti $K_{yu}$	0.9	1.0	0.95	1.0	1.0

17-rasmdagi iste'molchilarni va magistral liniyalarni himoya qiladigan eruvchan saqlagichlarni joylashtirib chiqamiz (18-rasmga qarang)



18-rasm. Saqlagichlarni o'rnatish sxemasi

Iste'molchilarni nominal, ishchi va ishga tushirish toklari asosida eruvchan saqlagichlarni toklarini topamiz

1) Yoritish liniyasini nominal toki.  $I_{n,l} = P_l / \sqrt{3} U_n = 8 / \sqrt{3} * 0,38 = 12,2 \text{ A}$

$$I_{n,l} = 12,2 \text{ A} \quad \text{qabul qilamiz } I_{e.s.} = 15 \text{ A}$$

BSh-2uchun 3 va 4chi motorlarning toklari

$$I_{n,3,4} = R / \sqrt{3} U_n \cdot \cos \varphi \cdot \eta = 14,0 / 1,73 \cdot 0,38 \cdot 0,88 \cdot 0,88 = 27,4 \text{ A}$$

$$I_{ishchi,3} = I_n \cdot K_{yukl,3} = 27,4 \cdot 0,95 = 26,3 \text{ A}$$

$$I_{ishchi,4} = I_n \cdot K_{yuka,4} = 27,4 \cdot 1 = 27,4 \text{ A.}$$

$$I_{e.s.} > I_n \cdot K_i / \infty = 27,4 \cdot 5/2,5 = 60 \text{ A}$$

BSh - 1 – Birinchi elektr motorni nominal toki

$$I_{n,1} = R_1 / 3 \cdot \cos \varphi \cdot \eta = 20 / 1,73 \cdot 0,38 \cdot 0,9 \cdot 0,88 = 38,4 \text{ A}$$

$$I_{ishchi,tok} = I_{n,1} \cdot K_{yukl,1} = 38,4 \cdot 0,9 = 34,6 \text{ A.}$$

Faza rotorli elektromotorlar uchun

$$I_{e.s.} > I_{ishchi} = 34,6 \text{ A}$$

$$\text{Qabul qilamiz } I_{e.s.} = 35 \text{ A.}$$

BSh – 1 ikkinchi motor uchun

$$I_{n2} = R_2 / 3 \ln \cos \varphi \cdot \eta_2 = 2,8 / 1,73 \cdot 0,38 \cdot 0,84 \cdot 0,85 = 5,96 \text{ A}$$

$$I_{\text{ishchi tok}} = I_{n2} \cdot K_{\text{yukl}} = 5,96 \cdot 1 = 5,96 \text{ A}$$

$$I_{e.s.} > I_{n2} \cdot K_i / \infty = 5,96 \cdot 6 / 2,5 = 14,3 \text{ A.}$$

Qabul qilamiz

$$I_{e.s.} = 15 \text{ A.}$$

BSh – 1 va BSh – 2 orasidagi eruvchan saqlagichni nominal toki

$$I_{g.c.(max)} = \Sigma 27,4 + \frac{27,4 \cdot 5}{2,5} = 82,2 \text{ A}$$

$$\text{Qabul qilamiz } I_{e.s.} = 100 \text{ A}$$

TP va BSh – 1 orolig‘idagi tarmoqni himoya qilish


$$I_{mar1} = m(\Sigma p + \frac{I_{HH}}{\infty}) = 0,85(27,4 + 34,6 + 14,3 + \frac{27,4 \cdot 5}{2,5}) = 111,4 \text{ A}$$

$$\text{Qabul qilamiz } I_{mag-1(e.s.)} = 150 \text{ A.}$$

Bu yerda  $m$  – iste’molchilarini bir vaqtida ishlash koeffitsiyenti  $-0,85$ .

$\infty$  – K.T. rotorli elektr motorlarni ishga tushirish sharoiti inobatga oladigan koeffitsiyent. Masalani shartida ko’rsatilmaganligi uchun biz normal rejimni qabul qilamiz ya’ni,  $\alpha = 2,5$ .

6-Masala:



19-rasm. 6-masalga oid.

19-rasmida keltirilgan iste’molchilarini himoya qilish uchun avtomatlar va eruvchan saqlagichlarni tanlang. Agar tarmoqni nominal kuchlanishi 0,380 V. elektr motorlarni va yoritish tarmoqlarni ko’rsatkichlari jadvalda keltirilgan.

## 6 jadval. Elektr motorlarni va yoritish tarmoqlarni ko‘rsatkichlari

Iste’molchilarining ko‘rsatkichlari	El.motorlar			Yoritish tarmoqlari
	M1	M2	M3	
Quvvati R, kVt	75	55	13	9
Foydalanish koeffitsiyenti $\eta$	0,92	0,9	0,88	–
Quvvat koeffitsiyenti sos $\varphi$	0,92	0,92	0,89	–
Ishga tushirish tokini karaligi Ki	6	7	6	–
Yuklanish koeffitsiyenti Kyu	0,8	0,8	0,8	1

Magistral tarmoqqa iste’molchilarini bir vaqtida ulanish koeffitsiyenti m=0,9

1). El.motorlarni nominal toklarini aniqlaymiz. Quyidagi ifoda asosida

$$I_n = P / \sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi \cdot \eta$$

$$I_{nM1} = 75 / \sqrt{3} \cdot 0,38 \cdot 0,92 \cdot 0,92 = 135A$$

$$I_{nM2} = 55 / \sqrt{3} \cdot 0,38 \cdot 0,92 \cdot 0,92 = 99,0A$$

$$I_{nM3} = 13 / \sqrt{3} \cdot 0,38 \cdot 0,88 \cdot 0,89 = 25,2A$$

El.motorlarni ishchi toklari

$$I_{n.t} = I_n \cdot K_yu$$

$$I_{m1(ishch.t)} = 135 * 0,8 = 108A; I_{m3(ishchi)} = 25,2 \cdot 0,8 = 20,2A; I_{m2(ishchi)} = 99 \cdot 0,8 = 79A$$

El.motorlarni ishga tushirish toklari.

$$I_{ishga tushir} = I_n \cdot K; I_{m1(i.t)} = 135 \cdot 6 = 810A; I_{m3(ishch.t)} = 25,2 \cdot 6 = 151A;$$

$$I_{m2(i.t)} = 99 \cdot 7 = 693A$$

Yoritish tarmog‘i uchun

$$I_n = P / \sqrt{3}U_n = 9 / 1,73 \cdot 0,38 = 13,7A$$

Transformator podstansiya va yuqori kuchlanish shiti (TP – VII) oralig‘idagi magistral liniyani ishchi toklarini topamiz.

$$I_{n.t} = m \Sigma I_{ishchi} = 0,9 (108 + 79 + 20,2 + 13,7) = 199A$$

Magistral liniyani maksimal toki.

$$I_{max} = m \Sigma I_{ishchi} + I_{\frac{nM.M.1}{\infty}} = 0,9(79 + 20,2 + 13,7) + \frac{810}{2,5} = 523A.$$

El. motorlarni himoya qilish uchun avtomatlar tanlaymiz. Quyidagi shartlar asosida

$$1) I_{n.avt} > I_{ishlash tok}; \quad 2) I_{n.rass.} > I_{ishlash}; \quad 3) I_{rass.ishlash toki} \geq 1,25 I_{max}$$

Birinchi el. motor himoyasi uchun A 3134 tipli avtomat qabul qilamiz. (Avt.ko‘rsatkichlarga)

$$I_{n \text{ avt}} > 200A > 108A. \quad I_{n \text{ rass}} = 120A > 108A.$$

$$I_{rass.ishlash.toki} = I_{n.rass} \cdot K_s = 120 \cdot 7 = 840A$$

$$1,25 \cdot I_{max} = 1,25 \cdot 810 = 1010A > I_{rass.ishlash.toki} = 840A$$

Uchinchi sharti bajarilmadi. Shuning uchun avtomatni rassipitelini nominal tokini

$$I_{n.rass} = 170A \text{ qabul qilamiz.}$$

Unda rassipitelni ishlash toki

$$I_{rass.ishlash.toki} = 170 \cdot 7 = 1190A > 1010A.$$

Ikkinci motorni himoyasi uchun A 3114/1 avtomat qabul qilamiz. Uni nominal toki. 100A va rassepitelni ishlash toki 100A

$$1,25 I_{max} = 1,25 \cdot 693 = 866A.$$

$$I_{rass.ishlash.toki} = I_{rass.nom} \cdot K_{sr} = 100 \cdot 10 = 1000A$$

$$I_{r.i.t} = 1000A > 1,25 I_{max} = 866A$$

Shart bajarildi.

Uchinchi motorni himoya qilish uchun AP-50 avtomat qabul qilamiz, uni ishlash toki 40A

$$I_{n \text{ avt}} = 50A > I_{m3 n} = 25A$$

$$1,25 I_{max} = 1,25 \cdot 151 = 189A$$

$$I_{rass.ishlash.toki} = I_{rass.nom.t} \cdot K_{sr} = 40 \cdot 8 = 320A$$

$$320A > 189A$$

Demak qabul qilingan avtomat shartlarga mos keladi.

Quyidagi shart asosida yoritish liniyasini himoyasi uchun eruvchan saqlagich qabul qilamiz.

$$I_{e.t} \geq I_{ish.toki} = 13,7A.$$

Ervchan saqlagichni nominal tokini  $I_{es} = 15A$  qabul qilamiz.

Magistral liniyani himoyasi uchun A 3144 tipli avtomat qabul qilamiz, uni nominal toki 600A. Avtomat rassepitelining nominal ishlash toki 250A.

$$I_{rass.ishlash.toki} = I_{n.rass..} K_{sr} = 250 \cdot 7 = 1750A$$

$$1,25 \cdot I_{max} = 1,25 \cdot 911,5 = 1156A.$$

$$17500A > 1156A.$$

Qabul qilingan avtomat talabga javob beradi.

## **6 Bob. Elektr tarmoqlardagi kuchlanishni isrofini hisoblash**


Elektr toki simlardan o‘tayotganda ularda kuchlanish isrofiga olib keladi. Shuning uchun elektr tarmoqlarni oxiridagi kuchlanish, uni boshlanishidagidan ancha kam bo‘ladi. Undan tashqari yuklamani o‘zgarishi tufayli, ular ham o‘zgaradi.

Elektr tarmoqlarda simlar shunday qabul qilinadiki, unda isrof bo‘lgan kuchlanishlar belgilangan qiymatidan oshib ketmasligi kerak, chunki tarmoqning oxirida iste’molchilarga kerak bo‘lgan kuchlanish ta’minlanib turilishi kerak. Simlarni elektr hisobini maqsadi, ulardagi kuchlanish isrofini aniqlashdir. Agar simlarni kesim yuzalari berilgan bo‘lsa, yoki kuchlanishni ruhsat etilgan isrofi asosida tarmoqdagi simlarni kesim yuzasini topish.

### **§6.1. Teng yuklangan uch fazali tarmoqlardagi kuchlanish isrofini aniqlash**

#### **§6.1.1.O’zgarmas tok liniyalarni hisoblash**

20<sup>a</sup>-Rasmda. O’zgarmas tok tarmoqqa uchta yuklama ulangan liniya keltirilgan, 20<sup>b</sup> Rasmda shu tarmoqni bir chiziqli sxemasi keltirilgan.



20-rasm. Doimiy tok liniyasini hisoblashga doir.

Sxemada iste'molchilarini toklarini  $i_1$ ;  $i_2$  va  $i_3$  –deb belgilansin.

Tarmoqni qismlardagi toklar  $I_1$ ;  $I_2$  va  $I_3$ ; Unda

$$I_1 = i_1 + i_2 + i_3; \quad I_2 = i_2 + i_3 \quad \text{va} \quad I_3 = i_3 \quad \text{teng bo'ladi.}$$

$\ell_1$ ;  $\ell_2$ ;  $\ell_3$  – Tarmoqni qismlarni uzinligi

$Ch_1$ ;  $Ch_2$  va  $Ch_3$  – Shu qismlarni qarshiliklari

$L_1$ ;  $L_2$  va  $L_3$  – Tarmoqni boshlanishidan yuklama ulangan joygacha bo'lgan uzinligi  $R_1$ ;  $R_2$  va  $R_3$  – Shu uzinliklarni qarshiliklari.

Chizmalardan ko'rinish turibdi.

$$L_1 = l_1; \quad L_2 = l_1 + l_2 \quad \text{va} \quad L_3 = l_1 + l_2 + l_3$$

va

$$R_1 = r_1; \quad R_2 = r_1 + r_2 \quad \text{va} \quad R_3 = r_1 + r_2 + r_3$$

Kuchlanishni isrofi  $\Delta U$ , liniyani boshidagi va oxiridagi kuchlanishlarni ayirmasiga teng bo'ladi, buni Om qoyidasiga asoslanib topsa bo'ladi.

$$\text{Ya'ni : } \Delta U = U_A - U_3 = 2I_1r_1 + 2I_2r_2 + 2I_3r_3 = 2(I_1r_1 + I_2r_2 + I_3r_3)$$

Kuchlanishni isrofi ikki marta oshadi, chunki isrof kelish va qaytish simlarda yuborish uchun. Kuchlanishni isrofini quyidagicha ifodalaga bo'ladi.

$$\Delta U = 2 \sum_{I=1}^n I \bullet r \quad (47)$$

Agar liniya toklarini ( $I$ ) yuklama toklar bilan almashtirsak, unda :

$$\Delta U = 2[(i_1 + i_2 + i_3) \bullet r_1 + (i_2 + i_3) r_2 + i_3 r_3] = 2(r_1 i_1 + r_1 i_2 + r_1 \bullet i_3 + r_2 i_1 + r_2 i_3 + r_3 i_3) = 2[i_1 r_1 + i_2 (r_1 + r_2) + i_3 (r_1 + r_2 + r_3)] = 2(i_1 R_1 + i_2 R_2 + i_3 R_3) -$$

yoki

$$\Delta U = 2 \sum_I^n \Sigma i \bullet R \quad (48)$$

Agar tarmoqni, boshidan oxirigacha bir xil yuzali sim osilgan bo'lsa,

$$r = \frac{\ell}{\gamma \bullet F} \ddot{e} \kappa u R = \frac{L}{\gamma \bullet F}$$

bu yerda  $\gamma$ -simni materialini solishtirma o'tkazuvchanligi, m./(Om.mm<sup>2</sup>)

F- simni kesim yuzasi, mm<sup>2</sup>

Unda kuchlanishni isrofi

$$\Delta U = \frac{2}{\gamma \bullet F} \sum_I^n \Sigma I \bullet \ell \quad (49)$$

$$\Delta U = \frac{2}{\gamma \bullet F} \sum_I^n \Sigma i \bullet L \quad (50)$$

Agar ruhsat etilgan kuchlanishni isrofi berilgan bo'lsa simni kesim yuzasi.

$$F = \frac{2}{\gamma \bullet \Delta U} \sum_I^n \Sigma I \bullet \ell \quad (51)$$

$$F = \frac{2}{\gamma \bullet \Delta U} \sum_I^n \Sigma i L \quad (52)$$

Ko'pincha yuklamalar quvvat bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Yuklamalarni quvvatini R- deb belgilasak, liniyadan o'tayotgan quvvatni R- desak.

Unda

$$i_1 = \frac{P_1}{U_n}; \quad i_2 = \frac{P_2}{U_n} \varepsilon a - i_3 = \frac{P_3}{U_n}$$

$$\text{yoki } I_1 = \frac{P_1}{U_n}; \quad I_2 = \frac{P_2}{U_n} - \varepsilon a - I_3 = \frac{P_3}{U_n}$$

Bu yerda:  $U_n$  tfrmoqni nominal kuchlanishi

Bu qiymatlarni (51) va (52) ifodarga ko'yib chiksak

$$F = \frac{2}{\gamma \bullet \Delta U \bullet U_n} \sum_I^n \Sigma P \bullet \ell \quad (53)$$

Yoki

$$F = \frac{2}{\gamma \bullet \Delta U \bullet U_n} \sum_{I=1}^n \Sigma p L \quad (54)$$

Agar kuchlanish isrofi isrof Voltda aniqlanmasdan % orqali tasfirlansa

$$\Delta U \% = \frac{\Delta U}{U_n} \bullet 100$$


Unda (48) va (49) ifodar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$F = \frac{200}{\gamma \bullet \Delta U \% \bullet U_n} \sum_{I=1}^n \Sigma I \bullet \ell \quad (55)$$

$$F = \frac{200}{\gamma \bullet \Delta U \% \bullet U_n} \sum_{I=1}^n \Sigma i L \quad (56)$$

### §6.1.2. O’zgaruvchan tok tarmoqlardagi kuchlanishni kamayishi yoki isrofini aniqlash


Oxirga yuklama ulangan uch fazali liniyani sxemasi 21 –rasmda keltirilgan.



21-rasm Fazlari bir xil yuklangan uch fazali tok liniyasini bir chiziqli sxemasi:

$U_{f1}$  va  $U_{f2}$  – Liniyani boshlanishdagi va oxiridagi kuchlanishlar, V;  $I_2$  – yuklama tok. A; Sos  $\varphi_2$  – yuklamani quvvat koefitsiyenti; r – simni aktiv qarshiligi, Om; X – simni induktiv qarshiligi, Om.

Liniyani bitta fazasi uchun vektor diagramasini ko‘ramiz.



22-rasm. Oxirga yuklama ulangan uch fazali liniyaning bir fazasi uchun vektor diagrammasi.

Liniya oxiridagi  $U_{f2}$  masshtabdagi vektor qiymati  $O-a_1 U_{f2}$  vektorni boshlanishida  $\varphi_2$  burchak bilan ( $I_2$ ) tokni masshtabda vektor qiymatini chizamiz.

Aktiv qarshiligidagi kuchlanishni kamayishini,  $O-a$  vektorni «a» nutasidan ( $I_2$ )-vektoraga paralel kilib chizamiz ( $I \cdot ch$ ), induktiv qarshiligidagi kuchlanishni kamayish ( $I \cdot x$ ) vektorini, aktiv qarshiligidida kamayish vektoroni «v» nuqtasiga perpendikulyar qilib chizamiz .

Liniyani boshlanishidagi kuchlanish  $U_{f1}$ , bilan oxiridagi  $U_{f2}$  kuchlanishni geometrik ayirmasi liniyadagi kuchlanishni kamayishi deb ataladi as =  $O_s - O_a = U_{f1} - U_{f2} = I \cdot Z$

Liniyani boshlanishdagi va oxiridagi kuchlanishlarini arifmetik ayirmasini, liniyadagi kuchlanishni isrofi deb aytildi.

$$Aye = O_s - O_a = O_e - O_a = U_{f1} - U_{f2}$$

Iste'molchilarga kuchlanishni absalyut qiymati kerak. Shuning uchun o'zgaruvchan tok elektr tarmoqlarini hisoblash ifodalarda kuchlanishini kamayishini hisoblash ifodalarda kuchlanishni kamayishi qo'llaniladi.

Kuchlanishni kamayishi

$$I \bullet Z = a \bullet c = \sqrt{(ad)^2 + (cd)^2} \text{ kuchlanishni kamayishi bo'ylama tashkil etgan qismi } \\ \text{«ad», } \Delta U_f - \text{deb belgilanadi}$$

Chizilgan vektor diagrammasidan quyidagilar kelib chiqadi.

$$\Delta U_f = ad = af + fd = af + vg = I \cdot ch Sos \varphi_2 + U \cdot x \cdot \sin \varphi_2$$

$$b U_f = sd = cg - dg = cd - vf = I \cdot x Sos \varphi_2 - U \cdot ch \cdot \sin \varphi_2$$

## Kuchlanishni kamayishi

$$\begin{aligned} ac = U_{\phi_1} - U_{\phi_2} &= \sqrt{(U_{\phi_2} + \Delta U_{\phi})^2} - U_{\phi_2} = \\ &= \sqrt{(U_{\phi_2} + I \cdot z \cos \varphi_2 + I \cdot x \cdot \sin \varphi_2)^2 + (I \cdot x \cdot \cos \varphi_2 - I \cdot u \cdot \sin \varphi_2)^2} - U_{\phi_2} \end{aligned} \quad (57)$$

Shu ifoda asosida liniyadagi kuchlanishni isrofini to‘liq qiymatini topish mumkin. Lekin bu tenglamani hisoblash murakkab va qulay emas. Shuning uchun amaliy hisoblarda kuchlanishni isrofini aniqlashda, uni yo‘nalgan qismiga teng deb qabul qilinadi.

$$a\ell = U_{\phi_1} - U_{\phi_2} = \Delta U_{\phi}$$

Sodallashtirilgan ifoda bilan hisoblanganda (57) ifoda bilan topilganda karaganda xotasi 5%-dan oshmaydi. Liniyadagi kuchlanishni kamayishi, agar  $\varphi_2 = \varphi$  teng bo‘lsa

$$\Delta U = \sqrt{3} \Delta U_{\phi} = \sqrt{3} (I \cdot r \cdot \cos \varphi + I \cdot x \cdot \sin \varphi) = \sqrt{3} (I_a \cdot r + I_p \cdot x) \quad (58)$$

Bunda:  $I_a$  – tokni aktiv qismi;  $I_p$  – tokni reaktiv qismi;

Kuchlanishni kamayishini ko‘ndalan qismi

$$\delta U = \sqrt{3} \delta U_{\phi} = \sqrt{3} (I \cdot x \cdot \cos \varphi - I \cdot r \cdot \sin \varphi) = \sqrt{3} (I_a \cdot x - I_p \cdot r) \quad (59)$$

agar yuklamalarni quvvati berilgan bo‘lsa

$$I_a = \frac{P}{\sqrt{3} U_n}; -I_p = \frac{Q}{\sqrt{3} U_n}; -I = \frac{S}{\sqrt{3} U_n}$$

Bunda:  $S$  – yuklamani to‘liq quvvati;  $R$  – yuklamani aktiv quvvati;  $Q$  – yuklamani reaktiv quvvati

Toklarni qiymatlarini ( $I$ ,  $I_a$  va  $I_p$ ) (58) va (59)

Ifodaga qo‘yib chiqsak, unda

$$\begin{aligned} \Delta U &= \sqrt{3} \left( \frac{S}{\sqrt{3} U_n} \cdot r \cdot \cos \varphi + \frac{S}{\sqrt{3} U_n} \cdot X \cdot \sin \varphi \right) = \\ &= \frac{S}{U_n} (r \cdot \cos \varphi + X \cdot \sin \varphi) \end{aligned} \quad (60)$$

$$\Delta U_n = \left( \frac{P}{U_n} \cdot r + \frac{Q}{U_n} \cdot X \right) = \frac{P \cdot r + Q \cdot x}{U_n} \quad (61)$$

$$\delta U_n = \left( \frac{P}{U_n} \cdot X - \frac{Q}{U_n} \cdot r \right) = \frac{P \cdot x - Q \cdot r}{U_n} \quad (62)$$

Agar liniyaga bir nechta yuklama ulangan bo'lsa, unda :

$$\Delta U = \sqrt{3} \sum_{I=1}^n (I \cdot r \cos \varphi + I \cdot x \cdot \sin \varphi) \quad (63)$$

$$\Delta U = \sqrt{3} \sum_{I=1}^n (iR \cos \varphi + iX \cdot \sin \varphi) \quad (65)$$

bu yerda:  $i$  – yuklana toki;  $I$  – liniyadagi toklar;  $r, x$  – liniyalarni qismlardagi aktiv va reaktiv qarshiligi;  $R, X$  – yuklama ulangan nuqtadan liniyani boshlanishigacha bo'lgan uzunligini aktiv va induktiv qarshiliklari.

Xususiy xollar. Bazm xollarda (63) ifodalarni soddalashtirish mumkin :

1) Liniyalardagi simlarni, kesim yuzasi va uni materiallar xamda quvvat koeffitsiyenti bir xil bo'lsa.

Unda :  $r = r_o \cdot L$ ;  $X = X_o \cdot L$ ; bu yerda  $r_o$  va  $X_o$  – simlarni 1 km uzinligini aktiv va induktiv qarshiliklari.

$$\Delta U = \sqrt{3} (r_o \cdot \cos \varphi + X_o \sin \varphi) \cdot \sum_{I=1}^n i \cdot L \quad (65)$$

2) Elektr tarmoqlar bir xil sim bilan bajarilgan va iste'molchilarni quvvat koeffitsiyenti ( $\cos \varphi$ ) bir xil bo'lsa, lekin ularni  $X_o$  – induktiv qarshiliqi juda kichkina hisoblash xatoligini – 5% cha ruhsat etilgan desak, unda induktiv qarshiligini inobatga olmasa bo'ladi:

a) Yuklamalarni quvvat koeffitsiyenti birga yaqin bo'lsa, ya'ni

$$\cos \varphi > 0,95$$

b) Binolar ichida tarmoqlar, shunur bilan bajarilgan bo'lsa yoki trubalarni ichida o'tkazilgan bo'lsa.

v) Elektr motorlarni ulaydigan simlarni kesim yuzasi  $6 \text{ mm}^2$  kam bo'lsa ;

g) Kuchlanish 10 kV gacha bo'lgan kabel tarmoqlarda, agar kabellarni kesim yuzalari  $35 \text{ mm}^2$ , -gacha va yuklamalarni quvvat koeffitsiyenti  $\cos \varphi = 0,95$  dan kam bo'lmasa shubxasiz ularni induktiv qarshiliqi  $X_o = 0$  bo'ladi

$$\text{unda } \Delta U = 3r_o \cos \varphi \sum iL = \frac{\sqrt{3} \cdot \cos \varphi}{\gamma \cdot F} \cdot \sum iL \quad (66)$$

3) Tarmoq, 1-xoldagiday, yuklamalar faqat aktiv quvvat iste'mol qilsa, unda  $Sos\varphi = 1$

$$I \cdot r_o \cdot Sos \varphi = i_a \cdot r_o \quad \text{va} \quad i \cdot x_o \cdot \sin \varphi = 0$$

$$\Delta U = \sqrt{3} r_o \sum_1^n i \cdot L \quad \frac{\sqrt{3}}{\gamma \cdot F} \sum_1^n i \cdot L \quad (67)$$

Undan

$$F = \frac{\sqrt{3}}{\gamma \cdot \Delta U} \sum_1^n i \cdot L \quad (68)$$

### 6.1.3. Uch fazali tok magistral liniyalardagi simlarni kesim yuzasini topish

Elektr tarmoqlarni hisobini asosiy maqsadi, bu ruhsat etilgan kuchlanishni isrofi, asosida simlarni kesim yuzasini aniqlash. O'z navbatida simlarni qiymatlarini aniqlash yuklamalarga keltirilgan kuchlanishlarni ruhsat etilgan og'ishidan kelib chiqadi. O'zgarmas tok liniyalardagi simlarni kesim yuzasi ruhsat etilgan kuchlanishni isrofi asosida (51); (52); ifodalar orqali topiladi :

$$F = \frac{2}{\gamma \cdot \Delta U} \sum_1^n I \cdot \ell - \dot{e} \kappa u \quad F = \frac{2}{\gamma \cdot \Delta U} \sum I L$$

Lekin uch fazali uzgaruvchan tok liniyalarda keltirilgan Ifodalar orqali aniqlash mumkin emas, chunki o'zgaruvchan tok liniyalarda aktiv qarshiligidan tashqari, yana induktiv qarshiliklari bor.

Induktiv qarshiligi, (9) ifodar asosida, - simni kesim yuzasidan tashkari, faza simlarni oralig'iga va simlarni magnit oqimini o'tkazuvchanligiga bog'liqligi.

Simlarni kesim yuzasini aniqlashda, prof. V.N.Steganov taklif etgan usili orqali, ruhsat etilgan kuchlanishni isrofini, quyidagicha ifodalanadi.

$$\Delta U_{gen.} = \sqrt{3} Ir \cos \gamma + \sqrt{3} Ix \sin \gamma + \Delta U_a + \Delta U_p. \quad (68)$$

Bunda:  $\Delta U_a$  - kuchlanishni isrofini, aktiv qarshiligidagi qismi;  $\Delta U_p$  - kuchlanishni isrofini, reaktiv qarshiligidagi qismi.

Xavo liniyadagi induktiv qarshiligi, (9) ifoda asosida, simlarni oraligi bir xil bo'lsa, simlarni kesim yuzasini uzgarishi ularni induktiv qarshiligidagi juda kam o'zgarar ekan.

Alyumin simni kesim yuzasi 16 dan  $95 \text{ mm}^2$  gacha uni aktiv qarshiligi  $-5,8$  marta va induktiv qarshiligi  $-1,2$  marta uzgaradi.

Shuning uchun simlarni induktiv qarshiligini urtacha  $X_0 = 0,4 \text{ Om/km}$  deb qabul kilish mumkin .

Shu shart asosida, ruhsat etilgan kuchlanishni isrofini reaktiv qismini aniqlash mumkin.

$$\Delta U_p = \sqrt{3} X_0 \sum_I^n I_p \bullet \ell \quad (68^a)$$

Shundan keyin simlarda aktiv qarshiligi ta'siida ruhsat etilgan kuchlanishni isrofini topamiz

$$\Delta U_a = \Delta U_{\text{gon}} - \Delta U_p$$

$$\Delta U_a = \sqrt{3} \sum_I^n I_a \bullet z = \sqrt{3} \bullet r_0 \sum_I^n I_a \bullet \ell \quad (68^b)$$

bunda :

$$r_0 = \frac{1}{\gamma \bullet F}$$

69<sup>b</sup> ifodaga  $r_0$  qiymatini kuysak

$$\Delta U_a = \frac{\sqrt{3}}{\gamma \bullet F} \sum_I^n I_a \bullet \ell \quad (69)$$

bu tenglamada bitta F noaniq, demak

$$F = \frac{\sqrt{3}}{\gamma \bullet \Delta U_a} \sum_I^n I_a \bullet \ell \quad (70)$$

Yechish yuli ;


- 1) Induktiv qarshilagini o‘rtacha kimaytini qabul qilamiz  $x_0 = 0,4 \text{ Om/ km}$
- 2) Induktiv qarshiligidagi isrofnini  $\Delta U_p$  topamiz
- 3) Aktiv qarshiligida ruhsat etiladigi kuchlanishni isrofini topamiz.

$$\Delta U_a = \Delta U_{\text{don}} - \Delta U_p$$

- 4). (70)- ifoda asosida simni kesim yuzasini topamiz va shu yuzaga eng yakin standart yuzasini qabul qilamiz.
- 5). Qabul qilingan yuza asosida (69)- ifoda asosida xaqiqiy isrofini topamiz.

#### §6.1.4. Uch fazali tarmoqlarda, metalarni kam sarf kilish usuli bilan hisoblash

Elektr tarmoqlar kamdan kam paytlarda boshidan oxrigacha yuzasi bir xil bo‘lgan sim bilan qurilmaydi. Asosan simlarni yuzasi bir xil bo‘maydi, liniyalarni oxirgi qismlarida simni yuzasi kamayib boradi.



23. Rasm Tarmoqni kam metal sarf kilish usul bilan hisoblash sxemalari.

Ruhsat etilgan kuchlanishni isrofi ( $\Delta U_{\text{don}}$ ) asosida, bir nechta simlarni kesim yuzasi bo‘ladigan variantlar bo‘lishi mumkin. Bir xil variantda metal kamroq sarf qilingan bo‘ladi, ikkinchi variantda ko‘proq sarf qilinishi mumkin. Metalni eng kam sarf qilinadigan variantini aniqlash uchun, bir nechta variant tokoslanishi kerak.

Xozirgi vaktda, bordaniga eng kam metal sarf qiladigan yangi usul ishlab chiqilgan (30)- rasmni «a» sxemasida keltirilgan tarmoqda ruhsat etilgan kuchlanishni isrofni « $\Delta U_{\text{don}}$ » qiymatini liniyani har bir qismiga proporsional xolda bo‘lib chiqilishi kerak.

Berilgan elektr tarmoqdagi simlarni kesim yuzalari shunday topilishi kerak «A» nuqtadan «3» nuqtagacha bo‘lgan kuchlanishni isrofi, ruhsat etilgan isrofdan oshmasligi kerak, ya’ni

$$\Delta U_{A3} = \Delta U_{\text{gen}}$$

Oldin, kayt etilgan metodlardan foydalanib, induktiv qarshiligni qabul qilamiz va induktiv qarshiligidagi bo‘ladigan kuchlanishni isrofini topamiz

$$\Delta U_p = \sqrt{3} X_0 \sum_1^n I_p \bullet \ell$$

Undan keyin aktiv qarshiligidagi isrof qilinadigan kuchlanishni qiymatini topamiz

$$\Delta U_a = \Delta U_{\text{gon}} - \Delta U_p$$

23 – rasmdagi «a» sxemasini «b» sxemasiga o‘tkazamiz.

Magistral liniyadagi simni xajmi  $V = F \cdot l$  demak, unda uchta yuklamalni magistraldagi simni xajmi

$$V = F_1 \ell_1 + F_2 \ell_2 + F_3 \ell_3 \quad (71)$$

Liniyani har bir qismini yuqorida topilgan ifoda orqali ifodalasak.

$$F_1 = \frac{\sqrt{3} I_{a1} \ell_1}{\gamma \Delta U_a} ; \quad F_2 = \frac{\sqrt{3} I_{a2} \ell_2}{\gamma \bullet \Delta U_{a2}} ; \quad F_3 = \frac{\sqrt{3} I_{a3} \bullet \ell_3}{\gamma \bullet \Delta U_{a3}}$$

(71) – ifodadagi  $F_1$ ;  $F_2$ ; va  $F_3$  yuzalarni o‘rniga ularni qiymatini qo‘yib chiqamiz.

$$V = \frac{\sqrt{3} I_{a1} \bullet \ell_1^2}{\gamma \bullet \Delta U_{a1}} + \frac{\sqrt{3} I_{a2} \bullet \ell_2^2}{\gamma \bullet \Delta U_{a2}} + \frac{\sqrt{3} \bullet I_{a3} \ell_3^2}{\gamma \bullet \Delta U_{a3}}$$

Bu ifodada liniyalarni qismida, kuchlanishlari, ya’ni  $\Delta U_a$ ;  $\Delta U_2$  va  $\Delta U_3$  larni qiymatlari aniq emas, lekin ularni yig‘indisi ruhsat etilgan  $\Delta U_{\text{gon}}$  teng, ya’ni

$$\Delta U_{a.gon} = \Delta U_{a1} + \Delta U_2 + \Delta U_{a3}$$

Shu qismlarni aniqlash uchun

$$\Delta U_{a_1} = X - \epsilon a - \Delta U_{a_2} = y - y \partial a - \Delta U_{a_3} = \Delta U_{ag} - x - y$$

Bularni simni xajmini aniqlash ifodasiga qo‘yib chiqamiz.

$$V = \frac{\sqrt{3} I_{a1} \ell_1^2}{\gamma \bullet x} + \frac{\sqrt{3} I \bullet \ell_2^2}{\gamma \bullet y} + \frac{\sqrt{3} I_{a3} \ell_3^2}{\gamma (\Delta U_{a.g} \cdot xy)}$$

Ifodada ikkita noaniq «X» va «y» bo‘lgani uchun, ularning hosilasini topib nolga tenglaymiz.

$$\frac{\partial V}{\partial x} = \frac{\sqrt{3} I_{a1} \ell_1^2}{\gamma \bullet x^2} + \frac{\sqrt{3} I_{a3} \ell_3^2}{\gamma (\Delta U_{ag} \cdot x \cdot y)^2} = 0$$

$$\frac{\partial V}{\partial y} = \frac{\sqrt{3} I_{a2} \bullet \ell_2^2}{\gamma \bullet y^2} + \frac{\sqrt{3} \bullet I_{a2} \bullet \ell_3^2}{\gamma (\Delta U_{e,g} \cdot x \cdot y)^2} = 0$$

Ikkita tenglamani birlashtirib umumiy proporsiyaga keltiramiz.

$$\frac{\sqrt{3}I_{a1} \bullet \ell_1^2}{\gamma \bullet x^2} + \frac{\sqrt{3}I_{a2} \bullet \ell_2^2}{\gamma \bullet y^2} + \frac{\sqrt{3}I_{a3} \bullet \ell_3^2}{\gamma (\Delta U_{ag} - x - y)^2} = O$$

Ikki tenglamada  $3/\gamma$  qisqartirib va noma'lum «x» va «y» o'rniga ularni oldingi qiymatlarini ko'yib, va ildiz ostidagi qiymatlarni qisqartirib chiqamiz.

Shunda

$$\frac{\ell_1 \bullet \sqrt{I_{a1}}}{\Delta U_{a1}} = \frac{\ell_2 \bullet \sqrt{I_{a2}}}{\Delta U_{a2}} = \frac{\ell_3 \bullet \sqrt{I_{a3}}}{\Delta U_{a3}}$$

Shu tenglama asosida liniyalarni qismlarida, va xamma liniya uchun

$$\frac{\ell_1 \bullet \sqrt{I_{a1}}}{\Delta U_{a1}} = \frac{\ell_n \bullet \sqrt{I_{an}}}{\Delta U_{an}} = \frac{\Sigma \ell \bullet \sqrt{I_a}}{\Delta U_{a\text{don}}}$$

Shu tenglama asosida liniyani har bir qismida isrof qiladigan ( $\Delta U_a$ ) ni qiymatini topamiz.

$$\begin{aligned}\Delta U_{a_1} &= \Delta U_{a\text{.gon}} \frac{\ell_1 \bullet \sqrt{I_{a1}}}{\Sigma \ell \bullet \sqrt{I_a}} \\ \Delta U_{a_2} &= \Delta U_{a\text{.gon}} \frac{\ell_2 \bullet \sqrt{I_{a2}}}{\Sigma \ell \bullet \sqrt{I_a}} \\ \Delta U_{a_3} &= \Delta U_{a\text{.gon}} \frac{\ell_3 \bullet \sqrt{I_{a3}}}{\Sigma \ell \bullet \sqrt{I_a}}\end{aligned}\tag{72}$$

Keltirilgan (70) va (72) ifodalar asosida magistral liniyalarni simini yuzalarini aniqlash mumkin. Shahobchalangan xo'jalik tarmoqlarda ancha-muncha soddalashtirilgan metod asosida hisoblash mumkin. Bu metod asosida, ruhsat etilgan kuchlanishni isrofini, liniyalarni qismlariga proporsional xolda, shu qismlarni momenti orqali bo'lib chiqish mumkin.

Qismlardagi toklar yoki quvvatlarni momentlari

$$\begin{aligned}M_1 &= I_1 \bullet \ell_1 ; M_2 = I_2 \bullet \ell_2 \quad \text{ba} \quad M_3 = I_3 \bullet \ell_3 \\ \text{e} &\text{ku} \\ M_1 &= S_1 \bullet \ell_1 ; M_2 = S_2 \bullet \ell_2 \quad \text{ba} \quad M_3 = S_3 = S_3^I \bullet \ell_3\end{aligned}\tag{72a}$$

Uchastkadagi ruhsat etilgan isrofi

$$\begin{aligned}\Delta U_1 &= \Delta U_{\text{gon}} \frac{M_1}{\Sigma M}; \\ \Delta U_2 &= \Delta U_{\text{gon}} \frac{M_2}{\Sigma M} \\ \Delta U_3 &= \Delta U_{\text{gon}} \frac{M_3}{\Sigma M}\end{aligned}\tag{73}$$

Bu ifoda orqali xamma shahobchalangan elektr tarmoqlarni yechish mumkin, lekin sarf qilingan simni xajmi eng kam miqdoridan sal ortiqcha chiqishi mumkin.

Yechish yo'llari

- 1) Yuklamalarni yechish momentlarini « $M$ » va uni yig'indi « $\sum M$ » aniqlaymiz
- 2) Elektr tarmoqni qisimlarida isrof qiladigan kuchlanishni topamiz.
- 3) Oldin chiqarilgan ifoda asosida har bir qism uchun simlarni kesim yuzasini topish chiqamiz.

Hisoblashda shuni esda tutish kerakki, qabul qilinadigan simlarning turlari ko'payib ketish kerak emas. Simlar tolalarining metallari bir xil bo'lsa, montaj qilish shuncha oson bo'ladi.

## §6.2. Fazalari teng yuklanmagan, uch fazali elektr tarmoqlarni hisobi

Uch fazali elektr tarmoqlar har payit teng yuklangan bumaydi. Past kuchlanish tarmoqlarda asosan yorituv yuklamalar va xo'jalik yuklamalar asosan bir fazaga ulanadilar, fazalarga ulangan yuklamalarni quvvatlari teng emas, asosan tarmoqlarni oxirida.

Uch fazali va bir fazali, aralashgan sxemani ishlashtirishi elektroenergiya taqsimlashida yuqori kuchlanish tarmoqlarda xam, tensizlik yuklanishga olib keladi. Uch fazali tarmoqlarni fazalar ora tengsiz yuklanaganligini hisoblash, ancha murakkab, teng yuklangan tarmoqlarga nisbatan. Bunda xollarda, fazalar orasidagi isrofni aniqlashga to'g'ri keladi. Faza simlari qarshiligi bir xil, fakat ko'l simini qarshiligi, agar u bo'lsa, faza simidan farq qiladi deymiz.

Bu xolda, kuchlanishni isrofi tashkil qiluvchi to'g'ri, teskari va nol izchiliklarini isrofi

$$\Delta U_{np} = Z \bullet I_{np}; -\Delta U_{o\bar{o}} = Z I_{o\bar{o}}; -\Delta U_0 = Z_0 \bullet I_0$$

Bunda:  $Z$  – to‘gri va orkaga kaytadigan izchiligi, to‘lik qarshiligi;  $Z_0$  nol izchilikni, tulik qarshiligi

«A» faza bilan «O» simni oralig‘idagi kuchlanishni kamayishi.

$$\begin{aligned}\Delta U_{AO} &= \Delta U_{np} + \Delta U_{o\bar{o}} + \Delta U_0 = (I_{myz} + I_{meck})Z + I_0 \bullet Z_0 = \\ &= (I_{myz} + I_{meck} + I_0)Z + I_0(Z_0 - Z)\end{aligned}\quad (74)$$

Fazadagi tok  $I_F = I_{tug.} + I_{tesk} + I_0$

$$\text{Unda } : \Delta U_{AO} = I_A \bullet Z + I_0(Z_0 - Z)$$

$$\text{Shu tufayli } \Delta U_{B,0} = I_B \bullet Z + I_0(Z_0 - Z)$$

$$\Delta U_{C,0} = I_c \bullet Z + I_0(Z_0 - Z)$$


Fazalar orasidagi kuchlanishni isrofi, shu fazalardagi kuchlanishni isroflarini geometrik ayrmasidan kelib chiqadi.

$$\begin{aligned}\Delta U_{AB} &= \Delta U_{AO} - \Delta U_{BO} = (I_A - I_B) \bullet Z \\ \Delta U_{BC} &= \Delta U_{BO} - \Delta U_{CO} = (I_B - I_c) \bullet Z \\ \Delta U_{CA} &= \Delta U_{CO} - \Delta U_{AO} = (I_c - I_A) \bullet Z\end{aligned}\quad (75)$$

Shu ifodalar asosida, notekis yuklangan uch fazali tarmoqlardagi, kuchlanishni isrofini hisoblash mumkin.

### §6.2.1. Bir fazali yuklamalarni uch burchak shaklda ulanishi

Agar uch fazali tarmoqlarda, bir fazali yuklamalar uch burchak shakilda ulangan bo‘lsa, unda bu sxemada ko‘l izchiligi bulmaydi.




A va V faza orasidagi kuchlanishni isrofi (75) ifoda asosida  $\Delta U_{AV} = (I_A - I_V)Z$  faza simni qarshiligi esa  
Bir tomondan  $Z = r \cos \varphi + X \sin \varphi$   
Bu yerda  $\varphi^1$  – liniyadagi  $I_A$  va  $I_B$  toklar bilan shu fazalar oralig‘idan  $U_{AV}$  kuchlanishni, siljilish burchagi

## 24-Rasm. Bir fazali yuklamalarni uch burchaka o‘lanishi sxemasi

24 –rasmdagi sxemani A nuqtasidagi toki

$$I_A = i_1 - i_3 \text{ va } I_V = i_2 - i_1$$

Demak  $I_A - I_V = i_1 - i_3 - i_2 + i_1 = 2i_1 - i_2 - i_3$ , shu toklar uchun vektor diagrammasi kuramiz.



25 –Rasm Kuchlanish va toklarni vektor diagrammasi.

Yuqorida keltirilgan (75) ifodaga Z qiymatini qo‘ysak, unda

$$\Delta U_{AB} = (I_A \cdot I_B) r \cdot \cos \varphi^l + (I_A - I_B) x \cdot \sin \varphi^l$$

Toklarni vektorlarini proyeksiyasini,  $U_{AV}$  kuchlanishni vektoraga, perpendikulyar xolda tushirsak, unda

$$\begin{aligned} \Delta U_{AB} = & [2i_1 \cos \phi_l - i_2 \cos(\phi_2 + 120^\circ) - i_3 \cos(\phi + 240^\circ)] \cdot u + \\ & [2i_1 \sin \phi_l - i_2 \sin(\phi + 120^\circ) - i_3 \sin(\phi + 240^\circ)] \cdot X \end{aligned}$$

Trigonometrik funksiyalarni o‘zoro nisbatlari

$$\sin(\alpha + \beta) = \sin \alpha \cdot \cos \beta + \cos \alpha \cdot \sin \beta$$

$$\cos(\lambda + \beta) = \cos \alpha \cdot \cos \beta - \sin \alpha \cdot \sin \beta$$

$$\sin 120^\circ = \frac{\sqrt{3}}{2}; \sin 240^\circ = -\frac{\sqrt{3}}{2}$$

$$\cos 120^\circ = -\frac{1}{2} - ea - \cos 240^\circ = -\frac{1}{2}$$

Sinus va kosinusrarni ikki burchak yig‘indisi o‘rniga ularni qiymatlarini qo‘yib chiqsak, unda kuchlanishni kamayishi.

$$\begin{aligned} \Delta U_{AB} = & (2i_1 \cos \phi_l - i_2 \cos \phi_2 \cos 120^\circ + i_2 \sin \phi_2 \sin 120^\circ - i_3 \cos \phi_3 \cdot \cos 240^\circ + \\ & + i_3 \sin \phi_3 \sin 240^\circ) \cdot r + (2i_1 \sin \phi_l - i_2 \sin \phi_2 \cos 120^\circ - i_2 \cos \phi_2 \sin 120^\circ - \\ & - i_3 \sin \phi_3 \cos 240^\circ - i_3 \cos \phi_3 \sin 240^\circ) \cdot x \end{aligned}$$

Sinus 120° va 240° kosinus 120° va 240° burchaklarni qiymatlarni qo‘yib chiqsak

Kuchlanishni kamayishi yoy uzunligi bo‘yicha noteks bo‘ladi. Elektrodni yonida ko‘proq va boshqa qismlarida kam bo‘ladi. 10 - 12 Voltgacha bu xodisa katod yonidagi kuchlanishni kamayishi deb ataladi. Buning sababi shundaki, katod atrofida har doim musbat zaryadli zarrachalar yig‘iladi, ular esa o‘tkazuvchanligi kam bo‘lgan bulut xosil qiladi.

Yoyni yonish va so‘nish protsesslari, o‘zgarmas va o‘zgaruvchan toklar butunlay har xil bo‘ladi.

O‘zgarmas tok zanjirlarida ionlanish va ionsizlanishlar tenglanqshganda yoyni bir xolatda bo‘ladi. O‘zgaruvchan tok zanjirida xosil bo‘lgan yoy har doim tokni sinusoidasi nuldan o‘tishida uchib, undan keyin qaytadan yonadi. shuning uchun katta axamiyatga ega bo‘ladi. Yoy

oralig‘ida elektr chidamligini (puxtaligi) tiklanishi tokni sinusoidasi nuldan o‘tgandan so‘ng. Yoy uchgandan keyin yoy oralig‘ida jadallik bilan ionsizlanish protsessi davom etadi va uni o‘tkazuvchanligi keskin kamayadi. Shundan keyin o‘zgaruvchan tokni tiklanayotgan kuchlanishni ionsizlangan oraliqni puxtaligini teshib o‘tsa unda yoy to‘liq uchadi.

Elektr puxtaligini tiklashiga yordam berish mumkin, kontaktlarni bir-biridan uzaytirish yo‘li bilan yoki qolgan yoy daraxini sovuq va tok o‘tkazmaydigan muxit havosi bilan aralashtirish natijasida.

Yuklama toklari o‘tayotgan elektr zanjirlarini uzib- ulaydigan elektr uskunalarini ajraydigan kontaktlarini maxsus yoy uchirgich qurilmalarga (kameraga) joylashtiriladi, ya’ni yoyni uzunligiga bir necha kameraga bo‘linadi, yoyni sovitish kameralarga bo‘lish, yoyni cho‘zish; yoyni uchirish uchun moydan foydalanish: yoyni uchirish uchun katta bosimli havodan foydalanish va yoy uchirish usullardan foydalanish bilan yetiladi.

*Yoyni uzunligini bir necha qisqa yoya bo‘lish.*

Bu usul 1000 V gacha bo‘lgan kuchlanishlarda keng ishlatiladi. Bu usulda yoyni bir necha qisqa yoylarga bulishadi, shu tufayli har bir bo‘linish joyida o‘z qotadi va aondga ega bo‘ladi va bularni atorofida kam o‘tkazuvchanlik mintaqasi xosil bo‘ladi va yoyni tiklaydigan kuchlanish yetarli bo‘lmaydi, bir necha yoyni oraliqlarini teshib o‘tishga. Shu tufayli yoy kuchlanishi sinusiodasi nuldan utishi bilan uchadi. 1- chi rasmda ko‘rsatilgan.

*Yoyni sovitish tirqitishlariga bo‘lish.* Agar yoyni kichik tirqishlarga svuq tok o‘tkazmaydigan devorlar orasiga tortqiziladi, sovuq devorlar bilan tutashidan, yoy soviydi va deformatsiyalanadi, bu esa yoyni tez uchishiga ko‘maklashadi. 2- chi rasmda ko‘rsatilgan. Tirqishlar yoyni tortadigan maydon maxsus elektromagnitlar orqali xosil qilinadi Bu usul asosan kuchlanishlar 1000 V dan kam va yuqori bo‘lgan elektr tarmoqlarda ishlatiladi.

*Yoyni cho‘zish.* Kontakatlarni tez ajaralishi tufayli yoy oralgi cho‘zilib boradi, uni yuzasini uzayishi, yoyni tanasini sovitishini yengillashtiridi, yoy oralig‘idagi kuchlanishini kamayishi oshib boradi. Yoyni uzilishi xamma (kommutatsion) uzib-ulaydigan elektr uskunalarida yuz beradi, chunki uzish vaqtin kontaktlar bir-biridan uzoqlashadi. Past kuchlanish apparatlarda yoyni uchirish uchun, uni uzayishini o‘zi kifoya. Yuqori kuchlanish apparatlarda (1000 V dan yoyni uzunlashi va yuqorida ko‘rsatilgan o‘sishlar bilan xamkorlikda o‘chiriladi.

*Yoyni uchirishda moyni ishlatish.* Moy ichida kontaktlar orasida xosil bo‘lgan yoy, moyni jaddalik bilan parchalaydi va bukchaytiradi. Katta issiqlik ta’sirida. Shu tufayli yoyni atrofida gaz - bo‘shlik puffak bo‘ladi, asosan (70-80%) vodorod tashkil qiladi, shuning uchun yoyni tez uchishiga olib keladi. Bundan tashqari zudlik bilan xosil bo‘lgan pufakda bosim oshib boradi va uni ichida gaz va burchaklarni uzilmas harakati yoy oralig‘ida ionsizlanishni tezlatadi. Bu usul kuchlanishni 1000 V dan yuqori bo‘lgan uzish uskunalarida ishlatiladi.

*Yoy uchirish uchun yukori bosimli havodan foydalanish.*

Agar yoyni yuqori bosimli havo bilan puflansa, unda u intensiv xolatda sovitiladi, katta bosimli havo yoyni tez uchirishga olib keladi.

Havoni o‘rniga ko‘pincha kattiq gaz ajratadigan materiallardan masalan fibra, viniplast va boshqalar. Bunda esa yoyni o‘zi gaz ajaratadigan materialarni parchalaydi, yoyni kuchi qancha katta bo‘lsa shuncha ko‘p ajrab chiqadi.

*Yoyni boshqa usullar bilan uchirish.* Oxirgi vaqtarda eng keng tarqatilgan usuldan biri elegaz ta’siridan yoyni o‘chirish (alтипорли sulfat), elegaz havoga yoki vodorodga qaraganda katta elektr chidamlikka ega yoy o‘chirish xususiyatlari ancha yaxshi.

Bundan tashqari yoyni uchirishda vakuum moslalamlar ishlatiladi. (vakuumni chuqurligi  $10^{-6} \dots 10^{-8}$  Nsm<sup>2</sup>). Bunday uzgichlarda yoy tokni sinusoida nuldan birinchi o‘tishdayoq uchadi, chunki yuqorida aytilgan darajada siyraklashgan gaz, katta elektr chidamlikka ega.

*Kuch zajrlaridagi tok o‘tkazuvchi qismlar va elektr kontaktlar.* Taqsimlash tizimlariga barcha elektr energiya elektr uskunalariga shinalar orqali kelitiriladi. Shinalardan tashqari, tok o‘tkazuvchi qismlarga elektr zanjirlaridagi apparatlarda o‘rnatilgan tok o‘tkazuvchi konstruksiyalar xam kiradi.

O'rnatish joylariga qarab shinalar egiluvchan va qattiq bo'ladi. qattiq (egilmas) shinalar asosiy yopiq taqsimlash tuzilmalarida yoki binolarni ichida ishlatiladi. Qattiq (bukir) har xil fazalarni oralig'i ruxsat etilgan minimal masofa qabul qilinadi. Bikir shinalar odatda alyumin, po'lat yoki misdan qilingan to'rt burchak poloscha shaklida yasaladi.

*Kontaktli ulanishlar.* Elektr stansiya va podstansiyalarda o'rnatilgan kommutatsiya (tok zanjirini ulab-uchiradigan apparatlarida, har xil ulanish kontaktlar uchraydi, lekin asosiy bu ajraydigan kontaktlar. Xamma bunday kontaktlar siljiydigan va siljimas qismlardan iborat bo'ladi. Siljish kontaktlar konstruktiv tuzilishi har xil bo'ladi, ya'ni pichoq shaklida, rozetka shaklida, va yapoloq to'rtburchak shaklida. Siljimas kontaktlar esa: egiluvchan plastina shaklida, rozetka shaklida va shyotka shaklida, xamma kontaktlar ulanish joylarda maxsus prujinalar ta'sirida qo'shimcha qisilish xosil qilinadi, yoki siljimas kontaktlarni tarangligi xisoblanadi.

Kontaktlarni yoyga turg'anligi bo'lishlari kerak, chunki bir necha barobar uzib - ulanishlarida yoyni termik va dinamik ta'sirlarida shikatlanmasligi lozim. Shuning uchun kontaktlar yasaydigan material xisobida mis, kumush, volfrom va metalkeramiklar (mexanik qo'shilmalar), shu yuqorida aytilgan metallarni poroshogi asosida katta bosimda qilinadi.

*Izolyator va izolyatsion konstrutsiyalar.* Taqsimlash tuzilmalarda ishonchli izolyatsiyaga ega bulish kerak, chunki shinalar va appartlarni tok o'tkazuvchi qismlari har xil potensialga ega bo'lishi mumkin. Fazalar orasidagi havo oraliqlar, faza va yer o'rtasida, xamda yerlangan konstruksiyalar orasidagi havo oraliqlar ishonchli izolyatsiyani tashkil qiladi, agar ular to'g'ri topilgan bo'lsa. Tok o'tkazadigan qismlar, shinlar va simlar taqsimlash tuzilmalarga ishonchli qotirgan bo'lishi shart. Qotirish joylarida tayanch izolyatorlar, o'tish izolyatorlar, osilgan izolyatorlar va apparat izolyatsiyasi deb ataladigan har xil izolyatsion konstruksiyalar. Asosan izolyatorlar chini va maxsus shishadan qilinadi. Bularni bari mexanik va elektr puxtalagiga ega bo'lishlari kerak, chunki ular xir xil muxit ta'siriga bardosh bera olishi kerak: yomg'irga, qorga, muzlashga, chang bo'ronga va boshqalarga. Ular o'rnatilish joyiga qarab ichki va sirtqi izolyatorlarga bo'linadi.

Sirda o'rnatiladigan izolyatorlar yirik qilinadi va yirik qanotli bo'ladi, ichki izolyatorlar tekis yoki mayda kanatlari bo'ladi. Xamma izolyatorlarni konstruksiyalarni teshib o'tadigan kuchlanishi, uni ustidan o'tadigan kuchlanishidan yuqori bo'lishi kerak.

Har bir izolyator armatura bilan ta'minlangan bo'ladi, ularga sim, shina va tok o'tadigan qismlarni qotirish uchun, ikkinchi tomonidan o'zini konstruksiyalarga qotirish uchun.

## §5. Yuqori kuchlanishli apparatlar.

Kuchlanish 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr zanjirlari o'rnatiladigan apparatlar yuqori kuchlanish apparatlar deb ataladi.

Ularni kommutatsiyalaydigan qismlari o'rnatilgan yuqori quvvatli elektr yoyni uchirishga qodir bo'lishi va izolyatsiyasi yuqori elektr puxtaligiga ega bo'lishi kerak.

Elektr stansiylar va podstansiyalarda quyidagi elektr apparatlar ishlatiladi: uzgichlar; yuklama tok o'chirgichlar; yuqori kuchlanish saqlagichlar; moy uzgichlar.


Uzgichlarni yuritmasi bo'lib PRBA va PP -67 lar xizmat qiladi.

1. Uzgichlar - bu elektr apparatlar elektr zanjirida tok bo'limgan xolatda uzish va ularshga mo'ljallangan uskuna.

Uzgichlar ishlashida siljish kontakti bilan siljimas kontakti orasidagi havo, elektr zanjirini uzilganligini yaqqol ko'rsatib turadi. Bunday ajratkichlar xavfsiz ta'mirlash ishlarini olib borishga zamin beradi.


Oddiy uzgichlar ichki va sirtqi o'rnatish uchi bajarilgan bo'ladi, ular uch fazali va bir fazali qilinadi.

Bunday uzgichlarda yoy o'chiradigan qismlari bo'limganligi uchun faqat tarmoqlarni salt xolatida o'chirish mumkin, chunki bu xolatda siljish va siljimas kontaktlar orasida elektr yoy xosil bo'lmaydi.



73 - rasmda yopiq xonada 10 kV tuzilmalarda o‘rnatiladigan uch fazali pichoqlari vertikal xolatda ulanadigan uzgichlar ko‘rsatilgan.

Ulashishi pichoqlari -(1), umumiy shina tushiradigan valiga (4), ba’zan (3), richakka ulangan (2) izolyator orqali bog’lanadi.




74 - rasmda 35 kV - li tuzilmalarda ochiq havoda o‘rnatiladigan uzgichlar keltirilgan. Bunday uzgichlar bir fazali qilinadi, lekin (ta’mirlash) montaj paytida ular 3 fazali qilib yig‘iladi va umumiylar orqali ishga tushiriladi.

Bunday uzgichlarga o‘ng tomondagi izoloyatori (5) elektr yuritma bilan bog‘langan va aylanadigan o‘qni richagi (8) bilan. Shu izolyatorda gorizontal ulanish pichog‘i (7) xam joylashgan, bu pichoq izolyator aylangandi siljimas plastinkalardan qilingan kontakti (6) bilan birkirtildi. Uzgichni unday o‘rnatib yerlagich pichog‘i (9) shunday qilinganki, asosiy pichoq (7) ajralgandan keyin ulanadi. Bunaqa uzgichlarda 2 ta yerlagich pichog‘i bo‘lishi mumkin.

Uzgichlar 6 kV li va undan yuqori kuchlanishga mo‘ljallangan bo‘ladi, a nominal toklari 200 A va undan katta toklarga xam mo‘ljallangan.

Uzgichlarni turlari RV -6/400, RV-10/600, RNDZ -1-35/630, va ularni modifikatsiyalari bor. Bularda: R - uzgich (raz’edinitel); V - ichki (vnutrennaya ustanovka); N - ochiq havoda (narujnoy) o‘rnatiladigan; D - ikki (dvukolonkoviy) kolonnali 3 - yerlagich pichoqlarga (zazemlyayushchi noji) ega; 3 - harfdan keyingi raqamlar yerlagich pichoqlarni sonini ko‘rsatadi, 4 dan keyingi raqamlar suratda qaysi kuchlanishga moslashganligini, maxroajdan uni nomianl toki berilgan.

Agar uzgichlarni konstruksiyasini sal o‘zgartirib, ularni kontaktlariga yoy o‘chiriadigan qismlar kiritilib va ajratadigan prujinalar bilan ta’milansa, oddiy uzgichlar yuklama toklarni o‘chiradigan qurilmaga aylanadi, shunday qurilmalarni tuzilishi 74 - rasmda keltirilgan.



75 – Uzgichlarni konstruksiyasi o‘zgartirilib, ularni kontaktlariga yoy o‘chiriadigan qismlar kiritilib va ajratadigan prujinalar bilan ta’minlangan, oddiy uzgichlar yuklama toklarni o‘chiradigan qurilma.

Yuklama tok o‘chirgichlarda yoy o‘chiradigan qurilmasi tirkish kameraga (2) ega bo‘lib, siljimas kontaktlarga o‘rnatiladi. Uni oxirida 2 ta kayishuvchi ustuncha puxtalagi kontaktlar (11). Yoy o‘chiruvchi pichoq (9) ulanishida ustunchalar orasidan asosiy ishchi kontaktlar ulanishidan oldin o‘tadi: siljimas 10 va yupqa parallel pichoqlarsimon siljish kontakti (8), uzilish vaqtida esa ustunchalardan keyinroq chiqadi. Plastmassadan qilingan kamerani ichida organik shishadan qilingan almashtiriladigan plastinalar joylashgan.

Uchirish vaqtida yoy uchradigan pichoq elektr yoyni shu vkladishlar orasiga tortib boradi, yoyni issiqligi ta’sirida organik shishadan gazlar xosil bo‘ladi. Pichoq kameradan chiqqancha gazlar bilan bosim xosil bo‘ladi, pichoq kameradan chiqqan vaqtida gazlarni oqimi yoyni deformatsiyalaydi xamda sovutadi va o‘chirishga olib keladi. Shu prinsipda VNP -16 va VNP – 17 seriyali o‘chirgichlar tuzilgan. Oxirgi vaqtarda yerlagich pichoqli uchirgichlar ishlab chiqarilgan ularni, VNPa-16 yoki VNPa – 17, deb belgilangan.


*Yuqori kuchlanish saqlagichlar.* Saqlagichlar 200 KV kuchlanishlargacha ishlataladi. 35 KV bo‘lgan kuchlanish tuzilmalarda PK saqlagichlar ishlatiladi. Bu saqlagichlar qisqa tutashuv toklardan saqlash uchun qilingan, saqlagichlar ichida kvarts (qumlar) bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Saqlagichlarni kundalang qismi 76 – rasmda ko‘rsatilgan. Saqlagichni patroni bilan yoki maxsus shishadan qilingan trubkadan (1) tashkil bo‘ladi. Uni ikki tomonida latun xalqa (2) o‘rnatiladi, uni ustidan qopqoq (3) o‘rnatilgan. Trubkani ichi kvarts qum (4) bilan to‘ldirilgan. Uni eruvchan qismi kumushlangan bilan simidan qilinadi (5) yoki chinidan qilangan ustunchaga o‘ralgan bo‘ladi yoki spiral shaklida ulangan bo‘lib, trubkani ichida erkin joylashtiriladi. Saqlagichni bir tomonida ishlaganini ko‘rsatadigan sterjen o‘rnatiladi (6), qizil bilan bo‘yalgan. Saqlagichni eruvchan qismi (7) erib tushganda sterjen bo‘shatiladi va o‘z qopqog‘idan chiqib ketadi. Misni

erish harorati 1000<sup>0</sup>S ni tashkil etadi, agar 0,25 mm diametrli simga qo'rg'oshin va qalay quyulma sharik quyilsa, u 650 S issiqlikda 4 – minutda erib tushadi, agar 350 S issiqligi 40 mintuda eriydi.

Qo'rg'oshin, qalay quyulmani erish xarorati 180 S, shu haroratda shirik erish ta'sirida bilan simni ham eritib yuboradi, bu xodisa metallurgiya effekti deb ataladi. Bu effekt saqlagichlarda keng ishlatiladi, agar eruvchan qismi issiqlikni turg'unligi metaldan yasalgan bo'lsa, saqlagichlar toklarni chegaralaydigan effektga ega bo'lishadi. Qisqa tutashuv tokini uchirish vaqtiga pincha yarim davrasidan kam bo'ladi.


O'lchov kuchlanish trasformator zanjirida PKT – seriyali saqlagichlar o'rnatiladi. Bu saqlagichlar yuqorida keltirilgan saqlagichlardan eruvchan qismi bilan farq qiladi. Bunday saqlagichlarda eruvchan qismi kontakt qismidan yasaladi. PKT – 10, bu yerda P – (predoxranitel) saqlagich; K (kvarsem zapolnen) Kvars bilan to'ldirilgan; T – (transformatorniy) o'lchov kuchlanish transformatori uchun – chiziqdan keyingi raqam (10 kV) mo'ljallangan kuchlanishni ko'rsatadi, Ochiq havoda o'rnatilishi uchun PKU va PKTU saqlagichlar o'rnatiladi, ya'ni U – murakkablashgan (usileniyu).

Podstansiyalarda PSN – 10, PSN -35 saqlagichlardan foydalaniladi. Bu saqlagichlar 6 – rasmida keltirilgan.



76 – Rasm. Yuqori kuchlanish saqlagichlari

Saqlagichlarni patroni (3) gaz chiqaradigan vinniplast trubkadan qilinadi, uni ichida eruvchan qismi (5) joylashgan, uni bir tomoni patronni metal qolpoq tomoniga qotirilgan, 2 chi tomoni egiluvchan simga (2) biriktirilgan. Eruvchan qismi erganda gaz inersiyalaydigan turbkasida qalpoq (1) jilovini tortib chiqadi, uning ketidan elektr yoy, trubkani ichida ko'p gaz ajaraladi va shu tufayli trubkani katta bosim xosil bo'ladi, shu bosim ta'sirida yoy ionsizlanadi, jilovi trubkadan chiqishi bilan katta bosimli ko'ndalang gaz oqimini ta'sirida yoy sovitiladi va deformatsiyalanib uchadi.



77-Rasm. Moy uzgich

*Moy uzgichlar.* Qishloq xo‘jalik podstansiyalardi asosan ko‘p va kam xajmli moy uzgichlar ishlataladi. Bu uzgichlarda tok o‘rnatiladigan qismlarini izolyatsiyalash va kontaktlar ajrashida xosil bo‘ladigan elektr yoyni uchirish uchun maxsus transformator moylari ishlataladi.

6-10 kV li uzgichlarda 3 ta fazasi 1 ta bakni ichida o‘rnatiladi, undan yuqori kuchlanishlarda moy uzgichlar har bir fazaga aloxida qilinadi va montaj qilishda 3 ta moy uzgichni umumiy yuritma bilan ishga tushiriladigan qilib yig‘iladi. Oxirgi vaqtarda 6-10 kV li moy uzgichlar kam xajmli qilib chiqariladi, ya’ni VMP - 10 seriyali 8 - rasmida ko‘rsatilgan. Kam xajmli moy uzgichlarda transformator moyi faqat yoy o‘chirish uchun xizmat qiladi.

#### *Uzgichlar*

Podstansiyada o‘rnatiladigan uzgichlar ikki xil bo‘ladi:

- 1) yuklanma toklar utmayotgan yoki kam mikdorga ega bulgan zanjirlarni ajratish va ulash uchun ishlataladigan uzgichlar.
- 2) To‘liq yuklangan yoki qisqa tutashgan tarmoqlarni yoki podstansiyalarni qismlarini uzish uchun ishlataladigan murakkab uzgichlar (moy uzgichlar. Havo uzgichlar va elegaz uzgichlar).

Oddiy uzgichlar podstansiya va liniyalarda ta’mirlash ishlar yoki elektr uskunalarni reviziya qilish vaqtarda xavfsizlikni ta’minalash maqsadida ishlataladi.

Chunki ularni uzish pichoqlari bir biridan ko‘rinar darajada ochilib turadi.

Oddiy uzgichlarni kam yuklama tok bilan liniyalardagi yerlanish toklari 5A gacha bo‘lgan 35kV li liniyalarni.

Yerlanish toki 10 A gacha bo‘lgan 6-10kV liniyalarni, uzunligi 10 km ga bo‘lgan yuklanmagan 10 kV kabellarni, xamda yuklanmagan 35kv havo liniyani uzunligi 30 km cha bo‘lgan liniyalardagi transformatorlarni uzagidagi netralini uzishga va ulashga ruxsat etiladi.

Uzgichlarni kontaktlarda ajralish paytida ularni oralig‘i elektr yoy xosil bo‘ladi. Uni o‘chirishi ancha murakkab bo‘ladi. Shuning uchun maksimal yuklama toklar va qisqa tutashuv toklar o‘tayotgan vaqtida uzgichlardan foydalanish mumkin emas. Chunki uzelish vaqtida yoy xosil bo‘ladi va fazalar orasini qoplab oladi va elektr uskunalarga katta shikast yetkazadi.

Uzgichlar boshqa uskunalarday qisqa tutashuv davrida katta elektrodinamik va elektrotermik bardoshlikka ega bo‘lishi kerak. Undan tashqari ko‘p uzish va ulashlarga bardosh berish uchun katta mustaxkamlikka ega bo‘lishi kerak.

Uzgichlar yopiq binolar ichida o‘rnatiladigan va ochiq havoda ishlash uchun chiqariladi. Yopiq bino yoki qurilmalarga RV, RVL, RV3 turlar va ochiq havoda o‘rnatish uchun RNL, RAND, RLND3-1<sup>b</sup> va RLND3-2<sup>b</sup> turlar chiqariladi.


Ularni pichoqlari tik ulanadigan va garizontal (ploskostda) xolda o‘z o‘qida aylanadigan bo‘ladi.

Uzgichlar bir fazali va uch fazali chiqariladi, ularni nominal toklari 200 A va undan yuqori, kuchlanishlari 6kV va yuqori kuchlanishlarga qilinadi.

Nominal yuklama bilan ishlayotgan xamda qisqa tutashuvlarda liniyalar va transformatorlarni uzish uchun murakkab uzgichlar (moy, havo va eligaz uzgichlar) ishlatiladi. Bunaqa uzgichlarda siljish va siljimaydigan kontaktlar ajralishlarida xosil bo‘lgan elektr yoy moyni yoki havo va gazlarni ta’sirida uchiriladi. Moy uzgichlarda elektr yoyi transformator moyni ayrim xususiyatlari asosida o‘chiriladi, yowni o‘chirish vaqtini tezlashtirish uchun moy uzgichlarni siljimas kontaktini ustiga yoy o‘chirish kameralar o‘rnatiladi. Shularni yordamida yowni uzunligi chuziladi va tokni ikki yoki uch davrasida to‘liq o‘chira oladi.

Moy uzgichlar ko‘p xajmi (VMB) va kam xajmli qilinadi. (VMG-133, VMP-10K, VMK-10 va boshqa turlar). Havo uzgichlar 35kV va undan yuqorisida ishlatiladi VVN-35.

78-rasm. Uzgichlarni yuritmalarini turlari kul ulaydigan yarim avtomatlashtirilgan PRBA-, PS-10, avtomatlashtirilgan yuritma PP-61, PP-67.



### § 6. Elektr apparatlarni tanlash.

PUE ni talabi asosida elektr apparatlarni katalogdan tanlanishi kerak, ularni normal ishslash sharoitini inobatga olgan xolda. Elektr apparatlar yoki boshqa uskunalar o‘rnatilgan joyda yuz bergen qisqa tutashuvni maksimal toki asosida tanlangan apparatlar tekshirilishi kerak.

Atrofdagi muxitni harorati standart asosida qabul qilingan (348K), o‘zgacha bo‘lsa, unda ruxsat etilgan yuklama tokini (Idan) standart asosida qabul qilingan nominal qiymati  $I_n$  ga nisbatan topiladi.

$$I_{\text{dan}} = I_n \sqrt{\frac{348 - t_{cp}}{40}} \quad (190)$$

bu yerda  $t_{sr}$ -muxitni urtacha harorati K.

bu xolda apparatni tokini  $I$  ber. bilan solishtirish kerak. Taqsimlash qurilmalarni turiga qarab apparatni yopiq binolarda yoki ochiq havoda o‘rnatiladigan turlari tanlanadi.

Uzadigan apparatlar (uzgichlar, eruvchan saqlagichlar, avtomatlar va b.a.) o'chiradigan tok va quvvatlar asosida qabul qilinadi. Bu parametrlar uskunalarini nominal kuchlanishlari asosida (katalogda) berilgan qiymatlar, tarmoqlardagi o'chiriladigan tok va quvvatlardan katta yoki teng bo'lishi kerak.

Elektr apparatlar o'rnatiladigan joylardagi qisqa tutashuvdagi maksimal toklardan kelib chiqadigan elektrotormik va elektrodinamik kuchlarni ta'sirigan qabul qilingan apparatlarini katalogda berilgan elektrotermik qiymatlar bardosh beriladimi yoki yo'qmi deb tekshiriladi.

Apparatlarni elektrotermik bardoshligi katalogda «imax» maksimal ruxsat etilgan tok bilan ifodalanadi. Bu tok quyidagi talablarga javob bera olishi kerak.

$$i_{max} \geq i_y^{(3)} \quad (191)$$

bunda  $I_y^{(3)}$  – apparat o'rnatilgan joydagi uch fazali qisqa tutashuvni zarba toki.

Qisqa tutashuv davrida apparatlarni elektrotermik bardoshligini aniqlash shartlari

$$I_m^2 \cdot t_{\phi} \geq I_{ypu} \cdot t_{np} \quad (192)$$

bunda  $I_T$  – qisqa tutashuv davridagi apparatlarni termik bardosh beradigan toki

$t$ -qisqa tutashuv davomini vaqt (katalogda beriladi)

$I_{y_{cm}}$  – qisqa tutashuv tokini o'rnatilgan tokini qiymati.

$t_{pr}$  – qisqa tutashuvni (fiktiv) keltirilgan vaqt. Bu vaqt maxsus fanda keltirilgan egri chiziqlar asosida topiladi. Bu vaqt asosan uzgichlarni va saqlagichlarni, qisqa tutashuv toklarni uzish vaqtiga bog'liq.

Kataloglarda moy uzgichlar, havo uzgichlar va oddiy uzgichlarga odatda ( $I_{10}$ ) yoki ( $I_5$ ) termik turg'unlik tok beriladi, tok transformatorlariga – bir sekundli ( $I_1$ ).

Unda uzgichlar uchun	$I_{10} \geq I_{y_{cm}} \sqrt{\frac{t_{np}}{10}}$
yoki	$I_5 \geq I_{y_{cm}} \sqrt{\frac{t_{np}}{5}}$

(193)

Tok transformatorlar uchun.

$$I_2 = K_1 \cdot I_n \geq I_{y_{cm}} \sqrt{t_{np}}. \quad (194)$$

bunda

$K_1$  – termik turg'unlik bir sekundlik tokni karraligi tok transformatorni birlamchi nominal tokiga nisbatan ( $I_n$ ).

O'lchov transformatorlari qo'shimcha yanada ishonchli klassi asosida, ularni ikkilamchi chulg'ammlarini yuklamasiga nisbatan.

O'lchov tok va kuchlanish transformatorlar katalogda ko'rsatilgan aniqlik klassida ishlashlari uchun ularni ikkilamchi chulg'amidagi yuklamalar, kataloglardagi keltirilgandan oshib ketmasligi shart bo'ladi.

O'lchov transformatorlarni ikkilamchi yuklamalari, uni ikkinchi chulg'amiga ulanadigan o'lchov priborlarni va relelarni iste'mol qiladigan quvvatlarni yig'indisidan kelib chiqadi. Bu quvvatlar har bir pribor va releni pasportlarida keltirilgan, agar pasportlari yo'q bo'lsa unda katalogdan olinadi.

Shuni inobatga olish kerak, ularni ikkilamchi chulg'amilar har bir fazasida yuklamalar teng bo'lmaydi. Shuning uchun ularni tekshirishida eng ko'p yuklangan faza asosida tekshiriladi.

O'lchov tok transformatoridagi ikkilamchi chulg'amidagi yuklamalarni aniqlashda ulangan pribor va relelarni quvvatidan tashqari yana ularni bir biri bilan bog'lashtiradigan simlarni va kaltaklarni qarshiligini inobatga olish kerak bo'ladi. Shunday qilib tok transformatorni ikkilamchi chulg'amiga ulanadigan to'liq quvvati.

$$S = \Sigma S_{np} + I_2^2 (R_{\kappa,np} + R_{\kappa,ohm.}) \quad (195)$$

bu yerda

$\Sigma S_{pr}$  – rele va priborlarni iste'mol qiladigan yig'indi quvvati;

$I_2$  – ikkinchi chulg'amidagi tok.

$R_{k,pr}$  – pribor va relelarni bog'laydigan simlarni qarshiligi.

$R_{kont}$  – kontaktlarni qarshiligi (0,01 Om deb qabul qilinadi).

Belgilangan ishonchli klassda transformatorni ishslash sharti

$$S_{2n} \geq S \quad (196)$$

bunda  $S_{2n}$  – shu transformator uchun katalogda keltirilgan nominal quvvati

$S$  – ikkinchi chulg'amiga ulanadigan quvvat.

Podstansiyada o'rnatiladigan tayanch izolyatorlarga ta'sir qiladigan, qisqa tutashuv tokni maksimal qiymatidagi kuchlar ( $kGc$ ) xisobida

$$F_{pacu.on} = \frac{1,77 \left[ i^{(3)} y \vartheta \right]^2}{a} \cdot \ell \cdot 10^{-2} \quad (197)$$

bunda  $I^{(3)}_u$  – uch fazali qisqa tutashuv toki

$\ell$  – izolyatorlar orasidagi masofa

$a$  – izolyatorlarda joylashtirilgan oralig'i.

O'tkaziladigan (devordan, transformatorni dan) izolyatorlar uchun

$$F_{pacu,np} = 0,5 F_{pacu.on}. \quad (198)$$

Izolyatorlarni ishonchli ishslash sharti

$$F_{parp} \geq 1,6 F_{pacu}. \quad (199)$$

bunda  $F_{razr}$  – izolyatorlarni sinish kuchi (katalogdan olinadi).

Xo'jalik elektr tarmoqlaridagi avariya toklar uncha katta bo'lmasligi uchun elektrosanoatida chiqariladigan apparat va izolyatorlar, elektrodinamik va elektrotermik ta'siriga nisbatan qo'shimcha mustaxkamlik bilan chiqariladi. Shu tufayli ularni turg'unlikka kamdan kam tekshiriladi.

Masala. Yopiq 10 kV podstansiyani shinasidan chiqib ketayotgan liniyaga o'rnatiladigan tok transformatori, uzgichlar va uzgichlarni tanlang. Liniyani nominal toki 50A. Liniyadagi o'rnatilgan maksimal tok himoyasini ishslash vaqt 1,5s. liniyadagi qisqa tutashuv toklari qiymatlari:

$$I^{(3)}_{ust.} = 9 \text{kA}, I^{11(3)} = 19 \text{kA}, I^{(3)}_u = 42,5 \text{kA}.$$

$$I^{(2)}_{ust.} = 8 \text{kA}, I^{11(2)} = 17,8 \text{kA}.$$

Tok transformatorni ikkilamchi chulg'amiga ampermetr EA-2, voltmetr FDVA-2 va aktiv energiyani o'lchaydigan NT schyotchigi ulanadi. Kontrol simlarni qarshiligi 0,5Om. Rele himoyasi ikkilamchi chulg'amini ikkinchi uzagiga ishonchli ishslash klassi – 3 dan kam bo'lgan g'altagiga ulanadi.

Keltirilgan sharoitlar uchun ikki xil o'chirgichlar o'rnatilishi mumkin, ya'ni VMB-10M yoki VMG-133-II.

Yuqorida etilganday  $t^{(3)}_{prq} 1,37$  va  $t^{(2)}_{prq} 1,48$  katalogda keltirilgan qiymatlardan olindi.

$$\text{Unda } \frac{I^{11(2)}}{I^{(2)}_{ycm}} = \frac{17,8}{8} = 2,22 \quad \text{va} \quad t = 1,5c \quad t^{(2)}_{np} = 2,22c.$$

$$\frac{I^{u(3)}}{I^{(3)}_{ycm}} = \frac{19}{9} = 2,11 \quad \text{va} \quad t = 1,5c \cdot t^{(3)}_{np} = 2,06c.$$

Jadvaldan ko'rinish turibdiki eng katta termik ta'siri uch fazali qisqa tutashuv davridan kelib chiqadi, termik ta'siriga VMB-10M va VMG-133-II bardosh bera oladi, lekin o'chirish toki va quvvati tomonidan VMB-10M qoniqtirmaydi. Xamda elektrodinamik ta'siri bo'yicha xam. Shuning uchun o'rnatish uchun VMG-133-II qabul qilinadi, bu o'chirgich xamma parametrlarga javob bera oladi.

22-jadval.

Yechim raqamlari.	O'chirgichlarni xarakteristikasi		
	parametrlari	VMB-10M	VMG-133-II
$U_n$	10 kV	$U_n$	10 kV
$I_n$	50 A	$I_n$	200 A
$I^{(3)}$	19 kA	Uchirish toki	5,8 kA
$S^{(3)}$	330 MVA	Uchirish quvvati	100 MV·A
			350 MV·A

$I^{(3)}_{ud}$	42,5	I max	25 kA	52 kA
$[I^{(2)}_{ust}]^2 \cdot t^{(2)}_{pr}$	$8^2 \cdot 2,22 = 142$	$I^{(2)}_{10} \cdot 10$	$10^2 \cdot 10 = 1000$	$14^2 \cdot 10 = 1960$
$[I^{(3)}_{ust}]^2 \cdot t^{(3)}_{pr}$	$9^2 \cdot 2,06 = 167$			

Uzgichlar berilgan sharoitlar uchun katalog asosidat RV-10/400 to‘g‘ri keladi. Parametrlarini jadvalga keltirib solishtiramiz.

23-jadval.

Xislangan parametrlar		Katalogda berilgan RV-10/400 uzgichni parametrlari	
$U_n$	10 kV	$U_n$	10 kV
$I_n$	50 A	$I_n$	200 A
$i^{(3)}_u$	42,5 kA	I max	50 kA
$[I^{(3)}_{ust}]^2 \cdot t_{pr}$	$9^2 \cdot 2,06 = 167$	$I^{(2)}_{10} \cdot 10$	$10^2 \cdot 10 = 1000$

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki RV-10/400 uzgich xamma talabalarga javob beriladi.

Tok transformatorlarini kabi qilishda tarmoqdagi nominal tokiga nisbatan qabul qilinadi. Tarmoqni nominal toki 50A bo‘lganligi uchun biz TPFU-10-75/5 turli transformator qabul qilamiz va ularni tekshirib chiqamiz.

24-jadval.

Xisoblangan qiymatlar		TPFMU-10-75/5 tok transformatorni katalogdagi qiymatlari	
$U_n$	10 kV	$U_n$	10 kV
$I_n$	50 A	$I_n$	75 A
$i^{(3)}_u$	42,5 kA	$K_{din}$	500
$[I^{(3)}_{ust}]^2 \cdot t^{(3)}_{pr}$	$9^2 \cdot 2,06 = 167$	$K_{duu} \cdot \sqrt{2} I_n$	$500 \cdot \sqrt{2} \cdot 75 = 52,8 \kappa A$
		$K$	240
		$(K \cdot I_n)^2 \cdot 1$	$(240 \cdot 75)^2 \cdot 10^{-6} \cdot 1 = 324$

Qabul qilingan tok transformator bizni qoniqtiradi. U ikki o‘zagli quvvati 15 V·A birinchli ishonchli klassi uchun va 40 V·A: 3-chi ishonchli klassi uchun. O’rnatilgan liniyadagi schyotchiklar nazorat apparatlari uchun, ular 1,0 ishonchli klass tok transformatorlarga ulanishi mumkin.

Tok transformatorni ikkinchi chulg‘amga ulanadigan yuklamalarni tekshiramiz.

EA-2 iste’mol qiladigan quvvati – 1,73 V·A, Vatmetrni tok chulg‘amini iste’mol qiladigan quvvati – 1,4 V·A. Liniya to‘liq yuklanganda, transformatorni ikkinchi chulg‘amidagi tok  $I_2 = 3,34 A$ .

$$S = 3,655 + 3,34^2 (0,5 + 0,01) = 9,335 \text{ V·A} < 15 \text{ V·A}$$

Talabga javob beradi. Rele ulanadigan chulg‘amni tekshirmaymiz, rele iste’mol qiladigan quvvat va nazorat simlari qiladigan quvvat ancha kam bo‘ladi, 3-chi ishonchli klassni quvvatiga qaraganda.

## 11-Bob. Yuqori kuchlanishlar va ularidan himoya.

### §1. Yuqori kuchlanishlar va ularni klassifikatsiyalari.

Qisqa vaqtli kuchlanishlarni oshib ketishi, elektr uskunalarni avariyyaga olib keladigan asosiy sababalaridan biri xisoblanadi.

Elektr uskunalarni izolyatsiyalarini tanlashda, axamiyatga muovfiq bo‘ladigan tebranishi bilan qiymati qaysi 15% gacha bo‘lgan tebranishi bilan uzoq vaqt davomida izolyatsiyaga ta’sir qilib turadi. Ayrim izolyatsion materiallar, amalda ishlatilishida, ancha elektr mustahkamlikka ega bo‘ladi, shuning uchun ancha vaqt ichida izolyatsiyasi teshilmay ishlaydi, shuning uchun izolyatsiyalarni nominal kuchlanishini tanlashda izolyatsiyani inobatga olish kerak. Biroq, izolyatsiyani tanlashda asosan uncha uzoq vaqt davomida ta’sir ko‘rsatadigan nominal kuchlanish emas, qisqa vaqt ichida xosil bo‘ladigan kuchlanishni oshishi asosida qabul qilinadi, chunki ko‘pincha shu kuchlanishlar izolyatsiyani ishdan chiqaradi, bu kuchlanishni qiska davrda ochib turish, elektr uskunalarni ekspluatatsiya qilishda har xil sababalar asosida kelab chiqishi mumkin.


Elektr uskunalarda qisqa vaqt ichida kuchlanishni oshib ketishini yuqori kuchlanishlar deyiladi. Elektr uskunalarni ishlash davridagi yuqori kuchlanishlarni ikki asosiy kategoriyalarga

bo'linishi mumkin: ya'ni ichki yuqori kuchlanishlarga, bo'lar elektr uskunalarini bir jarayonidan ikkinchi jarayoniga o'tishda xosil bo'ladigan yuqori kuchlanishlar va sirtqi ta'mirlardan kelib chiqadigan yuqori kuchlanishlar, bular elektr uskunalariga atmosferadagi elektr zaryadlarni ta'siridan kelib chiqadigan yuqori kuchlanishlar.

Ichki yuqori kuchlanishlar ko'pincha, kommutatsion kuchlanishlar deyiladi. Elektr uskunalarini har xil jarayonlardan kelib chiqqan qisqa vaqtli kuchlanishni tebranishi, nomianl kuchlanigsha nisbatan ko'payishi yoki kerakligi.

Sirtqi yuqori kuchlanishlar yoki atmosferani ta'sirdan kelib chiqqan yuqori kuchlanishlar, asosan yashin bulutlarni yoki yashinlarni ta'sirida, ular uskunalarini normal rejimiga bog'liq bo'lmaydi. Ularni ta'siri voltlar qiymatida ifodalaniladi.

Ichki yuqori kuchlanishlar asosan tez so'nadigan yuqori tebranishdan iborat bo'ladi, ularni tebarinish chastotasi, bir necha marta normal xolatdagi chastotasiga qaraganda.



79. rasm. Yuqori kuchlanishni turlari

- a) ichki jarayondan kelib chiqqan.
- b) sirtqi (muxitni) ta'siridan kelib chiqqan

Sirtqi (atmosfera) ta'siridan kelib chiqadigan yuqori kuchlanishlar aperiadik impuls (to'lqin) shakilda bo'ladi. Kaysini ta'sirda elektr uskunalaridagi potensial tez nominal qiymatidan qandaydir maksimal qiymatigacha bu qiymatini yuqori kuchlanishni ampletudasi  $U_{max}$  deb ataladi. Undan keyin asta- sekin normal qiymatigacha kamayib boradi.

(77 rasm b kurinishda ko'rsatilgan). Potnetsial nominal qiymatidan amplituda qiymatigacha oshib borishi vaqtini  $t_1$ - to'lqin fronti yoki impuls deb ataladi.  $t_2$  vaqt esa protsessni boshlanishidan ampletudani maksimal qiymatidan 50% gacha kamayishigacha bo'lgan vaqtini to'lqin uzunligi deyiladi.

Impuls ampletudasi har doim nominal kuchlanishga nisbatan noldan boshlanishiga qaramay ancha katta bo'ladi. Xo'jalik elektr uskunalarini izolyatsiyalariga ko'pincha ichki yuqori kuchlanishlar uncha xavfsizlik keltirmaydi.

Bunaqa yuqori kuchlanishlar, elektr uskunalaridagi normal xolatda kommutatsion ishlari bajarishdagi o'tish jarayonlardan kelib chiqadi (elektr mashinalarni uzish yoki ulanishda, transformatorlarni, uzatish liniyalarni) va avariya xolatlarda (fazalararo qisqa tutashuvlarda, yer bilan tutashganda, simlar uzilganda). Ichki yuqori kuchlanishlarga nosinusiodal qisqa tutashuvlar ta'sirida kelib chiqadigan rezonanslarda yoki yerlanishda xosil bo'lgan yoyni yonishidan. Bo'lar xam xo'jalik tarmoqlar uchun uncha xavfli emas, lekin yoylarni uzoq vaqt davomida qaytarilib turishini inobatga olgan xolda ulardan xam chora ko'rish to'g'ri keladi.

Sirtqi (atmosfera) yuqori kuchlanishlar elektr uskunalariga yashinlarni to'g'ri urilishlaridan kelib chiqadi. Ular yashin bulutlaridagi elektrostatik maydonini ta'sirida induksiyalanishdan, yashin bulutlarini o'zaro razryadlanishida yoki elektr uskunalar o'rnatilgan joyni yaqinida yashin bulutlar bilan yer orasidagi razryadlanish ta'sirida. Sirtqi yuqori kuchlanishlar asosan havo liniyalarni shikastlantiradi, chunki ularni uzunligi yashinlarni ta'sirini extimoligini oshiradi. Elektro uskunalariga yashin razryalanishidan kelib chiqqan yuqori kuchlanishlar ayrim vaqlarda milion voltni tashkil qiladi. Bu esa elektr uskunalarini izolyatsiyasiga katta xavflik keltiradi.

Elektrostatik induksiyalarni ta'siri ancha kamroq bo'ladi, yashinlarni chaqmoqlaridan kelib chiqqan elektromagnit maydoni ta'sirida induksiyalangan yuqori kuchlanishlar undan xam kam bo'ladi.

Elektr uskunalarini ekspluatatsiyalash va loyixalash tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar ularni izolyatsiyalari sirtqi (atmosfera) yuqori kuchlanishlarni inobatga olgan xolda tanlansa va kerakli himoyalash choralarini ko'rildi, ishonchli va uzlusiz elektr ta'minotga ega bo'lishi mumkin.

Shuni aytish kerak, yuqori kuchlanish elektr uskunalarini bir elementida xosil bo'lib qolmasdan, u boshqa elementlarga xam tarqalib boradi va qaysi bir elementni izolyatsiyasi kamaygan bo'lsa unga zarar keltiradi. Ko'pincha transformator yoki generatorlarni chulg'aminishdan chiqaradi. Shu tufayli iste'molchilar uzoq vaqt davomida energiya bilan ta'minlanmay qoladi.

## §2. Atmosfera (sirtqi) yuqori kuchlanishlar.

Liniyaviy shinalar, elektr uskunalarida sirtqi yuqori kuchlanishlar kelib chiqadi, tez-tez kaytariladigan kiska vaqtli razryadlanishlar, yashin bulutlarni utkazuvchanlik xususiyatiga boglik bo'ladi. Elektr zaryadlarni kondensatsiyalashda uzlashtirilgan suv tomchilari kam harakatli bo'ladi. Shuning uchun bulutlarni bir kismi razryadlangandan so'ng bulutlar ichidagi mayda razryadlar ta'sirida o'zini zaryadini tiklab olish uchun ancha munkha vaqt kerak bo'ladi.

Taxmindan xamma yashinlarni 50% kayta razryadlanishdan kelib chiqadi, taxmindan ularni soni 3-4 va maksimal soni 40 gacha yetadi. Razryadlarni uzaro intervali taxminan  $10^{-1}$  sekundan  $10^{-3}$  sekundni, har bir razryadlanish vaqt esa bir necha mikrosekundni tashkil qiladi.

Har bir razryadlanish oldidagi va asosiy razryadlanishdan tashkil bo'ladi. Birinchi razryadlanishni, razryadlanish oldidagi jarayon ko'pincha iskra oralig'ini pog'onali teshib o'tishicha o'xshaydi, ketma-ket bulut bilan yer oralig'idagi atmosferani izolyatsiyalash yoki ikki yashin bulutlar orasida. Har bir razryadlanish oldidagi jaryonni ionizatsiyalash pog'ona oralig'i 50-100m tashkil qiladi. Undan keyin razryadlanish jarayonini 10dan 100mikrosekund orasida tuxtililadi. Pog'onali razryadlanitirish jarayoni oralig'ini tezligi taxminan 1000 kmsek. tashkil qiladi.

Razryadlanish oldidagi jarayonni yasovchi kanal yerga yakinlashib borganda biror yerdan kutarilgan yerlangan narsada (truba, daraxt, stalba yoki elektr uskunalarida), qarama qarshi kanal yerdan bulutga qarab xosil bo'lishi mumkin, ular xam pog'onama-pog'ona rivojlanib boradi. Razryadlanish oldidagi jarayon yerga yetganda yoki bulut bilan va yerdan xosil bo'layotgan razryadlanish oldidagi jarayon kanallari uchrashganda asosiy razryadlanish kanal xosil qiladi, yerdan bulutga qarab yunaladi. Birinchi razryadlanish katta amplituda tokiga ega bo'ladi.

Asosiy razryadni tezligi 50 dan 150 ming. km/S. Razryadlanish jarayon odatda bulutdan yerga qarab boshlanadi, chunki uni kattaligi yerni yuzasiga qaraganda ancha kichik, shuning uchun yer bilan bulutni iyna bilan plaskost oralig'iday tassavur qilish mumkin. Shu tufayli bulutni elektr maydonini kuchlanishi yerga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. Havoni bosimi kamligi uchun uni elektr mustaxkamligi xam kam bo'ladi.

Yashinli bulutlarni yerga razryadlanish balandligi bir necha yuz metr dan – bir necha kilometrgacha bo'ladi. Ikki bulutlar orasidagi razryadlanish (chaqmoqlanish) masofasi 10 va undan bir necha marta ko'proq kilometr bo'ladi.

Ko'p xolatlarda razryadlanish oldidagi jarayondagi asosiy razryad boshlanganda bulutdan yerga qarab shikastlangan (zarbalangan) ob'ektdan o'tayotgan tok tez oshib boradi, to'lqin frontini (uzunligi) bir necha o'nlik mikrosekund bo'ladi. O'rtacha 20 dan 40 kA gacha oshib boradi va undan keyin tez kamaya boshlanadi va 10-100 MK.S ichida to'liq so'nadi. Yashin yerlangan ob'ektga yashini asosi razryadlanish asosi kanali urganda, undan o'tayotgan tokni o'lchagan qiymati yuz kilometrdan ko'proq bo'ladi.

Yashinni to'g'ri urinishidagi tok shkastlangan ob'ekrda, yashin bulutlardagi elektrstatik maydonini ta'sirida induksiyalangan zaryadlarni neytrallantiradi va shikastlangan ob'ektga juda katta potansial o'tkaziladi, ularni zaryadi va bulutni zaryadi bir xil bo'ludi. Kuchlanishni oshib

borishi shikastlangan ob'ektda va undan keyingi kamayishni xarakteri asosiy razryadni tokini o'zgarishiga o'xshagan bo'ladi.

Shunday qilib atmosfera yuqori kuchlanishni, yashinni to'g'ri urinishidagi ampletudasi taxmindan milion voltgacha bo'ladi.

Havo liniyadagi induksiyalanishdan kelib chiqqan yuqori kuchlanishni o'lchovi ko'rsatadi, ularni ampludalari ancha kam bo'ladi, yashin to'g'ri urilgandagi yuqori kuchlanish ampletudasiga qaraganda ularni qiymati 300-400 kV.

(Yashin bulutlarni kelib chiqishi, zaryadlanishi yashinlarni turlari va ular ta'sirida kelib chiqadigan masalalari «Yuqori kuchlanish texnikasi» fanida o'tiladi.)

### **§3. Muxitni ta'siridan kelib chiqqan yuqori kuchlanishdan saqlash.**

#### **Elektr uskunalaridagi yuqori kuchlanishlar va ularnin klassifikatsiyasi.**

Ta'minlovchi elektr motorlarda o'rnatilagan elektr uskunalarini izolyatsiyalar har doim nominal kuchlanishni yoki 15% ortiqcha kuchlanish ta'sirida bo'ladi. Shu tufayli izolyatsiyani himoyaviy va mexanik strukturasi o'zgarib boradi, uni himoya qilish xususiyati kamayadi. Elektrotexnik uskunalarini ta'minlashida, uzoq vaqt davomida ularni izolyatsiyalariga kuchlanishni elektr maydoni ta'siri, ishlash sharoitlari inobatga olgan xolda tayyorlanadi.

Lekin ulardan foydalanish vaqtida nominal kuchlanishga qaraganda bir necha barovar ortiqcha kuchlanishlar ta'sir qiladi. Nonormal yoki elektr uskunalarini avariya rejimida ishlashidan kelib chiqqan yuqori kuchlanishlarni, ichki kuchlanishlar deyiladi. Elektr uskunalarga yashin urishidan yoki elektr uskunalarini yonida chaqmoqlarni ta'siridan kelib chiqqan yuqori kuchlanishlar, chunki chaqmoqlar ta'siridan kelib chiqqan kuchlanishlar bir necha ming kilovoltni tashikl qiladi.

Yashin maksimal toki 10 kA dan bir necha yuz kiloampergacha bo'ladi. Tokni ta'siri mikrosekund bo'ladi. Jalali bulutlar manfiy zaryadlangan bo'ladi va yerni betida musbat zaryadlar to'plana boshlaydi, shu tufayli bir yirik kondensator xosil bo'ladi. Shu bilan birga yerni elektr maydoni kuchlanishi 300 Vsm tashkil qiladi, bulutli kuchlanishi  $Ye \angle 10$  kVsm, o'rtacha kuchlanishi kamdan kam 10 kV/sm dan oshadi. Lekin bir xil joylarda baland o'tkir qirrali binolarni kuchlanishi 25:30 kVsm yetadi, bu esa yashin rivojlanishi sharoitini yaratib beradi.

Jala bulutlarida zaryadlarni taqsimlanishi asosida bulut yer oralig'ida manfiy qutubli elektralish xosil bo'ladi (60 -90) yashin shaklida, bir xil paytlarda zaryadlangan shar shakilida yoki nurlangan vista rivojlanayotgan elektralantirish yuz beradi.

Elektrsizlashdan oldin jala bulutlardan yerga qarab odatda to'xtovsiz zaryadlarni oqimi strimer xosil bo'ladi. Chunki zaryadlangan bulut yerni yuzasiga qaraganda kondensatorli yassilik yuzasi bilan elektrodn uchiga o'xshash. Agar bulutni balandligi uncha yuqori bo'lmasa unda baland binoni qirralari elektrod vazifasini bajaradi.

Bulutni balandliginida yerga nisbatan uzoq bo'lsa, yashinlanish strimeri yerga qaratilishi pofkilota bo'lib kelishi mumkin. Faqat binolarni yoki yashin qaytargichlarni balandligidan 20 barovar bo'lgan jala bulutlarida xosil bo'lgan yashin strimerlari yerga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Binolarni baladlagi 30 metrdan baland bo'lgan xolda strimer oriyentirlanishi mumkin, ya'ni N 600m.

Yashinni toki uskunalaridan o'tishida, ularga issiqlik mexanik va elektromagnit ta'sirini beradi.

Issiqlik ta'siri, tokni kuchi juda yuqori bo'lishiga qaramay, unga katta emas, chunki tokni ta'sir qilish vaqt vaqti nixoyatda kam bo'lganligi uchun.

Mexanik ta'siri asosida tosh va g'ishtdan qilingan binolarni buzib ketadi, daraxt stolbalarni va traverzalarni parchalab yuboradi, akustik zarbasi ta'si rida va namchiliklarni bug'lanishi ta'sirida.

Eng katta zarba ta'siri darz bergen joydan yashinni toki o'tayotganda bo'ladi.

Elektromagnit ta'siri eng xavfli bo'ladi, chunki yashin urgan joyda potensiali million voltgaach bo'ladi, shuning uchun yerlangan konstruksiyalarda yoki binolarni ichida ikkilamchi elektrsizlanish yuz beradi, bu esa odamlarni va xayvonlarni hayotiga katta xavfsizlik keltiradi. Yashinni yerga kirish joyida uni teppasida yuqori potensiallar xosil bo'ladi, bu daraxtlarda, stolbalarda, binolarda va boshqa qurilishlarda. Bu potensial yerga urilgan joydan uzaklanib borishi bilan kamayib boradi, shuning uchun qadam kuchlanish xosil bo'ladi. Bu esa odamlar va xayvonlar xayotiga xavfsizlik tug'diradi.

Ayniqsa elektr havo liniyalarni, radio, telefon simlariga yashinni elektrsizlanishi urilganda katta xavfsizlik kelib chiqadiki, agar ular kerakli darajada himoya kila olmasa. Shu yuqori kuchlanishlar ta'sirida elektr uskunalarni izolyatsiyasi buziladi va elektr uskunalarni avariylaga olib keladi, agar havo liniyalar orqali yuqori kuchlanish to'lqinlari xonadonlarga, ishlab chiqarish binolariga o'tib ketganda odamlarni, xayvonlarni shikastlanishiga olib keladi.

Yashinlarni elektrsizlanishi havo liniyalarni yonida yuz bergen xolda elektrostatik va elektromagnit induksiylari ta'sirida havo liniyasida xosil bo'lgan yuqori kuchlanishlar yuqorida aytilgan oqibatlarga olib keladi.

#### § 4. Yashin qaytargichni himoya maydoni.

Bir yashin qaytargichni himoya maydoni to'g'ri konusni tashkil qiladi. Himoya qilish maydonini radiusi quyidagi tenglama asosida topiladi.

83 ,84, 85-Rasmlarni chizish kerak

$$r_x = \frac{1,6ha}{1 + \frac{h_x}{h} P} \quad (200)$$

Yoki

$$r_x = 1,6h \frac{h - h_x}{h + h_x} P$$

bu yerda: R - yashni qaytargichga urishini va zaryadsizlanishini rivojlanishi, uni baladligiga bog'liqligini inobatga oladigan koeffitsent. Agar yashin qaytargichni balandligi 30 metrdan kam bo'lsa ( $h < 30$ ) unda  $R=1$  va balandligi 30 metrdan oshiq bo'lsa  $P = 5,5 / \sqrt{h}$  qabul qilinadi.

- himoya qilinadigan elektr uskunani balandligi ( $h_x$ ) himoya qilinadigan maydonning radiusi.

Himoya qiladigan elektr uskunani balandligida: himoya qilinadigan maydonga teng bo'lgan doriani yuzasini tashkil qiladi. Yerni yuzasida esa bu radius  $1,6 h$  ga teng bo'ladi (rasm 1).

Agar yashin qaytargichni balandligi  $h > 30m$ . baland bo'lsa uni himoya qilish radiusi himoya qilinadigan uskunani balandligi  $h_x$  qaraganda

$$r_x = 8,8\sqrt{h} \frac{h - h_x}{h + h_x} \quad (201)$$

bu yerda:

$r_x$ - Yashin qaytargichni himoya qilish zonasasi


$h$  - Yashin qaytargichni to'liq balandligi

$h_x$ - Himoya qilinadigan uskunani (yoki ob'ektni) balandligi.


Yerni yuzasidagi himoya qilish zonasini eng katta radiusi  $8,8\sqrt{h}$  teng bo'ladi.

3-220 kV gacha bo'lgan o'zgaruvchi tok elektrotexnik uskunalarni yuqori kuchlanishdan saqlash qurilmalarini bitta yashin kaytargich bilan himoyalashdagi baholash koeffitsiyenti


$$R_x = \frac{r_x}{h_a} \quad (202)$$



80-rasm. 1-ta yashin qaytargichni ximoya qilish maydoni



81-rasm. 2-ta yashin qaytargichni ximoya qilish maydoni



82-rasm. 3-ta va undan ortiq bo'lgan yashin qaytargichlarni ximoya qilish maydoni

bu yerda  $h_a$ - himoya qilinadigan ob'ektni balandligidan, yashin qaytargichni ortiqcha balandligini, ya'ni aktiv balandligi.

$$h_a = h - h_x$$

Shu tushuncha kiritilgandan sung (209) va (210) tenglamalarni quyidagicha ko'rinishda yozsak bo'ladi.

$$r_x = \frac{1,6}{I + \frac{h_x}{h}} \quad \text{va} \quad R_x = \frac{8,8}{(I + \frac{h_x}{h}) \cdot \sqrt{h}} \quad (203)$$

Asosan podstansiyalarda ORU partallarida yoki (oporalarda) tayanchlarda o'rnatiladi. Agar podstansiyani maydonida joylashgan elektr uskunalarini bitta yashin qaytargich himoya qila olmasa, unda ikkita yashin qaytargich o'rnatiladi. Ikkita yashin qaytargichni himoya qilish maydoni har doim, ikkita alohida ishlaydigan yashin qaytargichlarni yig'indi maydonidan katta, agar ularni oralig'i 7h ga teng bo'lsa. Ularni yer yuzasidagi korpusi bir-biri bilan qushilgan bo'ladi. O'rnatilgan ikkita yashin qaytargichni o'rtasidagi ( $a/2$ ) qo'shilish kengligini topamiz.

$$b_x = 4r_x \frac{7h_a - a}{14h_a - a} P \quad (204)$$

bu yerda:  $a$ - yashin qaytargichlarni oralig'idagi masofa,  $a/2$  masofada perpendikulyar chiziq o'tkazamiz, shu perpendikulyarni har tomonga « $v_x$ » belgilab chiqiladi. Shu belgilangan nuqtadan har bir yashin qaytargichni himoya doirasiga o'rilmaga to'g'ri chiziq o'tkaziladi. (2-rasmida ko'rsatilgandek) va uskunani balandligidagi himoya qilinadigan maydon aniqlanadi. Himoya qilinidagan baladlikni eng past nuqtasi ikki yashin qaytargichni o'rtasida bo'ladi bu nuqtani aniqlash uchun shu oraliqni o'rtasidan  $a/7$  teng nuqtani topamiz. Topilgan nuqta bilan ikki yashin qaytargichlarni chuqqilariga tegishli doira o'tkazamiz shu doirani chizig'ini tagidagi elektr uskunalar yashin va chaqmoqlarni ta'siridan himoya qilinadi. Agar elektr uskunalar himoya doirasidan mintaqasidan chiqib qolsa, unda yashin qaytargichlarni balandligini kutaramiz yoki sonini oshiramiz.

Agar podstansiyani maydoni katta bo'lsa unda podstansiyada o'rnatilgan elektr uskunalarini himoya qilish uchun bir nechta yashin qaytargichlar o'rnatiladi. Ularni himoya qilish doiralari aniqlanadi har bittasi uchun, undan keyin umumiy himoya mintaqasi topiladi. (2 - rasmida ko'rsatilgandek).

Yashin qaytargichlarni ichki himoya mintaqasini aniqlashda ularni balandligini inobatga olgan xolda joylashish nuqtalari quyidagi talablarga javob berishlari kerak (rasm 30).

- a) Agar yashin qaytargichlarni balandligi 30 metrdan kam bo'lsa ( $h < 30$  metr).

$$D = 8 \text{ ha} \quad (205)$$

- b) Agar yashin qaytargichni balandligi 30 metrdan oshiq bo'lsa ( $h \geq 30$  metr) unda

$$D \prec 8 \frac{5,5}{\sqrt{h}} h_a \quad (206)$$

bu yerda 3 ta yashin qaytargichni cho'qqilaridan o'tkazilgan doirani diametri, yoki ko'p burchak shaklida joylashgan yashin qaytargichlarni eng katta diagonali.

Havo liniyalarni yashindan va chaqmoqlarni ta'siridan himoya qilishdan trostli yashin qaytargichlar ishlataladi.

Trosli yashin qaytargichlar 4 rasmda ko'rsatilgan. Bunaqa himoyani himoya qilish doirasini radiusi himoyani foydalanish koeffitsenti havo liniyalarni tros bilan himoya qilganda uni foydaligi himoya burchagi  $\alpha$ -orqali ifodalanadi. Tros yashin qaytargichlarni himoya qilish zonasini, bitta yashin qaytargich zonasiga o'xshash topiladi. Himoya qilinadigan ob'ektni himoya qilish radusi.

$$\tau_x = 0,8h \frac{h-h_x}{h+h_x} \quad (207)$$

Bu tenglama asosida tros osilish badlandligi 30 m oshmaganda trosni himoya qilish koeffitsenti

$$R_x = \frac{r}{h_a} = \frac{0,8}{1 + \frac{h_x}{h}} = tgx \quad (208)$$

Qancha burchak kam bo'lsa yashinni fazasimlariga ta'sir qilish imkoniyati kam bo'ladi. Lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki  $\alpha = 20 - 24$  oralig'idagi bo'lishi kerak. 35 kV havo liniyalarda dastlabki sarf qilinadigan mablag'ni kamaytirish maqsadida, q35 bo'lsa maqsadga muvofiq deyiladi. PUE asosida 110-35 kV li havo liniyalarda chaqmoqni yig'indi vaqt 1 yil davomida 20 soatdan kam bo'lsa tros liniyani boshlanishida va liniyani oxirida 4-5 tayanchlar oralig'iga osiladi. 6 - 10 kV li liniyalarda tros umuman osilmaydi. Podstansiyalarda xam yashin qaytargichlar o'rnatilmaydi.


Agar yil davomida chaqmoq chaqish vaqt 20 soatdan oshgan xolda bo'lsa, unda 35-110 kV liniyalarda havo liniyalarni boshidan oxirigacha tros osilishi shart.

### **§ 5. Muxitning ta'siridan kelib chiqqan yuqori kuchlanish to'lqinlaridan himoya.**

Induksiyalangan yuqori kuchlanishlar. Yashin bulutlar yaqinlashganda havo liniya simlarida katta zichlangan zaryadlar xosil bo'ladi. Yashinlar elektrsizlanish vaqtida simlardagi zaryadlar bilan aloqasi uzaladi va elektroto'lqinlar ta'sirida potensiali kam tomonga tarqaladi. Liniyadagi tok, elektromagnit to'lqini boshlanish nuqtasidagi kuchlanishi va liniyani to'lqin qarshiliklari asosida qarshilanadi. Liniyadagi aktiv qarshiliklari rasmlardagi toklanish ta'sirida yuqori kuchlanish to'lqinlarini amplitudasi o'zilishi tufayli kamayib boradi va to'lqinni fronti keskinlashib boradi. Lekin kuchlanish to'lqinni o'rtacha qiymati 220 kV tashkil qiladi. Quvvat transformatorlarini va boshqa elektr uskunalarini xamda 6-35 kV li liniyalaridagi izolyatsiyalarni bu yuqori kuchlanishlarga bardosh bera olmaydi. Shuning uchun liniyalarda va potstansialarda havo liniya zaryadsizlash uskunalariga va havo liniyalarga yoy zaryadsizlagichlar o'rnatiladi.

Yuqori kuchlanishlardan izolyatsiyani himoya qiluvchi (apparatlar) uskunalar.

Havo liniyalarda o'rnatiladigan himoya qiladigan apparatlaridan biri bu iskra oralig'i (I.O.)



83-rasm. Iskra oraliqlar a) igna shimal, b) shoq shimal

Uchqun oraliqlari (UO) - bu eng sodda, mamoqaldiroqdagi himoya qiladigan uskuna. Ularni asosan himoya qiluvchi ob'ektni yaqinida o'rnatiladi. Ko'pincha uchqun oraliqlar 10-12 mm po'lat simdan shoq shimal qilinadi. Bitta elektrodnii simga ulaydi, ikkinchi elektrodnii esa yerlangan traversaga.

Uchqun oraliqni yuqori kuchlanish to'lqini kesib o'tganda so'ng ionizatsiyalangan kanaldan impuls tokidan keyin keltirilgan ishchi kuchlanish ta'sirida kelib chiqqan sanoat tebranish toki o'tadi - kuzatuvchi tok.

Bu esa qisqa tutashuv toki bo'ladi. chunki uchqun oraliqni yerlagich simi xamma faza uchun bitta. UO shoq shaklida qilinishi oraliqda xosil bo'lgan yoyni uchirish sharoitini yaxshilaydi, chunki u elektrordinamik kuch va havoni issiqlik oqimi ta'sirida yuqoriga ko'tariladi, uchiriladi, agar yoyni toki 300 amperdan oshmagan xolda.

Asosiy uchkun oralig'idan (f) tashqari, yoy kuchlanishi va voltsekund harakteristikasi, ikkinchi uchqun oralig'ida uchiriladi. (2). Bu oralig agar birinchi asosiy oralig parandalar ta'sirida ulanib qolganda nominal kuchlanish ta'sirida ishga tushab ketmasligi uchun.

(S<sub>1</sub>) Birinchi va ikkinchi (S<sub>2</sub>) uchqun oraliqlar masafolari liniyalarini nominal kuchlanishga qarab jadvalda berilgan.


25-jadval

Tarmoqni nominal kuch lanish kV	Uchqun oraliqlari, mm		Uchqun oralig'ida elektrsizlanish- dagi kuchlanish. kV	
	(S <sub>1</sub> )	(S <sub>2</sub> )	50 Gts.dagi to'liq qiymati	Impuls har-xil qarama- qarshiligidagi

	<i>himoya qiluvchi uskuna o'rda</i>	<i>himoya qiluvchi uskuna o'rnatilgan</i>	<i>Har bir xolatda</i>		<i>Musbat</i>	<i>Manfiy</i>
6	40	20	10	34	51	53
10	60	30	15	45	66	68
20	140	80	20	70	121	134
35	250	140	30	105	195	220

Uchqun oraliqlari, o'zini soddaligi va arozonligi tufayli 6-35 kV elektr tarmoqlarida keng tarqatilgan himoya xisobida ishlatiladi.

Bundan tashqari havo liniyalarda yuqori kuchlanish to'lqinlarini kesish uchun trubkali yashin elektrsizlagichlar ikki xilga bo'linadi: Ular bir-biridan gazlanish materialidan farq qilinadi, ya'ni RTF - fibrokalitli turi; RTV - viniplastli turi. Gazlanish materiallari har xil bo'lgani uchun trubkali yashin elektr sozlagichlani konstruksiyalari va razmetrlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi, lekin ularni ishlash prinsiplari bir xil bo'ladi.



84-rasm. RTF – razryadniklar.

RTF - yashin elektrsizlantirish quyidagi asosiy qismlardan tuzilgan: fibradan qilingan truba ichida yoy yonishi tufayli, katta issiqlikka kelib chiqadi, shu issiqlik ta'sirida fibra kun miqdorda gaz ishlab chiqadi, sirtqi bakilit trubkasi 2, havo esish kamerasi - 4, trubkani ikki tomondagi oboymani biridan tashkil topgan; sterjenni elektrod - 5, xalqa shaklidagi plastinkali elektrod 7 bilan ikkinchi oboymani ichiga payvandlangan bo'lib, birlgilikda uchqun orlagini tashkil qiladi; ishlaganligini kursatkich 1, bu ingichka tarang pulat plastinkadan; qotirish xalqa - 6.

Sirtqi uchqun oraliq trubkali yashin elektrsizlash va yerlagich simni orasida yerlanish toki o'tayotganda fibrani kuyib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, xamda kuchlanishlarga moslash uchun qilinadi. Trubkani ichidagi uchqun foli rostlanmaydi. Sirtqi uchqun oraliq tarmoqdagi kuchlanishlar asosida qabul qilinadi.

26-jadval


Tarmoqni nominal kuchlanish kV	Postansiyadagi uchqun oraliqlarni uzilishi (mm)	
	Yashin himoya apparatlar o'rnatilgan podstansiyalarda.	Yashin himoyalar o'rnatilmagan podstansiyalarda
6	15	10
10	20	15
20	80	40
35	120	60

Ichki va sirtqi uchqun oraliqlarni impuls toki teshib o'tgandan so'ng yerlagich yashin orqali yerga o'tkazilib yuboriladi. Yoyni ta'sirida fibra parchalanadi va ko'p miqdorda gaz chiqaradi: shuning uchun trubkani o'zgaruvchan tokli sinusoidasi noldan o'tayotgan vaqtida yoy uchadi va ionlantirilgan gazlar havo chiqaradigan teshigidan katta bosim ta'sirida kameradan chiqib ketadi. Sanoat chastotasini 1-3 periodidan son yoy to'liq uchadi.

Trubkani ichida xosil bo'lgan yoy ta'sirida uni ichki diametri ko'paya boradi: shu kengayishi 20-25% oshganda so'ng RTF qurilmasini foydalanishdan chiqarib tashlanadi. (ya'ni o'z xizmatidan bajara olmaydi). RTV - yashin elektrsizlantirgichlar RTF - ga qaraganda mexanik xususiyati ko'proq bo'ladi.

Ular tayanch ustinlarda o'rnatilishida uni ochiq tomoni pastga 15-20° qaragatilgan bo'lishi kerak, aks xolda uni ichiga havo yig'ilib qolishi mumkin. Sirtqi uchqun oraliqlari gorizontal xolda yoki 5-6 burchakka siljigan bo'ladi. Aks xolda yomg'ir yog'ayotganda bu oraliq yomg'ir ta'sirida ulashib qolishi mumkin.

Podstansiyada o'rnatilgan elektr uskunalarni yuqori kuchlanish to'lqinlardan himoya qilish uchun ventil yashin elektrsizlantiruvchi qurilmalardan foydalanadilar. Ularni turlari: RS; RV11 va RVS. Bo'larni tuzilishi va ishslash prinsiplari bir xil bo'ladi.



85-rasm. 6-10 kV kuchlanish podstansiyalarda o'rnatiladigan RPV elektrsizlagich. a) tuzilish sxemasi. a) elektr sxemasi.

Ko'ndalang kesmi 3- chi rasmida ko'rsatilgan. Xamma ventil razryadniklarni asosiy qismlari:

- 1- faza simiga ulanadigan kontakt bolti.
- 2- kontaktli chinni korpusi.
- 3- korpusni ichida joylashtirilgan bir nechta ketma-ket ulangan uchqun oraliqlar.
- 4 - uchqun oraliq bilan ulangan ishchi qarshilik diskleri, bu disklar vilitdan qilgan, vilit esa noteqs qarshilikka ega.
- 5- chinni korpusnii ichida joylashgan asosiy qismiga namlik o'tmasligi uchun girimetizatsiyalaydigan rezinali prokladka.
- 6 - yerlagich sim bilan ulanish bolti.
- 7 - konstruksiyaga kotiradigan xomut.
- 8- shuntlikdagi yapoloq latundan qilangan folga, chunki impuls toklar uchun po'lat prujina katta induktiv qarshilik xisoblanadi.
- 9 - vilit disklar bilan uchkun orlaqilar orasidagi qarshilikni kamaytiruvchi prujina.

RVP va RVS larda igan velit disklarga ruxsat etilgan impuls toklar 10 KA-ga muljallangan . Iskra oralig'i impuls kuchlanish ta'sirida teshib o'tilganda, u noteqis qarshilikka duch keladi, bu qarshilikdan yuqori impuls toklar o'tadi, lekin qarshilikni notejisligi tufayli qoldiq kuchlanish  $U_{ost}$ , uchqun oralig'ini yorib o'tish uchun keltirilgan kuchlanishdan kam farq qiladi, bu esa yashin elektrsizlantirilishini asosiy xususiyatlaridan biri deb xisoblanadi .

Razryadniklarning ishslashini samaradorligini koeffitsiyenti «K» orqali ifodalanadi .

$$K = \frac{U_{ocm}}{\sqrt{2}U_{man}} \quad (209)$$

bu yerda  $U_{tash}$ -iskra oralig‘idan o‘tayoatgan impuls tokni yoyni o‘chirilayotganda  $I_{chap}$  qiymatini kuchlanishi.

Qancha K- kam bo‘lsa, shuncha razryadnikni himoya xususiyati yaxshi bo‘ladi .

## **12 bob. Elektr tarmoq tizimlarini rele himoyasi va avtomatikasi**

“Rele himoyasi va avtomatlashtirish” fani qishloq xo‘jaligidagi ishlatiladigan 6-10-35 kV li liniyalaranni va 110-35-10 kV li podstansiyalarini himoya qilish, avtomatlashtirish qurilmalarni va shu qurilmalarda foydalaniladigan relelar va ularni ishslash prinsiplarni o‘rganish masalalariga bag‘ishlandi.

Rele himoyasini asosiy vazifalaridan biri bu:

1). Elektr stansiyalarda, podstansiyada o‘rnatilgan elektr uskunlarni qismlarida yoki elektr liniyalarnda yuz beradigan nonormal xolatlarni sezish va ogoxlantirish signalini beradi.

2). Nonormal xolatlarni sezib ogoxlantirish signal berishdan keyin belgilangan vaqtidan so‘ng buzilgan qismini avtomatik xolatda buzilmagan qismlaridan ajratib ishdan chiqarish.

Shu vazifalarni bajara olishi uchun rele himoyasi quyidagi talablar qo‘yiladi.

1. *Himoya tez ishlaydigan bo‘lishi kerak.* Yuqorida aytilganidek agar himoya qisqa vaqt ichida elektr uskunalarini buzilgan qismini aniqlash.

2. *Sezgirli bo‘lishi kerak.* Agar himoyamiz sezgirligi bo‘lmasa unda u qisqa vaqt ichida avariya yuz beradigan qismini aniqlay olmaydi va avariya rivojlanishiga imkon beradi.

3. *Himoya ketama-ket ishlashi kerak.* Chunki energosistemada o‘rnatilgan himoyalarni bari yuz bergan avariyanı sezishi kerak, lekin avariya bo‘lgan qismiga eng yaqin o‘rnatilgan himoyani vaqtı tugamasdan, undan keyin o‘rnatilgan himoya ishlamasdan kutib turishi kerak va nonormal xolat tugamasa belgilangan  $\Delta t$  vaqtidan keyin ishlashi kerak.

4. *Himoya ishonchli bo‘lishi kerak.* Agar ishonchli bo‘lmasa liniyada yuz bergan avariya rivojlnana boradi va eng og‘ir shikasga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun rele himoya qurilmasini belgilangan vaqtda profilaktika ishlarini bajarilishi shart va iloji boricha qurilmadagi relelarni sonini kamaytirish kerak.

### **§1. Relelarni klassifikatsiyasi.**

Rele himoya qurilamlarida ishlatiladigan relelar bajaradigan vazifasiga qarab uchta guruxga bo‘linadi:

1. Asosiy relelar guruxi – liniya va podstansiyalardagi asosiy parametrlarini uzgarishini sezadigan relelar, masalan: tok, kuchlanish, qarshilik, quvvat, chastota va boshqa asosiy parametrlarni.

2. Yordamchi relelar guruxi- asosiy relelar tomonidan boshqariladigan relelar. Ularni bajaradigan vazifasi: Signallarni ko‘paytirish, kuchaytirish, berilgan signallarni belgilangan vaqtgacha to‘xtatib turish va olingan komdani uzgichlarni yuritmalariga yetkazib berish.

3. Ogoxlantirish relelar guruxi – Bu guruxdagi relelarni vazifasi himoyalarni ishga tushganini va liniya yoki podstansiyani buzilgan qismlarini ajratganligi to‘g‘risida yoritish lampalar orqali navbatchilarni ogoxlantirish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan relelarni xammasi ikkita asosiy organga ega:

- Informatsiyani qabul qiluvchi organ – liniyalardagi informatsiyasini qabul qiluvchi organ (relelar g‘altaklari) va ularni o‘zgarish qiymatiga qarab relelarni boshqa qismlarini ishga tushiruvchi.

2. Bajaruvchi organ – ya’ni relelarni kontaktlari, bo‘lar ishga tushib operativ tok zanjirlarini yordamchi va ogoxlantirish relelarni ishga tushiradigan organ, undan tashqari bir xil relelar xayollah vaqt organiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari relilarni asosiy argonlari qaysi informatsiyani parametriga moslanishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi : tok, kuchlanish, quvvat ,chastota qarshilikni ko‘payishi yoki kamayishiga qarab maksimal yoki minimal relilarga bo‘linadi

Relelarni g‘altaklarini tarmoqlarga ulanishiga qarab birlamchi relelar va iqilamchi relelarga bo‘linadi .

Asosiy organlarni uzgichlarga ta’sir qilishi :

- Tug‘ri ta’sir qiladigan relelar – bunaqa relelarni ish bajaruvchi organlar, mexanik ta’sir ko‘rsatgan xolda uzgichlarni ishga tushiradi.
- Bevosita ishlaydigan relelar – bunaqa relelarni ish bajaruvchi organlari uzgichlarni yuritmalariga operativ tok orqali ta’sir qiladi.

Amalda quyidagi uch gurux relelardan foydalaniлади:

1). To‘g‘ridan –to‘g‘ri ta’sir qiladigan birlamchi relelar. Bu guruxga maksimal va minimal tok relelari kiradi.

Xamma relelarni ishlash prinsiplari bir xil bo‘ladi. Releni g‘altagidan tok o‘tganda magnit o‘zagida elektromagnit oqimi xosil bo‘ladi. Shu magnit o‘zagidan F oqim siljish o‘zagini siljimas o‘zagi bilan biriktiriadi shu tufayli siljish kontakti siljimas kontakti bilan qo‘siladi va operativ tok zanjirini ulaydi.

Elektromagnit relelarni siljish kontaktiga ta’sir qiladigan kuch,

$$F_s = K \frac{I^2 W^2}{t^2} \quad (210)$$

formula asosida topiladi.

Bu yerda

I - releni g‘altakdan o‘tayotgan tok.

W - releni g‘altagini chulg‘amlar soni.

I - siljish o‘zagi bilan asosiy o‘zagini oraligini masofasi .

K - proporsional koeffitsenti.

Releni qaytish tokini uni ishslash tokiga bo‘linmasi - releni qaytish koeffitsenti deb ataladi.

Shu prinsipda ishlaydigan relelarni maksimal tok (yoki kuchlanish) relesi deb ataladi. Bunaqa relelarni “Kv” qaytish koeffitsenti har doim 1 dan kam bo‘ladi, ya’ni  $I_{sr} > I_{vr}$ .

Bunaqa konstruksiyaga ega bo‘lgan relelar yakorli normal xolatda  $F_e > F_m$  shunda ularni kontaktlari ochiq bo‘ladi.  $F_e < F_m$  kamayib borsa rele ishga tushadi.

Shu xolatdagi eng yuqori tok - ishlash toki deyiladi. Rele o‘z konataktlarini ajratgan payitdagi eng kam tok - releni qaytish toki deb ataladi.

Bunday relelarni qaytish koeffitsenti har doim 1 dan yuqori bo‘ladi. shuning uchun bunday relelar - minimal tok relesi deb ataladiyu.

## §2. Induksion prinsipda ishlaydigan rele

Releni g‘altagidan o‘tayotgan tok ta’sirida xosil bo‘lgan magnit oqimi, releni siljish diskidan kesib o‘tish ta’sirida xosil bo‘lgan toklar ta’sirida ishlaydigan relelar - induksion prinsipda ishlaydigan rele deyiladi. Shuning uchun induksion relelar faqat o‘zgaruvchan tokda ishlaydi.

Aylanish momenti xosil bo‘lashi uchun induksion releni siljish qismida eng kami ikkita magnit oqimi bo‘lishi kerak, shu oqimlar bir-biriga qaraganda siljish burchakka ega bo‘lishi kerak.

Ko‘pincha induksion relelar ikkita magnit oqimiga ega sistemali qilinadi, bunuqa sistemalarida siljiyidigan qismida aylanish momenti, shu qismida magnit oqimini ta’sirida xosil bo‘lgan tok bilan ikkinchi magnit oqimini toklarini bir-biriga ta’siridan kelib chiqadi.

Releni quyidagi asosiy qisimlardan tuzilgan alyuminiydan qilingan disk 1, uni uqiga qotirilgan kontaktlari bilan 2 va pulat plastinkalardan yigilgan magnit uzagi 4, magnit uzagiga o‘rnatilgan tok g‘altak 3. Asosiy magnit uzagini chuqilari ikkiga bo‘lingan va bittasiga qisqa tutashgan xalqa kiyiltirilgan 5.

Releni galtagini chulg‘amlaridan tok utganda magnit oqimi xosil bo‘ladi  $F$  bu oqim asosida magnit o‘zagini ekran va ekranlanmagan chuqilardan o‘tadi.  $F_1$  va  $F_2$  bo‘lingan xoldi. Shu tufayli ekranlangan cho‘qqisida  $F$  ta’sirida EYuK xosil bo‘ladi va qiska tutashgan xalqada tok xosil bo‘ladi, bu tok o‘z magnit oqimiga ega bo‘ladi va asosiy magnit oqimiga to‘sqinlik qiladi.

Demak  $F_1$  ekranlamagan qismidan to‘siksiz o‘tadi,  $F_2$  - esa xalqada xosil bo‘lgan magnit oqimini yengib undan keyin o‘tadi. Shu tufayli  $F_1$  va  $F_2$  magnit oqimlari orasida  $\psi$  siljish burchagi xosil bo‘ladi. Shuning asosida releni induksion qisimda ishlashga sharoit kelib chiqadi. Shu  $F_1$  va  $F_2$  magnit oqimlari alyumin diskni kesib o‘tayotganda  $I_{D1}$  va  $I_{D2}$  tok xosil qiladi, xosil bo‘lgan toklar va kesib o‘tayotgan magnit oqimlari bilan xamkorlikda alyumin diskda ikkita kuch xosil bo‘ladi, ya’ni

$$F_1 = K F_1 I_{D2} \text{ va } F_2 = K F_2 I_{D1} \quad (211)$$

Bu kuchlarni yig‘indisi  $F_e = F_1 + F_2$  har doim alyumin diskni ekaranlangan cho‘qqisidan ekaranlanmagan cho‘qqisiga qarab siljitadi va aylanish momentini xosil qiladi va kontaktlarini biriktiradi. Demak, aylanish momenti


$$M_{vr} = K F_1 F_2 \sin \psi \quad (212)$$

Bu yerda:  $K$  - proporsional koeffitsenti


$F_1$  va  $F_2$  - releni aylanadigan qismiga ta’sir qiladigan magnit oqimlar.

$\psi$  - magnit oqimlari orasidagi burchak.

Keltirilgan tenglamadan ko‘rinib turibdiki,  $F_1$  va  $F_2$  ni fazalari bir xil bo‘lsa, ya’ni  $\psi = 0$  unda aylantirish momenti  $M_{vr} = 0$  agar  $\psi = 90^\circ$  teng bo‘lsa unda  $\sin \psi = 1$  demak  $M_{vr}$  maksimal tezlikka ega bo‘ladi.



86-Rasm. Elektromagnit prinsipda ishlaydigan relelarni sxemalari.  
1-Kontakt. 2- Purijina. 3-Oisqa tutashgan g'altak.



87-Rasm. Induksion prinsipda ishlaydigan RT-80 releni tuzilish sxemasi.  
1- Kontakt. 2- Alyumin disk. 3- Purjiina.

### **§ 3. Kuchlanishi 1000 V yuqori bo‘lgan elektr tarmoqlarni rele himoyasi. Oo‘llaniladigan himovalarni prinsiplari**


Asosan K.X. elektr tarmoqlaridagi kuchlanish 6-35 KV liniyalar bir manbara ulangan xolatda ishlaydilar, ya’ni ikkinchi manbara ulangan bo’lsa xam. Bundan tashqari uzoqqa cho’zilgan K.X. elektr tarmoqlarida kuchlanishi 35 kV va undan yuqori bo’lgan liniyalar xam ishlatiladi. Bir manbara ulangan liniyalarda elektr ta’minotini ishonchli ishlashi, rele himoyasi va avtomatik sistemalarni bir-biri bilan moslashib ishlashlariga bog’liq, asosan AVR va APV. Rele himoyalaridan eng ko’p qo’llaniladigan turlaridan biri bu tok himoyasi. Bu himoya asosan vaqtsiz ishlaydigan tok keskich himoyasi bir birgalikda o’rnataladi (birinchи pog’anasida) va katta tok himoyasi (uchinchи pog’onasida). Bir xil payitda vaqt bilan ishlaydigan katta tok keskich himoya 6-20 kV liniyalarda xam uchraydi, bunuka liniyalarda ko’ndalang ishlaydigan differensial himoya qo’llaniladi. K.X. elektr ta’minotida bir xil payitlarda 35 kV va undan yukori kuchlanish liniyalar masofasi 20 km gacha bo’lgan liniyalar uchrab turadi, bunaqa liniyalarda yo’nalgan differensial himoya qo’llanishi avzal deb topiladi. Lekin ko’pincha K.X. liniyalarda o’zgaruvchan operativ tokda ishlaydigan tok himoyalar qo’llanishi yetarli. Kuchlanishi 35 kV

sistemalarda to‘g‘ri uzgichga ta’sir qiladigan ikqilamchi tok relelar asosida bajarilgan himoyalalar ishlatiladi.

#### §4. Tok himoyasini asosi (organlari). Qismlari.

Katta tok himoyasi va vaqtli ishlaydigan katta tok kesikch himoyalari ikki qismlariga ega bo‘ladi: o‘lchov va himoyalash vaqtidan. Vaqtsiz ishlaydigan tok keskich himoya, faqat o‘lchov organiga eag bo‘ladi. Himoyada o‘lchov qismini tok relesi (KA) bajaradi. Bu rele liniyalarda yuklamalarni normal xolatidagi tokini o‘zgarishini sezib turadi va kerakli payitda vaqt relesi yoki xayallah vaqt organini ishga soladi. Bir xil katta tok himoyasini sxemasiga xayallah vaqtiga yetish uchun vaqt relesi kiritiladi. (KT). Bo‘lardan tashqari K.T.X. sxemalariga oraliq relesi (KL) va ogoxlantiruvchi rele (KN) kiritiladi.

Oraliq relesi asosi relelarni kontaktlarini ishini yengilashtiradi. Xamda ishlashini susaytiradi bu esa trubkali razryadniklar ishlaganda, vaqtsiz ishlaydigan tok kesikch himoyasini ishlashidan saklab qoladi. Ko‘rsatuvchi relelar, himoyani ishlaganligini yoki ishga tushganligi kuzatish uchun xizmat qiladi.




Rasm-88 MTX prinsipial bir chiziqli sxemasi.

Operativ doimiy o‘zgarmas tokda ishlaydigan K.T.X. ni sxemasi ko‘rsatilagan. Sxema to‘liq ishga tushgandan keyin ko‘rsatuvchi reledan moy uzgichni ishga tushiradigan «UAT» elektromagnitni ishlatadi.

#### §5. O‘zgaruvchan operativ tokda ishlaydigan katta tok himoyasini o‘ziga xos xususiyati.

O‘zgaruvchan operati tok himoyalarda manbani vazifasini o‘lchov tok transformatorlar bajaradi. Bunday sxemada o‘lchov tok transformatorlari fakat o‘lchov uchun xizmat qilmaydi yani bu sxemada uzgichni elektrmagnit uzgichni tok manbasi vazifasini xam bajaradi. Sxema shuday yig‘ilganki uzgichni o‘tkazadigan elektromagnit UAT, o‘lchov tok transformatorlariga faqat himoya ishlagandan keyin ulunadi.



89-rasm. MTX shuntlangan sxemasi.

O'lchov transformatorga ulangan KA rele ishlaganda transformator tokni g'altagi uzilib qolmaslik uchun uzilmasdan kontaktlarini ulashi kerak masala RT-85 relelar. Kontaktlarini almashtirish payti oldin Q uzgichni UATE elektromagnit uzgichi, tok transformatoriga ulanadi (uning kontakti KA releni) undan keyin esa uchinchi shundan ochadi. Uzgich «Q» liniyani uzadi, agar uzgichni elektromagnitdan o'tayotgan tok uni ishga solishga yetarli bo'lsa.

Shunday qilib, tok transformatori, bunaqa sxemalarda ikki rejimda ishlaydi: releni ishlashidan oldin tok manbasi rejimida; tok transformatorini yuklamalari bo‘lib, releni g‘altagini va ulaydigan similarni qarshliklari xisoblanadi, shuning uchun himoyani ishlashida tok transformatoridan releni ishga tushirish uchun zarur quvvatdan foydalanadi, bunaqa payitda tok transformatorlarni to‘liq xatosi 10% oshib ketishi kerak emas, rele ishlaganidan keyin – maksimal quvvati ish rejimida, uzgichni elektromagnit yuritmasini ishlashi natijasida tok transformatorini yuklamasi birdaniga oshib ketadi va uni ikkinchi g‘altagidagi tok kamayib ketadi; lekin tok transformatori uzgichni elektoromagnit ishlashiga kerakli quvvat bilan ta’minlashi shart; shu tafayli kamaygan reledagi tok, releni ishlab turishini ta’minlab turish kerak, bu esa reledagi tok uni qaytish tokidan ortiqcha bo‘lganda maqsadga yetiladi.

Uzgichni elektromagnit ishchonchli ishlashi shunda ta'minlanadi, agar himoyani ishlash toki  $I_{s.z}$  uzgichni elektromagnitini  $I_{e.o}$  tokidan ancha ortiqcha bo'lishi kerak, faqat shundagina uzgichni elektromagnitidan ishlatish uchun kerakli tok o'tadi.

$$I_{c,3} \geq I_{l_3,0} \quad (213)$$

Himoyadagi o‘lchov relesi uzgichni elektromagniti ulangandan keyin oldingi xolatni kaytmasligi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak.

$$I_2 = K_{3an} \cdot I_{g, p} \quad (214)$$


bu yerda  $K_{\text{zap}} > 1,2$  Shunltangan himoyani sxemalarni ishlatilishini mumkinligini quyidagi formula orqali tekshiriladi.

$$I_{k \max} / K_1 = 50A \quad (215)$$

#### **§6. Katta tok himoyasini sxemalari va umumiy baholanishi**

Katta tok himyasiini amalgalashish uchun, o‘lchov organlarini yuqorida ko‘rilgan sxemalar asosida ulanishi kerak, o‘lchov organlarini funksiyalarini (ishlarini) tok relelari bajaradi. Relelarni turlarini tanlashda va tok transformatorlari bilan sxemani tuzilishini tanlashi, himoyani bajaradigan vazifasiga va unga qo‘yilgan talablarga bog‘liq. Himoyani va avtomatikani tuzilishini ko‘rsatish uchun (to‘liq) prinsipial, strukturali, funkional va mantiq (qurilish sxemalari ishlatalidi).

## **§7. Himoyani tuzilish sxemalari.**




90- rasm. To‘liq prinsipial sxemasi.

Asosan prinsipial sxemalar birlashtirilgan ko‘rinishda va bo‘lingan xolati ko‘rsatiladi.

Bu sxema birlashtirilgan ko‘rinishdagi sxema. Bu sxema xamma relelar ketma-ket joylashgan va ularni operativ tok manbalariga ulanishlari berilgan. Lekin bu sxema yagona himoyalarni tuzilishini ko‘rsatishda qulay. Agar bir necha himoyani birligida ishlashi uchun chizganda ancha noqulaylik kelib chiqadi, chunki relelarni ulanish simlari bir-biri bilan qo‘shilib ketadi va montaj qilish paytida xatochilikka yo‘l quyiladi.


Shuning uchun qo‘sishimcha bo‘lingan sxemalar qo‘llaniladi. Bu sxemada relelar bir shartli ko‘rinishda berilmaydi. Ularni bir-biri bilan bog‘langanliklari xariflar bilan raqamlar bilan ko‘rsatiladi.



91- Rasm. MTX elektr sxemasi.

Bu sxemada. Relelarni tok g‘altaklari alohida yig‘ilgan, ularni kontaktlari esa o‘zgarmas operativ tok zanjirlarida joylashgan.

*Strukturali sxemalarida* himoyani tuzilish, alohida turt burchak shaklda ko'rsatiladi va belgilanib chiqiladi, lekin bu sxema har bir qismlarni ishslash prinsiplarini ko'rsatmaydi, joylanishi tufayli bir-biri bilan bog'lanishini tavsiya etadi. Funksional sxemalar, strukturali sxemalarni rivojlangan bir turi. Har bir sxemadagi elementlarni bir-biri bilan bog'lanishi ko'rsatiladi. Katta tok himoyasini funksional sxemasi quyidagicha chiziladi.



## 92- Rasm. MTZ struktura sxemasi.


Yuqorida ko'rsatilgan sxemalarda vaqtga bog'liq bo'lмаган кatta tok himoyasi. Bu himoya to'liq bo'lмаган yulduz sxema doimiy operativ tok asosida tuzilgan.

A va S fazalariga o'lchov tok transformatorlari TA1 va TA2, Q- moy uzgichdan keyin o'rnatalgan. Hayot faoliyati xavfsizligi asosida o'lchov tok transformatorini ikkinchi chulg'amlari yerga ulangan. Himoyani o'lchov organlari ikkita maksimal tok relesi orqali bajarilgan (RT-40), xayallah vaqtga ega bo'lish uchun vaqt relesi KT (EV-314 tipli rele asosida bajarilgan), undan tashqari oraliq relesi KL (RP-23 turli rele asosida) va ko'rsatuvchi sxemaga kiritilishi vaqt relelarni kontaktlarini ishonchligidan kelib chiqadi.

### §8. Liniyalardagi katta tok himoyasi.

Katta tok himoyasi bitta manbagaga ulangan liniyalarda asosiy himoya deb xisoblanadi. Bu himoya quyidagi relelardan iborat bo'ladi. TA - o'lchov tok transformatori, KA - tok relesi, KT - vaqt pelesi, KL - oraliq relesi, KN - ko'rsatuvchi rele, YAT - moy uzatgichi (e. uzatmasi) uzatmasini g'altagi, Q - moy uzatgich.


Ishlash prinsiplari, liniyada qisqa tutash toklari xosil bo'lsa, yoki belgilangandan ortiqcha yuklama toklar xosil bo'lganda (KA) tok relesi kontaktini ulaydi va vaqt pelesini (KT) g'altagini o'zgarmas tok zanjiriga ulaydi, bundan keyin vaqt relesi belgilangan vaqtdan keyin o'zini kontaktini yopadi (qo'shadi), shu bilan birga oraliq relesini (RL) ishga soladi. Oraliq relesi o'z kontaktini qo'shgandan keyin ko'rsatuvchi rele va moy uzgichni o'zatmasini tok g'altagini o'zgarmas tok zanjiriga bog'laydi va ishga soladi. Moy uzgichni uzatmasi ishlab uni uzadi.



93 – Rasm. Liniyalardagi katta tok himoyasining sxemasi

### § 9. KTX himoyasini ishlash tokini aniqlash.

KTX ishlash tokini aniqlashda  $I_{s.z.}$  (ish tar) shu himoyani dastlabki xolatiga qaytish tokini inobatga olish kerak.



94-Rasm. MTX – ni joylashish sxemasi.

Xaqiqatdan K<sub>2</sub> nuqtada qisqa tutashuv yuz bersa shu nuqtaga yaqin bo'lgan A<sub>2</sub> himoyasi ishlashi kerak va A<sub>1</sub> himoya xam sezib ishlashga boshlaydi. Lekin A<sub>2</sub> tezroq, A<sub>1</sub> birga qaraganda ishlab Q<sub>2</sub> uzgichni ishga solib qisqa tutatish yuz bergan qismini uzib tashlaydi, chunki uni ishlash vaqtida A<sub>1</sub> himoyani ishlash vaqtidan kamroq bo'lgani uchun. Demak A<sub>2</sub> himoyasi ishlab Q<sub>2</sub> uzgichni ishlatgandan keyn A<sub>1</sub> oldingi xolatiga qaytadi. Bu qaytish liniyadagi qisqa

tutashgan qismini ajratgandan keyin, bo‘lishi kerak. Shuning uchun himoyani qaytish toki, qisqa tutashuvni ajratib tashlashga kerak.

Kisqa tutashgan qismini ajratib tashlagandan keyingi liniyadagi maksimal tokdan yuqori bo‘lishi kerak. Demak,

$$I_{vz(XKT)} \geq I_{e,max} \quad (216)$$

Liniyadagi  $I_{e,max}$  tokni aniqlash paytida, himoya qiliyotgan liniyada qisqa tutashtirilgan rotorli elektromashinalar ishga tushirish paytidagi toklarni inobatga olishimiz shart, chunki bu toklar normal xolatda ishlash (o‘zragmas) tokidan bir necha marta yuqori bo‘lganligi sababli. Shuning uchun

$I_{r,max} > K_{k,z}$ .  $I_{rabmaz}$  bo‘lishi kerak.  $K_{s,z} = 2,5 - 3$ -  $K_{k,z}$ -K.T.R. elektr yuritmani ishga tushirish koeffitsentiga ko‘paytirsak  $K_3$  unda himoyani qaytish toki kelib chiqadi.

$$I_{vz} = K_{zap} K_{k,z} I_{rabmaz} \quad (217)$$

bu yerda  $K_{zap} = 1,1-1,2$

Lekin himoyani qaytish tokini uni ishlash tokiga bo‘lsak  $\frac{I_{\theta,3}}{I_{c,3}} = K_\theta$  unda qaytish kojffitsenti kelib chiqadi. Bu koeffitsent relelarni ishlatish faoliyatni ko‘rsatadi.  $K_v = 0,8-0,85$

$$I_{c,3} \frac{K_3 \cdot K_{c,3}}{K_\theta} I_{pa\theta,max} \quad (218)$$

Demak

$I_{s,z}$  - himoyani ishlash toki.

Simmetrik rejim paytida releni g‘altagidan o‘tayotgan tok  $I_p$  va o‘lchov transformator tokini ikkinchi chulg‘amida ( $I_2$ ) tokni solishtirmasi,  $K_{sx}$  ulanish koeffitsentiga bog‘liq.

$$\text{Demak } I_p = K_{sx} * I_{2f} \text{ yoki } I_p = (K_{sx} * I_{1f}) / K_1 \quad (219)$$

bundan  $K_1$  - o‘lchov tok transformatorini koeffitsenti.

Bundan kelib chiqadiki

$$I_{p,H} = K_{cx} \cdot I_{x,H} / K_I \quad (220)$$

va

$$I_{c,p} = K_{cx} \cdot I_{\theta,3} / K_I \quad (221)$$

bu yerda  $K_{sx}$   $I_{b,z}$  rele himoyasini ishlash va qaytish toklari.

Agar transformator toklar Y- chi shaklda ulangan bo‘lsa  $K_{sx} = 1$ , agar  $\Delta$ -k shaklda ulangan bo‘lsa  $K_{sx} = \sqrt{3}$  teng.

KTX - tok himoyasi (KTX)tanlovchan (selektiv) ishlashi uchun tok manbasiga yaqinlashgan sari himoyani ishlash toki osha borishi kerak. Demak,  $A_1$  himoyani ishlash toki ( $I_{s,z1}$ )  $A_2$  himoyani ishlash tokida ( $I_{s,z2}$ ) yuqori bo‘lishi shart.

$$I_{s,z1} > I_{s,z2} \quad (222)$$

KTX sezgirlingi esa  $K_{ch}$  - sezgirlik koeffitsenti orqali ta’svirlanadi. Uch fazali qisqa tutashuv liniyani oxirida bo‘lganda, releni chulg‘amidagi tokni  $I_p$  releni ishlash tokiga bo‘linishi ( $I_{s,z}$ ) orqali aniqlanadi.

$$K_q = \frac{I_p}{I_{c,3}} \quad (223)$$

Himoyani sezgirlingini tekshirishi liniyadagi qisqa tutashuvni eng kichik  $I_{k,zmin}$  qiymatini, himoyani ishlash tokini bo‘linmasidan kelib chiqadi.

$$K_{q3} = \frac{I_{k,zmin}^{(3)}}{I_{c,3}} \quad (224)$$


KTX sezgirlingini koniqarli deymiz Agar  $K_r \geq 1,5$  yuqori bo‘lsa, agar 1,5 kam bo‘lsa unda KTX sezgirsiz deb topiladi. U paytga biz sezgirlingini ko‘tarish uchun liniyani uzunligini

kamaytirishmiz (qisqartirishimiz) kerak, agar buni qilish iloji bo‘lmasa demak biz rele himoyasini boshqa turini qabul qilishimiz shart.

Rele himoyamiz rezerv himoya xisoblansa, unda uni sezgirligi  $K_r \geq 1,2$  bo‘lishi shart yoki undan yuqori.

### §10. KTX ishlash vaqtini aniqlash.

Yuqorida aytib o‘tilganidek KTX vaqtga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan xolda ishlaydi.



95-Rasm. KTX ishlash vaqtini aniqlash sxemasi

KTX qaysi xolda bo‘lmasin ketma-ket ishlashi shart. Misol uchun : agar  $K_r$  nuxtasida qisqa tutashuv yuz bergan bo‘lsa u xolda  $A_1$  himoyani ishlash vaqtি  $t_1 A_2$  himoyani ishlash vaqtidan  $t_2$  ko‘proq bo‘lishi kerak. Bo‘larni farqi  $\Delta t$  - vaqt pog‘anasi deb ataladi.

$$\text{Demak} \quad t_1 = t_2 + \Delta t \quad (225)$$

Agar KTX elektromagnit relelar (RT-40) asosida tuzilgan bo‘lsa  $\Delta t = 0,3 - 0,6$  sek. Agar KTX induksion prinsipda ishlaydigan rele asosida (RT-80) tuzilgan bo‘lsa 0,6-1,0 sek. Chunki bunaqa relelarda ishlash vaqtiga releni inersiyasiga oid xatosi inobatga olinadi.

Vaqt pog‘anasi KTX (RT-40) elektr magnit prinsipida ishlaydigan rele asosida tuzilgan bo‘lsa

$$\Delta t = t_{Q2} + \Delta t_{KT2} + \Delta t_{KT1} + \Delta t_{ip} + t_{zap} \quad (226)$$

bu yerda  $t_{Q2}$  - ikkinchi himoya o‘rnatilgan joyni o‘zagini ishlash vaqtি. 0.05 - 0.3 sek.

$\Delta t_{KT1}$  - birinchi himoyadagi vaqt relesini xato ishlash vaqtি 0,05 - 1 sek.

$\Delta t_{KT2}$  - ikkinchi himoyadagi vaqt relesini xato ishlash vaqtি

$\Delta t_{KT2} = 0,8 - 1,0$  s

$\Delta t_{ip}$  - induksion prinsipida ishlaydigan tok relesini inersiyaga yo‘l qo‘ygan vaqtি.


$t_{zap}$  - extiyoj vaqtি – 0,15 sek.

KTX ishlash vaqtini xamma vaqtি tok manbaidan eng uzoq joylashgan himoyadan boshlanadi. Uni vaqtি.

$$t_{s.z} = t_{ov} + t_{kat} \quad (227)$$

undan keyingilar  $t_2 = t_3 + \Delta t$  va  $t_1 = t_2 + \Delta t$  demak keyingilarni vaqtini  $\Delta t$  vaqt pog‘onasiiga oshib boradi.

Agar  $A_1$  va  $A_2$  nuqtaga himoyalarni ishlash vaqtini grafik asosida tasvir etsak quyidacha kelib chiqadi.




96-Rasm. MTX ishash vakt grafigi

Demak qancha reledan o'tayotgan tok oshib borsa shuncha rele himoyasini ishlash vaqtini kamayib boradi va qancha kam tok o'tsa uni ishlash vaqtini oshib boradi.

### §11. Vaqtsiz ishlaydigan katta tok keskich himoyasi.

Agar KTX belgilangan masofani to'liq himoya qilaolmasa, hamda belgilangan vaqtsiz ishlasa – bunday himoyani katta tok keskich himoyasi deb aytildi.



97-Rasm. K.T.X. ishlash zonasini aniqlash grafigi.

Katta tok keskich himoyasining ishlash tokini  $I_{sz(i)}$  aniqlash uchun himoya qiladigan masofani 4 ta teng qismga bo'lib chiqamiz, hamda shu nuqtalardagi qisqa tutashuv toklarini aniqlaymiz. Toklarni aniqlangandan keyin katta tok keskich himoyasining ishlash toki quyidagi formula orqali topiladi

$$I_{c.z} = K_{zap(n)} \cdot I_{kz.min} \quad \text{yoki} \quad I_{c.p} = K_n \cdot K_{cx} \cdot I_{kz.min} / K_I \quad (228)$$

Bu yerda  $K_{n(zap)} = 1,2 - 1,3$  el.magnit RT-40 relesi uchun

$K_{n(zap)} = 1,5 - 1,6$  induksion RT-80 relesi uchun

$K_{n(zap)} = 1,8 - 2,0$  el.magnit RTM relesi uchun

$I_{kz.min}$  – himoya qilinayotgan masofadagi qisqa tutashuv tokining eng kam qiymati

$K_{cx}$  – tok transformatorining ularish sxemasining koeffitsiyenti

$K_I$  – tok transformatorining kamaytirish koeffitsiyenti.

Shunday kilib, himoyaning ishlash tokini topganimizdan keyin uning qiymatini Ordinat o'qiga masshtab orqali belgilaymiz va Absiss o'qiga parallel to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Bu ikki

chiziqning kesishib o'tgan nuqtasiga qadar katta tok keskich himoyasining ishlash zonasini kelib chiqadi. Demak «O-A» gacha bo'lgan masofada qisqa tutashuv yuz bersa himoya ishlaydi, agar qisqa tutashuv «A» nuqtadan keyin yuz bersa himoya ishlaymaydi. Shuning uchun «A» nuqtadan «B» podstansiyasigacha bo'lgan masofani «himoya sezmaydigan zona» deb ataladi.

Katta tok keskich himoyasining ishlaymaydigan zonasini 20-25% dan oshmasligi kerak. Agar bu zona oshib ketganda, boshqa himoyalar ishlatilishi kerak, yoki bu himoyaning ishlash tokini kamaytirish kerak. Buning uchun qisqa tutashuvni tashqari zonada – «B» podstansiyasidagi kuch transformatorining past kuchlanish chulg'amidan keyin qabul qilishimiz kerak ( $K_6$  nuqtada). U xolda katta tok keskich himoyasining ishlash toki

$$I_{c.z} = K_n(zap) \cdot I_{kz.vamax}, \text{ yoki } I_{c.p} = K_c \cdot K_n \cdot I_{kz.min} / K_I \quad (229)$$


bu yerda  $I_{kz.vamax}$  – «B» podstansiyasidan keyingi qisqa tutashuv tokining eng katta qiyimati.

Himoya qilinadigan uchastkaning sezgirligining katta tok keskich himoyasi

$$K_{sez.} = (I_{k.z \ max} / I_{s.z}) \geq 2 \quad (230)$$

Agar qisqa tutashuv «B» podstansiyasidan keyin bo'lsa unda

$$K_{ch} = (I_{sez. \ max} / I_{s.z}) \geq 1,2 \quad (231)$$



98- Rasm. Katta tok keskich himoyani bir chiziqli sxemasi.

## §12. Kuchlanish relesi bilan blokirovka qilingan maksimal tok himoyasi.

Bunaqa himoyalar, maksimal tok himoyani sezgirligi 1,5 kam bo'lganda, elektr tarmoqlarni, generator va sinxron kompesatorlarni himoya qilish uchun ishlatiladi. Bu himoya faqat elektr tarmoqda, generatorlar elektr matorlarni qisqa tutashuv toklaridan himoya qilishga mo'ljallangan.

Himoya quyidagicha ishlaydi. (Rasm)

Tarmoqda qisqa tutashuv yuz bersa, tarmoqda bir necha marta ( $In$ ) nomianl tokka qaraganda oshib ketadi, shu tufayli tarmoqdagagi kuchlanish kamayib ketadi. Shuni natijasida KA tok relesi va KV kuchlanish relelar bir vaqtida ishlab o'z kontaktlarini ulaydi.

Kuchlanish rele KV operativ tok zanjirini KT vaqt relesini ishga tushiradi, tok relesi kontakti operativ tok zanjirini tayyorlab turadi KL oraliq releni ishga tushirish uchun vaqt relesini (KT) kontakti ulangan zaxoti KL oraliq rele ishga tushib uz kontaktini ulaydi va operativ tok zanjirini yuritmasini (YAT) galtagini va ogoxlantirish serenani ishga tushiradi.

YAT g‘altak Q uzgichni ishga tushirib elektr tarmog‘ini ajratadi, serena esa himoya ishlaganligi to‘g‘risida navbatchiga xabar beradi.

Agar tarmoqdan ortiqcha yuklama toki o‘tganda KA tok relesi ishlab operativ tok zanjirini ishga tushirishga tayyorlab turadi, lekin bunaqa vaqlarda tarmoqdagi kuchlanish U minrab kuchlanishdan ko‘proq bo‘ladi, shuning uchun (KV) kuchlanish rele ishlamaydi. shuning uchun himoya ishlamaydi.

### §13. Himoya parametrlari.

Himoyani ishlash parametrlari ikkita shart asosida tanlanadi:

$$I_{c3} = \frac{K_b}{K_a} I_n \quad (232)$$

Himoyani ishlash parametrlari ikkita shart asosida tanlanadi:

- 1) Foydalanish sharoitidan kelib chiqqan, eng past kuchlanishga moslashtiriladi.

$$U_{sr} < U_{rabmin} \text{ yoki } U_{cz} = U_{rabmin} / K_n \quad (233)$$

2) Sirtqi qisqa tutashuvlardan keyin past kuchlanish relesini oldingi xolatiga qaytishi (kontaktlarini ajratish).

Qisqa tutashuvni o‘chirgandan keyin  $U_{rabmin}$  kam kuchlanishda himoyani qaytishi ta’minlanishi kerak.

$$U_{\alpha.3} = \frac{U_{pa\delta.min}}{K_n} = \frac{U_n}{K_n K_{3an.n}} \quad (234)$$

Himoyani ishga tushirish kuchlanishni qaytish koeffitsentini

$$K_\alpha = U_{\alpha.3} / U_c \quad (235)$$

inobatga olgan xolda quyidagi tenglama asosida topamiz

$$U_{\alpha.3} = \frac{U_n}{K_n K_\alpha K_{3an.n}} \quad (236)$$

Keltirilgan tenglamalarda:

$U_{cE}$  va  $U_{vZ}$  – himoyani ishga tushirish va qaytish kuchlanishlar.

$I_{se}$  – himoyani ishga tushirish toki


$U_{rab,min}$  – himoyani qaytish kuchlanishi

$K_n$  – himoyani ishonchi ishslash koeffitsenti.

$K_{zap,i}$  – qisqa tutashgan asinxron mashinalarni ishga tushish vaqtidagi kuchlanishini kamayish koeffitsenti.

$K_v$  – himoyani oldingi xolatiga qaytish koeffitsenti tenglamadagi koeffitsentlar  $K_n = 1,2$ ;  $K_{zap,i} = 1,6a$   $K_v = 1,15$  deb qabul qilsak unda  $U_{sz} = 0,7 U_n$

bunday himoyalar generatorlarni himoya qilish uchun xisoblashda, samasinxronizatsiyalash qismi bilan ularidan kelib chiqadigan kuchlanishini kamayishini inobatga olish kerak.



99- Rasm. Kuchlanish rele bilan blokirovka qilingan maksimal tok himoyasini sxemasi.

### Ximoya sezgirligi.

Past kuchlanish rele bilan ishga tushadigan maksimal tok ximoyasini sezgirligini tekshirishda, avval ximoyali tok kismini sezgirligi oddiy maksimal tok ximoyasini sezgirligini aniklashday topamiz

$$K_{r(c)} = \frac{I_{K\zeta \min}}{I_{c\zeta}} \quad (237)$$

Undan keyin ximoyani kuchlanish kismidagi sezgirligini aniklaymiz.

Ximoyani kuchlanish kesimini sezgirligi kuyidagilarga boglikliklarini inobatga olish kerak:

1 )Kuchlanish transformatorlar urnatilgan joydan.

2)Past kuchlanish relelarni ulanish sxemalaridan

3)Kuvvat transformatorlarni birinchi va ikkinchi galtaklarini ulanish sxemalariga boglik, agar ximoya transformatoridan keyin yuz bergen kiska tutashuvdan saklaydigan bulsa.


Ximoyani sezgirlik koeffitsiyenta, fazada osi liniya kuchlanishlariga ulangan relelar uchun

$$K_{(c)ru} = \frac{U_{c3}}{U_{H \max}} \quad (238)$$

bu yerda  $U_{H \max}$  - Ximoyani oxirida yuz bergen 3 fazali kiska tugashuvni rejimida minimal ximoya urnatilgan joydagisi maksimal kuchlanish.

### §14. Yo‘nalgan katta tok himoya.


Katta tok himoyalari murakkab yoki ikki manbagaga ulangan liniyalarda o‘z vazifasini bajara olmay qoladi. Chunki har manbadan yo‘nalishda o‘rnatilgan himoyalarni ishslash vaqtida xil bo‘lib qoladi. Sxemada keltirilganday



100-rasm. Murakkab liniyalardagi MTX o‘rnatishi va vaqt grafigi.

Agar K nuqtada qisqa tutashuv yuz bersa, shu nuqtagacha qisqa tutashuv toki 1 va 2 manbadan keladi. “K” nuqtadagi qisqa tutashuvni uzish uchun 4 va 10 himoyalar ishlashi kerak. Lekin ularni o‘rniga 5 va 8 himoyalar ishlaydi, chunki bo‘larni ishlash vaqt boshqa himoyalarni vaqtidan kam bo‘lgani uchun KTX - ni kamchiliginini yo‘qotish uchun murakkab liniyalarda asosan yo‘nalgan katta tok himoyasi ishlataladi.

Katta tok himoyasini sxemasiga quvvat rele qo‘sishimcha o‘rnatilsa unda bu yo‘nalgan katta tok himoyaga ega bo‘lamiz.



101 – rasm. Yo‘nalgan MTX prinsipal ularish sxemasi.

Endi “K” nuqta qisqa tutashuv yuz bersa birinchi manbadan shu nuqtagacha qisqa tutashuv toki ( $I_{k1}$ )  $Q_9$  va  $Q_4$  o‘tadi. Umumiyl Shinada o‘rnatilgan tok transformatori orqali kamaytirilgan tok KA reledan o‘tib KW releni tok g‘altagidan o‘tgani xolda ularni ishga tushiradi va operativ tok zanjirini KN<sub>4</sub> orqali KT<sub>4</sub> vaqt relelariga o‘laydi. KT<sub>4</sub> vaqt relesini xayallash vaqt o‘tgandan so‘ng u o‘zini kontaktini ulaydi va KL<sub>4</sub> oraliq relesini ishga tushiradi. KL<sub>4</sub> o‘z kontaktlari orqali ogoxlantirish signal beradi shu bilan birga YAT<sub>4</sub> yuritmani ishga soladi va  $Q_4$  uzgichni uzadi.

Endi qisqa tutashuv K<sub>1</sub> nuqtada yuz bersa unda qisqa tutashuv toki ( $I_{k2}$ ) ikkinchi manbadan keladi. Demak releni g‘altagidan o‘tadigan tok o‘z yo‘nalishini o‘zgartirilgan bo‘ladi va KW rele orqali KA reledan o‘tadi. Shu tufayli KW rele 1 chi kontaktini ulab KN<sub>9</sub> va KT<sub>9</sub>

relelarni ishga tushiradi. KT<sub>5</sub> o'xz xayollash vaqtin tomoni bo'lgandan keyin KL<sub>9</sub> ishga tushadi va kontaktlarini ulab YAT<sub>9</sub> moy uzbekchi yuritmasini ishga tushirib Q<sub>9</sub> uchini uzadi.

### §15. IMB va RMB seriyali yo'nalgan quvvat relesi.

Yo'nalgan quvvat relesi, asosan murakkab tarmoqlarda ishlataladi, quvvat relelarida ikki xil g'altaklar o'rnatilgan. Releni tok g'altagiga o'lchov tok transformatorlarni ikkinchi g'altagiga ularadi va undan ( $U_p$ ) kuchlanishga moslangan tok o'tadi. Har bir g'altakdan o'tayotgan toklar o'ziga mos magnit oqimini xosil qiladi.

Chunki birinchi g'altagida xosil bo'lgan magnit oqimi ( $F_i = I_p$ ) reledagi tokka proporsional, ikkinchi g'altakdagi magnit oqimi kuchlanishga proporsional ( $F_i = U_p$ ). Releni siljiyidigan qismida aylanish momenti xosil bo'ladi, bu ( $M_{vr}$ ) moment reledagi o'tayotgan quvvatiga proporsional, xosil bo'lgan momentni yo'nalishi, relega keltirilgan quvvatni yo'nalishiga bog'liq.

Rele himoyasi sxemalarida asosan bir fazali induksion quvvat relelarini ishlataladi, IMB - 170, RBM - 170 va RBM-270 bu relelar bir - biridan faqat ularadigan kontaktlar soni bilan farq qiladi.

### §16. IMB -170 va RBM - 170 seriyali quvvat relelarni tuzilishi va ishslash prinsiplari.

1. Aosiy magnit o'zagi 2 - tok g'altagi 3, 4, 6, 7 - magnit o'zagini cho'qqilari. 5-kuchlanish g'altaklari, 8-po'latdan qilangan rotor, 9 - alyumindan qilingan stakan. 10, 11-rotorni o'qi. 12, 13-rotorni o'qini o'rnatadigan ramma, 14 - siljish kontakti, 15, 16 - siljimas kontaktlar, 17 - o'ralgan purjina.

Tok g'altagidan tok o'tayotganda releni po'lat o'zagini 3-4 cho'qqilaridan magnit oqimi ( $F_t$ ) xosil bo'ladi, asosiy magnit o'zagida joylashgan kuchlanish g'altaklari bir-biri bilan chap qo'l qoidasi asosida ketma-ket ulangan. Shu g'altaklarda xosil bo'lgan ( $F_i$ ) magnit oqimlarini yig'indisi magnit o'zagini 6 va 7 cho'qqilaridan o'tadi.(101 rasm «a»)

Shunday qilib  $F_t$  va  $F_i$  magnit oqimlari fazoda bir -biridan 90° siljigan.  $F_t$  va  $F_i$  magnit oqimlari releni rotorida xosil qilingan toklari bilan o'zaro ta'siridan, rotorda aylanish momentini xosil qiladi. Bu aylanish momentini quyidagi formula asosdan topamiz:

$$M_{vr} = k F_t F_i \sin\psi \quad (239)$$

bu yerda  $F_t$  - releni tok g'altagidagi magnit oqimi.

$F_i$  - releni kuchlanish g'altagidagi magnit oqimi

$\psi$  -  $F_t$  va  $F_i$  magnit oqimlarini orasidagi siljish burchak.

Releni vektor diagrammasini chizamiz. (102-rasm «b»)

Diagrammada  $U_p$  va  $I_p$  releni kuchlanish va tok vektorlari, g'altaklariga keltirilgan kuchlanish va tokni vektorlari ;  $\varphi_r$  - releni ularish sxemasi va tarmoqni parametrlaridan  $U_p$  va  $I_p$  orasidagi siljish burchagi;  $I_i$  - releni kuchlanish chastotasidan o'tayotgan tok;  $\gamma_n$  - relega keltrilgan  $U_p$  va  $I_p$  orasidagi burchak, bu burchakni qiymati kuchlanish g'altagini ® aktiv va (x) induktiv qarshiliklarni xamda shu g'altakka ulangan qarshilik va kondensatorlarni nisbatiga bog'liq.  $F_t$  va  $F_i$  o'rniga shu magnit oqimlariga proporsional bo'lsa, ( $I_p$ ) va kuchlanish ( $U_p$ ) va  $\varphi$  - burchagini  $\gamma_n$  -  $\varphi_r$  burchaklarni ayirmsiga teng desak, unda releni rotorini aylantish momentini yangi ko'rinishiga ega bo'lamiz.

$$M_{vr} = k U_p I_p \sin(\gamma_n - \varphi_r) \quad (240)$$

Bu yerda:

$$U_p I_p \sin(\gamma_n - \varphi_r) = S_p \quad (241)$$

Demak,  $M_{vr} = k S_p$

Shunday qilib bunday relelar maksimal quvvat relesi deyiladi.

Agar  $\gamma_n = 0$

$$M_{vr} = k U_p I_p \sin \varphi \quad (242)$$

bu yerda  $U_p I_p \sin\varphi = Q_p$  - relega reaktiv quvvat keltirilgan

$$M_{vr} = k Q_p$$

Bunday relelar reaktiv quvvat relesi deb ataladi yoki sinusli rele deyiladi. Bunday relelar faqat reaktiv quvvatni sezadi.

Agar  $\gamma = 90^\circ$

$$M_{vr} = k U_p I_p \sin(90^\circ - \varphi_r) \quad (243)$$

yoki

$$M_{vr} = k U_p I_p \cos \varphi_r$$

bu yerda

$$U_p I_p \cos \varphi_r = R$$

Demak,  $M_{vr} = k R r$  - aktiv quvvat yoki kosinusli rele deyiladi va faqat aktiv quvvatni sezadi.

Agar releni  $\gamma$  - sijish burchagi ( $0 < \gamma < 90^\circ$ ) noldan katta va  $90^\circ$  – dan kam bo'lsa, unda quvvat relesi aktiv va reaktiv quvvatlarni sezadi.

### §17. Quvvat relesini asosiy harakteristikaları.

Rele ishga tushgan vaqtida g'altaklaridan o'tayotgan eng kam quvvatni releni ishlash quvvati deb atymiz.



Xozirgi vaqtida ishlayotgan relelarni iste'mol qiliyotgan quvvati 0,2 dan 0,4 VA tashkil qiladi. Releni sezgirligi va burchak harakteristikaları uni iste'mol qiladigan quvvati, tok g'altagidagi ( $I_p$ ) va shu tok bilan releni kuchlanishini orasidagi siljish burchagi ( $\varphi_r$ ) orqali baholanadi.

Sezgirlik harakteristikasi,  $\varphi_r$  o'zgarishidagi  $U_p = f(I_p)$  o'zaro bo'lishini ko'rsatadi.

Bu yerda  $U_{cr}$  - releni ishlashi uchun kerak bo'lgan eng kam kuchlanish ( $I_p$ ) va  $\varphi_r$  berilgan qiymatlarda)

Burchak harakteristikasi.

- 1)  $\varphi_r$  burchakni har xil o'zgarishida releni ( $U_{cp}$ ) sezgirligi va o'zgaradi.
- 2)  $U_{cp}$  minimal qiymati va  $\varphi_r$  burchakni eng abzal zonasini, oraligida ishlaydigan kuchlanish  $U_{cpmin}$  - ga yaqinlashganda.
- 3)  $\varphi_r$  burchak manfiy va musbat bo'lishiga qarab, aylanish momenti  $M_e$  ta'siri xam o'zgaradi.



o'zgaradi.

a)

b)

102-Rasm. Quvvat releni tuzilishi va vektor diagrammasi. A) Releni tuzilishi, a) musbat  $\varphi_r$  burchak uchun grafigi, b) manfiy  $\varphi_r$  burchak uchun grafik.

### §18. Ortiqcha yuklamadan saqlaydigan tok himoyasi.

Ortiqcha yukamlardan saqlaydigan tok himoyalar. Xayallash vaqtiga ega bo'lishi kerak.

Simmetrik ortiqcha yuklamalardan saqlaydigan tok himoyalar, odatda bitta fazada ulangan tok relesi va vaqt rele asosida tuziladi yoki bitta rele (tok va vaqt elementlariga ega bo'lgan RT-80 tipli rele) asosida tuziladi.

Himoyani ishlash toki quyidagi tenglama asosida topiladi:

$$I_{c.p} = \frac{K_H}{K_B} \cdot I_H \quad (244)$$

Ishonchilik koeffitsiyenti  $K_H$  eng kam qiymati olinadi, sezgirlikni oshrishi uchun  $K_B = 0,9$  va  $K_H = 1,05$  deb qabul qilinsa, unda rele  $I_{sr} = 1,1 I_n$  da ishlaydi. Qisqa tutashuv himoyalarga ogohlantirish signal berishdan saqlash uchun, uni ishlash vaqtini ikki pog'ona ortiq qabul qilinadi.

Yuqorida aytiganday, agar navbatchi xodimlar bo'lsa, himoya ogoxlantirish signalini berish uchun o'rnatiladi. Operativ tok zanjirlari manbasi xisobida ko'pincha kuchlanish transformatori yoki extiyoj transformatorlarga ulanadi. Vaqt relesini uzoq vaqt davomida ishlashi tufayli qizishga turg'unligini oshirish uchun g'altagiga qo'shimcha qarshilik ulanadi.

Undan tashqari, ortiqcha yuklama tok himoyasi (AVR) avtomatik xolatda rezervni yoki yuklamalarni o'chirish qurilmalarini xamda xavfsizlik xolatlarda o'chirgichlarni ishga tushirishga ta'sir qiladi.

Generator, transformator, sinxron kompesatorlarni va elektr dvigatellarni ortiqcha yuklama toklardan himoya qilish uchun, ortiqcha yuklamadan saqlaydigan tok himoyasi ishlatiladi. Bundan tashqari, turbogeneratorlarni himoyalari uyg'otish chulg'amarini kuchlanishini kamayishini inobatga olgan xolda sozlanadi, chunki bunaqa paytlarda turogeneratorlar birdaniga to'xtab qolishi kerak emas.

(PUE) Elektr uskunalarini ulanish qoydasi asosida tuobogeneratorlar uchun xiomyani ishlash kuchlanishi  $U_{sz} = (0,5-0,6)U_n$  va gidrogeneratorlar uchun taxmindan  $0,7 U_n$  qabul qilish tavsiya etiladi.

Himoyani ishlash vaqtida esa, tarmoqdagi maksimal tok himoyasi ishlash vaqtiga o'xshab topiladi.

### §19. Himoyani sezgirligi.

Past kuchlanish rele bilan ishga tushadigan maksimal tok himoyasini sezgirligini tekshirishda, avval himoyali tok qismini sezgirligi oddiy maksimal tok himoyasini sezgirligini aniqlashday topamiz.

$$K_{r(c)} = \frac{I_{kq\min}}{I_{cq}} \quad (245)$$

Unday keyin himoyani kuchlanish qismidagi sezgirligini aniqlaymiz.

Himoyani kuchlanish kesmini sezgirligi quyidagilarga bog'liqliklarini inobatga olish kerak:

- 1) Kuchlanish trasnformatorlar o'rnatilgan joydan.
- 2) past kuchlanish relelarni ulanish sxemalaridan.
- 3) Quvvat transformatorlarni birinchi va ikkinchi g'altaklarini ulanish sxemalariga bog'liq, agar himoya transformatoridan keyin yuz bergan qisqa tutashuvdan saqlaydigan bo'lsa.

Himoyani sezgirlik koeffitsenti, fazada yoki liniya kuchlanishlariga ulangan relelar uchun

$$K_{(c)} = \frac{U_{k.3.}}{U_{H.max}} \quad (246)$$

bu yerda  $U_{H.max}$  - himoyani oxirida yuz bergan 3 fazali qisqa tutashuvni rejimida minimal himoya o'rnatilgan joydagi maksimal kuchlanish.

### §20. Differensial himoya

Differensial himoyani ikki xil tuzilish sxemasi bor.


- 1) Sirkuluyatsiya (aylanib yuradigan) tok asosida va
- 2) Tenglashtirilgan kuchlanish asosida.

Bunaka himoyani tuzish uchun himoya qiladigan uskuna yoki liniyani boshlanishida va oxirida bir xil paysatirish koeffitsentli tok transformator o'rnatiladi ularni ikkinchi chulg'amlarini o'zaro ketma-ket ulaydi va paralel ulanadigan simlarga bironoda ishlaydigan tok

relasi ulanadi. Agar sig‘im toklarini va sizib kamayish toklarni inobatga olmagan xolda, unda boshlanishidagi va oxiridagi toklar himoya qilinayotgan elementga bir-biriga teng bo‘ladi. Normal xolatda ishlaydiga hamda sirtqi qisqa tutashuv o‘rnatilgan tok transformatorlardan keyin yuz berganda. Himoya uchun o‘rnatilgan tok transformatorlar bir xil harakteristikaga ega bo‘lsa, unda  $I_2$  va  $I_{2.II}$  toklarini qiymatlari va fazalari xam mos keladi.

Unda reledagi tok shu toklarni ayirmasidan kelib chiqadi.

$$I_p = I_{2.I} - I_{2.II} = 0 \quad (247)$$



103-rasm. Aylanib yuradigan toklar asosida ishlaydigan differentials himoyani sxemasi.

Shunday qilib, qiska tutashuv himoya qilish zonasidan keyin yuz berganda sezmaydi va ishlaydi. Agar qisqa tutashuv himoya zonasida yuz bersa, ya’ni ikki tok transformatorlarni oralig‘ida unda ayrim tokni qiymati ikqilamchi chulg‘amda nolga teng bo‘lmaydi. (b rasmida)

$$I_p = I_{2.I} - I_{2.II}$$

Agar  $I_p > I_{p.H}$  unda himoya ishlaydi va yukori xamda past tomondagi uzgichlarni ajaratadi. Bitta manbagaga ulangan tarmoqlarda rasmda kursatilgandek ikkinchi tok transformatordagagi tok  $I_{2.II} = 0$  va releni toki  $I_p = I_{2.I}$  teng bo‘ladi.

Nazariy tomondan qaraganda qisqa tutashuv himoya zonasidan tashqari yuz berganda reledagi tok nolga teng bo‘lishi kerak, lekin amalda reledan qandaydir tok o‘tib turadi u tokni nebalans toki deyiladi. ( $I_{nb}$ ), bu tok transformatorni xatolik koeffitsentiga va tokni burchagiga ta’sir qiladi. Shuning uchun bu tokni himoyani ishlaydiga inobatga olishimiz kerak.

Liniya normal rejimda ishlayotganda  $I_{nb.tok}$  juda kam qiymatga ega bo‘ladi, lekin sirtqi qisqa tutashuvlarda tokni bir necha karra oshishida  $I_{nb.tok}$  ancha oshib ketadi va defferensial himoyani xato ishlayshiga olib keladi.

Asosan  $I_{nb.tok}$  oshib ketishi, qisqa tutashuv tokni birinchi davrasida yuz beradi, ya’ni tok transformatorlardan qisqa tutashuvni apereadik va pereodik qismlarini bir vaqtida o‘tiladi, magnit uzagini xaddan ortiq toyishiga olib keladi.

Shuning uchun releni ishlaydiga inobatga olgan xolda aniqlashi.


$$I_{p.u.} = K_n \cdot I_{n\delta.max} \quad (248)$$

bunda

$I_{nb.max}$  – sirtqi qisqa tutashuvdagi nobalans tokini maksimal qiymati.

$K_n$  – ishochchli koeffitsenti, uni qiymati har doim 1 dan ko‘p bo‘ladi.

Kuchlanishlarni tenglashtirilgan differensial himoyada o‘lchov tok transformatorlarni ikkinchi chulg‘amdagи. Kuchlanishlarini solishtir yoki ularni ayirmasi asosida ishlaydi. Ularni ikqilamchi chulg‘amlari ( $U_{1.I}$  va  $U_{2.II}$ ) ketma-ket ulanadi kuchlanish rele orqali rasmida ko‘rsatilgandek.



104-rasm. Kuchlanishi tenglashtirilgan differensial himoyani prinsipial sxemasi.

- a) qisqa tutashuv himoya zonasidan tashqarisida yuz berganda
- b) qisqa tushashuv himoya zonasida yuz berganda.

«a» sxemada keltirilgan toklar boshida va oxirida o‘rnatilgan transformatorlarda bir xil bo‘lganda. Ularni ikqilamchi chulg‘amdagи EYuK xam bir xil bo‘lishi kerak qiymati bo‘yicha va fazalar bo‘yicha. Demak releni chulg‘amidagi tokni

$$I_p = \frac{E_{2.I} - E_{2.II}}{Z} \quad (249)$$

bunda  $Z$  – konturni qarshiligini nolga yakin bo‘ladi.

Demak tok transformatorlarni xarakteristikalari bir-biriga to‘liq mos kelmasligi tufayli, releda nobalans toki xosil bo‘ladi. Himoyani ishlash tokini aniqlashda, shu  $I_{nb}$  tokini inobatga olish kerak.

Differensial himoyani sezgirligin, uni sezgirlik koeffitsenti orqali baholanadi.

$$K_r = \frac{I_{k3.min}}{I_{c3}} \quad (250)$$

bu yerda:  $I_{k3.min}$  – himoya zonasidagi qisqa tutashuvni minimal qiymati.

$I_{s.z.}$  – himoyani ishlash toki.

Keltirilgan differensial himoya faqat liniyalarni himoya qilishda emas, bu himoya podstansiyada o‘rnatiladigan quvvat transformatorni ichki qisqa tutashuv toklaridan himoya qilishda asosiy himoyasi xisobida o‘rnatiladi.

Differensial himoyani ishonchli ishlashi uchun differensial himoya ulanadigan tok transformatorlarni xato ishlash klassidan chiqib ketmasligi uchun ularni termik va elektr dinamik turg‘unligiga tekshirib chiqiladi. Tekshirib chiqish usullari «Rele himoyasi» fanida batafsil keltiriladi.

## §21. Elektr motorlarni himoyasi va avtomatlashdirish

Elektr motorlarni ishlash vaqtida yuz beradigan nonormal xolatlari va buzilish turlari.

- Buzilish turlari.- O'zgaruvchan tokda ishlaydigan motorlarni stator chulg'amalida yuz beradigan buzilishlar quyidagilardan iborat bo'ladi: ko'p fazali qisqa tutashuvlar, bir faza yerga tutashuvchi va faza chulg'amalini o'zaro tutashuvlari.

- Sinxron elektr motorlar va o'zgarmas tok motorlarni uyg'otish chulg'amalni uzilishi.

Ko'p fazali qisqa tutashuv xolatlarida shikastlangan motorlarda tok osha boradi. Ta'minlovchi tarmoqda kuchlanish pasayib boradi. Bunday buzilishlar katta xavfsizlik tug'diradi. Shikastlangan motorlarga, xamda normal xolatda ishlayotgan elektr uskunalarga xam.

Kommutsion apparatlar bilan ulanishida va motorlarni chulg'amida KP fazali qisqa tutashuvlardan saqlash uchun tez ishlaydigan himoya o'rnatildi.

Bir fazali yerga tutashish stator chulg'amida, ta'minlovchi tarmoqda neytralliy yerlanish rejimi orqali aniqlanadi. Agar neytral yerlangan bo'lsa, uni shikatslangan elektr motorga bir fazali yerga tutashuvchi toki ancha xavfli. Shuning uchun shikastlangan elektromotor zudlik bilan uchirilishi kerak.

Neytral yerlanmagan yoki yoy uchraydigan reaktor orqali yerlangan tarmoqlarda bir fazani yerga tutashuv rejimi elektr tarmoqlar sistemasiga va shikastlangan elektr motorga katta xavfsizlik keltirmaydi. Shuning uchun yerga tutashgan himoya qilmaydi. Lekin quvvati  $R_m < 2$  mVt motorlarga himoya qabul qilinadi, agar yerga tutashuv toklar 10A dan ko'p bo'lsa ( $I_{z(er)} > 10$  (A)) motorlarni quvvati 2 mVt dan yuqori bo'lsa va tok 5 A dan ( $I_z > 5$  (A)) ko'p bo'lgan elektr motorlarga sharthi ravishad himoya o'rnatiladi.

Chulg'amli uramlar orasidagi qisqa tutashuvlar- xavfliligi shundaki, uramlar orasidagi qisqa tutashuv toklar nominal toklardan bir necha barobar oshib ketadi. Shu qisqa tutashuv toklar ta'sirida magnit uzagi xaddan tashqari qizib ketadi. Chulg'amni shikastlanmagan o'ramlarida tok deyarli uzgarmaydi, shuning uchun to'liq faza toklariga mo'ljallangan himoyalardan foydalanilmaydi. Himoya o'rnatiladigan bo'lsa unda tok (saralash) filtr himoyasi tavsiya qilinadi.

Uyg'otish zanjiridagi uzilish sinxron motorlarda kamdan-kam bo'ladi. Shuning uchun himoya qilmaydi, ayrim katta quvvatni motorlarida o'rnatilishi mumkin. O'zgarmas tok motorlar zanjirida tez uchrab turadi.

Uyg'otish zanjiri uzilishida motorlar yuklangan bo'lsa tormozlashadi yoki xaddan tashqari aylanish chastotasi oshib ketadi. Bo'lar (tormozlanishi yoki aylanish chastotani oshishi) biz uchun kerak emas, chunki tormozlanishishida yuqori toki ancha oshib ketadi, katta tezlik bilan aylansa motorni buzlishiga olib keladi.

Nonormal ishlash rejimi. Xamma inobatga olinadigan nonormal rejimida motorlar yuqori toklar bilan ishlaydi. Bunda yuqori tokdan kelib chiqqan issiqlikni ta'siri xavflik keltiradi. Bu xavflik yuqori toklarni ruxsat etilgan qiymatiga va o'tish vaqtiga bog'liq. Yuqori yuklama tokni qiymati, nominal tokni qiymatidan necha karra («K») ortiq bo'lsa, uni o'tishga ruxsat etilgan vaqt kamayib boradi, ya'ni

$$t_{p_3} = \frac{A}{K^2 - 1} \quad (251)$$

bu yerda

A- motorlarni turlari va tuzilishini inobatga oladigan koeffitsent. Katta massali yopiq elektr motorlar uchun  $A \approx 250$ ; ochiq motorlar uchun  $A = 50$ .

Sinxron elektr motorlar, asinxron rejimda ishlashi yuqori toklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

## §22. 1000 V dan kam kuchlanishda ishlaydigan motorlarni himoyasi va avtomatikasi

Xalq xo'jaligini xamma ishlab chiqarishda eng ko'p qo'llaniladigan elenktr motorlardan biri bu asinxron motorlar. Shuning uchun bo'lar himoyalarini ta'mirlashda kam mehnat talab qiladigan foydaliligi va ishonchliligi foydalanish soddalagi bilan farq qilishi kerak. Issiqlik uzbekchiga egali magnit ishga tushirshgichlar, saqlagichlar va avtomatik uzbekchilar yuqorida aytilgan talablarga to'liq javob beradi.

Ervchan saqlagichlar himoyasi har bir elektro motorlarga alohida o'rnataladi. Saqlagichni eruvchan simi quyidagi shartlar asosida topiladi.

$$U_{c.nom} = U_{mop} \text{ va } I_{c.yuz} > I_{k.max} \quad (252)$$

Ervchan simni toklari quyidagiday:

$$I_{\vartheta p.nom} > K_{zan} I_{uu.max} \quad (\text{birinchi sharti}) \quad (253)$$

$$I_{\vartheta p.nom} > I_{uu.myu} / K_{nep} \quad (\text{ikkinchi sharti}) \quad (254)$$

$$I_{\vartheta p.nom} < I_{kmin}(10 - 15) \quad (\text{uchinch sharti}) \quad (255)$$

bu yerda

$$I_{pa6.max} = I_M.nom(\text{моторни номинал токи})$$

$$I_{uu.myu} = I_{nycx.m} \quad (\text{KT rotorli motorni ishga tushirish toki})$$

$$K_{don}=1,1-1,25 \text{ extiyoj koefitsenti}$$

Saklagich sezgirligi

$$I_{\vartheta \vartheta .nom} < \frac{I_{k.3.min}}{3} \quad (256)$$

Avtomatik uzgichilar- Elektr motor va iste'molchilarni qisqa tutashuv va o'ta yuklanish toklaridan, kuchlanishning yo'l qo'yilgandan xam pasayishidan avtomatik ravishda himoya qilish uchun foydalaniladi. Avtomatik uzgichlar quyidagi shartlar asosida tanlanadi.

1) avtomatik uzgichni nominal kuchlanishi  $U_{na}$ , tarmoqni kuchlanishga  $U_s$  nisbatan

$$U_{n.a} > U_{c.(mop)} \quad (257)$$

2) avtomatni issiklik uzgichini nominal toki  $I_{n.uz}$  elektr motorni yuklama tokiga  $I_{nag}$  nisbatan

$$I_{nagp} = \frac{I_{n.d}}{K_n} \quad (258)$$

Bu yerda  $K_n$  -ishonchli koefitsenti. Agar motorlarni ishga tushish vaqt 10 sek.dan oshmasa yoki ulash rejimini 1 s ichida 15 martadan oshmasa unda  $K=1$  qabul qilinadi, boshqa vaqtarda  $K=1,25$ .

3) avtomatni maksimal uchirish toki, qisqa tutashuv tokni maksimal tokiga nisbatan

$$I_{p/max} = \frac{400}{\sqrt{3}(Z_{mp} + Z)} \quad (259)$$

Avtomatlarni uzgichli avtomalarni issiklik uzgichlari sovuk vaqtarda ishlamaydigan xolda, ularni elektromagnit uzgichlarini ishlash toklari faza orasidagi qisqa tutashuvlarda

$$I_{np} = K_n \cdot I_{H.max} \quad (260)$$

bu yerda  $K_n$ - ishonchli koefitsenti,  $K=1,25$

$I_{r.sh.}$ - elektromagnit uzgichni ishlash toki.

### §23. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan elektromotorlarni himoyasi

Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr motorlarda quyidagi nonormal rejimda himoyalar o'rnatiladi. Elektr motorni stator chulg'amidagi va chiqishidagi ko'p fazali qisqa tutashuvlardan; texnologik sababalar tufayli ishga tushish vaqt oshib ketishidan kelib chiqqan yuqori yuklama toklardan; kuchlanishni yo'qolishdan yoki uzaq vaqtga kamayib ketishidan.

Kerakli shart sharoitlarda, bir fazali yerga tutashishlardan xam himoya qilinadi. Ko'pincha bunday himoyalar ikqilamchi yoki bevosita o'zgaruvchan tokda ishlaydigan relelar asosida bajariladi.

Ko'p fazali qisqa tutashuvlardan himoya. Bunday qisqa tutashuvlardan asosan saqlagich, vaqtsiz ishlaydigan yuqori tok keskich himoya yoki differensial himoyalar o'rnatiladi.

#### §24. Elektr motorlarni ortiqcha yuklamadan himoya qilish.

Elektr motorlar ortiqcha yuklama bilan ishlasa, ularni chulg'amilarida yuqori tok o'tadi va ularni qizitadi. Shu toklardan motorlarni saqlash uchun yuklama toklardan, tok himoyasi yoki issiqlik himoya ishlatilishi mumkin.

Ortiqcha yuklama toklardan himoya qilishda qisqa vaqt ichida toklarni ochishidan himoya ishlamasligi kerak emas. Shuning uchun ularni xayollash vaqtidan keyin uzgichni ishga tushiradi va ogoxlantirish signalini beradi yoki mexanizmlarni yuklamalarini kamaytiradi.

Texnologik jarayonda mexanizmlar ortiqcha yuklama bilan ishlashi yoki ishga tushirish tokini davomini chegarallash kerak bo'lganda yoki past kuchlanish rejimida ishga tushirishda ortiqcha yuklama tok himoyasi o'rnatiladi.

Ortiqcha yuklama tok himoyasi asosan elektromagnit tok prinsipida ishlaydigan rele asosida tuziladi. Shu himoyaning tuzlishi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Himoyani ishlash prinsipi - yuklama oshib borsa «KA-4» rele ishga tushadi va o'z kontaktlarini ulaydi, shu bilan KT- vaqt relesini ishga tushiradi va belgilangan vaqtidan keyin KM kontaktlarni zanjirlarini uzadi va motorni tarmoqdan ajratadi. Agar motorni bir fazasini uzilishidan himoya qilinsa, unda ikki fazali himoya qo'llaniladi.


Himoyani sezgirligini oshirish uchun, ortiqcha yuklama tokdan saqlaydigan himoya ikqilamchi relelar asosida tuziladi.

$$I_{cp} \succ K_{3an} K_{cx} I_{\partial, nom} / K_e K_i \quad (254)$$

Agar elektr motor ishga tushish vaqtida rele ishlashi kerak bo'lsa, ya'ni

$$I_{x.u.(c3)} = \frac{K_{3an}}{K_e} \cdot I_{n.\phi.} \quad (255)$$

Elektr motor normal xolatda ishga tushishida himoyani ishlamasligi KT vaqt relesini xayallash vaqtiga, motorni ishga tushirish vaqtiga kattaligidan kelib chiqadi, ya'ni  $t_p=3$  sek.



a)


b)

105-rasm. Ortiqcha yuklamalardan elektromatorlarni himoya qilish sxemasi.  
 a) birlamchi RTV rele asosida b) ikqilamchi RT-81 yoki RT-85 rele asosida.  
 Issiqlik himoya  
 Vaqtsiz ishlaydigan yuqori tok keskich himoya.

### §25. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo‘lgan bir manba’li elektr tarmoqlarning avtomatikasi.

Agar bir manba’ga ulangan tarmoqlarga birinchi kategoriyali yuklamlar ulangan bo‘lsa, unda bunday yuklamlar rezerv tarmoqlar bilan ta’minlanishi kerak. Chunki bunday yuklamlarning elektr ta’minotni faqat avtomat xolatda buzilgan tarmoqni uchirib sog’lom liniyaga ularish vaqtiga yoki navbatchi elektrik bir tarmoqni o’chirib ikkinchi tarmoqqa ularash vaqtiga ruxsat beriladi.

Shuning uchun, oxirgi paytlarda KX elektrtarmoqlarida UAVR sistemalari qo’llaniladi. (UAVR - avtomatik xolatda rezerv liniyani ularash qurilmasi).



106- rasm. Energosistemani sxemasi.  
 Berilgan sxemdagagi UAVR qurilmasini ishlashi quyidagiday bo‘ladi: Agar  $K_1 - K_3$  nuqtalarda qisqa tutashuv yuz bersa AVR birinchi  $Q_2$  uzgichni uzadi, I - shinada kuchlanish yo‘qoladi, chunki UAVR qurilmasiga minimal kuchlanish relesi kiritilgan. I - shinadagi kuchlanish  $U_{ost,k}$  gacha kamayguncha bu relening ishga tushirish g‘altagi ishlamasligi kerak.

$$U_{cpI(p.m)} = \frac{U_{ocm.k}}{K_{san} \cdot K_u} \quad (256)$$

$$U_{cpI(p.m)} = \frac{U_{ocm.c2}}{K_e K_{san} \cdot K_u} \quad (257)$$

bu yerda  $K_v = 1,25$  - past kuchlanishli relesini qaytish koeffitsenti.

$$K_{zap} = 1,2: 1,3$$

Ikkala tenglamdan kelib chiqqan eng past kuchlanish qabul qilinadi.

Kuchlanish transformatorlarning zanjiriga eruvchan saqlagichlar qo‘yliganda ishga tushirish organi ishlash kerak emas, shuning uchun AVR qurilmasini sxemasiga past kuchlanishli rele kiritiladi. Bu rele ta’minlovchi liniyaga o‘lchov tok transformatori orqali ularadi. Bu sxema orqali tuzilgan AVR qurilmasi I - shinada kuchlanish yo‘qolishi va ta’minlovchi liniyada tok yo‘qolishi bilan bir vaqtida bo‘lgandagina ishlaydi. Past tok relesining ishlash toki formulasidan aniqlanadi.

$$U_{cp} = \frac{I_{pa6,min}}{K_1 \cdot K_{san}} \quad \text{formulasidan aniqlanadi} \quad (258)$$

bu yerda:  $K_{\text{zap}} = 1,5$ .

Shinalarda kuchlanish yo‘qotilgandan keyin kam kuchlanishda ishlaydigan rele xayallahash vaqtidan keyin ishga tushadi, bu vaqt  $t_{\text{sr}} = 1$  sek, yoki undan ko‘proq bo‘lishi mumkin. Bu esa elektryuritmalardagi va sinxron kompensatorlardagi yig‘ilib qolgan qoldicha kuchlanishga bog‘liq. Ko‘pincha AVR qurilmasini ishga solish organining vazifasini bajarish uchun, chastotani kamayishini sezadigan relelar qo‘llaniladi, chunki kuchlanish chastotasi tez kamayib ketadi. Bu paytda bunaqa qurilmalarda xayallahash vaqt  $t_{\text{sr}} = 0,1 : 0,2$  sek. dan oshmaydi. AVR qurilmasining ishlashi rezerv liniyada kuchlanish bo‘lgandagina maqsadga ega bo‘ladi. Shuning uchun AVR qurilmasini ishga tushirish organiga rezerv shinadagi kuchlanishni tekshirib turuvchi maskimal kuchlanish relesini kiritish maqsadga egadir. Bu releni ishslash kuchlanishini quyidagi formula orqali topamiz.

$$U_{cp_2} = \frac{U_{\text{ppa,min}}}{K_e K_{\text{san}} \cdot K_u} \quad (259)$$

bu yerda  $K_a = 0,8$  - maksimal kuchlanish relesini qaytish koeffitsenti.

$K_{\text{zap}} = 1,1 : 1,2$  - zapas koeffitsenti.

Agar elektrta’mnot sxemalarida asosiy va rezerv elementlar bir manbadan ta’minlansa, unda minimal kuchlanishda AVR ni ishga tushiridagina element o‘rnatilmaydi, chunki bu xolatda asosiy va rezerv elementlarda kuchlanish bir paytda yo‘qoladi. AVR qurilmasi kam xayallahash vaqt bilan ishlaydi. agar  $K_4 - K_6$  nuqtalarda yuz bergan buzilishda himoyaning ishlash vaqtiga asoslanib sozlaydi, shu orqali qoldiq kuchlanish kamayadi va uni qiymati past kuchlanish relesining ishslash kuchlanishidan kamroq bo‘ladi.

$$t_{\text{AVPI}} = t_{\text{szmax}} = \Delta t$$

AVR qurilmasining sxemalarida ayrim xollarda kuchlanish relesini ishga tushirish organi va xayallahash vaqt organi bitta releda o‘rnatiladi. Agar rezerv liniyada APV qurilmasi bo‘lsa, unda  $t_{\text{AVPI}}$  ishslash vaqt bilan moslashtirilgan bo‘lishi kerak, chunki AVR qurilmasi APV qurilmasidan keyin ishga tushish kerak. Bir martali AVR, rezerv liniyadagi o‘chirgichni ishga solish vaqtini

$t_{\text{AVPI}} = t_{v,v} + t_{\text{zap}}$  deb qabul qilsak, talabga javob bergen bo‘ladi.

Bu yerda  $t_{v,v}$  - uzgichni ulanish vaqt


$t_{\text{zap}} = 0,3 : 0,5$  s qo‘shimcha vaqt

AVR qurilmasi orqali ishga tushgan uzgich tezlatish himoyaga ega bo‘lishi kerak. AVR qurilmasi rezerv manbani ulangandan keyin u ortiqcha yuklama bilan ishlasa elektryuritmalar ishga tushmagan xolda bir necha yukamlarni himoya orqali uchiriladi.

## §26. Rezrev liniyalarni avtomatik xolatda ulash qurilmasining sxemalari.

O‘zaruvchan operativ tokda ishlaydigan AVR qurilmasi prujinali yoki yukli yuritmalar o‘rnatilgan o‘zgich sxemalarda qo‘llaniladi. Quyida ko‘rsatilgan 7.2 - rasmida podstansiya ko‘rsatilgan. Bu podstansiya asosiy tok manbasiga  $Q_1$  uzgich orqali rezerv manbagaga bog‘langan. Normal xolatda  $Q_1$  uzgich ulangan,  $Q_2$  uzgich esa ochiq xolatda. AVR qurilmasini ishga tushirish organi deb kuchlanish KVT relesi qabul qilingan. Podstansiyani shinalarda kuchlanish yo‘qotilganda shu (KVT) relesi ishga tushadi va xayallahash vaqtidan keyin  $Q_1$  kontakti  $Q_2$  uzgichni (YAG<sub>2</sub>) ulaydigan elektromagnitning zanjirini ulaydi. Agar rezerv liniyada kuchlanish bo‘lsa shu paytda  $Q_2$  uzgichni uzatmasini avtomatlashтирilgan motorli reduktor bilan jixozlantirish mumkin. AVR qurilmasida ishga tushirish organi uchun xayallahash vaqt bilan ishlaydigan KT vaqt relesi (EV-235 I turli relelar)ko‘llanilishi mumkin, bu rele o‘lchov kuchlanish transformatori TV ga VU -200 to‘g‘irlagich qurilma orqali ulanadi. Vaqt relesi KT podstansiyadagi shinalarda kuchlanish yo‘qolganda ishga tushadi va beligilangan xayallahash vaqtidan keyin  $Q_1$  uzgichni uzadigan YAT<sub>1</sub> elektr magnitning zanjirini ulaydi. Uzgichni uzelishi bilan uzgichni yordamchi kontakti  $Q_1$  ochiladi, lekin  $Q_2$  uzgichni YAG<sub>2</sub> elektromagnitning


zanjirida o'rnatilgan  $Q_1$  2 kontakti esa ulanadi. Rezerv manbada kuchlanish bo'lganidagina va uzgnchni uzatmasi ishga tayyor bo'lganda (yordamchi kontakt  $Q_{2.6}$  yopiq)  $Q_2$  uzgich ulanadi. Ikkinchchi uzgich  $Q_2$  o'rnatilgan tarmoqda murakkab qisqa tutashuv bo'lib qolganda, yordamchi kontakt  $Q_{2.3}$  esa AVR qurilmasini ketma-ket ishlashidan saqlaydi.



107-rasm.AVR qurilmani tuzilish va ishslash sxemasi.

Agar AVR qurilmasi uzigchni ulagandan keyin qayta uzilsa, unda "M" elektryuritma uzgichning prujinasini yurgizaolmaydi, chunki uning zanjiri yordamchi  $Q_{2.3}$  kontakt orqali uzbib qo'yilgan. Uzatmani ishga tayyorlash uchun  $SX_1$  nakladkani olib tashlanadi (AVR qurilmasi ishdan chiqariladi), so'ngra  $SX_2$  nakladka bilan elektryuritmani zanjiri ulanadi, u esa ishlay boshlaydi va prujinani bura boshlaydi, toki yordamchi  $Q_{2.4}$  kontakt ishlab uni zanjirini uzmaguncha. Prujinani burab bo'lidan keyin  $SX_2$  nakladka ochiladi va  $SX_1$  nakladka ulanib qo'yiladi (ya'ni oldingi xolatga qaytarib qo'yiladi). Agar rezerv liniyaga ulangan TV2 transformator bo'lmasa, unda AVR qurilmasining sxemasini zaryadlangan kondensator orqali yig'ish mumkin.

O'zgarmas operativ tokda ishlaydigan AVR qurilmasiga elektromagnitli uzatma bilan o'chiriladigan yoki ulaydigan uzgichlar o'rnatilgan bo'lsa, bu xolda ulaydigan elektromagnitning uzatmasi katta quvvat talab qiladi. Shunday paytlarda rele himoyasi va avtomatika sxemalari o'zgarmas yoki to'g'rilangan operativ tokda bajariladi, bu tok to'g'rilagich qurilma yoki energiya ta'minlov bloki orqali olinadi. (7.3. rasmda ko'rsatilgan)



108-rasm. ARLK ni elektr sxemasi.

### §27. Elektromagnit uzatmali uzgichli sxemalardagi AVR qurilmasi.

AVR qurilmasini ishga tushirish organini KV<sub>1</sub>, KV<sub>3</sub> past kuchlanishli relelar va KV<sub>2</sub> yuqori kuchlanishli relelar bajaradi. Bu sxemada t<sub>AVR1</sub> xayallash vaqtini KT relesi bajaradi. KLT oraliq rele orqali t<sub>AVR2</sub> xayallash vaqtining qaytish paytida bir marta ishlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Normal xoltda Q<sub>1</sub> uzgich esa uzilgan podstansianing shakillarida va L<sub>2</sub> liniyada kuchlanish bor. Past kuchlanishli KV<sub>1</sub> va KV<sub>3</sub> relelarning kontakti ochiq. Q<sub>1</sub> - uzgichning yordamchi kontaktlari Q<sub>1</sub> va Q<sub>12</sub> ulangan. Q<sub>13</sub> yordamchi kontakt esa uzilgan (ochiq). Bu vaqt KLT relesi uzilgan va uning KLT<sub>1</sub> va KLT<sub>2</sub> kontaktlari ulangan xolatda bo'ladi. Q<sub>2</sub> uzgichning yordamchi Q<sub>12</sub> kontakti ulangan ulaydigan elektromagnit YAC<sub>2</sub> tayyor xolatda.

AVR qurilmasi quyidagicha ishlaydi: podstansianing shinasi kuchlanish yo'qolganda KV<sub>1</sub> va KV<sub>3</sub> relelar ishlaydi va ularning kontaktlari KT vaqt relesining zanjirini ulaydi. Agar L<sub>2</sub> liniyada kuchlanish bo'lsa KV<sub>2</sub> rele ishlab turgan bo'ladi, ya'ni uni kontakti ulangan. Vaqt relesi KT ishga tushadi va o'rnatilgan t<sub>AVR1</sub> xayallash vaqtidan keyin o'zining Q<sub>1</sub> uzgich orqali YAT<sub>1</sub> o'chirish elektromagnitining zanjirini ulaydi va uni uzadi. Shuning bilan uni Q<sub>1.1</sub> va Q<sub>1.2</sub> yordamchi kontaktlari uzeladi, Q<sub>13</sub> kontakti YAC<sub>2</sub> ulaydigan elektromagnitning zanjirini va Q<sub>2</sub> uzgichini ulaydi.

Agar L<sub>2</sub> rezerv liniyani jixozlangan liniyaga ulansa, unda uzgichdagi himoya AVR qurilmasi ishlagandan keyin, tezlik bilan bu liniyani uzib tashlaydi va undan keyin qayta ulanmaydi, chunki KLT rele bu vaqtida o'zining KLT<sub>1</sub> va KLT<sub>2</sub> kontaktlarini uzib qo'ygan bo'ladi.

### §28. Avtomatik qayta ulash qurilmasiga qo'yilgan talablar va ularning parametrlarini topish.

Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo‘lgan havo, kabel liniyalarida kerakli kommutatsiya apparatlari o‘rnatilgan bo‘lsa, APV (AKU) qurilmasi o‘rnatiladi. Ishlatish paytida (ekspluatatsiya qilishda) quyidagi asosiy belgilar bilan farq qiladigan APV qurilmalaridan foydalaniladi: APV qurilmasi ulaydigan uzgichlarning fazalari soni bilan-uchfazali (TAPV) va bir fazali (OAPV); ikki manbara ulangan liniyalarda – APV yordamida sinxronizmni tekshirish usuli bilan; uzgichni uzatmasiga qiladigan ta’siri bilan-mexanik va elektrik APV qurilmasi; ishslash karrasi bilan-bir karrali va bir necha karrali APV.

APV qurilmasini sxemalari bir – biridan ishga tushish usuli bilan, qayta ishga tushish tayyorligi usuli bilan, elektro ta’minot sxemalarida APV qurilmasini jixozlangan elementlarining turi bilan farq qiladi.

Ko‘rsatilgan farqlarga qaramasdan, xamma APV qurilmalar quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

1. Har doim ular ishga tushishga tayyor bo‘lib turishlari va uzgichlari avtomatik xolatda ishlagandan keyin ishga tushishlari kerak, shu bilan birga agar navbatchi xodim rele himoyasini ishga tushirib uzgichni uzganda, xamda navbatchi xodim APV qurilmasini ishga solib uzgichni uzganda ishlamasligi kerak.

2. APV qurilmasi eng kam xayallash vaqtga  $t_{\text{ARV1}}$  ega bo‘lishi kerak, chunki iste’molchilar energiyasining uzilishi vaqtini iloji boricha kamaytirish kerak. Amalda APV qurilmasini xayallash vaqtisiz kirish mumkin, lekin bu imkoniyatlar bir necha shartlar bilan chegaralanadi: APV ning muvofaqiyatli ishlashi uchun  $t_{\text{ARV1}}$  xayallash vaqt  $t_{g,p}$  – ning vaqtidan, ya’ni uzatmani qayta ishga tushish vaqtidan ko‘proq bo‘lishi lozim (qo‘llaniladigan uzatmalarning turlarini, ishlashlarini inobatga olgan xolda  $t_{g,p}=0.2:0.3$  s); shikastlangan nuqtadagi muxitni dispozitsiya qilinishiga kerakli vaqt  $t_{d,s}$  (kuchlanishi 220 kV-gacha bo‘lgan kuchlanishlar uchun ( $t_{d,s} = 0.2$  s);  $t_{v,z}$  – vaqt, APV qurilmasi o‘rnatilgan uzgichni qaraganda manbara yakinroq o‘rnatilgan uzgichga o‘rnatilgan rele himoyani oldingi xolatga qaytishga kerakli vaqt, (RT-80 tipli relelar maksimal qaytish vaqtiga bo‘lish mumkin ( $t_{v,z}=0.2:0.3$  s)

Ko‘pincha aniqlanadigan shartlardan biri bu  $t_{\text{APV1}}=t_{k,n}$ . Shu tufayli  $t_{\text{zap}} = 0.4:0.5$  s qo‘srimcha vaqtini inobatga olganda, bir manbara ulangan liniyalardagi APV qurilmasini ishlash vaqtini.


$$t_{\text{APV}} = t_{\Gamma\Gamma} + t_{\text{zan}} = 0,5 \div 0,7 \text{ sek} \quad (260)$$

Ayrim xollarda 35÷110 kV havo liniyalarda daraxtlarning yiqilishi yoki boshqa sababalar orqali buzilib turishlarini ionbatga olgan xolda APV effektivli ishlashi uchun, uni ishlash vaqtini ko‘proq qabul qilinadi (bir necha sekundgacha). Har doym APV qurilmasini ishlash vaqtini shunday bo‘lishi kerakki, bu vaqt ichida uzgichlar to‘liq ulanib bo‘lishi shart.

3. Uzgichni to‘liq ulab bo‘lgandan keyin, APV qurilmasi avtomat xolatda belgilangan vaqtdan oldingi xolatga qayta olishi kerak.

Bir manbara ulangan 6-35 kV liniyalardagi asosan (APV) avtomatik qayta ulash qurilmasini 2-turidan foydalanadi: 1) APV (AKU) mexanik qurilmasi va 2) APV (AKU) qurilmani elektr sxemasi. Elektr sxemani AKU qurilma ikki xili bor: bir karrali AKU qurilma RPV-58 rele asosida tuziladi; ikki karrali AKU qurilma RPV-258 rele asosida tuziladi.

Elektr tarmoqlarni ishonchligini oshirishda A.K.U qurilmalardan foydalanish katta axamiyatga ega bo‘ladi, chunki tarmoqlarda yuz bergan qisqa tutashuvlarni 70-80% vaqtinchali bo‘ladi, agar shu liniyalarga qisqa vaqt davomida katta termik yoki elektrodinamik ta’siri berilsa, ular qayta normal xolatda ishlab ketadi. Agar shundan keyin xam ishga tushmasa unda liniyalarda murakkab qisqa tutashuv yuz berganligi aniqlanadi. 6-10 va 35 kV liniyalarda asosan bir karralik mexanik usulidagi A.K.U qurilmalardan foydalanadi. Mexanik AKU qurilmalar uzgichlarni PP-61 va PP-67 yuritmalari asosida tuziladi uni tuzalish sxemasi.



109-Rasm. Mexanik A.K.U. qurilmasini sxemasi.

Moy uzgichlarni PP-61 yuritmasida joylashgan A.K.U qurilmasini ishlash prinsipini ko'rib chiqamiz.

PP-61 va uni modifikatsiyalarida 5-ta g'altak o'rnatilgan. «KV» ko'tarilib turgan yukni zashyolkasiga ta'sir qiladi. Ulanish signalini berganda «KV» ishga tushadi va o'z o'zagi bilan yukni ko'tarilgan xolda ishlab turgan zashyolkani bo'shatadi, yuk pastga tushadi va uzgichni ulaydi. KO katushka esa ulanib turgan uzgichni masofadan turib ajratish uchun foydalанилади, ya'ni dispecher OTKL knopkani bosib «KO» katushkani ishga tushirganda u o'z o'zangi (yakorni) bilan qisilib turgan purjinani zashyolkasini bo'shatadi, bo'shalgan purjina moy uzgichni ajratadi.


Agar liniyada qisqa tutashuv yuz bersa, bu tok ta'sirida AKU qurilmasidagi RTM rele ishga tushadi va bir vaqtida o'zini o'zagi (yakori) bilan yukni ishlab turgan zashyolka bilan xamda purjinani qisilgan xolatda ishlab turgan zashyolkalarni bo'shatadi.

Purjina moy uzgichni ajratadi, shu vaqtida bo'shatilgan yuk esa RTM releni kontaktini shuntlaydi va elektr motorni zanjiridagi kontaktni ulaydi. Elektr motor yukni kutaradi xamda purjinani qisib moy uzgichni ulaydi. Yuk tepaga ko'tarilganda yuqori konechniki orqali motorni zanjirini uzadi va motor ishdan chiqariladi. Shu protsess davrida liniya normal rejimga qaytmasa RTV-relesi belgilangan vaqtidan keyin moy uzgichni ajratiladi.

### §29. Aku elektr sxemasi

Bir karrali AKU elektr sxemasi RPV-58 rele asosida tuziladi. Rasmida rele puntir chiziq bilan cheklab chiqilgan. Liniya ishlab turganda «av» kontaktlar KU kalit orqali ulangan.

$$Z_n = I \sqrt{(r_{o\phi} + r_{oh})^2 + (x''_{o\phi} + x''_{oh} + 2x'^{+}_0)^2}$$



110-Rasm. Bir karra ishga tushirish AKU qurilmani elektr sxemasi.

Liniya shikastlanganda himoya o'zini «R3» kontaktini qo'shadi va uzgichni uzadi. 4KL oraliq releni ishga tushiradi va 4KL kontaktini qo'shadi, shu bilan «1KT» vaqt relesi uzun 1KT ajratib, 1r qarshilikni ishga tushiradi. Vaqt releni ikkinchi kontakti belgilangan vaqt dan keyin ulanadi. «S» kondensatorni razryadlanish, zanjirini 1KL PR relesiga ulyadi va 1KL rele ishga tushib, uzgichni yuritmasidagi YAG ulash g'altagini ishlatadi va uzgichni kontaktlarini ajratadi. Shu bilan 4KL rele undan keyin 1KT releni oldingi xolatiga qaytaradi.

Avtomatik kuchlanishni rostlagich kurilmasi (AKRK)

Kuchlanishni ko'payib ketishi yoki kamayib ketishi belgilangan miqdoridan, elektr energiya iste'molchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ishlash vaqtida. Ma'lumki assinxron dvigatellarni aylanish momenti kuchlanishni kamayish kamayib boradi, kuchlanishni kvadratiga (ikkinchi darajasiga) proporsional xolda. Oldingi aylanish momenti saqlab qolish uchun, uni sirg'anishi oshishi kerak. Bu esa motorni tokini oshishiga oolib keladi, va elektr motorlarni cho'lg'amlarini ortiqcha qizishga olib keladi, va elektr motorlarni cho'lg'amlarini ortiqcha qizishiga olib keladi. Aylanish tezligini kamayishi, mexanizmlarni fydaligini kamaytiradi, birxil hollarda ishlab chiqariladigan maxsulotni sifati kamayadi yoki brak bo'ladi.

Yoritish lampalarda kuchlanishni o'zgariish 1%ga kamaysa, taxminan lampalarni yoritish xususiyati 4%ga kamayadi, va ishslash vaqtiga (kuchlanish oshganda) 10 – 12%ga kamayadi. Masalan kuchlanish nominal qiymatidan 5%ga oshganda lampochkani ishslash vaqtiga 2 martaga kamayadi. PUE talabi bo'yicha energosistemadagi kuchlanishni og'ishi yodagan oshmasligi kerak, sanoat iste'molchilari uchun.

Qishloq xo‘jalik qurilmalarida kuchlanishni og‘ishi  $-10 \div +7,5\%$ dan oshmasligi kerak. Shuning uchun kuchlanishni og‘ishi kata axamiyatga ega bo‘ladi. Kuchlanishni belgilangan miqdorida ishlab turish uchun, xo‘jalik podstansiyalarda kuchlanishni avtomatik xolatda roslaydigan qurilma (AKRK) bilan ijhozlangan transformatorlar o‘rnatalidi.

Nimstansiyalarda, xamda ta'minlovchi liniyalarda, kuchlanishni rostlash uchun xozirgi vaqtida maxsus transformatorlar, kuchlanishni oshiradigan avtotransformatorlar vako'ndalang va yo'nalan sig'im kompensatsiya qilish va boshqalardan foydalaniadi.

Qishloq xo‘jalik elektrta’mnot tizimlarida asosan (AKR) qurilmalaridan foydalilanildi, ularni tuzilish sxemasi 111 - rasmida keltirilgan.

AKR qurilmasini avtomatik xolatda ishlashni maxsus sxema ta'minlaydi, u nazorat o'lchov organdan, boshqarish sxema va bajaruvchi organi RNT - 13A turli reledan tashkil qiladi.

Avtomatik boshqarishni bajarish uchun 1K kalitni «avtomatik» xolatiga o'tkaziladi. Shunda KV kuchlanish relega, rostlanadigan kuchlanish keltiriladi. Agar u o'rnatilgan kuchlanishga teng bo'lsa, unda uch pozitsiyali rele (EN - 146) neytral xolatga turadi va o'zini 1-9 kontaktini uzadi. Kuchlanish kamayganda rele 1-9 kontaktini ulaydi, kuchlanish oshganda 9-1 kontaktini ulaydi.

Masalan, kuchlanish kamayganda rele KV 1-9 kontaktni zanjirini ulaydi va ulangan kontaktlar orqali KVM – past kuchlanish rele, KL – oraliq relesining g'altagini ulaydi. Oraliq rele ishlab, vaqt releniishga tushiradi. Vaqt relesi belgilangan vaqtdan keyin o'z kotaktlari orqali 1KL oraliq releni ishga tushiradiva KR – kontralyor orqali ishlab turadi. Shu bilan birgalikda elektr motorni zanjiridagi 1KL kontaktlarini ulaydi va A, V, S fazalarga. Elektr motor, kontralyorni barabanini va o'zgvrtilish qurilmani, kamaytirish tomonga, ya'ni transformatorni koeffitsiyentini kamaytiradi, shu bilan iste'molchilar ulanadigan tomonida kuchlanish Osha boradi (Rasmda – soatni strelkasini teskari aylantiradi). Kontralyor KR bir to'liq aylanishida va o'zini 5-4 blok – kontaktlari 1KL ishga tushirish g'altaini tarmoqdan uzadi, shuni ta'sirida (agar kuchlanish tiklansa, 1-9 kontaktlar uzilad) motor o'chiriladi va RKS, tezlikni nazorat qiladigan releni yordamida tormozlanadi.

Tormozlanish jarayon quyidagicha bajariladi.

Elektrmotor ishga tushish vaqtida, tezlikni nazorat qiluvchi (RKS 1-9) releni kontaktlarini ulaydi, 2KL ishga tushirish g'altagini, 1KL uzilgandan keyin, 2KL ishga tushadi, shu bilan qarama – qarshi ulanish ta'sirida elektr motorni tormozlanishi ta'minlanadi.

Kuchlanish oshganda, RN releni 9-1 kontakti ulanadi. Shu bilan 2KL ishga tushirgich elektrmotorni tarmoqqa ulaydi, shu bilan birgalikda motor soat strelkasi bo'yicha aylanadi. Kontaktlarni ishonchli ulanishi uchun kuchlanish rele RN ishlab turadigan NT g'altidan foydalilanadi .

Quvvat transformatorni birinchi zanjiri bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tishida uziksiz ishlashi uchun, o'tkazgich ikkita shytokaga va «R» - tokni chegaralaydigan reaktorga ega.


Щотка bita pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tish jarayoni, quyidagicha amalga oshiriladi, ya'ni dastlab bita щоткasi o'tadi va ikki щоткани orasidagi o'ramlarini reaktorni qarshiligiga ulaydi. Shundan keyin ikkinchi щотка o'tkaziladi, agar kuchlanish shu bilan belgilangan qiymatiga yetsa, unda jarayon shu bilan to'xtatiladi. Gar kuchlanish belgilangan darajaga yetmasa unda o'zgartirish jarayoni davom etiladi.

Щотка oxirgi pog'onaga yetkanda, chegarolovchi (konechniy) uzbich (PV) boshqarish zanjirni uzadi va elektryuritma to'xtatiladi.

Kuchlanishni tebranishida boshqarish sxema ishga tushib ketmasligi uchun, vaqt relesida o'rnatilgan. Xayallash vaqtireleda 10 sekunddan birnecha minutggacha bo'ladi. Hato ishlashdan saqlash uchun, kuchlanishni cheksiz kamayib ketishidan, masalan qisqa tutashuvlarda, sxemaga blakirovka qilish uchun past kuchlanish RMN kiritilgan, qaysi kuchlanishni ko'p kamayib ketishida boshqarish zanjirini uzadi.

AKR qurilmada masofadan turib boshqarish 3K va 4K kalitlar orqali amalga oshiriladi.

Elektrmotorni boshqarishdan tashqari, qo'l bilan boshqarishda, o'zgartirgichni ishga tushirish kalitni tutkichi orqali bajariladi. Bunday xollarda xavfsizlik maqsadida elektrmotor, BK bilan kontaktlari bilan o'chiriladi.




111-Rasm. O'zgaruvchan operativ tokida yuklama ostida shaxobchalarini ulash boshqaruvining pritsipial sxemasi

a) - nazorat o'chov organi, b) - bajaruvchi organi, v) – boshqarish sxema

Bir karra ishslash vazifasini kondensator «S» bajaradi. U razryadlangandan keyin ancha vaqt ichida zaryadlanib turadi. Uzgichni ulanganidan keyin. Kondensatorni zaryadlanish vaqtı  $1r_2$  qarshilikka bog'liq bo'ladi, a AKU kurilmani ishslash vaqtı  $1KL$  relega o'rnatilgan vaqtga bog'liq bo'ladi.

**Masala-1.** Keltirilgan qishloq xo'jalik tuman elektr tarmog'iga qarashli elektr ta'minot sxemasi uchun maksimal tok himoyalarni joylashtirib chiqing va ularni parametrlarini aniqlang.



112-rasm.

Keltirilgan elektr sxemada ko'rsatilgan nuqtalardagi qisqa tutashuv toklarini aniqlab chiqishimiz kerak. Shuning uchun elekt sxemani yechim sxemaga aylantiramiz (ya'ni sxemadagi elementlarni ularni qarshiliklari bilan ifodalab chiqamiz).

Qisqa tutashuv toklarni aniqlash 2-usul bilan topiladi, ya'ni: 1) Sonli usul va 2) Nisbat usul.

I. Biz masalani birinchi (sonli) usul asosida xisoblaymiz. Shuning uchun asosiy kuchlanish  $U_{asos}=10,5$  kV sxemadagi elementlarni qarshiliklari:

a) Sistemani qarshiligi.

$$X_c = \frac{U_{acoc}^2}{S_k} = \frac{10,5^2}{350} = 0,31\Omega$$

b) 35 kV Havo liniyani qarshiligi.

$$X_2 = X_0 \cdot l \left( \frac{I_{acoc}}{I_H} \right)^2 = 0,4 \cdot 40 \left( \frac{10,5}{35} \right)^2 = 1,23\Omega$$

v) (T-1) 35/10 kV transformatorni qarshiligi.

$$X_{mp} = \frac{I_H \%}{100} \cdot \frac{I^2_{acoc}}{S_{mp}} = \frac{7,5}{100} \cdot \frac{10,5^2}{1,6} = 5,15\Omega$$

g) 10 kV Havo liniyasini qarshiligi.

$$X_4 = X_0 \cdot l = 0,4 \cdot 10 = 4\Omega$$

(T-2) 10/0,4 kV transformatorning qarshiligi.

$$X_{mp} = \frac{I_H \%}{100} \cdot \frac{I^2_{acoc}}{S_{mp}} = \frac{5,5}{100} \cdot \frac{10,5^2}{0,4} = 15,10\Omega$$

II. Qisqa tutashgan nuqtalar uchun  $\sum_I^n X_{uu}$  qarshiliklarni topamiz.

K -echim qarshiligi.

$\Sigma X$  yechim  $X_s = 0,31$  Om.

K-1  $\Sigma X$  yechim  $= X_s + X_{1xl} = 0,31 + 1,23 = 1,54$  Om.

K-2  $\Sigma X$  yechim  $= X_s + X_{1xl} + X_{t1} = 0,31 + 1,23 + 5,15 = 6,7$  Om.

K-3  $\Sigma X$  yechim  $= X_s + X_{1xl} + X_{t1} + X_{2xl} = 0,31 + 1,23 + 5,15 + 4 = 10,7$  Om.

K-4  $\Sigma X$  yechim  $= X_s + X_{1xl} + X_{t-1}Q + X_{2xl} + X_{t-2} = 0,31 + 1,23 + 5,15 + 4 + 15,1 = 25,8$  Om.

III. Sistemaga ulangan joyda qisqa tutashuv yuz berganda kuchlanish

o‘zgarmasligini inobatga olib har bir nuqta uchun qisqa tutashuv tokini quyidagi tenglama asosida  $I_{\kappa}^{(3)} = \frac{I_{\delta}}{\sqrt{3} \sum X_{e_{u.m}}}$

Qabul qilingan U asosiy = 10,5 kV uchun aniqlab chiqamiz.

$$I_{\kappa}^{(3)} = \frac{U_{acoc}}{\sqrt{3} \sum X_{e_{u.m}}} = \frac{10.5}{1,73 \cdot 0,31} = 19,6 \kappa A$$

$$I_{\kappa-1}^{(3)} = \frac{10,5}{1,73 \cdot 1,54} = 3,9 \kappa A$$

$$I_{\kappa^2}^{(3)} = \frac{10,5}{1,73 \cdot 6,7} = 0,9 \kappa A$$

$$I_{\kappa^3}^{(3)} = \frac{10,5}{1,73 \cdot 10,7} = 0,56 \kappa A$$

$$I_{\kappa^4}^{(3)} = \frac{10,5}{1,73 \cdot 25,8} = 0,235 \kappa A$$


K va K<sub>-1</sub> nuqtadagi qisqa tutashuv toklarni 37 kV va K<sub>-4</sub> tokni 0,4 kuchlanishlarga (37 va 0,4 kV-cha) keltiramiz.

$$I_{\kappa}^{(3)} = \frac{I_k}{K_c} \cdot \frac{19,6}{37/10,5} = 5,56 \kappa A$$

$$I_{\kappa-1}^{(3)} = \frac{I_{k-1}}{37/10,5} = \frac{3,9}{37/10,5} = 1,1 \kappa A$$

$$I_{\kappa-4}^{(3)} = \frac{I_{k-4}}{0,4/10,5} = \frac{0,235}{0,4/10,5} = 6,17 \kappa A$$

IV. Qisqa tutashuv toklar aniqlangan nuqtalarga maksimal tok himoyasi o‘rnatib chiqamiz. Rasmda ko‘rsatilgandek



113 –rasm.

MTX o‘rnatilgan nuqtalardagi nominal toklarni; himoyani ishlash toklarini; releni ishlash toklarini va sezgirlingini topamiz.

Himoya ishlash tokini quyidagi formula asosida aniqlaymiz.

$$I_{x.h.m} \geq \frac{K_h \cdot K_{зап}}{K_e} \cdot I_{pa\sigma.max}$$

bu yerda K<sub>n</sub>- himoyani ishonchli ishlash koeffitsiyenti 1,2

K<sub>зап</sub>- qisqa tutashgan rotorli elektr motorlarni ishga tushirish tokini inobatga oladigan koeffitsiyent – 1,2

K<sub>v</sub>- RTV releni qaytish koeffitsiyenti – 0,65

I<sub>rab.maks.</sub>- X liniya yoki transformatorni nominal yuklama bilan ishlayotgandagi toki.

$$I_{h.mp} = I_{h1.xi} = \frac{\sum S_{mp.h}}{\sqrt{3} I_h} = \frac{1600}{1,73 \cdot 35} = 26,4 A$$

$$I_{x.h.m} \geq \frac{1,2 \cdot 1,2 \cdot 26,4}{0,65} = 58,5 A$$

2) RTV-1 releni ishlash tokini  $I_{p.y.m} = \frac{I_{x.um} \cdot K_{cx}^{(3)}}{K_{m.m.}}$  (formula) formula asosida topish uchun shu nuqtaga o‘rnatiladigan o‘lchov tok transformator qabul qilamiz, ya’ni  $K_{t.t}=75/5A$

$$I_{p.km} = \frac{I_{x.um} \cdot K_{cx}^{(3)}}{K_{m.m.}} = \frac{58,5 \cdot 1}{75 / 5} = 3,9 A$$

RTV-1 releni eng yaqin ishlash toki 5A, bu ishlash toki uchun, himoyani ishlash toki

$$I = \frac{I_{x.y.m} \cdot K_{mm}}{K_{cx}} = \frac{5 \cdot 75 / 5}{1} = 75 A$$

Himoyani sezgirligini topamiz.

$$K_{cez.k}^{(2)} = \frac{I_{\kappa.muh}^{(2)}}{I_{xhm}} = \frac{\frac{\sqrt{3}}{2} \cdot 1100}{75} = 12,7 \succ 1,5$$

Himoyani sezgirligini  $K_2$  nuqtada qisqa tutashuv toki asosida tekshiramiz.

$$K_{cez.k_2}^{(2)} = \frac{0,87 \cdot 900}{75} = 10,4 \succ 1,2$$

$K_2$  nuqtadagi M.T.X. parametrlarini topamiz

$$I_{n.mp} = \frac{400}{\sqrt{3} \cdot 10,5} = \frac{400}{1,73 \cdot 10,5} = 22 A$$

$$I_{x.h.m.} = \frac{1,2 \cdot 1,2 \cdot 22}{0,65} = 48,8 A$$

Bu yerda 50/5A o‘lchov tok transformator qabul qilamiz

$$I_{p.y.m.} = \frac{48,8 \cdot 1}{50 / 5} = 4,8 A$$

RTV-1 eng yaqin ishlash toki 5A.

Himoyani haqiqiy ishlash toki.

$$I_{x.h.m.} = \frac{5 \cdot 50 / 5}{1} = 50 A$$

Himoyani sezgirligi

$$K_{cez.k} = \frac{\frac{\sqrt{3}}{2} \cdot 560}{50} = 9,7 \succ 1,5$$

Qabul qilingan maksimal tok himoyasini ishlash vaqtini 400 kVA transformatorni 10 kV tomonida o‘rnatilgan eruvchan saqlagichni nominal toki 50 A. Transformatorda yoki undan keyin qisqa tutashuv yuz berganda eruvchan saqlagichni ishlash vaqtini 0,5 sekund. Unda 10 kV havo liniyani ishlash vaqtini

$$t_2 = t_{pk} + \Delta t = 0,5 + 0,7 = 1,2 \text{ sek}$$

bu yerda:  $\Delta t$  – qo‘shimcha vaqt RTV-1 relelar uchun 0,7 sek. kam vaqt ruxsat etilmaydi.  
3-chi himoyani ishlash vaqtini

$$t_3 = t_2 + \Delta t = 1,2 + 0,7 = 1,9 \text{ sek}$$

1-chi quvvat transformatorini 35 kV tomonidagi

4-chi himoyani ishlash vaqtini.


$$t_4 = t_3 + \Delta t = 1,9 + 0,7 = 2,6 \text{ sek}$$

va 35 kV havo liniyani sistemaga ulanish joyda o‘rnatilgan 5-chi himoyani ishlash vaqtiga.

$$t_5 = t_4 + \Delta t = 2,6 + 0,5 = 3,1 \text{ sek.}$$

Bu yerda  $\Delta t = 0,5$  sekund qabul qilinish sistemadan chiqish joyida maksimal tok himoyasi RT-40 rele asosida qabul qilish uchun.

### Masala-2.



114 -rasm

Keltirilgan magistral havo liniyada A va B nuqtalarda katta tok keskich himoyani parametrlarini aniqlang.

Yechim:

- 1) Birinchi va ikkinchi liniyalardagi yuklama toklarini va havo liniyani K<sub>1</sub> dan K-9 ni nuqtalarini qarshiligini aniqlaymiz.

$$I_{h..n1} = \frac{6300}{\sqrt{3} \cdot 35} = 107,3A$$

$$I_{h..n1} = \frac{4000}{1,73 \cdot 35} = 66A$$

$$K-1 \sum X_{\kappa-1} = X_c = 0,3O\Omega$$

$$K-2 \sum X_{\kappa-2} = X_c + X_0 l_{A-1} = 0,3 + 0,4 \cdot 10 = 4,3O\Omega$$

$$K-3 \sum X_{\kappa-3} = \sum X_{\kappa-2} + X_0 l_{1-2} = 4,3 + 4 = 8,3O\Omega$$

$$K-4 \sum X_{\kappa-4} = 12,3O\Omega$$

$$K-5 \sum X_{\kappa-5} = 16,3O\Omega$$

$$K-6 \sum X_{\kappa-6} = X_{\kappa-5} + X_0 l_{5-6} = 16,3 + 0,4 \cdot 7,5 = 19,3O\Omega$$

$$K-7 \sum X_{\kappa-7} = 19,3 + 3 = 22,3O\Omega$$

$$K-8 \sum X_{\kappa-8} = 25,3O\Omega$$

$$K-9 \sum X_{\kappa-9} = 28,3O\Omega$$

- 2) K1 – K9 nuqtalar uchun qisqa tutashuv toklarni qiymatini aniqlaymiz.

$$I_k^{(3)} = \frac{H_\delta}{\sqrt{3} \cdot \sum X_{pe3}}$$

$$I_{k-1}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 0,3} = 71,3KA$$

$$I_{k-2}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 4,3} = 4,98 \kappa A$$

$$I_{k-3}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 8,3} = 2,58 \kappa A$$

$$I_{k-4}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 12,3} = 1,74 \kappa A$$

$$I_{k-5}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 16,3} = 1,31 \kappa A$$

$$I_{k-6}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 19,3} = 1,1 \kappa A$$

$$I_{k-7}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 22,3} = 0,96 \kappa A$$

$$I_{k-8}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 25,3} = 0,85 \kappa A$$

$$I_{k-9}^{(3)} = \frac{37}{\sqrt{3} \cdot 28,3} = 0,76 \kappa A$$

3) Aniqlangan qisqa tutashuv toklar asosida berilgan sxema uchun vektor diagrammalarini tuzib  
1-chi va 2-chi katta tok kesgich himoyalarni himoya qilish zonasini aniqlaymiz.

a) Himoyani ishlash toklarini

$$I_{(ktk)n.t} \geq K_n \cdot I_{k-min}^{(3)}$$

Bu yerda  $K_n$  – himoyani ishonchli koeffitsiyenti ( $RT-40=1,25$ ;  $RT-80=1,3$  ÷  $1,4$ ) va  
 $RTV+1,5$ )

$I_{k-min}^{(3)}$  – himoya qilayotgan havo liniyani oxiridagi k.t.t.

$$I_{1..n.m(km.k.x)} = K_n \cdot I_{k/min}^{(3)} = 1,5 \cdot 0,75 = 1,13 \kappa A$$

$$I_{1..n.m(km.k.x)} = 1,5 \cdot 1,31 = 1,97 \kappa A$$

b) Himoyani ishlash zonasini aniqlaymiz.

4) Himoyani sezgirligi

$$K_{ce32} = \frac{I_{k3}^{(3)} \max}{I_{c.o(hm)}} = \frac{I_{k3m1}^{(3)}}{I_{c.o(hm)}} = \frac{71,3}{1,97} = 36,1 > 2$$

$$K_{ce31} = \frac{1,31}{1,1} = 1,2 > 2$$

1-chi K.T.K.Himoya 2-chi havo liniyadagiga o‘rnatish shart emas, chunki uni sezgirligi 2-dan kam bo‘lganligi uchun. Bu liniyaga maksimal tok himoyasini o‘rnatsa u ishonchli himoya qila oladi.

### 13-bob. Rezerv elektrstansiya

#### § 1. Qishloq xo‘jaligi iste’molchilarini elektr ta’minoti ishonchligi.

Qishloq xo‘jaligini ishlab chikarishni texnologiq jarayoni elektr energiya bilan bog‘langanligi tufayli elektr ta’minotini ishonchliliga qo‘yilgan talablar yildan – yilga oshib

borayapti. Xozirgi paytda qishloq xo‘jaligidagi iste’molchilari uchta kategoriyaga bo‘linadi ya’ni:

1. Ob’ekt va jarayonlar, qaysilar uchun sutka yoki yilni bir vaqtida elektr ta’minotni uzilishi ishlab chiqariladigan maxsulotni yoki xom ashyoni to‘liq yoki qisman buzilishiga olib keladi va ishlab chiqarishni ish jarayonini jiddiy ravishda buzadi.
2. Ob’ekt va jarayonlar, qaysilar uchun elektr ta’minotni uzilishi, mexnatni unumdorligini kamayishiga yoki mashinalarni to‘xtab qolishiga olib keladi, uzoq vaqt uzilishi mavsum (fasl) qishloq xo‘jalik ishlarini o‘z vaqtida bajarilmaslikka olib keladi.
3. Ob’ekt va jarayonlar, qaysilar uchun elektr ta’minotni uzilishi uncha-muncha jiddiy oqibatga (natijaga) olib keladi.

Birinchi kategoriyalarga quyidagilar kiradi; parrandachilik fermalarida jo‘jalarni xonasini isitish va ventilyatsiya orqali qizitish qurilmalari, inkubator qurilmalar; tiplitsiyalarni qizitish va tiplitsani issiq suv orqali isitish elektromotorlar; qoramolchilik fermalarda elektr sut sog‘ish, yem va xashaklar elektromexanizmlar orqali tarqatish va suv ta’minoti.

Ikkinci kategoriya iste’molchilarga, kombayin bilan yig‘ib olingan g‘allani (quritishi, tozalash va yanchishini) elektromexanizatsiyalashi qo‘ylarni junini olish, silos tayyorlash, nasos stansiyada o‘rnatilgan elektromotorlar, pilorammadagi elektromotorlar, temirchilik ishxonalar, g‘isht va ta’mirlash zavodlar.

Uchinchi kategoriylar va maishiy xonalar, ishlab chiqarishda molxonalarda axlat tozalash, otxonalarni yem bilan ta’minlash.

Asosan qishloq xo‘jalik iste’molchilar elektr energiya bilan markazlashgan podstansiyalardan 6-10 kV liniyalar orqali ta’minlanadi. Shuning uchun birinchi kategoriya iste’molchisi bor podstansiyalarni rezerv podstansiyalarga ulash ko‘zda tutiladi havo liniyalarni qo‘shni podstansiyadan kelayotgan liniyalarga seksion ulagichlar orqali qo‘shiladi. Agar rezerv liniyalarga ulash imkoniyati bo‘lmagan xolda, shu iste’molchilarni quvvatiga ega bo‘lgan dizel elektr stansiyalar ko‘rish ko‘zda tutiladi.


## **§ 2. Rezerv elektrostansiyalarni quvvatini aniqlash va ularni joylashtirish.**

Rezerv elektrostansiyalarni kuchlanishi 400 Volt bo‘lishi kerak, bir xil xollarda 230 Volt, agar inkubatorlarda o‘ranatilgan elektromotorlar 220/127 Voltga mo‘ljallangan bo‘lsa.

Xozirgi vaqtida energetika sanoat korxonalar bir necha xil benzinda ishlatiladigan kompleks elektrostansiyalar va dizel-elektrostansiyalar ishlab chiqarilayapti. Ulami turlari va parametrlari 26-chi jadvalda keltirilgan. JES-30 va JES-60. Shu stansiyalari tanlashda asosan quvvatlarini to‘g‘ri tanlash katta axamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun har xil ob’ektlar uchun yoritish va ulanadigan elektromotorlarni quvvatlari qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish instituti (NESX) xisoblab chiqish usulini ishlab chiqqan.


Rezerv elektr stansiyalarni quvvatni shu xisoblar asosida qabul qilinadi, agar bir necha ob’ektlar bir-biriga yaqin joylashgan bo‘lsa unda ularni umumiy quvvati asosida bitta rezerv stansiya o‘rnatilsa bo‘ladi. Bunday stansiyalarga asosiy qo‘yilgan talablardan biri bu uni narxi, ya’ni kam mablag‘ sarf qilishligi.

Qabul qilingan avtomatlashtirilgan dizel-elektr stansiyalar ob’ektlarni maydonida maxsus qurilgan binolarda joylashtiriladi. Bu binolarda qizitish sitemalari ko‘zda tutilmaydi, chunki dizel-stansiya ishlaganda o‘zidan chiqqan issiqlik yetarli bo‘ladi. Chunki bunday binoni issiqligi 10° S oshmasligi kerak.



115-Rasm. Rezerv elektr stansiyani ulanish elektr sxemalari.

Keltirilgan elektr sxemada JES-30 va JES-60 rezerv birinchi darajali avtomatlashtirilgan stansiyalarni elektr sxemasi ko'rsatilgan. Boshqarish shitidan avtomatika shitiga generatorlarda ishlab chiqarilgan o'zgaruvchan tok keltiriladi. Boshqarishni osonlashtirish maqsadida avtomatik va boshqarish shitlar yonma yon o'rnatiladi, bu esa elektr stansiyani boshqarish operatsiyalarini bir joydan olib borishga imkon yaratadi.



116-Rasm. JES-30 va JES-60 stansiyani avtomatik sxemasi.

Mexanik agregatni ishga tushirish uchun tayyorlab bo'lgandan keyin, dizalni ishga tushiradi va uni kerakli darajagacha qizdiradi. Undan keyin generatorni uyg'otish chulg'amlaridagi kuchlanishni nominal darajaga ko'taradi, shundan keyin asosiy avtomatni ulab kuchlanishni avtomatik shitga va asinxron matorni markazdan qochiradigan relesiga ulaydi.

Paket ulagich bilan avtomatik sxemasiga ulanish vaqtida dizelni moylash sistemasidagi bosim minimal ruxsat bosimida bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa avtomatik sxemasiga ulanishi bilan bosim datchik o‘chirgichi, avtomatik sxemasiga ulashdan oldin, ulangan bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa markazdan qochirma rele ulanishi bilan agregat avariya xolatidagi to‘xtashga tushib qoladi, chunki shu releni normal xolatda ulangan kontaktlari ishlamaydi. «Elektr valda» yopiq xolatga keladi va kerakli komandani berib yuboradi.

Moylash sistemasidagi moyni bosimi minimal bosimdan oshganda, keyin markazdan qochirish tezlik releni kontakti ulangandan keyin, avtomatik sxema manbaga ulanadi va SA lampasi yonadi.

Elektromagnit stop-qurilmasi SU va havo zaslondagi V3 ochiladigan kontakti orqali chiqarish rele EP manbaga ulanadi va ushlanib turadi, shu bilan elektromatorni normal xolatda ishlashi ta’minlanadi. Sistemada moyni bosimini kamayishi bosim datchikini DD kontaktini ajratadi, shu tufayli ogoxlantirish rele ES1 zanjirini uzadi, uni bayroqchasi tushib himoyani ishlaganini ko‘rsatadi, kontaktlar ulanib chiqish EP releni g‘altagi manbaga (keltiradi) ulanadi.

EP esa manba zanjirini elektromagnit stol qurilma va havo zaslondasidan uzadi, ular esa kerakli purjinalar orqali matorni tsilindiriga boradigan havo va yoqilg‘i kanallarini yopadi.

Elektromator ortiqcha yuklama bilan ishlaganda, matorni sovutadigan suvni issiqligi ruxsat etilgan xaraoratdan oshganda DT datchik ishlaydi. U o‘z kontaktini ulab ogoxlantirishi ES2 releni ishga tushiradi. ES2 kontaktlarini ulab chiqish relesini ishga tushiradi va elektromator to‘xtatiladi.

Sovuq suvi kamayib ketsa DU datchik ishga tushadi va ESZ ogoxlantirish rele zanjiridagi kontaktini uzadi. ES3 uz kontaktlari orqali chiqish relesiga ta’sir qiladi va elektromator to‘xtatiladi.

Agar elektromotor aylanish chastotasi oshib ketsa DS markazga qochirish relesi ishlaydi va ES4 ogoxlantirish relesi zanjirni ulaydi xamda EP himoyani chiqish relesini ishga tushiradi. Agar u uchirilsa bu KA blok kontaktlar ulanadi, ES5 rele himoyani chiqish relesi ishlatiladi, generatorni yuklamalari uchirilganda agregatni tezligi chegaradan oshishini oldini olish maqsadida.

Himoyani chiqish relelarni kontaktlaridan tashqari, markazdan kochirish relesini DSo ochiladigan kontaktini kiritilgan. Agar aylanish chastotasi markazdan qochiradigan rele kamayib borsa yoki «Elektr valni» nosozligidan to‘xtab qolsa, himoya ishlaydi. Yuklamalar oshib ketganda va qisqa tutashuv, generatorni asosiy zanjirida yuz bersa, asosiy avtomat ishlaydi va avtomatik sxemada manba uziladi va agregat to‘xtatiladi.

Stansiyadan foydalanish vaqtida avtomatik xolatda kuchlanishni belgilangan miqdorda ishlab turish uchun kompaundlash qurilmadan foydalaniladi.

#### **14-bob. Elektr tarmoqlarni loyixalash asoslari**

Umumiylar. Elektr ta’mintoni loyixalashtirish majmua (kompleks) masala, buni yechish uchun yagona texnikaviy siyosat olib borish kerak, bu siyosat bir konkret zonadagi xalq xo‘jaligini rivojlantirishdan kelib chiqadi.

Shuning uchun loyixalashtirish vaqtida, xamma direktiv ko‘rsatmalar bajarishi shart, ya’ni: elektr uskunalarni qurilma qoidalari (PUE), texnikani foydalanish qoidalari (PTE), texnik xavfsizligi qoidalari (PTB) va boshqalar.

Loyixalarni ishlarini yengillashtirish maqsadida «Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish» loyixa instituti tomonidan, dizel elektr stansiyalar va qishloq xo‘jaliklariga tegishli elektr motorlar va podstansiyalarini loyixalash texnologik normalari (NTPS) ishlab chiqilgan. Bu norma loyixalashda yagona yo‘l o‘rnatadi va texnikaviy loyixa tuzishda bir xillagini ta’minlaydi.

### § 1. Elektr ta’milot sxemalarni aniqlashdagi dastlabki xabarlar

Har bir ob’ekti elektr ta’miloti loyixalash asosiy buyurtmachi bergen buyurtma xisoblanadi.

Agar buyurtmachi xisobida jamoa xo‘jaligi yoki agrosanoat korporatsiya bo‘lsa, ular loyixalash uchun umumiylashtirish dastlabki ma’lumotlar beradi, shu ma’lumotlar asosida loyixalash institutlar konkret xo‘jalikda energoiktisodiy tekshirishlar asosida qolgan kerakli ma’lumotlarni to‘plab oladi, ya’ni: shu xo‘jalikdagi iste’molchilarni kerakli elektr quvvatini aniqlaydi, iste’molchilarni kategoriyasiga qarab elektr ta’milotga qo‘yilgan talablarni aniqlaydi, xo‘jalikni joylashgan, quvvatini aniqlaydi. Qaysi podstansiyaga (bog‘lanishi) ulanishini, axoli punktini 1:5000 mashtabni kartaga asosiy va topografik planini tushiradi, xo‘jalik tomorqaliklarini kamida 1:2000 mashtabdagi kartaga belgilab chiqadi.

Topografik planda axolini tomorqalini alohida belgilanadi, ma’muriy binolar alohida belgilanadi, mакtab binolari alohida belgilanadi. Shundan keyin energota’minlovchi korxonadan har bir ko‘rsatilgan binolar uchun xozirgi vaqtida iste’mol qilinayotgan energiyani quvvatini aniqlab olinadi va 5 yoki 10 yildan keyin qancha oshish mumkinligini aniqlab oladi va bu olingan ma’lumotlarini shu korxonani muxri bilan muxirlanib oladi.

Shundan keyin nechta TP o‘rnatalishi va ularni joylashtirish joyi aniqlanadi va qaysi punktda joylashgan podstansiyalarga yoki liniyaga ulanish joyini aniqlaydi va (RES) rayon elektr tarmoqlar korxonasi bilan kelishiladi va muxirlanadi.

Shundan keyin shu ma’lumotlar asosida trassani aniqlaydi, haqiqiy quvvatlarni kelajak 5 yoki 10 yil asosida aniqlanadi va ulanadigan liniyadagi isroflar aniqlanadi, sifatli energota’milotga ega buladimi yoki yukmi qurib chikiladi. Agar liniyada kuchlanishni isrofi belgilangan miqdordan oshib ketsa, unda alohida 35/10 yoki 110/10 kV-li podstansiya qurilishi tavsiya etiladi. Buninig uchun axoli yashaydigan punktni yoki qishloq xo‘jalik tumanini elektr ta’milot prinsipial sxemasini asoslanib chiqish kerak: podstansiyani joylashish joyini ularni sonini aniqlash, shu podstansiyaga ulanadigan iste’molchilarni joylashgan iste’molchilarni joylashgan raudisini, quriladigan elektr tarmoqlarini aniqlash. Bu masalalar o‘zidan o‘zi qabul qilinmaydi, buni bari texnik-iqtisodiy dalillar bilan asoslanadi.

Axoli yashash punktlarni yoki tumani elektr ta’miloti uchun sarf qilinadigan eng kam mablag‘ optimal qabul qilingan transformator podstansiyalarini soniga bog‘liq. Elektr ta’milot uchun umumiylashtirish dastlabki xisoblanan sarflar.

$$3=A+V+S+D+Ye \quad (261)$$

bu yerda : axoli yashaydigan punkt uchun :

A-axoli yashaydigan punktdagi yuqori kuchlanish liniyaga sarf qilingan mablag‘, yillik ajratmalar.

V-10,0,38 kV podstansiya qurishga sarf qilinadigan mablag‘dan yillik ajratma.

S- 10/0,38 kV transformatororda isrofga yo‘l qo‘yilgan energiyani narxi.

D- 0,38/0,22 kV liniya qurishga sarf qilingan mablag‘dan yillik ajratma.

Ye- 0,38/0,22 kV liniyada yil davomida isrof qilingan energiyani narxi.

### Qishloq xo‘jalik tumani uchun

A-tumandagi 35/10 kV podstansiyani energiya bilan ta’minlaydigan 35 kV liniyasiga sarf qilingan mablag‘dan, yillik ajratmasi.

V- Podstansiyani narxidan yillik ajratma.

S- 35/10 kV podstansiyadagi transformatororda yil davomida isrof qilingan energiyani narxi.

D- 10 kV liniyadan narxidan, yiliga ajratma.

Ye- 10 kV liniyada yil davomida isrof qilingan energiyani narxi.

Shu tenglamadagi birinchi 3-ta ajratmalar 10/0,38 kV yoki 35/10 va 110/10 kV podstansiyalarini soniga to‘g‘ri proporsional. Oxirgi ikkita ajratma podstansiyalarni soniga teskari proporsional. Bundan kelib chiqqan xolda tenglamamizni quyidagiday yozishimiz mumkin.

$$3=M-n + N(1/n) \quad (261)$$

bu yerda  $M=A + V+S$  ;  $N=D + Ye$

Podstansiyani optimal soni ( $P_{opt}$ ) , podstansiyalarini sonining uzgarishida eng kam sarf qilingan mablag‘dan kelib chiqadi.

$$\frac{d3}{dn} = M \frac{N}{n^2} = o \quad (262)$$

Xamonni  $d^23/dn^2 > 0$  bulgani uchun :

$$No_{PT} = \sqrt{N/M} \quad (263)$$

$N$  va  $M$  – koeffitsiyentlar har bir axoli yashash punktlar va tumanlar uchun aniqlanadi.

## § 2. Qishloq va suv xo‘jaligi elektr ta’minotini texnik – iqtisodiy ko‘rsatmalari

Qishloq xo‘jaligini elektr ta’minotini o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: iste‘molchilarни katta maydonda joylashganligini, taqsimlaydigan yuklaijalarni kamligi va ularni liniya bo‘yi bo‘yyucha kam ulanish bir kvadrat kilometr maydonga keltirilgan energiyani quvvatini kamligi va boshqalari. Shuninig uchun sanoat yoki shaxarlar elektr ta’minotga sarf qilingan mablag‘larga qaraganda qishloq xo‘jaligini elektr ta’minoti uchun sarf qilingan mablag‘lar ko‘proq bo‘ladi va uzatilgan energiyani narxi xam ortiqcha bo‘ladi.

Texnik - iqtisodiy xisobini maqsadi xam shundan iborat bo‘ladi, bir nechta variantlarni ichidan eng texnikaviy jixozlangan xamda eng kam mablag‘ sarf qilinadigan variantini tanlash.

Solishtirilayotgan variantlarni baholash asosan ikkita iqtisodiy ko‘rsatmalar asosida olib boriladi : elektrota’mot sistemalarni qurishiga sarf qilingan mablag‘ orqali va yillik ekspluatatsion xarajatlar orqali.

Dastlabki sarf qilingan xarajatlar «K» aniqlash uchun spetsifikatsiya tuzib chiqiladi.

Bu spetsifikatsiyada qurilayotgan elektr tarmoqni uzilishidan kelib chiqqan xolda nechta tayanch stolbalar kerak bo‘ladi, shu stolbalarga nechta izolyator, zajimlar, qancha sim kerakligini aniqlab chiqiladi.

Senniklar orqali har birini narxlarni aniqlanadi va montaj narxlarini qo‘yib chiqiladi. Shularni yig‘indisi elektr tarmoqni qurish uchun dastlabki sarf qilingan mablag‘ni (K<sub>I</sub>) beradi.

Qishloq xo‘jalik elektr ta’minot sistemasi uchun dastlabki qurilish uchun sarf qilingan mablag‘.

$$K = \sum K_I + \sum K_{p/st} + K_a + K_D \quad (264)$$

bu yerda  $\sum K_I$  – elektr tarmoqlarni qurish uchun sarf qilingan mablag‘larni yigindisi.

$\sum K_{p/st}$  – qurilayotkan podstansiyalarga sarf qilingan mablag‘larni yig‘indisi.

$K_a$  – Energosistemaga ulanayottgan joydagи 35 – 110 kV ochiq yacheykani qurilish narxi.

$K_d$  – Energosistemadagi elektr stansiyalarni quvvatini oshishiga va qishloq xo‘jalik elektr tarmoqlardagi elektr energiyani isrofi bilan bog‘langan qo‘shimcha sarf qilinadigan mablag‘.

Qishloq xo‘jaligi iste’molchilarni maksimal quvvatdan foydalanish vaqt, energosistemi maksimal quvvatdan foydalanish vaqtiga to‘g‘ri kelib qolgan xolda  $K_D$  inobatga olinadi. Ularni aniqlashda xisoblangan quvvatlardan tashqari, energosistemadagi har bir qismlarida kelib chiqadigan quvvatlarni isrofini inobatga olish kerak. Bu isroflar quyidagi formula asosda topiladi.

$$\Delta P = \Sigma \Delta P_a + \Sigma \Delta P_{\pi/CT} \quad (265)$$

bu yerda  $\Delta R_1$  – elektr tarmoqda isrof qilingan quvvat, kVt,

$\Delta R_{1/st}$  – podstansiyada o‘rnatilgan transformatordagli isrof qilingan quvvat kVt.

Elektr tarmoqlarda isrof qilingan quvvat quyidagi formula asosida topiladi.

$$\Delta P_{\pi} = 31^2_{\max} * r\tau * 10^{-3} \quad (266)$$

Transformatordagli quvvatni isrofi

$$\Delta P_{\pi/cm} = \Delta P_{\kappa} (S_{\max} S_{\pi})^2 \tau + \Delta P_{xx} * 8760 \quad (267)$$

Qo‘shimcha sarflar  $K_D$  quyidagiday topiladi

$$K_{\pi} = a(\Sigma \Delta P_a + \Sigma \Delta P_{\pi/CT} + P_{pacq}) \quad (268)$$

bu yerda  $R_{rasch}$  – iste’molchilarni maksimal quvvati, sistemani maksimal quvvatiga bir vaqtida qo‘shiladigan.

$\alpha$  – raqamli koeffitsiyent, bu koeffitsiyent har bir davlatda har xil bo‘ladi, ya’ni elektr stansiyalarni qurilishiga sarf qilingan mablag‘dan kelib chiqadi, bu koeffitsiyentni energetika vazirligi belgilaydi.

Yillik ekspluatatsion sarflar, quyidagilardan kelib chiqadi :a) Elektr tarmoqlarda va transformatorlarda isrof qilingan energiyani narxidan ;

B) Elektr uskunalarini amortizatsiya uchun ajratilgan yillik mablag‘lar :

V) Kundalik ta’mirlash va ishchilarni maoshiga ajratiladigan yillik mablag‘lar.

Shularni inobatga olgan xolda ekspluatatsion sarflar

$$C_{\pi} = C_{a_{\pi}} + C_{mp_{\pi}} + C_3 + C_{44} \quad (269)$$

bu yerda  $K_{p1}$  – elektr tarmoqqa sarf qilingan mablag‘.

$R_{ai}$  va  $R_{tri}$  – Shu liniyani amortizatsiyasiga va kundalik ta’mirlashiga ajratiladigan mablag‘ % xisobida.

$K_{p/sti}$  – Podstansiyani qurish uchun sarflangan mablag‘.

$R'_{ai}$  va  $R'_{tri}$  – Podstansiyani amortizatsiyaga va kundalik ta’mirlashiga ajratilgan mablag‘ % xisobida.

$K_2$  – davlat energosistemasiga 35-110 kV liniyalarni ulanadigan joyda o‘matiladigan ochiq yacheykani qurilishiga sarf qilingan mablag‘.

$R''_{ai}$  va  $R''_{tri}$  yacheykani amortizatsiya va kundalik ta’mirlash uchun ajratiladigan mablag‘ % xisobida.

$\beta$  - shu energosistemadagi 1 kVt soat elektr energiyani narxi.

$\Sigma \Delta A_n$  - elektr tarmoqlardagi elektr energiyani yig'indi isrofi,

$$\Sigma \Delta A_n = \Sigma (3I_{\max}^2 * r\tau * 10^{-3}) \quad (270)$$

bu formula  $I_{\max}$  – liniyadagi maksimal tok,

$r$  – liniyani aktiv qarshiligi.

$\tau$  – isrofga yo'l qo'yiladigan vaqt, bu vaqt grafikdan olinadi.

$\Sigma \Delta A_{n/cm}$  -- transformatorlarda isrof qilingan energiyani yig'indisi, ya'ni

$$\Sigma \Delta A_{n/cm} = \Sigma [\Delta P_k (S_{\max}/S_n)^2 \tau + \Delta P_{xx} * 8760] \quad (271)$$

$\Delta P_k - \epsilon a - \Delta P_{xx}$  - transformatorni qisqa tutashuv va salt xolatda ishslash vaqtidagi nominal isroflarini quvvatlari bular katalogdan olinadi.

$A_{sn}$  – podstansiyani uz ixtiyozi uchun sarf qilingan energiyani quvvati.

$SZ$  – podstansiyani foydalanishda katnashadigan ishchilarni moyishiga sarf qilinadigan mablag‘.

Bu sarf qilingan mablag‘ minimal oyilikni shartli ishchilar soniga kupatmasidan kelib chiqadi.

$$S_Z = n.z \quad (272)$$

$N$  - har bir liniya va podstansiyaga ularni kuchlanishi va transformatorlarni sonidan kelib chiqqan xolda katalogdan olinadi.

Shundan keyin umumiy sarf qilingan mablag‘ topiladi.

$$C = \frac{a_k + a_{mp,n} + C_3}{100} \bullet K_n + \frac{a_k + a + a_{m,p} + a_3}{100} \bullet K_{n/CT} + \Delta S \bullet \beta \quad (273)$$

bu yerda  $(1/T_n) = R$  – mablag‘dan samarali foydalanish koeffitsiyenti.

$T_n$  – Davlat tomonidan o'rnatilgan normativ yil. (Sarf qilingan mablag‘ni qoplash yili O'zbekiston uchun 6 yil qabul qilingan).

$Z_i$  – Umumiy sarflar (konkret bir variant uchun) dastlabki sarf qilingan  $K_i$  mablag‘ va yillik foydalanish sarflar  $S_i$  kelib chiqadi.

$$3 = \beta \cdot K + C \quad (274)$$

Umumiy sarflari yil davomida iste'molchilarga uzatilgan energiya bo'linmasidan 1 kVt soat energiyani narxi kelib chiqadi, ya'ni :

$$\delta = \frac{3_i}{A_n} (cym / \kappa Bm - coam) \quad (275)$$

## GLOSSARY

**Energetik tizim** — bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elektr stansiyalar, elektr va issiqlik tarmoqlari majmuining elektr energiyasini uzlusiz ishlab chiqarish, o‘zgartirish va taqsimlash jarayonlarini umumiy rejimda birlashganligi va shu rejimning umumiy holda boshqarilishiga aytiladi.

**Elektr energetik tizim** - energetik tizimning elektr qismiga va undan ta’minlanuvchi, elektroenergiyani ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste’mol qilish umumiy jarayonlari bilan bog‘langan elektroenergiya qabul qiluvchilarga aytiladi.

**Elektr ta’minoti tizimi** - iste’molchilami elektroenergiyasi bilan ta’minlab berish uchun mo‘ljallangan elektr qurilmalar majmuiga aytiladi.

**Elektr tarmog‘i** - ma’lum bir hududda ishlovchi podstansiyalar, taqsimlovchi qurilmalar, havo va kabel elektr uzatuv liniyalaridan tashkil topgan, elektroenergiyani uzatish va taqsimlash uchun mo‘ljallangan elektr qurilmalar majmuiga aytiladi.

**Elektr energiya** qabul qiluvchisi deb, elektr energiyasini boshqa turdagি energiyaga aylantiruvchi apparat, agregat, mexanizmga aytiladi.

**Elektr energiya iste’molchisi** - texnologik jarayon bilan birlashgan va ma’lum bir hududda joylashgan elektr qabul qiluvchiga yoki bir guruh elektr qabul qiluvchilarga aytiladi.

**Mustaqil energiya manbai** - kuchlanish boshqa energiya manbalarida yo‘qolganida, ushbu qoidalarda avariyanadan keyingi rejim uchun belgilangan oraliqda, kuchlanish saqlanib qoluvchi energiya manbaiga aytiladi.

**Yerlash** - elektr qurilmasining qandaydir qismini zamin-;ovchi qurilma elektr ulanishga aytiladi.

**Apparatlar** — barcha turdagи kuchlanish o‘chirgichlari, bo‘lgichar, ajratkichlar, uzgichlar, qisqa tutashtirgichlar, saqlagichlar, azryadniklar, tokni chegaralovchi reaktorlar, kondensatorlar.

**Havo elektr uzatuv liniyasi** - elektr energiyasini simlar orqali -izatish uchun mo‘ljallangan, ochik havoda joylashgan va izolatorlar va armaturalar bilan

tayanchlarga yoki kronshteynlarga va muhandislik inshootlaridan stoykalarga qotirilgan moslamaga aytildi.

**Taqsimlovchi qurilma** - elektr energiyani qabul qilib, uni taqsimlash uchun xizmat qiladigan va kommutatsion apparatlardan, yig‘ma va ulanma shinalardan, yordamchi qurilmalardan, shuningdek, himoya va avtomatika qurilmalari va o‘lchov moslamalaridan tashkil topgan elektr qurilmaga aytildi.

**Komplektli taqsimlovchi qurilma** - to‘liq yoki qisman yopiq shkaflardan yoki apparatlar o‘matilgan bloklardan, himoya va avtomatika qurilmalaridan tashkil topgan taqsimlovchi qurilmaga aytildi.

**Podstansiya** - elektr energiyani o‘zgartirish va taqsimlash uchun xizmat qiladigan elektr qurilmaga aytildi va u transformatorlar hamda boshqa energiya o‘zgartirgichlardan, taqsimlovchi qurilmalardan, boshqarish qurilmalari va yordamchi moslamalardan iborat bo‘ladi.

**Elektr qurilmalari** - elektr energiyani ishlab chiqarish, o‘zgartirish, transformatsiyalash, uzatish, taqsimlash va boshqa turdag‘ energiyaga o‘zgartiruvchi mashinalar, apparatlar, liniyalar va yordamchi uskunalar (ular o‘rnatilgan inshoot va xonalar bilan birga) majmuiga aytildi.

**Energiyaning sifati** - har bir iste‘molchi sifatli energiya bilan ta’minlanishi zarur. Bu sifat kuchlanish va chastotani qiymati, uch fazali kuchlanishni simmetriyasi va kuchlanish egri chizig‘ini shakli bilan belgilanadi.

**Elektr ta’mnoti ishonchliligi bo‘yicha birinchi toifali iste‘molchi** - shunday elektr iste‘molchilar kiradiki. agarda ularning elektr ta’mnoti uzilib qolsa, insonlar hayotiga xavf tug‘ilishi, xalq xo‘jaligiga katta zarar yetkazilishi, texnika uskunalarini shikastlanishi, ommaviy ravishda yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishi, murakkab texnologiya jarayonlari ishdan chiqishi va shahar xo‘jaligining muhim elementlari buzilishi mumkin.

**Elektr ta’mnoti ishonchliligi bo‘yicha ikkinchi toifali iste‘molchi** - shunday iste‘molchilar kiradiki, ularning elektr ta’mnoti uzilishi korxonalarining mahsulotini kamayib ketishi bilan, ishlab chiqarish mexanizmlari va sanoat

transporti turib qolishi bilan va shahar aholisining katta qismini normal turmush sharoitlari buzilishi bilan bog'langan.

**Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha uchinchi toifali iste'molchi** - uncha mas'uliyatli bo'lмаган iste'molchilar kiradi: masalan, mahsuloti seriyali bo'lмаган kichik sexlar, kichik qishloqlar, kichik korxonalar va hokazo.

**Chastotaning tebranishi** - bu chastotaning o'zgarish tezligi sekunddagи 0.2Hz dan kichik boimaganda, tartio parametrlarini tez o'zgarishda asosiy chastotaning eng yuqori va eng kichik qiymatlari orasidagi farq hisoblanadi.

**Kuchlanishning og'ishi** - bu ish rejimining o'zgartirishida kuchlanishning haqiqiy qiymatini uning nominal qiymatidan farqiga aytildi.

**Kuchlanishning tebranishi** - bu ish rejimi yetarlicha tez o'zgarganda, ya'ni kuchlanish o'zgarish tezligi sekundiga 1% dan kam boimaganda, kuchlanishning ta'sir etuvchi eng katta va eng kichik qiymatlari o'rtasidagi farqqa aylanadi.

**Tashkiliy isroflar** - xizmat ko'rsatishni yaxshi lash tarmoq sxemalarini va ish rejimlarini me'yoriylash tadbirlarini ko'zda tutadi.

**Texnikaviy isroflar** - tarmoqni qayta qurish, uskunalarini almashtirish yoki qo'shimcha uskunalar o'rnatish tadbirlarini ko'zda tutadi.

**Iqtisodiy isroflar** - xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashni ko'zda tutadigan va iste'molchilar bilan hisob-kitob vaqtida energonazorat tomonidan hisobga olinadigan isroflar.

**Liniyaning zaryad toki** - liniyaga ulangan o'zgaruvchan kuchlanish ostida liniyaning sig'imlarida o'zgaruvchan elektr maydoni paydo bo'lib elektr zaryadlarini harakati yuzaga keladi, ya'ni reaktiv o'zgaruvchan tok hosil bo'ladi.

**Kabel** - germetik qobiqda joylashgan, ustiga, kerak bo'lганida, himoya qoplamasи qо'yilgan bir yoki bir necha izolatsiya qilingan tok o'tkazuvchi sim tomirlarining yig'indisiga aytildi.

**Aktiv qarshilik** - simdan oqayotgan o'zgaruvchan tokka nisbatan bo'lган qarshilikni ko'rsatadi.

**Izolatorlar** simlarni tayanchlarga mahkamlasi uchun va kuchlanish ostidagi simlar bilan tayanchlar orasida kerakli izolatsiya oralig'i hosil qilish uchun ishlataladi.

**Induktiv qarshilik** – o‘zgaruvchan tok liniyedan oqayotganida simlar atrofida hosil bo‘lgan magnit maydoni simda teskari yo‘nalgan o‘zinduksiya EYUK, ni hosil qiladi.

**Havo elektr uzatuv liniyasi (EUL)** - deb ochiq havoda joylashgan izolatorlar va armaturalar yordamida tayanchlarga yoki muhandislik inshootlari kronshteynlariga mahkamlangan similar orqali elektr energiyani uzatish qurilmalari aytildi.

**O‘tish oralig‘i** - shunday oraliqqa aytildiki, uni bo‘yicha HLSi muhandislik inshootlari (yo‘llar, kanallar, liniyalar) bilan kesishgan bo‘ladi.

**Shamol oralig‘i** - tayanchlar shamol ta’sirini o‘ziga qabul qiladigan oraliqqa aytildi.

**Og‘irlik oralig‘i** - simlar va troslar massasini tayanch o‘z ustiga oladigan uchastka uzunligiga aytildi.

**Ishdagи ishonchlilik** - elektr tarmoqlarining ishonchliligi deganida biz iste’molchilarни kerakli vaqt bo‘yicha to‘xtamasdan sifatli energiya bilan ta’minlanishini tushunamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagи Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4422-sonli qarori Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.08.2019 y., 07/19/4422/3629-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 2-dekabrdagi 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-436-sonli qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 07/22/436/1061-son.
3. A.N. Rasulov. Elektr ta’minoti asoslari o‘quv qo’llanma Dilorom Bisnes” nasiryoti. Toshkent. 2020 y. B. 182.
4. Radjabov A. Tashev I. Qishloq xo‘jaligi elektr ta’minoti - T.: TIMI, 2010 y.
5. Tashev I.D., Bayzakov T.M., Berdishev A.S.. Suv xo‘jaligida elektr ta’minot – T.: TIMI, 2008 y.(Darslik).
6. N.M. Usmono‘jaev, B.N. YOqubov, A.A.Qodirov, G.T. Sog‘atov –Elektr ta’minoti. TTESI. Toshkent. 2007. 356 s.
7. Бабиков М.А., Сергеев А.С., Комаров Н.С., Техника высоких напряжений, Госенергоиздат, 2000, 245 с.
8. Лихачев Ф.А., Восстановление напряжения на поврежденной фазе после гашения заземляющей дуги, «Электрические станции» 2000г, №8, 14-19.
9. Грибов А.П., Краветс Ю., Вынужденная составляющая коммутационных перенапряжение в дальних электропередачах и способы ее ограничения, «Энергетика» 2001 г, №11, 12 с.
10. Долгинов А.И., Частный метод расчета затухания и искажения волн, Известия ВУЗов, «Энергетика», 2001, №2, 23-24 с.

- 11.Костенко М.В., «Деформация волн в многопроводной линии вследствие сопротивления землии проводов», «Электричество», 2000 г, №6, 34-35 с.
- 12.Астанин Л.П., Благосклонов К.Н. Охрана природы, -М.: Энергия,, 2004 г, 364 с.
- 13.Баринов В.А. и др. Режим энергосистем: методы анализа и управления. М. Энергия, 2001, 90-438 с.
- 14.Будзко И.А. и Степанов В.Н. «Электрическая линии и сети селхозназначения». М. «Колос», 1997, 231 с.
- 15.Солдоткита А.А. «Электрические сети и системы» М. «Енергия», 2001, 345 с.
- 16.Еремин Л.М. Очерки об электроенергетике Японии: зарубежный опыт // энергетик. 2000. М.: 21-23 с.
- 17.Об основных положениях Энергетической стратегии России на период до 2002 г./ Энергетик – 2000. №9. 2-5 с.

## Mundarija

	<b>Mundarija</b>	
1	I – Bob. Kirish	4
	§1. O’zbekistonda elektr energiyani rivojlanishi.	4
	§2. Elektr energiyani ishlab chikarish.	5
	§3. Xo‘jalik elektr ta’minoti.	6
2	II- Bob Suv xo‘jalik elektr ta’minot vazifasi.	11
	§1. Elektr energiyani vazifalari.	11
	§2. Xo‘jalik iste’molchilarni elektr ta’minotini ishonchligi	
	§3. Suv xo‘jaligi elektr ta’minotini ishonchligini oshirish choralari.	12
		13
3	III- Bob	17
	§ 1. Sirtki elektr tarmoklarni tuzilishi.	17
	§ 2. Elektr ta’minot tarmoklardagi simlar va kabellar.	19
	§ 3. Simlarni aktiv va reaktiv karshiligi	22
4	IV- Bob Iktisodiy ko‘rsatmalar asosida elektr tarmoklarni xisobi.	25
	§ 1. Elektr energiyani uzatish tannarxi va keltirilgan sarflar.	25
	§ 2. Elektr tarmokdagi energiyani isrofi.	
	Masalalar.	25
		28
		32
5	V- Bob Simlar va kabellar asosida xisoblash.	35
	§1. Ochik simlarni kizishi asosida ruxsat etilgan yuklamalar.	
	§ 2. Izolyatsiyalangan simlarni kizishi.	35
	§ 3. Kabellarni kizishi.	37
	§5.3.1. Yerga yotkizilgan kabellarga uzoq ruhsat etilgan yuklamalari	37
	5.3.2. Simlar va kabellarni eruvchan saqlagichlar bilan ximoyalash	37
	Masalalar.	39
		42
6	VI- Bob Elektr tarmoklardagi kuchlanishni isrofini xisoblash.	48
	§ 1. Teng yuklangan uch fazali tarmoklardagi kuchlanishni isrofini aniklash.	
	1.1. O’zgarmas tok tarmoklarni xisoblash.	48
	1.2. O’zgaruvchan uch fazali tarmoklarni xisoblash.	48
	1.3. Uch fazali magistral liniyalardagi o’zgarmas kesim yuzali simlarni xisoblash.	50
	1.4. Uch fazali tarmoklarni metal xajmini kam sarf kilish usuli asosida xisoblash.	53
		54
	§ 2. Teng yuklanmagan uch fazali tarmoklarni xisoblanishi.	
	2.1. Uch burchak shaklida ulangan bir fazali yuklamalarni xisoblash.	57
	2.2. Bir fazali yuklamalarni yulduz shaklida ulanishi	57
	§ 3. Murakkab liniyalarni hisoblash.	59
	§ 4. To‘rt simli tormoqlarda teng bo‘lmagan fazalardagi aktiv yuklamalar	61
	§5. Elektr tarmoqlarda ruhsat etilgan kuchlanishni isrofini aniqlash	65
	5.1. Kuchlanishni og‘ishiga elektr qurilmalardagi elementlarini ta’sirlari	67

	5.1.1. Elektr stansiyalardagi generatorlar	68
	§6. Ruhsat etilgan kuchlanish isrofini aniqlash	68
	Masalalar.	71
		76
7	VII- Bob. Elektr tarmoqlarni hisoblash.	97
	§1. Havo tarmoqlarini mexanik yechimi	97
	§ 2. Simlardagi mexanik yuklamalarni aniklash.	97
	§ 3. Simlarni mexanik yechimi.	100
	Masalalar.	105
8	VIII- Bob. Xujalik tarmoklaridagi kuchlanishni rostlash.	107
	§ 1. Xo‘jalik elektr stansiyalaridagi generatorlarni qo‘llanilishini rostlagich	107
	§ 2. Tarmoqlardagi kuchlanish rostlagichlar	107
9	IX- Bob. Kiska tutashuv toklari va yerga ulanish. Umumiyl tushunchalar.	111
	§ 1.Hisoblash sxemalarini tuzish	112
	§ 2. Qisqa tutashuvni boshlang‘ich davri	116
	§ 3. 1kV dan yuqori kuchlanish bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida qisqa tutashuv tokini topish	119
	§ 4. Nosimmetrik qisqa tutashuv	120
	§ 5. 380 V kuchlanishli tarmoqlardagi qisqa tutashuv tokini aniqlash	123
	§ 6. Izolyatsiyali neytralli tarmoqlarda yerga tutashuv	124
	§ 7. Izolyatsiyali neytralli tarmoqlarda yerga tutashuv.	124
	Masalalar.	125
10	X- Bob Xo‘jalik podstansiyalar.	132
	§ 1. Umumiyl tushunchalar	132
	§ 2.Tuman transformator podstansiyalarini yuqori kuchlanishi taksimlash qurilmalari konstruk-tsiyalari	132
	§ 3. O’lchov transformatorlari	136
	§ 4. Taqsimlangan tizimlarni (TT) tok o‘tkazuvchi qismalari va apparatlari	140
	§ 5. Yuqori kuchlanish apparatlari	143
	§ 6. Elektr apparatlarni tanlash.	148
11	X1- Bob. Yuqori kuchlanishlar va ularidan ximoya	152
	§ 1. Yuqori kuchlanishlar va ularni klassifi-katsiyalari	152
	§ 2. Atmosferadagi (sirtki) yuqori kuchlanishlar	153
	§ 3. Muhitni ta’siridan kelib chiqqan yuqori kuchlanishdan saqlash. Elektr uskunalardagi yuqori kuchlanishlar va ularning klassifikatsiyasi.	154
	§ 4. Yashin qaytargichini ximoya maydoni	156
	§ 5. Muhitning ta’siridan kelib chiqqan yuqori kuchlanish to‘lqinlaridan ximoya	159
12	X11- Bob. Elektr tarmoq tizimlarini rele ximoyasi va avtomatikasi.	163
	§ 1. Relelarni klassifikatsiyasi	163
	§ 2. Induksion prinsipda ishlaydigan rele	164
	Relelarni ishslash prinsiplari va klasifikatsiyasi. Relelarni operativ tok manbalari.	163
	§ 3. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo‘lgan elektr tarmoqlarni	

rele ximoyasi. Ko'llaniladigan ximoyalarni prinsiplari.	166
§ 4. Tok ximoyasini asosi (organlari). Kismlari	
§ 5. O'zgaruvchan operativ tokda ishlaydigan katta tok ximoyasini o'ziga xos xususiyati.	166
§ 6. Katta tok ximoyasini sxemalari va umumiy baxolanishi.	167
§ 7. Ximoyani tuzilish sxemalari	168
§ 8. Liniyalardagi katta tok ximoyasi	168
§ 9. Katta tok ximoyasini ishlash tokini aniqlash	170
§ 10. Katta tok ximoyasini ishlash vaktini aniqlash	171
§ 11. Vaqtsiz ishlaydigan katta tok keskich ximoyasi	172
§ 12. Kuchlanish relesi bilan blokirovka qilingan maksimal tok ximoyasi	173
§ 13. Ximoya parametrlari	175
§ 14. Yo'nalgan katta tok ximoyasi	175
§ 15. IMB va RMB seriyali yo'nalgan quvvat relesi	177
§ 16. IMB-170 va RMB-170 seriyali quvvat relesini tuzilishi va ishlash prinsiplari	178
§ 17. Quvvat relesini asosiy xarakteristikalar	178
§ 18. Ortiqcha yuklamadan saqlaydigan tok ximoyasi	179
§ 19. Ximoyani sezgirligi	180
§ 20. Differensial ximoya	180
§ 21. Elektr motorlarni ximoyasi va avtomatlashtirish	181
§ 22. 1000 V dan kam kuchlanishda ishlaydigan motorlarni ximoyasi va avtomatikasi	183
§ 23. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr motorlarni ximoyasi va avtomatikasi	184
§ 24. Elektr motorlari ortiqcha yuklamadan ximoya qilish	185
§ 25. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan bir manbali elektr tarmoqlarning avtomatikasi	185
§ 26. Rezerv liniyalarni avtomatik xolatda ulash qurilmasining sxemalari	186
§ 27. Elektromagnit uzatmali uzbekchiли sxemalardagi AVR qurilmasi	188
§ 28. Avtomatik qayta ulash qurilmasiga quyilgan talablar va ularning parametrlarini topish	190
§ 29. AQU elektr sxemasi	191
Masalalar	192
	196
13   X11I- Bob Rezerv Elektrostansiya.	201
§ 1. Qishloқ xo'jaligi iste'molchilarini elektr ta'minoti ishonchligi.	201
§ 2 Rezerv elektrostansiyalarini kuvvatini aniqlash va ularni joylashtirish	201
14   XIV-bob. Elektr tarmoqlarni loyixalash asoslari	204
§ 1. Elektr ta'minot sxemalarni aniqlashdagi dastlabki xabarlar	
§ 2. Qishloq va suv xo'jaligi elektr ta'minotini texnik-iqtisodiy kursatmalari	204
	205
15   Ilovalar	208
16   Foydalanilgan adabiyotlar	219

**Berdishev Abduraxim Sulemanovich  
Turdibayev Abduvali Abdujalolovich  
Markaev Nuriddin Murodovich**

## **ENERGIYA TA’MINOT TIZIMLARI**

*(Darslik)*

**Muharrir**

**Musahih**

Bosishga ruxsat etilgan «\_\_» \_\_\_\_ 2023y. Qog‘oz formati 60x84. 1/16.  
\_\_\_\_ nusha. hajmi \_\_\_\_ b.t. Buyurtma № \_\_\_\_.  
TIQXMMI bosmaxonasida rotoprint usulida chop etildi.

---

Toshkent-100000, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39.

